

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM
FAKULTETI**

M. Saidova. G. Idiyeva

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA TARBIYA

O‘QUV QO‘LLANMA

60110500 - Boshlang‘ich ta’lim



Buxoro – 2024

Ushbu o'quv qo'llanma 60100500 - boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda tarbiya fanining boshlang'ich ta'limda joriy etilishi ilmiy asoslari, fanni o'qitilishining mazmun-mohiyati, darslikka qo'yiladigan talablar, milliy tarbiya konsepsiyasi, ta'lim to'g'risidagi qonunning mazmuni, oila, mahalla, ta'lim muassasasi hamkorligida ta'lim jarayonlarini tashkil etish shu orqali o'qitishda samaradorlikni oshirish, jahon xalqlarining tarbiya borasida oila boradigan boy ma'naviy merosi, rivojlanib borayotgan shuningdek, xalqaro baholashda yetakchi o'rinlarda turadigan mamlakatlarning ta'lim tizimi, afzalliklari, ta'limni tashkil etishda samarali usul, vosita va metodlari yoritilgan. Qolaversa, har bir mavzu bo'yicha ijodiy topshiriq, test va muammoli savol ishlab chiqilgan.

Mas'ul muharrir: - **A.R. Hamroyev**
BuxDU professori, pedagogika fanlari doktori

Taqrizchilar: **G.V.Izbullayeva**
BuxDPI Pedagogika kafedrası professori,
pedagogika fanlari doktori (DSc).
N.G. Dilova
BuxDU Boshlang'ich ta'lim nazariyasi
kafedrası professori, pedagogika fanlari doktori
(DSc).

Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi **Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi** 194- buyrug'i asosida nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH

O‘zbekistonda mustaqillik joriy etilgandan beri, ko‘plab rivojlangan mamlakatlar singari har tomonlama taraqqiy etib borayotganligi, dunyoga yuz tutayotgani, shuningdek, o‘tkazilayotgan har tomonlama oqilona siyosat amalga oshirilayotgan siyosiy, ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy va ma’naviy burilishlar, shu bilan birga, ta’lim sohasidagi tub o‘zgarishlar jamiyatimizning insonlarning ijtimoiy hayotida beqiyos taraqqiylashuvga sabab bo‘ldi. Darhaqiqat, Prezidentimiz “O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog‘chadan boshlab oliy o‘quv yurtigacha – ta’limning barcha bo‘g‘inlarini isloh qilishni boshladik. Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a’zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma’rifat, yuksak ma’naviyat kerak. Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi”- deb ta’kidlab o‘tdilar.

Respublikamizda “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi” tasdiqlandi, yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbus amaliyotga tatbiq etildi, umumiy o‘rta ta’limning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta’lim standartlari hamda fan o‘quv dasturlari ishlab chiqildi, ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishning me’yoriy asoslari yaratildi. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishida “umumiy o‘rta ta’lim sifatini tubdan oshirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kun o‘quvchisi har tomonlama yetuk barkamol, aqilli, izlanuvchan, qiziquvchan, dunyoqarashi keng yosh avlodidir. Ularni ta’lim jarayonida to‘g‘ri yo‘naltirish, qobiliyat, is’tedodlarini keng namoyon etishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan bo‘lib, ulardan samarali foydalanish,

berilgan imkoniyatlarni to'g'ri anglagan holda, bugungi yangi davrda shiddat bilan harakatlanish va vatanimizga raqobatbardosh kadrlarni tayyorlab berish bugungi kunning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bu poydevor boshlang'ich sinflarda qo'yilib, aynan bolaning kamol topishida bu jarayonning o'rnini beqiyos. Dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta'lim tizimini yaratish, darslik, o'quv qo'llanma, ilmiy nashrlarni ta'lim tizimiga mos ravishda, zamonaviy innovatsion usullarni joriy etish asosida takomillashtirish, chuqur izlanish, mukammal bilimga tayangan holda yangi avlod darsliklarini yaratish, o'quvchilarning bilimi individual imkoniyatlarini inobatga olish, o'quv dasturlarini standartlar asosida optimallashtirish, o'quvchilarning fanlar kesimida olayotgan bilimlarini savodxonlik darajasini, kompetentlik hamda ilmiy salohiyatlarini baholashning yangi zamonaviy tizimini tarkib toptirish, o'quvchilarning bilimini formativ baholash, o'rgatish va o'rganishning innovatsion usullarini izlab topish, bu orqali ta'limda sifat va samaradorlikni oshirish, o'qituvchining kasbiy faoliyatida metodik tayyorgarlikni kuchaytirish borasidagi ishlar rivojlantirildi.

Hozirgi vaqtda yurtimizda barcha sohalarda ko'plab islohotlar joriy etilib, insonlarning dunyoqarashi, turmush darajasi, ijtimoiy imkoniyatlarini kengaytirish, yetuk, har tomonlama ilmiy salohiyatli, zamonaviy texnologiyalardan xabardor, o'zining qat'iy fikriga ega bo'lgan, zamon talablariga javob bera oladigan, dunyo ilmini o'zlashtirgan mutaxassis kadrlarga talab oshmoqda. Respublikamizda sifatli ta'limni mustahkamlash, uni zamon talabi bilan uyg'unlashtirgan holda mutaxassis kadrlar tayyorlash, ta'lim tarbiya bilan uyg'unlashgan holda isloh etilishi, muhim ahamiyat taqozo etadi. Shu bilan birga dunyo miqyosida shunday o'zgarishlar sodir bo'lmoqdaki, ushbu o'zgarishlar butun boshli xalqni, millatni, elatlarni boringki, butun isoniyatning hayotini o'zgartirib yubormoqda. Ushbu o'zgarishlar jarayonida axloqiy madaniyat va axloqiy munosabatlarning o'rnini juda katta hisoblanadi. Bularning barchasiga ta'lim tizimida olib boriladigan sifatli ta'lim – tarbiya orqali erishiladi.

O'quvchilarni tarbiyalash odatda ko'p qirrali jarayonlardan biri hisoblanadi. Shu singari ta'limning eng asosiy yo'nalishlari asosan o'quvchilarning jismoniy, axloqiy rivojlanishi, intellektual shakllanishi,

shaxsiy fikrlash madaniyati, ma'naviy qadriyatlarning shakllanganligi, huquqiy vatanparvarlikni tarkib toptirish, estetik hamda mehnat tarbiyasini amalga oshirishlari, o'zlarining mustaqil hayotiy tanlovlarini shakllantirib borish oilaviy hayotga tayyorlash zaruriyatidir.

Inson, uning har tomonlama uyg'un kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish Respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir.



Boshlang'ich sinflarda “Tarbiya” fanini o‘qitishning ilmiy-huquqiy asoslari

Reja:

1. Ta’lim tizimida “Tarbiya” faning joriy etilishi
3. “Tarbiya” fani bo‘yicha darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni yaratish masalalari

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: metodik majmua, Odobnoma, Vatan tuyg‘usi, ta’lim, tarbiya, Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari hamda Dunyo dinlari tarixi, darslik, ta’lim tizimi, 4 “K” model, kolloboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik fikrlash, ijodiy qobiliyat



1. Uzlüksiz ta’lim tizimida “Tarbiya” fanining joriy etilishi

O‘quvchilarga bilim berishda ta’lim bilan tarbiyaning uyg‘unligi nimada?

O‘quvchilarga ta’lim berishda ta’lim muassasalari pedagoglarining asosiy vazifalari “Ta’lim to‘g‘risidagi qonun” mazmun mohiyatidan kelib chiqib belgilanadi. Davlat dasturining muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun esa davlat va jamoat tashkilotlarining ishonchli va mustahkam hamkorligi, ta’lim muassasalari mutaxassislari, oilalar, mahalla faollarining uzviy aloqasi amaliy natija berishi aniq. Har bir o‘quvchining botiniy ongida iqtidor, qandaydir bir istedod bor, uni shakllantirishda esa biz pedagoglardan ziyraklik va mahorat talab qilinadi. Yangi darslikning o‘ziga xos xususiyatlari nimada?

1. “Tarbiya” darsligi “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi”, “Odobnoma” “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari” hamda “Dunyo dinlari tarixi” fanlarini birlashtirdi.

2. 1–9-sinflarda – 2020/2021-o‘quv yilidan, 10–11-sinflarda esa 2021/2022-o‘quv yilidan ajratilgan soatlar asosida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etildi. Unga ko‘ra “Tarbiya” fanidan umumiy o‘rta ta’limda tahsil oladigan o‘quvchilar uchun darsliklar va o‘quv-metodik majmualarning yaratilishini nazorat qiluvchi guruh tarkibi, darsliklarning tuzuvchi guruh tarkibi, “Tarbiya” fani konsepsiyasi, shuningdek, “Tarbiya” fani bilan bog‘liq umumiy o‘rta ta’limda davlat ta’lim standarti hamda o‘quv dasturlari tasdiqlanildi.

3. Darsliklarni tayyorlashda Yaponiyaning “Axloq ta’limi”, Singapurning “Fe’l-atvor va fuqarolik ta’limi”, Buyuk Britaniyaning “Tafakkur”, “Xulq ta’limi” fanlari va darsliklari yaqindan o‘rganilgan holda darslikning o‘qitish imkoniyatlari, xususiyatlari va o‘qitishdagi imkoniyatlari kengaytirildi.

4. Ilk marotaba darsliklarda 21-asr ko‘nikmalari deb nom olgan “yumshoq ko‘nikmalar” joriy qilindi. Darslik orqali o‘quvchida bilim berishdan tashqari ko‘nikma shakllantiriladi.

5. Yangi fan darsliklaridagi amaliyotga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar va mavzular o‘quvchida muvaffaqiyat motivlarini uyg‘otadi. Faol fuqarolik pozitsiyasi shakllantiriladi.

Yangi “Tarbiya” fanini amaliyotga bosqichma-bosqich joriy etish borasida, shuningdek, yangi darslikning buyurtma asosida sinflar kesimida, yangi ko‘rinish va o‘ziga xos dizaynda yangi o‘zuv yiligacha chop etilishi va maktablarga tarqatilishi bilan bog‘liq barcha ishlar samarali tashkillashtirildi. Shunga asosan:


“Tarbiya” fani bo‘yicha darslik va o‘quv-metodik majmualar buyurtmalari 1-9-sinflar uchun 2020-yil 10-iyulga qadar, hamda 10-11-sinflar uchun 2021/2022 o‘quv yiliga 1-dekabrga qadar yetkazilishi shakllantirilgan.

1-9-sinflar uchun 2020-yil 15-iyulga qadar, hamda 10-11-sinflar uchun 2021-yil 1-mayga qadar mo‘ljallangan “Tarbiya” fani darsliklari va o‘quv-metodik majmualarini chop etish, shartnomalar tuzish, yangi o‘quv yili oldidan “Tarbiya” fanidan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni chop

etilishini tashkil etish, ularning yetkazilishi bilan bog‘liq qilinadigan barcha chora-tadbirlar belgilab olinib, amalda tatbiq etildi.

Umumta’lim maktablarida 2020-yil iyuldan yangi o‘quv yili boshlanishiga qadar “Tarbiya” fanidan tayyorlangan darsliklar va o‘quv dasturlari asosida “Milliy g‘oya va huquq”, “Boshlang‘ich ta’lim”, “Dinshunoslik” “Tarix” mutaxassisligiga ega bo‘lgan fan o‘qituvchilariga xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazlarida fan yuzasidan onlayn shaklda malaka oshirish kurslari tashkil etilishi belgilandi. Kurslar davomida fan yuzasidan darsliklar va o‘quv-metodik majmualar tayyorlangan ishlarni tajriba-sinovdan o‘tkazilishi belgilanildi.

Aslini olib qaraganda, davlatimiz rahbarining ta’lim borasida qilgan eng katta islohotlaridan biri umumta’lim maktablarida “Tarbiya” fani joriy etilishi bo‘ldi desak adashmaymiz. Real hayotdagi muammolar va virtual olamning ta’siri doirasida inson psixikasi katta sinovlar oldida turgan bir paytda hattoki ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda ham yoshlar orasida jiddiy muammolar uchrayapti. Virtual hayotdagi “olomonlashuv” holatlari real hayotga ham ko‘chmoqda. Achinarlisi, ba’zan bu “xislat”lar yosh tanlamayapti. Tarbiya fanini o‘qitish quydagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi.



Tarbiya —Tarbiya insonning jamiyatda shaxs sifatida ta’minlaydigan qadimiy, abadiy va o‘ziga xos qadriyatdir. Kishilik jamiyati, insonlar ham tarbiyasiz alohida mavjud bo‘lolmaydi. Chunki qadriyatlar inson va jamiyatning mavjud ekanligi, tarbiya tufayligina avloddan avlodga o‘tadi.

Tarbiya — ta’limning bir bo‘g‘ini sifatida kasb, hunar, odob-axloq o‘rgatishga qaratilgan bo‘lib, umuman kishining ma’naviy va g‘oyaviy qiyofasini shakllantiradi. Shunday ta’lim sistemasi natijasida singdirilgan xislat, fazilat, odob-axloq (“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”). Shu o‘rinda Abdulla Avloniyning tarbiya borasidagi qiymati o‘lchanmas fikrini isbot o‘rnida keltirish o‘rinli bo‘ladi:

• “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir”

Abdulla avloniy

Ma’lumki, ta’lim va tarbiyaning o‘rtasida ochiq-oydin farq bor. “Ta’lim”— arabcha so‘z, o‘zagi ilm, tarbiyaning bir qismidir. Tarbiya esa ta’limni o‘z ichiga oladi, aksincha emas. Demak, tarbiya o‘z o‘zidan ta’limga nisbatan keng qamrovlidir. Jamiyatda har taraflama komil inson shaxsiyatini barpo qilish zaruriyat, va albatta, bu tarbiya ruhiy, aqliy va jismoniy taraflarni o‘z ichiga oladi. Tarbiyaning makoni qalb bo‘lib, inson qalbiga ta’sir etuvchi manbalardan foydalangan holda tarbiyaviy ishlar yo‘lga qo‘yilmog‘i lozim. Ha aytgancha, adabiyot (odob) o‘qitishning bosh maqsadi ham komil shaxsni shakllantirish! Hadislar, adiblar, shuningdek, ularning ijod namunalari adabiyot darslarida, asar qahramonlarining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida o‘quvchilar aqliy va ruhiy faoliyat bilan shug‘ullanadi. Asar qahramonlari ruhiyatiga kirish jarayonida o‘quvchilar albatta o‘zlariga xos tuyg‘ularni his qilishadi. Birgina A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asarida Kumushning o‘lim to‘shagida yotgan holatda bo‘lsa-da, Yusufbek hojiga hurmat ko‘rsatib o‘rnidan turishga intilishining o‘zidayoq tarbiyaviy jihatlar o‘rgatilayotganini kim rad eta oladi?! Adabiyot darslari davomida o‘g‘rilik, to‘g‘rilik, qo‘rqoqlik uning oqibatida kelib chiqadigan badali, hissiyotlar ta’siri, vatanga, oilaga sadoqat, xiyonatning salbiy oqibatlari kabi insoniy hislar o‘rgatiladi. O‘quvchilar bu orqali o‘qituvchi mahorati natijasida tarbiyalanadi va bu jarayon doimiy rivojlantirilib boriladi. Adabiyot darslari mana shunday o‘quvchilarni adiblar va ular yozgan asarlari orqali katta hayotga qadam qo‘yishlarida tayyorlab boradi. Ta’lim — komil tarbiyaning bir juz’idir. U esa aqlni rivojlantiradi va sayqallashtiradi. Natijada u o‘z hayotida kerak bo‘ladigan ilm-u ma’rifatni, ashyolar to‘g‘risidagi turli ma’lumotlarni, kasbiy mahoratni yoki kasb va hunarlarga tegishli bo‘lgan fanlarni o‘rganadi. Tarbiyaga o‘xshab insonning butun jismoniy, aqliy va ruhiy olamini keng

ko‘lamda qamrab olmaydi. Shuning uchun ham ta’lim va tarbiya doimo birga bo‘lishi talab etiladi. Bu haqiqatni esa Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning quyidagi hadisi shariflari orqali ham bilib olishimiz mumkin. Abu Muso roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Olloh taolo Men orqali yuborgan hidoyat va ilmning misoli yerga yoqqan yomg‘ir kabidir. Yerning ba’zi joyi yaxshi ekan, suvni qabul qilib, ko‘plab nabotot va o‘simliklarni o‘stiribdi. Uning ba’zi joylari qattiq ekan, suvni tutib qolibdi. Bas, u bilan Olloh odamlarga manfaat beribdi. Ular undan ichibdilar, sug‘oribdilar va ekin ekibdilar. Yerning ba’zi joylari silliq ekan. Suv tutmas va ekin ham o‘stirmas ekan. Ana o‘sha xuddi Ollohning dinida faqih bo‘lgan kishiga o‘xshaydi. Olloh men ila yuborgan narsa unga manfaat beribdi. O‘zgalarga o‘rgatibdi. Boshqasi o‘sha narsaga e’tibor bermagan kishiga o‘xshaydi. Yana biri esa, men ila yuborilgan Ollohning hidoyatini qabul qilmagan odamga o‘xshaydi, “dedilar”



3. “Tarbiya” fani bo‘yicha darsliklar va o‘quv-metodik majmualarni yaratish

Yangi avlod darsligi “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” turkumiga kiradigan fanlar “Ma’naviyat asoslari”, “Vatan tuyg‘usi”, “Dunyo dinlari tarixi”, “Odobnoma”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari”, fanlari o‘rniga ularni birlashtirgan holda Tarbiya fani joriy etildi. Darslik Singapur, Xitoy Xalq Respublikasi, Germaniya, Koreya Respublikasi, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Avstraliya, Rossiya Federatsiyasi va Fransiya davlatlarining darslik yaratish borasidagi tajribalari o‘rganilib, shu fanlarning o‘quv dasturlari qiyosiy tahlil qilinib, bu darslikning yaratilishi, joriy etilish uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Bundan tashqari, darsliklarni tayyorlashda Yaponiyaning “Axloq ta’limi”, Singapurning “Fe’l-atvor va fuqarolik ta’limi”, Buyuk Britaniyaning “Tafakkur”, “Xulq ta’limi” fanlari va darsliklari o‘rganilib ulardan andoza olindi.

O‘quv fani mohiyati 50% nazariy, 50% amaliy asosga qurilgan. “Tarbiya” darsliklarida “role-model”, ya’ni “namuna keltirish” zamonaviy pedagogik metodidan unumli foydalanilgan. Unda milliy va xalqaro miqyosda

yuksak natijaga erishgan insonlar yutuqlari tahlil qilinadi. Bu yil sinov tariqasida 1-9 sinfgacha bo‘lgan darslik ustida bitta ijodiy jamoa ishladi. Bu har bir sinf darsligi o‘rtasidagi tafovut va takrorlanishlarni oldini oldi va bir butun, izchillikdagi darslik yaratilishi ta’minlandi.

Darslik yorqin, rangli, illyustratsiyalarga boy va har bir bo‘limi o‘ziga xos

fon, milliy va umuminsoniy xulq, ijtimoiy malakani ifoda etgan rasmlar bilan ta’minlangan. Har bir darslik uchun video, audio, media materiallar jamlangan disk berildi.




Yangi “Novda Edutainment” nashriyoti tomonidan chop etilgan, 2023-yil umumiy o‘rta ta’lim uchun yaratilgan tarbiya darsliklari.



Bugungi kunda darsliklarimiz yangilanib, mavzu ko‘lami, topshiriqlar tizimi, darslik formati, qahramonlari o‘zgarib bormoqda. O‘quvchining individual imkoniyatlari, xalqaro baholash tizimi dasturlarini inobatga olgan

holda, zamonaviy ta'limni talab darajasida rivojlantirish bugungi kun o'quvchisiga ham o'qituvchisiga ham birdek ma'suliyat yuklaydi. Shu bilan birga, har bir darslik aniq bir maqsadni ko'zlagan holda o'quvchida qaysidir ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan hisoblanadi.

“Tarbiya” fanini o'qitishning maqsadlari



darsliklar boyitish bu tomonlarga ega bo'lgan eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Buning uchun esa, avvalo, darslardagi o'quv materiallarini o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashga, ularni har tomonlama boyitish, o'quvchining idrok olamini kengaytirishga yo'naltirish lozim. Bu samaradorlikni ravnaq toptirish, ta'limni isloh qilish tizimga yangi innovatsion uslublarni joriy etish bilan bog'liq. Ana shunday uslublardan biri “4K” modelidir. “4K” modeli kolleboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik fikrlash kabi 4 ta tushunchalarni qamrab oladi.

1. Kollaboratsiya (fransuzcha-collaboration) – umumiy manfaatga birga erishish uchun ikki yoki undan ko'proq kishining sherikchiligi demakdir. Darsliklar o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarda hamkorlik qilish, samarali fikr almashish, o'zaro qo'llab-quvvatlash, jamoa bilan ishlash, uning har bir a'zosini hurmat qilish, fikrini inobatga olish ko'nikmalarini shakllanishiga yordam beradi. Aloqa ko'nikmalarini rivojlantirishning mantiqiy davomi jamoaviy ishdur. Zamonaviy dunyoda bu mahorat ayniqsa talabga ega, chunki deyarli har qanday kasb u yoki bu darajada jamoaviy ishlarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun bola turli odamlar bilan muloqot qilishni, munozarali masalalarga yechim topishni va jamoada uyg'un muloqot qilish mahoratini o'rganishi kerak Shaxsning kollaborativ o'quv muhitiga kirishi o'quvchining insoniy munosabatlarga kirisha olish xususiyatini rivojlantirishga, amaliy, ilmiy va nazariy faoliyat ko'nikmalarini o'zlashtirishga, muayyan ijtimoiy normalar va funksiyalarni shakllantirishga faol jalb qilishni o'z ichiga oladi. O'quvchi

jamiyatda o'zini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni egallaydi, jamoa a'zolari bilan faol munosabatda bo'ladi, kelajakda turli xil ijtimoiy vaziyatlarda o'zini qanday tutishni, muloqot qilishni o'rganadi. Hamkorlik muhiti ijodiy salohiyatga ega bo'lib, o'quvchi shaxsiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Bunday muhitda o'quvchi o'zini jamoa faoliyat sub'ekti, ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida his qiladi, o'z ahamiyatini va shaxsiy qadriyatini tushunadi.

Qanday rivojlantirish kerak? Har qanday jamoaviy o'yinlarni o'ynash - sport, stol o'yinlari, rolly o'yinlar. Kollektiv faoliyat, shuningdek, bolalar birgalikda biror narsa qilishlari kerak: hovliga daraxt ekish, topshiriqni bajarish, sinfni tozalash yoki maxsus tadbirga tayyorgarlik ko'rish.

2. Kommunikativlik bu o'quvchilar o'z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga, o'z fikrini bemalol, dadil, o'ziga ishongan holda burro ifodalashga, jamiyatda to'g'ri so'zlash, har qanday vaziyatda muloqot imkoniyatlaridan foydalanib, chiroyli so'zlarni qo'llash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda "tarmoq" yoki "foydali aloqalar" faol rivojlanmoqda, chunki murakkab kasbiy, shaxsiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun odam ma'lum bir sohada o'z aloqalariga ega bo'lgan tanish odamlarning yordamiga murojaat qiladi. Bundan tashqari, ijtimoiy muloqot orqali insonning shaxsiy o'sishi va o'zini o'zi bilishi sodir bo'ladi, u o'zi va dunyo haqida yangi bilim va g'oyalarga ega bo'ladi va shaxsan boyitiladi. Qanday rivojlantirish kerak? Shaxsning barkamol rivojlanishi uchun bolani boshqa odamlar bilan muloqot qilishni o'rgatish kerak. Bu bolaga hayotining ko'p sohalarida yordam beradigan va rivojlanishi mumkin bo'lgan va rivojlanishi kerak bo'lgan mahoratdir. Ota-onalar bolaning o'yin maydonchalarida, bolalar bog'chasida va maktabda qanday muloqot qilishini diqqat bilan kuzatib borishlari kerak. U muzokaralar olib borishni, murosaga borishni va konstruktiv tanqidni qabul qilishni biladimi? Bolaning (yoki boshqa birovning) noto'g'ri xatti-harakatlari va bu nimaga olib kelganini muhokama qilish va uni qanday qilib boshqacha qilish mumkinligi haqida gapirish muhimdir.

Dars jarayonida shaxslararo munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish,

kasbiy-pedagogik muloqotning muvaffaqiyatli bo'lishida o'qituvchining kommunikativ madaniyati muhim o'rin egallaydi. Bola o'qituvchining dildan gapirayotganligini his qilib turishi kerak. Bo'lmasa ko'ngildagidek muloqot amalga oshmaydi. Ayrim pedagoglar bolalar bilan ularning yoshini hisobga olmasdan muloqotda bo'ladilar. O'qituvchi bola katta bo'layotganligini sezib tursa, bu uning muloqot madaniyatini shakllanayotganligidan dalolat beradi.

3. Kreativ fikrlash-o'z maqsadiga erishish yo'lida yangiliklarga qo'l urish, noodatiy qarorlar qabul qilish, ixtirochilik ko'nikmalarini o'rgatish, kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) – shaxsning yangi g'oyalarni ishlab chiqishga tayyorligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi. Kreativlik "yaratish", "yaratuvchanlik" so'zlarini ifodalab qolmasdan inson hatti-harakatidagi o'ziga xos iqtidorni namoyon etuvchi salohiyat ko'rinish hisoblanadi.


Kreativlik – narsalarga boshqalardan farqli qarash, yangi o'ziga xos yechim va g'oyalarni ishlab chiqish, keng, global, ijodiy fikrlash qobiliyatidir. Ijodkorlik insonning intellektual va ijodiy qobiliyatlari chorrahasida tug'iladi va uni rivojlantirish mumkin. Yangi sharoitda ijodiy fikrlash eng muhim "moslashuvchan" mahoratga aylanadi, chunki ijodiy odamlar tubdan yangi qimmatbaho mahsulotlarni yaratishga va zamonaviy dunyoda juda zarur bo'lgan samarali echimlarni topishga qodir.

4. Kritik fikrlash ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi. Bolaning hayot faoliyatida asosiy fikrlash va nutq qobiliyatlarini birlashtirgan holda, ma'lum bir nuqtai nazarni asoslash uchun turli xil variantlardan foydalangan holda muhokama qilish ko'nikmalari hisoblanadi. Mavjud ma'lumotlarni asoslash, sintez qilish va tahlil qilish, axborot ma'lumotlarini bir-biri bilan bog'lash, savollarni aniq shakllantirish va berish va ularga aniq javob olish qobiliyati, shuningdek, sifatli qarorlar qabul qilish qobiliyati sanaladi. Qanday rivojlantirish kerak? Bolaning tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish murakkab jarayon, ammo ota-onalar bunga

etarlicha e'tibor berishlari kerak. Qanday rivojlantirish kerak? Ijodkorlik insonning olamga noan'anaviy tarzda qaraganida o'ziga xos fikrlash tarzi bo'lib, uni bolalikdan boshlab rivojlantirish zarur. Buning uchun TRIZ darslari, assotsiatsiya o'yinlari, nostandart echimlarni izlash, shuningdek, ufqlarini kengaytirish va fanlararo aloqalarni shakllantirish foydali bo'ladi.

Yangi yaratilgan darsliklar ulardagi topshiriqlar shu model asosida yaratilgan. Xususan "Tarbiya" darsliklarida ham shu model asosida yaratilgan topshiriqlar tizimi ham darslik va mashq daftarida keltirib o'tilgan.

«4K» modeli qo'llaniladigan zamonaviy usul



Guruh bo'lib ishlash va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar

 Bilim olish uchun o'quvchiga qaysi fazilatlar yordam beradi?

Diqqat-e'tibor

Tortinchoqlik

Qiziquvchanlik

Kirishimlilik

Qo'rqqoqlik

Dangasalik

Halollik

Sabr

Mustaqillik


Asabiylik

Mehnatsevarlik

 Quyidagi fikrlar to'g'rimi? Kichik guruhlarda muhokama qiling.

- 1 Insonlar sayyoramizni asrashga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi.
- 2 Insonning tabiatga ta'siri yaxshi ham, yomon ham bo'lishi mumkin.
- 3 Salbiy ta'sir – o'rmonlarning kesib tashlanishi, havo va suvning ifloslanishi, jonli tabiatning nobud qilinishi.
- 4 Tabiat o'z resurslarini o'zi tiklab oladi.
- 5 Insonlar tabiatni muhofaza qilishga ko'proq e'tibor qaratishi kerak.
- 6 Tabiatni asrashning yagona usuli sanoatni rivojlantirishdir.

Kreativ fikrlash, vaziyatlarni tahlil qilish va emotsional intellektni rivojlantiradigan topshiriqlar



Server bilan Shuhrat avtobusga chiqdi. Qarashsa, avtobusda bo'sh joylar ko'p ekan. Ular yetti bekandan keyin tushishlari kerak edi, shuning uchun o'rindiqlarga o'tirib olishdi. Yo'l-yo'lakay avtobus odamlar bilan to'ldi.

– Ko'zingni yum. O'zimizni uxlaganga solib o'tiraylik, bo'lmasa, kattalarga joy berish kerak bo'ladi, – dedi Shuhrat.

– Bo'пти, – dedi Sarvar.

Ikkovi ko'zini chirt yumib ketaverdi. Bir mahal ko'zlarini ochib qarashsa, tushadigan bekatlaridan o'tib ketishgan ekan!

1. Nima uchun ular kerakli bekatdan o'tib ketdilar?
2. Ularning yolg'oni nimaga olib keldi?
3. Ularning o'rnida siz nima qilgan bo'lardingiz?

Mana bu vaziyatlar nima bilan tugashi mumkin?

1-vaziyat. Sinfqosh do'stingiz Said kasal bo'lib, bir hafta maktabga kelmadi.

2-vaziyat. Munisa bilan Gulbahor tortishib qoldi. Gulbahor xafa bo'lib, tinchlanib olish uchun sinfdan chiqib ketdi.

3-vaziyat. O'rtog'ingiz Ilim tanaffusda yo'lakdagi deraza oynasini sindirib qo'ydi.

O'quv-metodik majmualarga qo'llaniladigan asosiy talablar

Yangi avlod o'quv-metodik majmualarning ishlab chiqilish tamoyillari shuningdek, ularning yaratilishidagi mazmun-mohiyati va sifat jihatdan qo'yiladigan talablar:

Yangi avlod majmualari asosan o'quvchiga nazariy bilim beribgina qolmay, o'quvchilarda hayot bilan bog'langan holda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishi;

rivojlanishning asosi sifatida milliyligimizni ifodalovchi “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” nazariyasi asosida qadriyatlarimizni mazmun-mohiyatini o'quvchi yoshlarning ong-u tafakkuriga singdirilishi;

o'quvchilarni ijtimoiy hayot bilan hamnafas holda tarbiyalashni tarkib toptirilishi;

yoshlarning har tomonlama faol ijtimoiy fuqaro sifatidagi pozitsiyalarini mustahkamlash;

mas'uliyatli bo'lish, burch, intizomlilik, majburiyat, jamiyatda o'zining fuqaro sifatida huquqiy madaniyati va huquqiy ong, o'tkir dunyoqarash, e'tiqodli bo'lish, har jabhada ma'rifatlilik, bag'rikeng bo'lish kabi xususiyatlarni shakllantirib va shu asosdagi vazifalarni belgilab beradi.

O'quvchilarning jamiyatda fuqarolik rolini shakllantirgan holda, ularning har jihatdan ijtimoiylashib borishiga ko'maklashishga, samarali hamkorlikni yo'lga qo'ygan holda vaqtini unumli tashkillashtirishga, azaldan shakllanib kelgan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini uyg'otishga, o'zlarining aqliy va ijodiy qobiliyatlarini tarbiya fani ro'yobga chiqarish uchun xizmat qiladi.

Shuningdek, bugungi kunda yoshlar o'rtasida kuzatilayotgan salbiy holatlarning tub ildizlarini aniqlab, ularni sodir etilishini oldini olish, huquqbuzarlik, jinoyatchilik kabi illatlarning keskin kamayishiga yordam beradigan quyidagi ishlarning natijaviyligini ko'tarishga shart-sharoitlar yaratadi:

o'quvchilarda insonparvarlik tuyg'usi zahirida milliy g'urur, moddiy va ma'naviy merosimizni asrashni tarkib toptirish;

o'quvchilar tomonidan davlat ta'lim standartlarining bilim va hayotiy ko'nikmalarni tarkib toptirish orqali to'liq o'zlashtirilishiga erishish;

o'quvchilarda kreativ va erkin fikrlashga asoslangan ijodiylik qobiliyatlarini rivojlantirish;

ta'lim-tarbiya borasida yangi avlod o'quv-metodik majmualarni yaratib, ularni amaliyotga joriy etgan holda yoshlar o'rtasida targ'ib etish;

umumta'lim oid fanlarning o'qitilishiga tegishli metodologiyani takomillashtirish orqali ta'lim-tarbiyaning samaradorligini oshirib borish.

O'quv-metodik majmuani ishlab chiqish prinsiplari:

Mazkur fan doirasida o'quvchilarning sifatli ta'lim olishi, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, hayotda to'g'ri tashkil qilingan tarbiyani yo'lga qo'yish, zarur bilim asosida hayotiy kompetensiyalar egallash, hayotga mustaqil moslashishlarida ko'maklashish, turli favqulotda kelib chiqadigan vaziyatlarda ma'naviy, huquqiy mezonlarga amal qilgan holda qaror qabul qilish ko'nikmasini tarkib toptirishga, estetik jihatdan bejirim bezatilgan, bola yoshiga mos, qiziqarli hamda psixologik-pedagogik materiallar bilan boyitilgan o'quv-metodik majmualar quyidagi prinsiplarni talab etadi:

o‘quv-metodik majmua ta’lim tizimidagi davlatga doir siyosatning bosh prinsiplarini inobatga olib tashkillashtirilganligi;

ta’limni tashkil etishda o‘quvchilarning jismoniy, aqliy, psixofiziologik xususiyatlari, yoshi, qiziqishlari, bilimi, layoqatlarining inobatga olinganligi;

milliy iftixor, milliy g‘urur, vatanparvarlikning o‘quvchilar dunyoqarashini shakllanishiga qaratilganligi;

o‘quvchilarda umumiy o‘rta ta’limning eng muhim qirralari berilganligi, mustaqil ijobiy, tanqidiy fikrlash, tashkilotchilik, jamoada o‘zini tutish qobiliyati shuningdek, amaliy tajribalarni o‘stirishga yo‘naltirilganligi;

mavzularda ilg‘or pedagogik texnologiyalar foydalanish, mazmunning izchilligi, media-ashyolaridan foydalanilganligi bilan asoslaniladi.

Darslikka xos bo‘lgan didaktik talablar:

o‘quvchilar o‘quv materiallarida berilgan ma’lumotlarni to‘liq o‘zlashtirib olishlarini ta’minlash;

matnlar nafaqat axborot berishga yo‘naltirilgan bo‘lishi, balki fanning hayot bilan bog‘langan va tatbiq qilinadigan, mazmun-mohiyati o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi va anglashi oson bo‘lishi;

aniq, qiziqarli, ixcham barchaning foydalanishi uchun qulay va tartiblashtirilgan bo‘lishi;

aniq faktlar asosida tuzilgan, ilmiy dunyoqarash, boy tafakkurni shakllantirish, vatanparvarlik, millatlararo tinchlik-totuvlik kabi xususiyatlarini qamrab olishi, soxta bo‘lmagan materiallardan tarkib topishi;

ta’limda o‘quv fanlarning bog‘liqligiga asoslanishi, amaliyot va kundalik hayot bilan uzviy yaxlitlikni ta’minlashi, olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish iqtidori shakllantirilishiga, boshqa o‘quv fanlari bilan uzviy bog‘liqlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan bo‘lishi;

xaritalar, diagrammalar, rasm ko‘rinishida bo‘lgan illyustratsiyalar chizmalar, jadvallar, sxemalar, fotosuratlar kabi infografikalardan tashkil topgan mediamahsulotlaridan foydalanilgan va ular orqali bezatilgan bo‘lishi;

atamalar, yangi tushunchalar, ta'riflar, qoidalar, o'quvchilarning psixologik, fiziologik imkoniyat darajasiga mos bo'lib, shu kabi lug'at ko'rinishlarida ifodasini topgan bo'lishi lozim.

Darslikka qo'yiladigan ilmiy-metodik talablar:

Zamon talabidan kelib chiqqan holda, fan-texnika sohasidagi eng so'nggi yutuqlarni o'zida mujassam etgan holda bo'lishi;

o'quv fani yuzasidan tayyorlangan har bir mavzu mohiyatan yaxlit, izchilligi ta'minlangan bo'lishi;

fanga oid mavzular sodda, oddiy, hamma uchun tushunarli, o'qilishi ravon, adabiy til qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda bayon qilingan bo'lishi;

mavzular va beriladigan topshiriqlar mantiqiy ketma-ketlikka amal qilgan holatda izchillikka rioya etilgan bo'lishi;

xalqimizning milliyligi, qadriyatlari umuman olganda, o'zbek millatining mentalitetiga xos va unga zid bo'lmagan illyustrativ vositalar bilan boyitilishi;

beriladigan savol va topshiriqlar mavzuga daxldor aniq tarzda aks ettirilgan bo'lishi;

pedagogik texnologiyalardan unumli foydalangan holda o'quvchilarda fikrlash, chizma chizish, yozish, hisoblashga, tasvirlash, amaliy ishlarni bajarishga, tajribalar o'tkazishga o'rgatishda foydalanish nazarda tutilgan bo'lishi;

tushunchalarni ifodalashda ularni takrorlamasdan bir xillikka yo'l qo'ymaslik, sanalarni ketma-ketligini aniq ifodalash;

izohli lug'at, rasmlar, texnik ijodkorlik, innovatsion, mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga o'quvchilarni ijtimoiy hayotga oid matn, loyihalash hamda modellashtirish topshiriqlari bilan ifodalangan bo'lishi lozim.

Darslikka qo'yiladigan pedagogik-psixologik talablar:

O'quvchilarning keng tafakkur imkoniyatlari, eslay olish qobiliyatlari, bilim darajalari, barcha uchun umumiy bo'lgan ilmiy asoslanilgan ma'lumotlarni inobatga olgan holda, voqealarning mohiyatini anglashga

hamda amaliy qiziqishlarni rivojlanishiga, amaliy faoliyat va bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarni butunlay qondirishga yo'nalgan bo'lishi;

fan mavzularining o'quvchilarning yoshi, psixologik xususiyatlariga moslashtirilgan holda berilishi;

o'quvchilarning axborotlarni o'zlashtira olish qobiliyatlari, oldin olingan bilimlarni qay darajada o'zlashtirganliklarini inobatga olinishi kerak.

Darslikka qo'yiladigan estetik talablar:

O'quv predmeti rangli, yorqin, did bilan bezatilgan, zamonaviy, ixcham dizaynga xos holda tuzilgan bo'lishi;

tanlab olingan matnlar, illyustrativ vositalar uyg'un holda shakllantirilgan bo'lib, o'quvchilar xarakretistikasiga moslanganligi;

turli ochiq ranglar uyg'unligi har bir bob, bo'lim, mavzu doirasida tanlab olingan matnlarning turli ranglar va shakl bilan ifodalanishi, ularning mutanosibligini ta'minlanishi kerak.

Darslikka qo'yiladigan gigiyenik talablar:

Matnlar barcha turdagi illyustratsion vositalar sanitariya qoidalari, gigiyenik normalarga amal qilingan holda normativlarga moslashtirilganligi;

harflarning kattaligi, qog'ozlarning sifat darajasi (qalinligi, og'irligi, shaffofligi va oqligi) ta'lim muassasalari foydalanishlariga mo'jallangan matbaa mahsulotlarining xavfsizlik, shuningdek, texnika reglamentiga mos holda bo'lishi talab etiladi.


Shu talablar asosida har bir tarbiya darsligi mukammal o'rganilib, har bitta kitob uchun tanlab olingan rasmlar, detallar, matnlarga alohida e'tibor qaratilgan. Illustrativ jihatdan yorqinligi, shaffofligi, hamda kitoblarni tashqi, ichki tuzilishi dizayni mahorat bilan tayyorlanilgan.



Diqqat qiling!

1. Jadvalni to'ldiring.

2. Jadvalni to'ldiring. Darslikka qo'yilgan talablarni yozing.



3. Test topshiriqlarini bajaring.

Tarbiya fanining ahamiyati	1.
	2.
	3.
	4.
	5.
	6.

1. Pedagogik amaliy jarayon bo'lib, shaxsda muayyan ruhiy, jismoniy, ma'naviy, axloqiy, sifatlarni shakllanishiga qaratilgan. Insonning jamiyatda faoliyat olib borishi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarni ta'minlanishi yo'lida ko'riladigan barcha chora-tadbirlar jamlanmasi. Ta'rifga mos jumlani toping.

- A. Ta'lim
- B. Tarbiya
- C. Xarakter
- D. Jarayon

2. Tarbiya fani o'rnida qo'llanib kelingan fanlarni aniqlang.

- A. Vatan tuyg'usi, Odobnoma
- B. Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari

- C. Dunyo dinlari tarixi
- D. Hamma javoblar to'g'ri

3. Darslikni yaratishda qiyosiy jihatdan o'rganilgan va asos qilib olingan fan va darsliklarni toping.

A. Yaponiyaning "Axloq ta'limi", Singapurning "Fe'l-atvor va fuqarolik ta'limi", Buyuk Britaniyaning "Tafakkur", "Xulq ta'limi"

B. Yaponiyaning "Axloq ta'limi", Singapurning "Fe'l-atvor va fuqarolik ta'limi", Finlandiyaning "Tafakkur"

C. Singapurning "Fe'l-atvor va fuqarolik ta'limi", Buyuk Britaniyaning "Tafakkur", "Xulq ta'limi", Yaponiyaning "Taassurot"

D. Britaniyaning "Axloq ta'limi", Singapurning "Fe'l-atvor va fuqarolik ta'limi", Buyuk Yaponiyaning "Tafakkur", "Xulq ta'limi"

4. Darslikka xos xususiyatni aniqlang.

A. darsliklarda 21-asr ko'nikmalari deb nom olgan "yumshoq ko'nikmalar" joriy qilindi.

B. Yangi fan darsliklaridagi amaliyotga yo'naltirilgan mashg'ulotlar va mavzular

o'quvchida muvaffaqiyat motivlarini uyg'otadi.

C. Faollikni oshiradi.

D. A va B javoblar

5. O'quv- metodik majmuaga xos bo'lmagan xususiyatni toping.

A. rivojlanishning asosi sifatida milliyligimizni ifodalovchi "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" nazariyasi asosida qadriyatlarimizni mazmun-mohiyatini o'quvchi yoshlarning ong-u tafakkuriga singdirilishi;

B. o'quvchilarni ijtimoiy hayot bilan hamnafas holda tarbiyalashni tarkib toptirilishi;

C. yoshlarning har tomonlama faol ijtimoiy fuqaro sifatidagi pozitsiyalarini mustahkamlash;

D. Faol ijtimoiylashuv pozitsiyasining shakillanib, taraqqiy topganligi.

6. Quydagilarning qaysi biri darslikka xos didaktik talab bo'la olmaydi.

A. Matnlar nafaqat axborot berishga yo'naltirilgan bo'lishi, balki fanning hayot bilan bog'langan va tatbiq qilinadigan, mazmun-mohiyati o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi va anglashi oson bo'lishi;

B. O'quv predmeti rangli, yorqin, did bilan bezatilgan, zamonaviy, ixcham dizaynga xos holda tuzilgan bo'lishi;

C. Ta'limda o'quv fanlarning bog'liqligiga asoslanishi, amaliyot va kundalik hayot bilan uzviy yaxlitlikni ta'minlashi, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llay olish iqtidori shakllantirilishiga, boshqa o'quv fanlari bilan uzviy bog'liqlikni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lishi;

D. Xaritalar, diagrammalar, rasm ko'rinishida bo'lgan illyustratsiyalar chizmalar, jadvallar, sxemalar, fotosuratlar kabi infografikalardan tashkil topgan mediamahsulotlaridan foydalanilgan va ular orqali bezatilgan bo'lishi;

7. Darslikka xos estetik talab berilgan qatorni aniqlang.

A. Turli ochiq ranglar uyg'unligi har bir bob, bo'lim, mavzu doirasida tanlab olingan matnlarning turli ranglar va shakl bilan ifodalanishi, ularning mutanosibligini ta'minlanishi;

B. Matnlar barcha turdagi illyustratsion vositalar sanitariya qoidalari, gigiyenik normalarga amal qilingan holda normativlarga moslashtirilganligi;

C. Harflarning kattaligi, qog'ozlarning sifat darajasi (qalinligi, og'irligi, shaffofligi va oqligi) ta'lim muassasalari foydalanishlariga mo'jallangan matbaa mahsulotlarining xavfsizlik, shunigdek, texnika reglamentiga mos holda bo'lishi;

D. to'g'ri javob berilmagan.

8. Ta'lim tizimida tarbiya darsliklari qaysi qaror asosida joriy etildi?

A. 423-sonli qaror

B. 422-sonli qaror

C. 400-sonli qaror

D. 122-sonli qaror

9. Darslikka xos bo'lmagan talabni aniqlang.

- A. Ilmiy-metodik talab
- B. Didaktik talab
- C. Huquqiy talab
- D. Estetik talab

10. Arabcha soʻz boʻlib, oʻzagi ilm maʼosini anglatadigan soʻzni belgilang.

- A. Taʼlim
- B. Tarbiya
- C. Jarayon
- D. Xarakter



Mavzu yuzasidan savollar

1. Tarbiya fanining joriy etilishi haqida fikr-mulohaza yuriting?
2. Uzluksiz maʼnaviy tarbiya konsepsiyasining maqsad va vazifalarini aytib bering?
3. Yangi “Tarbiya” darsligining oʻziga xos xususiyatlari nimalardan iborat.
4. Yangi darslikning joriy etilishida qanday talablar qoʻyilgan? Yana qanday talablarning qoʻyilishi oʻrinli boʻlishi haqida fikr yuriting?



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Маънавий-маърифий ишлар самарадорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» 2019 йил 3 майдаги ПҚ-4307-сон қарори
2. «Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida «Tarbiya» fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi 422 - son qarori
3. Tarbiya: baxt va muvaffaqiyat sirlari fanidan 1-4 sinflar uchun taqvimiy –mavzui rejalar.

4. Ismoilova M. Maqsudova G va boshqalar. Boshlangich sinflarda ta'lim – tarbiya ishlari –tayyorlov yo'nalishi bo'yicha tarmoq ta'lim standarti va o'quv dasturlari. T.2005
5. N. Ismatova va b. Tarbiya 1-sinf o'quvchilari uchun darslik. Qayta ishlangan 2-nashr. – T.: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 64 b.
6. N. Ismatova va b. Tarbiya 2-sinf o'quvchilari uchun darslik. 1-nashr. – T: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. –80b.
7. D. Ro'ziyeva va boshqalar Tarbiya 3-sinf o'quvchilari uchun darslik "SANO-STANDART", 2020. – 94 b.
8. S. Shermuxamedova va b. Tarbiya 4-sinf o'quvchilari uchun darslik. "O'zbekiston" NMIU, 2020. – 94 b.
9. www.lex.uz
10. <http://www.gov.uz>– O'zbekiston Respublikasi xukumati portal



Tarbiya fanini o‘qitish metodikasining predmeti, maqsadi va uning vazifalari

Reja:

1. Tarbiya fanini o‘qitishda shakllanib kelgan ijtimoiy-tarixiy zaruriyat
2. “Tarbiya” fanining ilmiy-tadqiqot metodlari
3. Jahon xalqlari pedagogikasida tarbiya masalalari
4. Tarbiya fanini o‘qitish metodikasining predmeti, maqsadi va uning vazifalari
5. Tarbiya fanini o‘qitish jarayonining tarkibiy qismlari va ular o‘rtasidagi aloqalar
6. Tarbiya fanini o‘qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqadorligi

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: predmet, maqsad, ilmiy-tadqiqot metodlari, tarbiya nazariyasi, aloqadorlik, jahon xalqlari pedagogikasi, qobiliyat, tarbiyalanuvchi, Avesto, ezgulik, yaxshilik



1. Tarbiya fanini o‘qitishda shakllanib kelgan ijtimoiy-tarixiy zaruriyat


Tarbiya-shaxsning jamiyatda tutgan o‘rnidan kelib chiqqan holda, aqliy, jismoniy, axloqiy, ruhiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirib berishga, insonni hatti-harakatlariga qaratilgan, pedagogik faoliyatda namoyon bo‘ladigan jarayondir. Insonning jamiyatda doimiy faoliyat olib borishi yashashi, muloqot qilishi, jamoada o‘zining hatti-harakatlari bilannamoyon bo‘lishi va bu yashash davomida taraqqiy topish uchun zarur bo‘ladigan xususiyatlarni ta’minlashda qo‘llaniladigan barcha chora tadbirlar yig‘indisi tarbiyani shakllantirib, uning tarkib topishini ko‘rsatib beradi. Tarbiya azaldan

shakllanib kelgan qadriyat hisoblanib, insonning qadimdan shakllanish bosqichida insonning insoniyligini, hayvonlardan, jamiki jonzodlardan ajralib turishini ko'rsatib bergan abadiyatdir. Jamiyatning mavjudligi ham insonning alohida mavjud bo'lishi ham tarbiya jarayonida namoyon bo'ladi va kishilik jamiyati tarbiyasiz mavjud bo'la olmaydi. Chunki insoniyat va jamiyatning barqarorligini ko'rsatadigan, avloddan avlodga o'tib taraqqiylashadigan yagona qadriyat tarbiya hisoblanadi.


Qo'llanilib kelish jihatdan pedagogik adabiyotlarda bu tushunchaning ikki xil qo'llanish sohasi mavjud ya'ni keng va tor ma'nolaridir. Keng ma'noda insonning jamiyatdagi barqaror turmush tarziga bog'liq bo'lib, ijtimoiy, ma'rifiy va madaniy sohalarini qamrab olib, jamiyatda sodir bo'ladigan barcha tadbirlar, yig'inlar, kechalardagi faoliyatga qaratilgan harakatlar yig'indisini o'zida mujassam etadi. Tarbiya nafaqat ta'lim tashkilotlari, muassalarda oila boriladigan tadbirlarigina emas balki, butun insoniyatga xos bo'lgan oila, yoshlar va bolalar markazlari, maktab, san'at va madaniyat tashkilotlari butun insoniyatga xos ijtimoiy tuzumni, ularning yetakchi g'oyalari, madaniy-ijtimoiy tuzilmalarini o'z ichiga oladi. Keng ma'noda tarbiya ta'lim va ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi.

Tarbiyaning tor ma'nodagi ifodasi muayyan shaxsga qaratilgan bo'lib, jismoniy rivojlanish, keng dunyoqarash, ma'naviy-axloqiy qiyofa, estetik didni o'stirishga qaratilgan pedagogik faoliyatda mujassamlashadi. Bunday tarbiya oila, ta'lim muassasalari hamda barcha jamoat tashkilotlarida amalga oshiriladi. Yuqorida aytilganidek, ta'lim va ma'lumot olish bu tarbiya tushunchasiga kirmaydi. Shunday bo'lsada har bir tarbiya ta'lim jarayoni bilan bevosita bog'liq holda shakl topib, barqarorlashadi va shu jihatdan mavjud bo'ladi. Ta'lim bilan bog'langan tarbiya har jabhadan qaraganda shaxsning doimiy rivojlanishiga, mukammallikka erishishiga, imkoniyatlari doirasida yetuk bo'lishga, insonni inson sifatida jamiyatda yuzaga chiqishiga imkoniyat yaratadi. Chunki, ta'lim tarbiyasiz izlanmagan ma'lumotlarsiz rivojlana olmaydi. Ta'lim olish shaxsning bilimini oshirsa, shu jihat bilan bog'langan tarbiya jarayoni shaxsni yanada mukammal bo'lishiga shuningdek, ma'naviy-axloqiy sifatlarning tarkib topishini ham tezlashtiradi. Shuni inobatga olgan holda, tarbiya istalgan jamiyat va har qanday millat hayotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Kelajakni qurishda o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga befarq

mamlakat barqaror bo‘lmagan turg‘unlik, rivojlanish doirasida inqirozga yuz tutadi. Shuning uchun ham yosh avlod tarbiyasi har zamonda ham dolzarb masala sifatida e’tirof etiladi. Moddiy va ma’naviy boyliklarning qadri oshgani sayin jamiyatda insoniyatning barqarorlashuvida ham tarbiya ahamiyati o‘shib boradi. Ana sh barqarorlashuv jarayonida tarbiya o‘zining dolzarbligini aslo yo‘qotmaydi, aksincha tarbiya nazariyasi har jabhada ham takomillashishda davom etadi. Bu xususiyatlar tarbiya nazariyasining quyidagi qarashlarida namoyon bo‘ladi:



Bugungi kun ta’lim tizimi jarayonlarida “Tarbiya” fanini o‘qitish, tub asoslarini o‘rganish, zamonaviy talablar asosida fanni isloh etish eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Shuni inobatga olgan holda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bu fanni o‘rganish zarurati, o‘qitish metodikasini o‘rganish, o‘zlashtirish quyidagilar bilan asoslaniladi:



Bu fanni chuqur o'zlashtirish ilmiy va amaliy jihatdan boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiga xos umumiy talablardan biri hisoblanadi. Tarbiya fani boshqa fanlardan farqli o'laroq, gumanitar fanlar ichidan aynan ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etish, amalga oshirish, shuningdek, samaradorlikni muvofiqlashtiradi. "Milliy o'quv dasturi" umumiy o'rta ta'lim maktablarida darslik bilan birgalikda unga moslashtirilgan holatda, talablar asosida o'rganiladi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'limda tarbiya fani ham sh talablar asosida dasturga asoslanib olib boriladi. Boshlang'ich ta'limda tarbiya umumta'lim fanlari bilan aloqador fan hisoblanib, o'qitish jarayonida olib boriladi. Boshlang'ich sinflarda tarbiya darslari davomida aqliy, estetik, jismoniy rivojlanish bilan bog'liq tarbiyaviy tadbirlar, bayramlar, tantanalar o'tkazish vositasida o'quvchilarning ijtimoiy hayot bilan bog'liq tarbiya shakllantiriladi. Bu jarayon tarbiya darslarida sinf rahbar tomonidan amalga oshirilib, tashkiliy faoliyat o'quvchilar bilan birgalik tashkillashtiriladi, bunda asosiy ma'sul shaxs sinf rahbar hisoblanadi. Bularning barchasi zahirida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan fanni chuqur o'zlashtirish, olingan bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash, pedagogik faoliyat jarayonida "Tarbiya" fani asoslarini egallashni taqozo etishini ko'rsatadi. Boshlang'ich ta'limda Tarbiya fani metodik jihatdan o'quv fani yuzasidan o'zlashtirilishi

lozim bo'lgan nazariy bilim, didaktik ko'nikma, amaliy kompetensiyalarni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining keyingi faoliyat jarayonlarida kerak bo'ladigan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan eng asosiy talablardan biri hisoblanadi. Mazkur o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni hosil qilish, ularni samarador ravishda tarkib toptirish, ular vositasida talabalarni kasbiy yo'naltirish, olingan bilim nazariya bilan bog'langan holda hayotda qo'llash masalalari mana shu fan vositasida amalga oshiriladi. Bu borada qilinadigan ishlardan yana biri ushbu fan yuzasidan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'zlashtirish natijalari bo'yicha kompetensiya darajasini bilishga qaratilgan monitoring o'rnatiladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'zlashtirgan pedagogik ta'limda "Tarbiya" fani yuzasidan quyidagi malaka talablariga ega bo'lishlari taqozo etiladi:

- a) fan asoslari yuzasidan egallangan nazariy hamda kasbiy faoliyat davomida bilim egallash;
- b) fanni o'qitish metodikasiga asosan ko'nikma va malakaga ega bo'lish;
- v) fanni chuqur o'zlashtirgan holda boshlang'ich sinf o'qituvchilariga sifatli ta'lim berish va tarbiyalashda kompetensiyani shakllantirish.

O'qituvchi hozirgi talablarni hisobga olgan holda pedagogik ta'limda mazkur masalalarni ya'ni boshlang'ich sinf o'qituvchilari bilan olib boriladigan tarbiya jarayoni muhim ekanligini inobatga olishi taqozo etiladi. Shu jihatdan yuqorida ta'kidlangan Yuqoridagi qarorda ko'rsatilganidek, "Tarbiya" fanini o'qitishda quyidagi jihatlariga e'tibor qaratish lozim hisoblanadi:

fan yuzasidan berilgan davlat ta'lim standartlarida ko'rsatilgan talablar asosida bilim, ko'nikma, malaka, odob-axloq va kompetensiyalarning o'qituvchilar tomonidan to'liq o'zlashtirib olishlariga erishish;

o'qituvchilarning mustaqil va kreativ fikrlash, tanqidiy yondashish hamda ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish;

o'qituvchilarda ilmiy tafakkur va boy dunyoqarash yuritish kompetentligini oshirish;

tarbiyaning uzviyligi va uzluksizligini inobatga olgan holda, o'qitishda prinsipial va yangi o'ziga xos metodologiyani tarkib toptirish;

Bularning o'zlashtirish jarayonlariga bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari befarq bo'lmasliklari kerak bo'ladi. "Tarbiya" fani bilan

bog'liq manbalar va ularning tub asoslarini o'rganish, isloh etish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun eng muhim zaruriyatlaridan biri hisoblanadi. Bu borada o'zbek pedagogikasi tarixida tarbiyaga oid muhim yondashuvlar bayon qilingan. Mazkur o'rinda namuna sifatida ularning eng muhimlariga e'tiboringizni tortamiz.

Qadimgi manbalardan hisoblangan Zardushtiylik dinida ham muomala, muloqot masalalari atroflicha tahlil qilingan. Zardushtiylik inson kamoloti, bilimning kuchiga qattiq e'tiqod qiladi va natijada bilimli kishi yutib chiqadi deb hisoblaydi. Avestoda inson o'z mehnati tufayli barcha yomonliklardan, yovuzliklardan qutilishi mumkin, degan ulug' g'oya yotadi. Unda axloqiylikning asosi - saxovatlik deb hisoblangan, axloq - yaxshi fikr, yaxshi so'z va amaliyot birligidan iborat deyilgan. Yaxshi fikr deganda yaqin kishisiga mehribon bo'lish, muhtojlarga ko'maklashish, yovuzlikka qarshi kurashish, kishilarning baxt-saodatini muhofaza qilish, ahillik va totuvlikda yashashga i'tilish ruhidagi niyatlar va fikrlar tushunilgan. Bu fikrlarni kishi niyat qilibgina qolmay, ular to'g'risida fikr yuritishi, so'zlashishi va ularni amalga oshirishi shart, deyiladi. "Avesto" kitobida yosh avlodni Ezgu niyatli, Ezgu fikrli va Ezgu faoliyatli shaxslar sifatida voyaga yetkazish alohida ta'kidlangan. Keyinchalik bu pedagogik tamoyillar jahon xalqlari tarbiya jarayonida qabul qilingan. Misol uchun, bu tamoyillar milliy pedagogikamizdan tashqari XIX asrda Germaniya pedagogikasida asosiy tamoyillar sifatida belgilangan. Shu sababli mazkur tamoyillar hozirgi zamon tarbiya jarayonida ham amaliyotga tadbiq etilmoqda. Masalan, yangi milliy g'oyamizning ikkinchi tamoyili **Ezgulikdir**.

Tarbiya kishilik jamiyatida ijtimoiy hodisa sifatida paydo bo'lib, insonlarning taraqqit etishi bilab, tarbiya ham o'z navbatida jamiyat bilan birgalikda o'zgarib bordi. Jamiyatda xulqni boshqarish, tartibga solish, belgilash, nazorat qilish vositasida tarbiyaning tarkibiy qismlari axloqiy, faoliyat, axloqiy ong, axloqiy munosabatlar shakllanib, murakkab ko'rinishga yetdi. Bu takomillashish maqsadli amalga oshirilib, pedagogik jarayon sifatida, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi shaxsining jamiyatdagi rolini mumtazam va tizimli ravishda rivojlantirib bordi. Tarbiya jarayoni shu zaylda o'sib borayotgan avlodda bir qancha bilimlarning hosil qilinishi, aqliy

dunyoqarash, insoniy e'tiqod, ma'suliyat, burch kabi fazilatlarining jamiyatimiz kishilarining axloqiy xususiyatlarini shakllantirishda ulkan kuch sifatida xizmat qildi. Tarbiya sifatida oldingi davrlarda faqatgina tarbiyachining o'zi istagan sifatlarni tarbiyalanuvchilarga singdirishi, ularni ongiga, ruhiyatiga ta'sir ko'rsatish, ma'lum maqsad sari tizimli ravishda harakat qilish tushinilgan, shuningdek, bu jarayon bola tug'ilganidan boshlab, umrining to oxirigacha davom etadigan uzluksiz faoliyat, vaziyatlarda namoyon bo'ladigan murakkab jarayon ekanligi bevosita ta'sir natijasida namoyon bo'lgan. Tarbiya qaysidir maqsadga qaratilib, doimo aniq reja asosida ma'sul shaxs tomonidan amalga oshiriladi. Hamma davrlarda ham tarbiyachilar yoshlarning axloqi va odobi, iymoni va vijdoni, bilimi, malakasi, xatti-harakati, yo'nalishi, tarixiy tajribasi, davr talablari va ehtiyojlari, istiqlol vazifalari bilan uyg'unlashtirib shakllantirishga, rivojlantirishga harakat qilganlar. O'z oldiga inson kuchi, bilimi va irodasi bilan bajarilishi mumkin bo'lgan muayyan maqsadlarni qo'ygan davlatlar ham ta'lim-tarbiya ishlariga befarq qaramagan. O'rta Osiyo mutafakkirlarining tarbiya haqidagi fikrlari, o'gitlari shunday kuchga egaki, ular yoshlar qalbida insoniylik urug'larining unishiga, katta hayot yo'liga olib chiqishiga yordam beradi.

Birinchi Sharq Uyg'onish davrida Yevropa Uyg'onish davrining asosiy belgilari mujassam: jo'shqin ijodiy faoliyat, ulkan bunyodkorlik ishlarining amalga oshirilgani, aqlni hayratga soluvchi bemisl asarlarning yaratilgani shundan dalolat beradi. Sharq Uyg'onish davri ham ulug' allomalar, qomusiy bilim sohiblari, mashhur mutafakkirlarni yetishtirdi. Aniq fanlar sohasida Muhammad Xorazmiy, Abu Bakr ar Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al Farg'oniy, Umar Xayyom, Mirzo Ulug'bek jahonshumul kashfiyotlar qildilar. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Ibn Rushd, Muhammad G'azzoliy, Nasafiy Aziziddinlarning falsafiy asarlari tafakkur xazinasini boyitdi, olam, odam va jamiyat yaxlitlikda tadqiq etilib, yangi qonuniyatlar ochildi, aqliy bilim ufqlari kengaydi, fozil jamiyat va komil inson nazariyasi chuqur ishlab chiqdi.

Al-Xorazmiy, Al-Farobiy, Al-Beruniy, Ibn Sino, Umar Hayyom, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Mahmudho'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Qashqar Mahmud, Ahmad Yugnakiy kabi buyuk

Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlarini o'rganayotganda, buyuk olim-pedagoglar inson, shaxsiyat va shaxslararo munosabatlar, o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash va o'qitish haqida falsafiy fikr yuritib, mehnat, bilim, aql, so'z san'ati va yuqori axloqiy fazilatlariga katta ahamiyat bergan, degan xulosaga kelish mumkin. Ular insonni har tomonlama rivojlangan, mohir, bilimli ko'rishni istashgan.

”Qutadg'u bilig” asarida insoniy munosabatlarning eng oliy mezonini sanalgan hurmat va ehtiromni tarkib toptirishning barcha ko'rinishlari o'z ifodasini topgan. Yusuf Xos Xojib jamiyat taqdirini hal etuvchi eng ulug' mansabdorlardan tortib, oila a'zolarigacha bir-biriga bo'lgan muomala - munosabat masalalarini ham hayotiy misollar vositasida yoritadi. Katta yoshlilarning kichiklarga, kichiklarning ulug'larga, amaldor va mansabdorlarning o'z xizmatchilariga, xizmatchilarning o'z xo'jalariga, turli ijtimoiy guruh a'zolarining bir-birlariga, oilada oila a'zolarining bir-birlariga, ustoz va shogird o'rtasidagi muomala madaniyatining eng oddiy ko'rinishlarigacha tasvirlab, kishining ko'z oldida yaqqol namoyon yetadi. Buni biz farzand tarbiyada uning tug'ulganidan boshlab xulq-odob qoidalarini, bilim va hunarni o'rgatish, buning uchun pok va bilimli muallim-murabbiy tanlash, farzandning hatti-harakatini doimo nazoratda saqlash kabi masalalarning bayon etilishidan ham bilsak bo'ladi.

Olim ulug'lar va kichiklar o'rtasidagi xulq-odob qoidalarini haqida gapirar ekan, shu asnoda kamtarlik, salomlashish odobi talablari, qoidalarini ham tavsiya etadi.

Kaykovus o'zining — “Qobusnoma” asarida axloqlilikning birinchi belgisi, suxandonlik deb biladi. U (suxanguylik) notiqlikda rost so'zlash kerakligini ta'kidlaydi. U so'zlarni to'rt xilga bo'lgani kabi odamlarni ham to'rt xilga bo'ladi. Birinchi xil kishilar ko'p narsani biladi va yana bilgisi kelaveradi. Bular olimlar bo'lib, ularga bo'ysunish kerak, deydi. Ikkinchisi, bilmagan narsasini bilishga harakat qiladi, ular qobil kishilar bo'lib, bunday kishilarga o'rgatish kerak. Uchinchisi, bilganini ham bilmaydi, uyquda yashagandek, ularni uyg'otish kerak. To'rtinchisi, bilmaydi va bilmaganini tan olmaydi. Bular johil kishilar bo'lib, ulardan qochish kerak, deydi.

Qur'oni karimda va Hadisi shariflarda yoshlarni E'tiqodli, yaxshilik va yomonlikni farqlash ruhida tarbiyalash ta'limi berilgan. Buning natijasida VIII asrdan boshlab to hozirgi kunga qadar Pedagogika fanimizda mazkur tamoyillar tarbiyaning asoslaridan biri bo'lib kelmoqda. Chunki e'tiqodli, yaxshilik va yomonlikni farqlovchi shaxs insonparvar, xalqparvar va vatanparvar kishi sifatida faoliyat yuritadi.

XI asr mutafakkiri Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarida yoshlarni Adolatli, Qanoatli va Bilimli qilib voyaga yetkazish metodologiyasini asoslab bergan. Uning yozishicha, bunday fazilatlarga ega inson eng yetuk hisoblanadi.

Sohibqiron Amir Temur "Tuzuklar" asarida shaxsni ijtimoiy tarbiyalash masalasini talqin qilgan va bunda shaxsda murosa fazilatini shakllantirish lozimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, yetuk shaxs do'stu dushman bilan murosa qiladi. Do'stga murosa qilish tushunarli, lekin dushmanga murosa qilish qanday bo'ladi? Dushman bilan murosa qilish shaxsning aqliy va axloqiy yetukligini bildiradi.

Ibn Sino o'z asarlarida mukammal shaxsni tarbiyalash haqida o'z fikrlarini bayon etib, "... shaxsning individual imkoniyatlardan foydalanish, uning mukammallikka intilishi, hayotiy tamoyillarga: nafaqat o'zingiz uchun, balki boshqalar uchun ham yashash; o'z ishingizga ijodiy yondashish; yuqori axloqiy fazilatlarga ega bo'lish zarur. Bunda o'qituvchiga qo'yiladigan talablar: bolaning tabiatini, uning ruhini, individualligini bilish, uni inson sifatida ko'rish, imkoniyatlariga ishonish va ularni ochib berish; o'quvchi bilan munosabatlardagi mo'tadillik, noziklik va o'tkirlik; gumanizm va to'laqonli shaxsni tarbiyalashga bo'lgan ishonch bo'lib, tarbiyaning asosiy predmeti – axloqlilik hisoblanadi. Ta'lim va tarbiyada suhbat, nasihat, misol, tahlil, sintez, umumlashtirish kabi metodlar va usullardan foydalanish maqsadga muvofiq..." deb yozadi. Shu bilan birga alloma ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quvchini birdaniga darslik bilan band kilib kuymaslik; -yengildan og'irga borish; jamoa bo'lib o'qitishga e'tibor berish; -bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi, qobiliyatini hisobga olish va hokazolar haqida o'z fikrini yozib qoldirgan.

Al-Forobiy - shaxsni har tomonlama rivojlantirish va takomillashtirish; xulq-atvorning axloqiy me'yorlarini, ijobiy va olijanob xususiyatlar va fazilatlarni tarbiyalash; inson xarakterining asosiy xususiyatlarini, uning intellektual rivojlanishini belgilaydigan ma'naviy ehtiyojlarni shakllantirish. O'qituvchiga qo'yiladigan talablar: fenomenal xotira, mantiq, o'tkir kuzatuvchanlik, bilimga muhabbat, yorqin nutq, adolat va ezgulik. Pedagogik usullar: ishonitirish, isbotlash, munozara, dialektik-mantiqiy, yaqqollik va boshqalar.

Alisher Navoiy "Xamsa" asarida bir qator komil insonlar timsolini tavsiflab bergan. Misol uchun, "Farhod va Shirin" dostonida Farhodni 9 yoshida komil inson bo'lib yetishganini va buning uchun u eng yetuk Ustozlardan saboq olganligini tasvirlaydi. Shirin esa o'z davrining eng axloqiy, aqliy va estetik yetuk kishi sifatida taqdim etiladi. Ular bunday komillikka yoshligida olgan tarbiyalari tufayli yetishgan. Shuningdek, buyuk mutafakkir ta'lim-tarbiya jarayonini sifatli tashkil etishda o'qituvchiga qo'yiladigan talablar: o'quvchiga hurmat - tabiatning eng yuksak va eng qimmatli in'om (insoniylik); bolalarga bo'lgan muhabbat, o'z ishini mukammal bilish, o'z bilimlarini qo'llash qobiliyati; axloqiy va mehnat tarbiyasiga e'tibor; o'quvchilarda ijobiy fazilatlarni tarbiyalash; ma'rifatparvarlikka asoslanishi muhimligi ta'kidlangan.

Al-Beruniy esa o'zining ta'lim-tarbiyaga oid pedagogik asarlarida o'quvchilarni ilmiy omillar bilan qurollantirish; tajriba va kuzatish, takrorlash va xabar berish; o'qitishning mavjudligi (yaqindan uzoqgacha, noma'lumdan kamroq ma'lumgacha) va boshqalar haqida qarashlarini bayon etgan.

Abu Rayhon Beruniy asarlarida ta'lim-tarbiyaning muhim metodologik asoslari:

- darsda o'quvchilarni zeriktirmaslik (motivation va shaxsni rivojlantirish vaziyatlari- ni ishlab chiqish, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyati tarkibiy tuzilmasini aniqlash;)

- ta'limdagi uzviylik va izchillik (darsning ta'limiy, tarbiyaviy va shaxsni rivojlantiruvchilik vazifalarining birligi va uzviyligi);

- yangi mavzuni qiziqarli, asosan ko'rgazmali bayon etish (ta'lim metodlarini tanlash, ta'lim vositalaridan foydalanish uslubini aniqlash)

-olib borilayotgan mashqlarning bolalar yoshiga mos bo'lishi (o'quvchilarning o'zlashti rish darajasini ma'lum bosqichdan yuqoriroq bosqichga ko'tarish ketma-ketligini ta'min lash)

- har bir ta'lim jarayonini yengildan og'irga qarab murakkablashtirib borish (ta'limning texnologik vositalarlarini o'quvchining yoshiga mos qilib tanlash)

- bolaga bilim berishda majburan zo'riqishga yo'l qo'ymaslik (ped texnologiyadan majburan foydalanmaslik) dan iborat.

Alisher Navoiy bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga alohida e'tibor beradi. Tarbiya natijasida bolaning foydali va yetuk kishi bo'lib o'sishiga ishonadi. Yosh bolaning juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur. Tarbiya insonga o'zida yaxshi odat va fazilatlar xosil qilishga yordam beradi. U odam shaxsi kishilar bilan munosabatda, ayniqsa kishilarning bir - birlariga bo'lgan ruxiy ma'naviy ta'sirlari natijasida tarkib topadi deb voyaga yetkazishda asosiy omillardan biri tarbiya ekanligi o'qtiradi.

Mirzo Ulug'bekning oila muhiti sog'lom avlodni yetishtirish haqidagi fikrlari shundan iboratki, alloma uqtirishicha, bolaning bilim olishiga bo'lgan qiziqish, xavasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o'rinni egallaydi. Oilada ota-onalar ayniqsa, o'qimishli ota - onalar o'z farzandlarining haqiqiy inson bo'lib kamol topishiga alohida e'tibor berishlari lozim.



3. Jahon xalqlar pedagogikasida tarbiya masalalari

Jahon xalqlari pedagogikasida tarbiya masalalari. Jahon xalqlari pedagogikasida bir qator tarbiyaga oid tajribalar shakllantirilgan. Mazkur o'rinda ularning eng muhimlariga diqqatingizni tortamiz.

Evropa "Uyg'onish" davri yer yuziga o'nlab maorif olimlarini etishtirib berdi. Shularning eng mashhuri, pedagogika nazariyasiga salmoqli hissa qo'shgan alloma olim **Yan Amos Komenskiy** (1592—1670). 1632 yili "Buyuk didaktika" degan katta pedagogik asarni yozgan. Undan tashqari «Ona

maktabi» degan maktabgacha tarbiya qo'llanmasi va boshqa bir qancha kitoblari dunyo yuzini ko'rdi. Komenskiy o'zining pedagogik nazariyasida tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lishi to'g'risidagi tushunchani ilgari suradi. "Buyuk didaktika"da o'qitish tabiiylikka bo'ysunishi kerak deyilgan. Bolaning aqliy va jismoniy o'sish jarayoni tabiatdagi o'sish jarayoniga o'xshash bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchi bolani tarbiyalaganda, bog'bon daraxtning biologik o'sish qonuniyatini hisobga olgani kabi, undagi tabiiy bilish xususiyatini hisobga olishi shart. Komenskiy o'qishga xammaning tortilishini, hamma umumta'lim olishi kerakligini uqtiradi. U birinchi bo'lib sinf-dars tizimini ishlab chiqdi. "Buyuk didaktikada" o'qitishning didaktik prinsiplari berilib, dars jarayonida o'qituvchi ularga suyanishi kerakligi uqtiriladi. Maktabda o'quv yili va uni choraklarga bo'lish, ta'tillar berilishini aytib o'tgan. O'quvchilar bir vaqtda maktabga qabul qilinib, o'qish kuzda — sentyabrda boshlanishi kerak, deb hisoblaydi. Chex pedagogi "Buyuk didaktika" asarida yosh avlodni o'qitish vositasida tarbiyalashni asoslab bergan. Bunda o'quv fanlarini o'qitish jarayoni shaxsning aqliy, axloqiy va estetik tuyg'ularini shakllantirishga, shaxsni hayotga tayyorlashga asosiy e'tibor qaratiladi.

Fransuz pedagogi **Jan Jak Russo** "Emil" asarida oila tarbiyasi masalasini talqin qilib bergan. Uning fikricha, oilada bola tarbiyasi bilan oilaning eng yetuk a'zosi shug'ullanishi kerak. Pedagog bu borada onalarning tarbiyaviy o'rnini alohida ta'kidlaydi va Emil ismli onaning o'z farzandini qanday tarbiyalaganligini, bu bu ayol "Kundaliklar" tutib borganligini ko'rsatib beradi. Shu ma'noda tarbiya ishi bilan shug'ullanuvchi shaxsning Kundaliklari bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shved pedagogi Iogan Genrix Pistalotsi "Erudiga maktablar" asarida yoshlarni ijtimoiy tarbiyalash va bunda ularni savodxon qilish masalasiga alohida tayanish lozimligini asoslab bergan. Hozirgi kunda butun dunyo xalqlarida amalda bo'lgan savodxonlikni Alifbedan boshlash tizimini aynan Pistolotsi asoslab bergan.

AQSH pedagoglari, masalan Jon Jems, tarbiyada pragmatizm, ya'ni tarbiyaning amaliy natijalarini ustuvor qo'yishadi. Unga ko'ra, shaxsga kelgusi faoliyatida zarur bo'lgan bilim, fazilatlar va ko'nikmalar shakllantirilishi kerak. Mazkur masalalardan ma'lum bo'ladiki, jahon xalqlari pedagogik tajribasida ko'p hollarda tarbiyaning amaliy jihatlariga e'tibor qaratiladi.

Bugungi kunda ham bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ana shu tajribalarni o'rganishi, o'zlashtirishi va amaliy faoliyatda qo'llay olishi taqozo etiladi. Shu sababli mazkur "Boshlang'ich ta'limda "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi" o'quv fani vositasida jahon xalqlari pedagogikasining tarbiyaga oid tajribalarini o'rganish masalasi va uning metodikasini ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi. Chunki hozirgi zamon xalqaro ta'lim dasturlari va talablari aynan Yevropa, Osiyo va Amerika qit'alarida yashovchi xalqlarning pedagogik tajribalariga asosan ishlab chiqilgan. Masalan, Sharq xalqlari pedagogikasidan Ustoz-shogird tajribasi butun dunyo xalqlari tarbiya jarayoniga tadbiiq etilgan.

Logan Genrix Pestolossi (1746—1827) 1774 yilda Neygofda "Kambag'allar muassasasi"ni ochib, yetim va boqimsiz bolalardan 50 ga yaqinini shu muassasada o'zi o'qita boshlaydi. Pestolossi hamma odamlar ta'lim olish huquqiga ega bo'lishi lozim, deb maktablar jamiyatni ijtimoiy jihatdan o'zgartirishning muhim vositalaridan biri bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Pestolossining fikricha, mehnat odamni tarbiyalash va o'stirishning eng muhim vositasi, mehnat odamning jismoniy kuchinigina emas, aqlini ham o'stiradi, unda axloqni ham tarkib toptiradi. Elementar ta'lim nazariyasi Pestolossining pedagogik tizimining o'zagidir, bu nazariyaga ko'ra tarbiyalash eng oddiy elementlardan boshlanib, asta-sekin murakkabroq, darajaga ko'tarilib borishi lozim. Bolalarda yozuv malakasini hosil qilish uchun Pestolossi dastlab harf elementlarini, to'g'ri va egri chiziqlarni mashq qilishni tavsiya etgan.

Robert Ouen (1771 — 1858) o'zining 1813 yilda nashrdan chiqqan "Jamiyatga yangicha qarash yoki insonda xarakterni tarkib toptirish to'g'risidagi tajriba" degan asarida odamning xarakteri, uni o'rab turgan ijtimoiy muhit sharoiti bilan tarkib topadi, deb ta'kidlaydi. Uningcha, odamlarning illatlari va xatti-harakatlari ular yashab turgan ijtimoiy muhit vaziyatiga bog'liqdir. Odam, — deydi Ouen, — o'z xarakterini hech qachon o'zi yaratgan emas va uni yaratishi mumkin ham emas. Uning fikricha, agar biz muhit sharoitini va tarbiyani o'zgartirsak, har qanday xarakterni tarkib toptirishimiz mumkin. Robert Ouen bolalarga bir yoshdan boshlab ijtimoiy tarbiya berish g'oyasini olg'a surib, uni asoslab berdi va amalda sinab ko'rdi. U jahonda birinchi bo'lib ishchilar bolalari uchun maktabgacha tarbiya

muassasasi barpo etdi. Uning ta'lim muassasasida aqliy va jismoniy tarbiya berilib, bolalar jamoa ruhida tarbiyalanar edilar.

Mashhur fransuz ma'rifatparvari Klod Andrian Gelvetsiya (1715-1771) o'zining 1770-yilda yozib tugatgan "Inson to'g'risida" nomli asarida "Inson – muhitning mahsuli" insonning qarashlari, axloqiy fazilatlari, nuqsonlari u yashab turgan ijtimoiy muhitga bog'liqligini ko'rsatdi. Shaxsning shakllanishida oilaviy-biologik-genetik omil, tabiiy muhit, madaniy muhit, ijtimoiy tajriba, insonlar bilan munosobat juda katta rol o'ynaydi-deb hisoblagan.

Insonning shaxs sifatida rivojlanishi shaxslararo munosobatlarning jarayonida yuz beradi va bu munosobatlarning xususiyatlariga bog'liq bo'ladi.

Shaxslararo munosobatlarning quyidagi shakllarda bo'ladi:

1. Oiladagi munosobatlarning;
2. Ishga aloqador munosobatlarning;
3. Majburiy munosobatlarning;
4. Erkin munosobatlarning va h.

Bu munosobatlarning o'zi ham bir qancha partitiv munosobatlarni o'z ichiga oladi. Masalan oilaviy munosobatlarning olsak, ular o'z tarkibiga quyidagilarni oladi:

1. Er va xotin o'rtasidagi munosobatlarning;
2. Farzand va ota-onalar o'rtasidagi munosobatlarning;
3. Farzandlar orasidagi munosobatlarning;
4. Oiladagi bir necha avlod vakillari orasidagi munosobatlarning (Bobo, buvi, nabira, evara, amma, xola va h.);
5. Oilalarning biri-biri bilan munosobati kabilarga ajratib ko'rsatgan.

Logan Fridrix Gerbard (1776—1841) o'zining "Tarbiya muassasalaridan kelib chiqqan umumiy pedagogika", "Psixologiya darsligi", "Psixologiyani pedagogikaga tatbiq qilish to'g'risidagi xatlar", "Pedagogikaga doir leksiylar ocherki" degan kitoblarda pedagogika nazariyasiga doir fikrlarni bayon qilib berdi. Gerbard tarbiya ishida aqliy ta'limga katta ahamiyat berdi. U pedagogika nazariyasiga tarbiyalovchi ta'lim tushunchasini kiritdi va ta'limsiz tarbiya bo'lmaydi, dedi. Gerbard ta'lim qiziqishlarning xilma-xilligiga asoslanishi lozim deb, qiziqishlarni oltita

mustaqil turga bo‘ladi. U ta’lim bosqichlari nazariyasini ishlab chiqdi, bu nazariya hamma mamlakatlar pedagoglari orasida keng tarqaldi. Gerbard axloqiy tarbiyaning o‘ziga xos vositalar tizimini ham ishlab chiqqan. Evropa va AQSHda klassik o‘rta maktablar ko‘p jihatdan Gerbard pedagogikasiga asoslangan. Gerbardning bolalarni boshqarish tizimi keng yoyildi. Bu tizim bolalar tashabbusini bo‘g‘ishga va ularning kattalarning obro‘sigacha hech so‘zsiz buysundirishga qaratilgan. Bu esa Forobiy, Ibn Sino va Yan Amos Komenskiylarning g‘oyalariga zid edi.

Adolf Disterverg (1790—1866) takomillashib boruvchi ta’lim didaktikasini yaratdi, bu didaktikaning asosiy talablarini ta’limning 33 qonun va qoidasi tariqasida bayon qilib berdi. Disterverg taklif qilgan ko‘rsatmali ta’lim “yaqindan uzoqqa”, “oddiydan murakkablikka”, “ma’lumdan noma’lumga” o‘tish kerak, degan qoidalar bilan bog‘lik ta’limdir. Disterverg o‘qituvchi o‘rganib olgan narsalarini unutib qo‘ymasligi uchun uni tez-tez takrorlab turishni maslahat beradi. Distervergning fikricha, “yomon o‘qituvchi haqiqatni aytib berib qo‘ya qoladi, yaxshi o‘qituvchi esa haqiqatni topishga o‘rgatadi”.

Konstantin Dmitriyevich Ushinskiy (1824—1870) Uning tarbiyani talqin qiluvchi pedagogika sohasidagi asosiy nazariy asari «Kishi tarbiya predmeti sifatida» degan pedagogik antropologiyadan tajribasi bo‘lib, u ikki jildidan iborat bo‘lgan. Ushinskiy rus pedagogikasining o‘ziga xosligini, milliy xususiyatlarini himoya qildi, shuningdek, tarbiya xalqchil bo‘lishi lozim, deb hisobladi, bolalarni mehnat orqali tarbiyalashga katta e’tibor berdi. Ta’limning mazmuni, tamoyillari, shakl va usullarini ishlab chiqishda ham ko‘p ishlar qildi. U ta’limning ko‘rgazmaliligi, ongli va uzviy olib borish masalalarini ishlab chiqdi, o‘qitishning shakl va usullarining rang-barangligiga erishishni talab etdi.

Lev Nikolayevich Tolstoy (1858—1910). U o‘z zamonasidagi maktablarni, chorizmning maktab ishlaridagi tazyiqni qattiq tanqid qildi. Bolalarni o‘qitish va tarbiyalash ishlarini erkin ravishda olib borishga, bolalarning yoshligini izzat-hurmat qilishga chaqirdi. Tolstoy o‘qitishdagi rasmiyatchilik, takabburlik va bolalarni bir tomonlama hamda passiv tarbiyalashning ashaddiy dushmani edi. U o‘z davri uchun ilg‘or va o‘ziga xos ta’lim-tarbiya tizimi — umuminsoniy xarakterda bo‘lgan o‘qitish va

tarbiyalash uslubini joriy etdi. Tolstoy savod o'rgatish uchun grammatikani yaxshilash ustida ko'p ishladi, o'z zamonasining ko'pgina afzalliklarga ega «Alifbo», «O'qish kitobi» va «Arifmetika» darsliklarini tuzdi.



2. Tarbiya fanini ilmiy-tadqiqot metodlari

“Tarbiya” fanining ilmiy-tadqiqot metodlari. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari kasbiy kompetentsiyalarini o'zlashtirish jarayonida “Tarbiya” fanining ilmiy-tadqiqot metodlarini ham o'rganishi muhim ahamiyatga ega. Bu fanning metodlari Pedagogika fanining metodlaridan olingan bo'lsa-da, biroq ular mazkur fan asosida kengroq ma'noda tushuniladi. Chunki tarbiya jarayonining xarakteri shuni taqozo etadi.

Mamalakatimizda ta'sis etilgan “Tarbiya” fanining eng asosiy **ilmiy-tadqiqot metodlari** quyidagilardan iborat:

tarbiyaga oid pedagogik merosni o'rganish;

tarbiyaga oid jahon xalqlari pedagogikasi tajribalarini o'zlashtirish;

tarbiyaga oid me'yoriy hujjatlarni bilish;

tarbiyachining o'z individual tarbiyaviy tajribasining bo'lishi.

Mazkur ilmiy-tadqiqot metodlari o'rganish, manbalarni o'zlashtirish va tajriba o'tkazish asoslarida o'rganiladi. Bu metodlar pedagogik turkumdagi barcha fanlarda qo'llaniladi. Biroq ushbu metodlardan “Tarbiya” fani ilmiy-tadqiqot metodlarini belgilashda quyidagilarga alohida e'tibor beriladi:

a) tarbiyaga oid pedagogik meros o'rganilganda qadimdan kelayotgan tarbiya g'oyalari, usullari, tizimi va uni amalga oshirish yo'llariga alohida e'tibor beriladi;

b) tarbiyaga oid jahon xalqlari pedagogikasi tajribalarini o'zlashtirishda tarbiyaviy yondashuvlar, ularning amaliy tajribadan o'tganligi va bugungi kun talabalariga javob berishi masalalariga diqqat qilinadi;

v) tarbiyaga oid me'yoriy hujjatlarni o'zlashtirishda aynan tarbiya masalasiga yo'naltirilgan davlat standartlari, malaka talablari va murabbiy-o'qituvchilarga qo'yiladigan pedagogik talablarni o'rganish va ularga amal qilish masalalariga e'tibor beriladi;

g) tarbiyachining o'z individual tarbiyaviy tajribasiga ega bo'lish uchun talabalik davridayoq tarbiya asoslari, metodologiyasi, didaktikasi va amaliyotini o'zlashtirish bilan pedagogik hamda malakaviy amaliyotlar davrida amaliy ko'nikmalar bilan qurollanishga diqqat qilinadi.

Bularning barchasi "Tarbiya" fanining ilmiy-tadqiqot metodlari bo'yicha bilim va ko'nikmaga ega bo'lish asoslari hisoblanadi. Shu jihatdan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining quyidagi *ko'nikmalarga* ega bo'lishi taqozo etiladi:

- tarbiya asoslarini o'zlashtirishga qiziqish;
- bolaparvarlik sifatiga ega bo'lish;
- muntazam o'zi ustida ishlab borish;
- o'z tajribalarini ommalashtirish.

Bular oliy pedagogik ta'lim jarayonida pedagogik turkumdagi fanlarni o'qish, tarbiyaviy tadbirlarda ishtirok etish va mustaqil ta'lim mashg'ulotlari vositasida o'zlashtiriladi. Shu jihatdan hozirgi zamon talabalarining faol bo'lishi taqozo etiladi. Misol uchun, bugungi kun talabalari zamonaviy texnik texnologiyalardan foydalanishni yaxshi bilishadi, ayni paytda, ular bilim olish masalasida faollashishi kerak. Mazkur ko'nikmalarni o'zlashtirishda hozirgi oliy pedagogik ta'lim jarayonida quyidagi mashg'ulotlarning turlari muhim ahamiyatga ega:

amaliy mashg'ulotlar;

mustaqil ta'lim mashg'ulotlari;

o'quv jarayonida amalga oshiriladigan tarbiyaviy tadbirlar;

auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar.

Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida mazkur mashg'ulotlarni tashkil etish va amalga oshirish tizimini ishlab chiqish zaruriyat bo'lib turibdi. Ayni paytda, amaliy va mustaqil ta'lim mashg'ulotlarining topshiriqlarini o'z vaqtida bajarish bilan ta'kidlangan ko'nikmalarni kutilgan darajada o'zlashtirish imkoniyati mavjud.

“Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi” o‘quv fanining ilmiy-tadqiqot metodlarini idrok etishda milliy va xalqparvarlik tamoyillariga asosiy e’tiborni qaratish lozim. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vaziri Sh. Shermatovning fikricha, bugungi kunda maktablarda amalga oshirilayotgan “tarbiya jarayoni umumxalq xususiyatiga ega bo‘lmoqda”. Buning ma’nosi shuki, umumta’lim maktablarida o‘qitilayotgan “Tarbiya” fani umumxalq xususiyatiga, ya’ni xalqimizga xos bo‘lgan fazilatlar, odatlar va turmush-tarz madaniyati asolariga tayanishi lozim.

“Boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fanini o‘qitish metodikasi” fanining ilmiy-tadqiqot metodlarini shakllantirish va uni o‘zlashtirish tizimlarini belgilashda quyidagilarga asoslanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

davlat ta’lim standartlari va malaka talablarida belgilangan vazifalarni birlamchi bilish;

pedagogik tadqiqotlarda tajriba-sinovdan o‘tgan metodlarni qabul qilish;

innovatsion va integratsion xususiyatlarga ega yondashuvlarni ilmiy ishlanmadan o‘tkazgan tarzda ilmiy muomalaga kiritish;

o‘zining ilmiy maktabiga ega bo‘lgan pedagoglarning individual tajribalarini amaliyot sifatida qabul qilish;

milliy va umuminsoniy pedagogik qadriyatlarni tavsiflovchi g‘oyalarga asoslanish.

Aynan bunday yondashuv ushbu fanning ilmiy-tadqiqot metodlarini belgilab olishda zamonaviylikni keltirib chiqaradi. Chunki bugungi kunda oliy pedagogik ta’lim jarayonida o‘qitilayotgan pedagogik turkumdagi fanlarning umumiy va individual ilmiy-tadqiqot metodlari mavjud. Umuman bizning yondashuvimizga ko‘ra, “Tarbiya” fanining ilmiy-tadqiqot metodlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi shart. Bularning barchasi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun muhim kasbiy kompetensiya hisoblanadi.



4. Tarbiya fanini o‘qitish metodikasining predmeti, maqsadi va uning vazifalari

Metodika-pedagogika fani sohasida ma’lum o‘quv fanni o‘qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Metod (lotincha-metodos-yo‘l so‘zidan olingan bo‘lib) tadqiqot yo‘li, nazariya, ta’limot deb tarjima qilingan. Metodika (yunoncha-metodika) biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish metodlarining, usullarining yig‘indisi yoki o‘qitish tarbiyalash usullari va vositalari degan tushunchani anglatadi.

Tarbiya - yosh avlodni har tamonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan faoliyat bo‘lib, shaxsni aqliy , jismoniy, axloqiy, ma’naviy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, insonning jamiyatda yashashini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarini tarkib toptirishning jarayonlaridir. Tarbiya shaxsni tarkib toptirishga qaratilgan bo‘lib, shaxs va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar asosida rivojlanadi.

Tarbiya inson shaxsini shakllantirish, uning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma’rifiy hayotida faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan barcha ta’sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar majmuini anglatadi. Tarbiya nafaqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan jarayonlar bo‘libgina qolmay, uning yetakchi g‘oyalari ommaviy axborot vositalari, gazeta va jurnallar orqali singdirilgan mafkurani ham o‘z ichiga oladi. Zero, tarbiya ta’limga nisbatan kengroq bo‘lgan tushunchadir. Bunday tarbiyaning oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilishini nazarda tutadi. Shu jihatdan tarbiya ta’lim olish bilan chambarchas bog‘liq holda amalga oshiriladi. Ta’lim – tarbiya orqali shaxsda ezgu ma’naviy – axloqiy sifatlar tashkil topadi. Binobarin, ta’lim – tarbiya tizimini va shu asosda ongni o‘zgartirmasdan turib, ma’naviyatni rivojlantirib bo‘lmaydi. Har qaysi ota – ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko‘rish kerak. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish ta’lim – tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim.

Vuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish joizki, insonning boy ma'naviy-tarixiy jarayonida samarali foydalanish, o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvar, xalqparvar, yuksak ma'naviyatli etib voyaga yetkazish, insoniy fazilatlarni singdirishda tarbiyaviy ishlarni to'g'ri tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Tarbiya tushunchasi millat tarixi va jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha mohiyatga ega bo'lib, har xil tarzda izohlanib kelindi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, tarbiyani izohlashda yangi sog'lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi. Endilikda tarbiyaning irsiy-biologik jihatlari va milliyligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Milliy tarbiya xalq nomi va uning tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Buning uchun xalq pedagogikasi boyliklari, mutafakkirlarning pedagogik qarashlari tizimli sinchkovlik bilan o'rganilmoqda. Tarbiya jarayonini amalga oshirishda ijtimoiy tarbiya alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki tarbiya jarayoni ijtimoiy xarakterga ega bo'ladi. Ijtimoiy tarbiya bolada ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlarni rivojlantirish jarayonidir. Ijtimoiy tarbiya tarbiyaviy ishlarning aniq maqsad asosida amalga oshiriladigan oila tarbiyasi, mahalla tarbiyasi, maktab tarbiyasi, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limida amalga oshiriladigan tarbiya, oliy ta'lim tarbiyasini qamrab oladigan jarayonlardir. Ijtimoiy tarbiyaning vazifasi ham jismonan baquvvat, ma'naviy yetuk, mustaqil fikrlaydigan, ishlash va yashash qobiliyatiga ega bo'lgan, zamonaviy fan-texnika va texnologiya yutuqlarini o'zlashtiradigan, ma'lum kasb-hunarni egallagan barkamol avlodni shakllantirishdan iborat. Ijtimoiy tarbiya orqali shaxsning ijtimoiylashuvi yuzaga keladi. U ijtimoiy munosabatlarga kirishish usullarini o'rganadi. Shaxsga kasb-hunar o'rgatish, kishining ma'naviy va g'oyaviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan xatti-harakatlar jarayoni ijtimoiy tarbiyadir. Ijtimoiy tarbiya o'quvchilar ongini muayyan jamiyatning maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda tarkib toptirish va rivojlantirish jarayoni hamdir. Ijtimoiy tarbiya jarayonida inson va jamiyat hayotiga oid axloqiy tushunchalar, qonun-qoidalar bolalar ongiga singdirib boriladi. Kishilarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda faol ishtirok etishiga qaratilgan barcha ta'sirlar ijtimoiy tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Shuning uchun ijtimoiy tarbiya umuminsoniy xarakterga ega bo'ladi va bunda shaxs xohlagan soha bo'yicha

ta'lim-tarbiya ko'rib, istagan kasbni egallashi mumkin. Dunyo tabiyashunosligi ijtimoiy tarbiyaning mohiyatini asoslab berdi. Tarbiya va tarbiyaviy ishlar har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kab etadi, Yosh avlodning tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan xalq yoki mamlakat inqirozga yuz tutadi. Chunki har qanday mamlakatning rivojlanishi uchun moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarish to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi zarur. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarini shakllantirish uchun uzluksiz ravishda faoliyat ko'rsatadigan tarbiyaviy ishlar tizimi bo'lishini taqozo etadi. Tarbiyaviy ishlar tizimi jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha mohiyatga ega bo'lib, har xil izohlandi. Shuning uchun ham turli sinf va ijtimoiy tabaqalarning tarbiyasi o'zgacha bo'ladi va bir-biriga qarama-qarshi turadi degan qarash hukmronlik qilgan. Tarbiyaviy ishlar jarayonida tarbiyaning sinfiy xarakterga ega emasligi isbotlanadi. Chunki chindan ham bunyodkorlik va vayronkorlikning mohiyati har qanday ijtimoiy sinf vakili uchun ham bir xildadir. Ijtimoiy tarbiya maxsus muassasalar tamonidan amalga oshiriladigan pedagogik jarayondir. Xalqning o'zi yaratgan tarbiyachilik san'atiga va boy merosiga asoslanishi ijobiy ahamiyatni kasb etadi. Tarbiya jarayonida ijtimoiy tarbiya bilan birgalikda oila tarbiyasining uzviyligi va ustuvorligi muhim hisoblanadi. Ta'lim muassalaridagi tarbiyaviy ishlar jarayonining samaradorlik darajasi ko'p jihatdan tarbiyaviy ishlar tizimining tashkil etilishiga bog'liq. Tarbiyaviy ishlar tizimi mazmunan boy bo'lishi, umumiy maqsad va o'quvchilar imkoniyatlariga mos bo'lishi kerak. Tarbiya jarayoni va tarbiya ishlarini olib borish murakkab bo'lgan bir butun jarayondir, binobarin, bola shaxsining har tomonlama rivojlanib borishida turli xil sharoitlar ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim muassalarining vazifasi tarbiyaviy ishlar tizimini to'g'ri tashkil etib va ba'zi sharoitlarning rolini faollashtirib bola shaxsini kamol topishini ta'minlashdir.

Har qanday fanlarni o'qitishning maqsadi yosh avlodga to'g'ri tarbiya berish, ularning dunyoqarashini shakllantirishni bilish nazariyasining umumiy qonuniyatlari asosida hosil bo'lib, har qanday shaxs faoliyatida metodologik asos bo'lib xizmat qiladigan falsafa fanining roli beqiyosdir. Shuning uchun shaxs tarbiyasi jarayoni bilan shug'ullanadigan tarbiya fani falsafa fani bilan bog'liqdir.

Tarbiya fanini o'qitish metodikasi – ushbu fan doirasida qo'llaniladigan shakl, usul, vositalarni o'z ichiga olgan holda ta'lim tizimida o'quv fanining ahamiyati, vazifalari, o'rnini belgilaydi, uning, o'qitish mazmuni va hajmini aniqlaydi. Tarbiya fanini o'qitish metodikasi ilmiy pedagogik fan bo'lib, o'qitish jarayonining samaradorligi va sifatini oshirishga yo'naltirilib, o'quvchilarga tarbiya faninidan puxta bilim berish, ularni milliy g'oya ruhida tarbiya faninilash va kamol toptirishda tarbiya fanini kursining maqsadi, ta'lim-tarbiya fanini vazifalari, mazmuni, metod va usullarini hamda tarbiya fanini o'qitishning eng muhim vositalarini belgilab beradi. Tarbiya fanini o'qitish metodikasining asosiy fan sifatida o'rganishdan ko'zda tutilgan maqsad, tarbiya fanini o'qitishning ilmiy asoslari bilan qurollantirishdan iborat.

Tarbiya fanini o'qitish metodikasi o'rganadigan muammolar G.Fuzailova tomonidan muvaffaqiyatli yoritilgan. Mavzuning mazmun va mohiyatini yorituvchi aksariyat mavzularga jadval, sxemalarni kiritgan. Tarbiya fanini o'qitish metodikasi o'zining mustaqil tekshirish predmetiga ega. Ta'lim tizimida tarbiya fanining o'qitilishi va o'qitish jarayonining o'rganilishi tarbiya fanini o'qitish metodikasining predmetini tashkil etadi. O'qitish jarayonining ob'ektiv suratda amal qiladigan o'z qonuniyatlari bor. Ularni bilib olish va ta'lim-tarbiya fani jarayonida bu qonuniyatlarga amal qilish, ulardan oqilona foydalanish ta'lim tizimida tarbiya fanini o'qitishni ilmiy asosda olib borishning muhim shartidir. Tarbiya fanini o'qitish metodikasi tadqiq etadigan, o'quvchilarning puxta va mukammal bilim olishi va amalda suyanishi kerak bo'lgan tarbiya fanini o'qitishning umumiy qonuniyatlari nimalardan iborat va ular ta'lim jarayonida qanday namoyon bo'lishini o'rganadi.

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga kelajak avlodni ma'naviy yuksak fazilatlar egasi qilib tarbiyalashda innovatsion tarbiya texnologiyalarini, qonuniyatlarini, jahon tarbiya konsepsiyalari namunalari qiyosiy tahlilini, ta'lim muassasalarida tarbiya fanini o'qitishning shakl, metod va vositalarini o'rgatishdan iborat.

Tarbiyaviy ishlar metodikasi fanining vazifalari quyidagilardan iborat:

- o‘quvchilar jamoasining tarbiyalanganlik darajasini o‘rganib, unga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish mahoratiga ega bo‘lish ;

- tarbiyaviy ish va tadbirlar uchun zarur bo‘lgan metodlarni tanlab, ko‘zlangan maqsadga erishish chora-tadbirlarini ko‘ra bilish ;

- ilg‘or tajribalarni tahlil qilish va uni o‘z faoliyatida ijodiy foydalanish ;

- tarbiyaviy ishlarning o‘quvchilar ruhiyatiga qanchalik ijobiy ta’sir etganini kuzatib, uni yanada rivojlantirish va takomillashtirish ;

- tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o‘z bilimini doimiy rivojlantirib borishi lozim.

1. Tarbiyaviy ishlar jarayonida barkamol avlodni tarbiyalash muhim o‘rin tutadi. Aniq maqsadga qaratilgan tarbiya ishida jamoaga va ba’zi bir talablarga ta’sir qilishini tashkil etish tarbiyaviy ishlarning asosini belgilaydi.

2. Tarbiyaviy ishlarning asosiy jihatida barkamol avlodni har tomonlama kamol topishini hisobga olgan holda ularning tarbiyaviy jihatiga e’tiborni qaratish zarur bo‘ladi. Shuning uchun o‘qituvchi va tarbiyachilar yoshlar bilan tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda metodikaga tayanish maqsadga muvofiqdir.

Fanning vazifalari-talabalarga tarbiya fanini o‘qitishning nazariy asoslari haqida bilim berish; tarbiya fanini o‘qitish ijtimoiy zarurat sifatida ilmiy-amaliy asoslash, fanni o‘qitishda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning sifat samaradorligini oshirishga doir bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Fanining asosiy vazifasi yosh avlodni ma’naviy, axloqiy jihatdan tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma’naviy-tarixiy merosimizga, umumbashariy qadriyatlarga, urf-odatlar va an’analarga tayanib, ongli shaxslarni intellektual salohiyatli qilib tarbiyalashdir.

Fanning vazifalari:

- boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining innovatsion pedagogik faoliyatining bir qismi bo‘lgan tarbiya bo‘yicha asosiy tushunchalari, tarkibi va mezonlarini bilishi;

- boshlang‘ich ta’lim tarbiya fanini o‘qitishda qo‘llaniladigan

texnologiyalarning nazariy asoslari, o'ziga xos xususiyatlarini, darajalarini bilish va o'rganish;

- o'quvchilarning bilish faoliyatini shakllantirishda va boshqarish yo'llarini, o'quvchilarga tabaqalashtirilgan, individual yondoshishni;

- boshlang'ich ta'lim tarbiya fanini o'qitishda modulli, muammoli, kreativ ta'lim, didaktik – o'yinli, hamkorlikda o'qitish hamda an'anaviy ta'lim texnologiyalarini, loyiha texnologiyalaridan; ta'lim-tarbiyaning dolzarb muammolari fanini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan, multimediya texnologiyalaridan foydalanishni;

- o'quvchilarni kichik guruhlarda o'qitish, ularda ijodkorlik izlanuvchanlikni shakllantirish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash va ishlashning shakllantirish usullarini egallashni bilishi kerak;

- ilmiy, ilmiy-metodik jurnallarda nashrdan chiqqan va o'quv adabiyotlarida bor bo'lgan, internet orqali berilgan o'qitish jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan tarbiyaning masalalari haqidagi maqolalarni hamda axborotlarni mustaqil o'rganib, tahlil qilish hamda ularni amaliyotda qo'llash;

- istiqbolli o'qitish vositalaridan foydalanish va ularga tayangan holda boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish texnologiyalarini loyihalash, amaliyotga joriy eta olish bilim, ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish;

- o'z pedagogik faoliyatlarini taxlil qila olishga, baholashga o'rgatish;

- taxliliy – tanqidiy, ijodiy va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashdir.



5. Tarbiya fanini o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari va ular o'rtasidagi aloqalar

Tarbiya fanini o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari (maqsadi, mazmuni, o'qitishning metod va usullari, natijalari) o'rtasidagi qonuniyatli aloqalar quyidagicha namoyon bo'ladi: ta'lim tizimi maqsadi, ta'lim-tarbiya fanini vazifalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi o'qitishning mazmuniga, g'oyaviy-siyosiy va nazariy jihatdan pishiq bo'lishiga bog'liq bo'lganidek, o'quvchilarning tarbiya fanini kursini o'zlashtirish darajasi ham

o'z navbatida o'qitishning o'rganiladigan mavzuning maqsadi, ta'lim-tarbiya fanini vazifalari, mazmuniga mos keladigan ta'lim shakllari, o'qitish metod va usullari hamda vositalaridan qay darajada maqsadga muvofiq foydalana bilishiga bog'liqdir. Shuningdek, o'qitishni natijalari o'qituvchining o'qitishdan ko'zlagan maqsadi, uning ta'lim tarbiyaviy vazifalarini aniq belgilay olishiga, kursning mazmuniga mos tarzda amalga oshirishga yordam bera oladigan metod va usullardan ilmiy asosda foydalana bilishiga bog'liqdir. Tarbiya fanini o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari o'rtasidagi buo'zaro dialektik bog'lanish natijasida ular birbiriga uzluksiz ta'sir ko'rsatib boradi. Tarbiya fanini o'qitishda ana shu qonuniyatlarga suyanmasdan, ularni e'tiborga olmasdan turib yaxshi natijaga erishib bo'lmaydi.

Tarbiya fanini o'qitish deganda, tarbiyaviy material vositasida o'quvchilarga bilim berish, ularni milliy g'oya ruhida tarbiya faninilash va kamol toptirish vazifalarini amalga oshirish zarur bo'lgan jarayon, o'qituvchi vao'quvchilarning aqliy (ichki) hamda o'quv harakatlari (tashqi) jarayoni tushuniladi.

Tarbiya fani kursining mazmuni deganda, tarbiya fani dasturida belgilab berilgan tarbiyaviy bilimlar ko'lami, o'quv materiali, uning mazmuni, o'quvchilarning Tarbiyaviy jarayonlarni o'zlashtirishi natijasida olgan bilimlaridan foydalana bilish sohasidagio'quv usullari, ko'nikma va malakalari tizimi, shu jumladan, ularni ilmiy tadqiq qilish ishlarining shakllarini egallashni ko'zda tutadi.

Tarbiya fanini o'qitishni tashkil qilish deganda, tarbiya fanini o'qitish va o'quvchilarni uni o'rganishni tashkil etish, ularning o'rganish faoliyatini o'qituvchi tomonidan boshqarilishiga yordam beradigan metod va metodik usullar, o'quvchilardagi mavjud bilimlari ishga solish, ularni ijodiy bilishga yo'naltiradigan topshiriqlar tizimini hamda ta'limning turli xil ko'rinishlari (dars, seminar mashg'ulotlari va boshqalar) tushuniladi.

O'qitishning natijalari deganda, tarbiya fani o'qitishning maqsad va vazifalarini, mazmunini muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirilishi - o'quvchilarning tarbiya fani asoslarini, tarbiyaviy materialga mos samarali metod va usullarni bilishlari va bilimlardan foydalana olish malakalarini puxta o'zlashtirishlari, shu asosda o'quvchilarning tarbiyaviy tafakkurini, tasavvuri

va nutqini, maxsus va umumiy qobiliyatlarini o‘stirish ko‘zda tutiladi. Shunday qilib, ta’lim tizimida tarbiya fani ta’limi jarayonining yuqoridagi umumiy qonuniyatlari quyidagi ob’ektiv va qat’iy takrorlanadigan aloqalarda namoyon bo‘ladi:

o‘qitishning maqsadi uning mazmuni bilan belgilanadi;

maqsad va mazmuniga mos keladigan o‘qitish metodi va usullari tanlanadi;

o‘qitishning samarasi esa o‘qitishda erishilgan ijobiy natijalar bilan tekshiriladi, ya’ni tarbiyaviy bilimlarning sifati, o‘quvchilarning kamol topish darajasi bilan o‘lchanadi. Ta’limni muayyan pedagogik maqsadga yo‘naltirmoq uchun o‘qituvchi ta’lim tizimida tarbiya fanini o‘qitishning maqsadini, uning asosini tashkil qilgan ta’lim-tarbiya fanini vazifalarini aniq belgilab olishi kerak. Biroq, tarbiya fanini o‘qitish oldida turgan umumiy maqsad bilan ta’lim-tarbiya fanini vazifalarini bilib olishning o‘zi kifoya qilmaydi. Shu bilan birga, umumiy vazifalarni amalga oshirishda har bir sinfda o‘qitiladigan tarbiya fani kursining o‘rni, vazifalari, o‘z navbatida mazkur kursni o‘qitishning ta’lim-tarbiya fani vazifalarini amalga oshirishda uning har bir bo‘limi, bo‘limdagi mavzular, hatto har bir darsda o‘tiladigan mavzuning ham juz’iy vazifalari oldindan belgilab olinishi kerak. Chunki, har bir tarbiya fani darsining butun tarbiya fani kursining umumiy darslar tizimida tutgan o‘rni bor, bu darsda tarbiya fanini o‘qitish oldiga qo‘yilgan umumiy vazifaning qandaydir elementi yoki bo‘lagi hal etiladi.

Tarbiya fanining o‘qitish maqsadlarini belgilashda, avvalo ta’lim va tarbiya fanining uzviy birligini, o‘qitish davomida o‘quvchilarning g‘oyaviy-siyosiy saviyasi muttasil o‘sib borishini, ularda ko‘nikma va malakalar hosil qilishni hamda ijodiy faoliyatga tayyorlanishlarini nazarda tutmoq kerak.

Ta’limdan kuzatilgan maqsadlarning muvaffaqiyatli ravishda amalga oshmog‘i uchun, ular ilmiy asosda belgilanganligi lozim. Bu maqsadlar tarbiya fani ta’limining mazmuni va vazifalari bilan belgilanadi. Shuningdek, bunda ta’limning boshqa shart-sharoitlari: o‘quvchilarning saviyasi, bilimi, ko‘nikma va malakalari; dars uchun ajratilgan vaqt, darsni o‘tish imkoniyatlari va boshqalar ham nazarda tutiladi. Ta’lim maqsadlarining ilmiy asosda belgilanishi ularning realligini ta’minlaydi. Ta’limdan ko‘zlangan maqsadlarni

o'qituvchi qanchalik chuqur anglab olgan bo'lsa, tarbiya fanini o'qitish mazmunan shunchalik g'oyaviy va tarbiyaviy natija beradi. Binobarin, tarbiya fanini dastur asosida o'quvchilarga o'rgatiladigan tarbiya fani ta'limidan ko'zda tutilgan maqsad, ta'lim-tarbiyaviy vazifalar oldindan aniq belgilanishi o'quvchilar bilimining rivojlanib, chuqurlashib borishiga, voqealarning mohiyatini puxta tushunib olishlariga yordam beradi, zarur ko'nikma va malakalarni yuzaga keltiradi, o'quvchilarning mustaqil ishlash qobiliyatini o'stiradi. Tarbiya fani o'qitishning samarali bo'lishida o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish muhim rol o'ynaydi. Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning bilish faoliyatining faol bo'lishligi juda ko'p omillarga, avvalo, mashg'ulot mazmunining g'oyaviy va ilmiy-nazariy jihatdan yuqori saviyada bo'lishiga, o'qituvchining eng muhim jonli va ishonarli tarzda ochib bera olishiga va bu voqealarni chuqurroq o'rganib olishning muhimligini o'quvchilarning tushunib olishi hamda ularda o'rganishga ishtiyoq uyg'otishga bog'liqdir. Bu o'rinda o'qituvchining o'quvchilarni mashg'ulot mazmunini o'zlashtirib borishi ustidan qilgan nazorati, o'quvchilar o'rganishini boshqara bilishi, shuningdek, ularning yangi bilimlarini o'zlashtirish uchun o'zlaridagi mavjud bilim va malakalardan foydalana bilishi, ya'ni o'zlashtirilgan bilim va egallangan malakalarini aktuallashtirilishi ham muhim ahamiyatga egadir.

Tarbiya fani mazmunan juda boy va xilma-xildir. Tarbiya fanini o'qitish va o'quvchilarning o'rganish faoliyati orqali ularning ongiga, tarbiyasi va tafakkuriga ta'sir ko'rsatadi, ularning kamol topishiga yordam beradi. Demak, mashg'ulotning mazmuni ta'lim tizimida tarbiya fani o'qitishning sifati va samaradorligini oshirish hamda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishning ham asosiy omili bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun, o'qituvchi bilish faoliyatini faollashtirishga ijobiy ta'sir etuvchi va umuman o'qitishning samaradorligini ta'minlovchi metodik usul va vositalarni tanlashda ham o'rganilayotgan tarbiyaviy materialning mazmunini nazarda tutmog'i lozim. Tarbiya fanini o'qitish metodikasi jarayonining tarkibiy qismlari o'rtasidagi qat'iy takrorlanadigan o'zaro aloqa va bog'lanishlarda namoyon bo'ladigan qonuniyatlarni ochib beradi va tarbiya fanini o'qitish jarayonini takomillashtirishda ulardan foydalanish yo'l-yo'riqlarini ham

ko'rsatib beradi. Demak, tarbiya fanini o'qitish metodikasi o'qituvchilarni ta'lim tizimida tarbiya fanini o'qitishning ilmiy- nazariy asoslari bilan qurollantiradi. Shuningdek, metodika ularni tarbiya fanini o'qitish jarayonini o'rganishning tekshirish metodlari bilan ham qurollantiradi.

Tarbiya fanini o'qitish jarayoni ikki yo'l bilan o'rganiladi.

Birinchisi - **kuzatish metodidir**. Bu metoddan foydalanganda, turli xildagi o'quv-metodik adabiyotlar, o'quvchilarning yozma ishlari, ma'ruzalari, ularning javoblari, o'qitishga berilgan baho va xulosalar bilan tanishib chiqiladi, darslar kuzatiladi, o'quvchilarning bilimi va malakalari o'rganiladi. Shunday qilib, kuzatish metodidan foydalanganda, tadqiqotchi tarbiya fanini o'qitishning mavjud tajribasi doirasidan chetga chiqmaydi, uni tabiiy ravishda kuzatadi va o'rganadi.

Ikkinchisi-**tajriba metodi**. o'qituvchi o'qitish jarayonini o'zi xoxlaganicha uyushtiradi. Xullas, ijodiy ish qiladi va uning bu ishi ilmiy tajribaga o'xshab ketadi. Biroq, o'qituvchi qilgan ijodiy izlanishlarning ilmiy tajribadan farqi, avvalo shundaki o'qituvchi darsda amaliy vazifani hal qiladi, uning xulosalari esao'z faoliyatining natijasi bo'ladi. Ilmiy tajribada ko'pchilik o'qituvchilarning ishi uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlar tadqiq etiladi, chiqarilgan xulosalar ilmiy asosda rasmiylashtiriladi. Shuning uchun ham, tarbiya fanini o'qitish jarayonini tadqiq etishdagi kuzatish metodini eksperimental tadqiqotdan farq qila bilish kerak.



6. Tarbiya fanini o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqadorligi

Tarbiya fanini o'qitish metodikasi tarbiya fani bilan uzviy bog'liqdir. Tarbiya fanini o'qitish o'quvchilarga tarbiyaviy voqelikni bildirishdan iborat. Shu jihatdan o'quvchilarning tarbiyaviy voqelikni bilish yo'llari tarbiyaviy tadqiqotga o'xshaydi. O'quvchilar tarbiya fanini o'rganishda olimlar tomonidan ilmiy jihatdan tekshirilib ko'rilgan va tahlil qilib chiqilgan faktlar hamda ilmiy xulosalarga asoslanishi bilan birga, ba'zan faktlarni yanada aniqlash, tarbiyaviy faktlardan umumiy xulosalar chiqarish, umumiy

xulosalardan yangi faktlarni o'rganish uchun foydalanishlari mumkin. Biroq, o'quvchilarning tarbiya fanini o'rganishi ilmiy tekshirishdan farq qiladi. O'qitish jarayonida o'quvchilar tarbiya fani va uning ba'zi tadqiqot metodlarini bilib oladilar.

Tarbiya fani jamiyatining tafakkur taraqqiyoti jarayonini o'rganadi. Jamiyatining taraqqiyot qonunlarini bilish o'tmish va hozirgi zamonni yaxshiroq tushunib olishga, kelajakni oldindan ko'rishga imkon beradi. Demak, tarbiya fani va tarbiya fanini o'qitish metodikasi o'zining alohida o'rganish ob'ekti, vazifasi hamda tadqiqot metodiga ega hisoblanadi.

Metodika o'qituvchilarni ta'lim tizimida tarbiya fanini o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari va ular o'rtasidagi qonuniyatli aloqalarni ochib berish bilan birga o'qitishning samaradorligini oshira borish maqsadida tarbiya fanini o'qitish jarayonini tadqiq etish metodlari bilan ham qurollantiradi. Metodika tarbiya fani asoslarini ochib berish maqsadida tarbiyaviy manbalar, faktlar va umumiy xulosalardan foydalanadi. O'qitish metodikasi tarbiya fanining ba'zi bir tekshirish metodlaridan foydalanar ekan, o'quvchilarning bilimlarini yaxshiroq o'zlashtirishlarini va ularni tarbiya fanining ba'zi tadqiqot metodlari bilan tanishtirishni ko'zda tutadi.

O'quvchilarning yangi faktlarni tahlil etish va ulardan zarur xulosalarni chiqarish paytida o'rgangan bilimlari juda ham mustahkam va ishonarli bo'ladi, shuningdek, o'quvchilar mustaqil fikrlashga o'rganadi, bu ularni tadqiqot olib borishning dastlabki usullari bilan tanishtirishga yordam beradi. Shunday qilib, o'z predmeti, vazifalari va tadqiq etish metodlariga ega bo'lgan tarbiya fanini o'qitish metodikasini tarbiya fanlari qatoriga kiritib bo'lmaydi.

Psixologiya-tarbiya fanini o'qitishda o'quvchilarning yoshi, bilimi, fikrlash qobiliyati va umuman psixik faoliyatini e'tiborga olmasdan turib, ularning o'quv faoliyatiga samarali ta'sir etib bo'lmaydi. Shu sababli metodika psixologiya fani bilan chambarchas bog'liqdir. Tarbiya fanini o'qitish jarayonida ustoz va shogirdlar o'rtasida ma'naviy yaqinlik, sog'lom va estetik kayfiyat vujudga keltirishi o'quvchilarning o'quv faoliyatini faollashtiradi, darsning samaradorligini oshiradi. Psixologiya fani o'quvchilardagi psixik faoliyatning umumiy qonuniyatlarni o'rganadi, metodika esa o'quvchilarning

psixik faoliyatini ularning tarbiyaviy jarayonlarni o'zlashtirishlari bilan bog'liq bo'lgan tomonlarinigina tadqiq qiladi. Shuningdek, uning o'quvchilardagi psixik faoliyatni tadqiq etish metodlaridan ham qisman foydalanadi. Psixologiya psixik faoliyatning umumiy qonuniyatlarini o'rganadi, metodika esa tarbiya fanini o'qitishning mazmuni va metodik usullar bilan psixik faoliyat orqali erishiladigan natijalar o'rtasidagi qonuniyatli bog'lanishlarni o'rganadi. Demak, har ikkala predmetning o'rganadigan ob'ektlari qisman o'xshash bo'lsa-da, vazifalari boshqa boshqadir. Shunday qilib, tarbiya fanini o'qitish metodikasi o'qitishda yaxshi natijalarga erishish, o'quvchilarning tarbiyaviy jarayonlarni puxta o'zlashtirishi bilan faoliyati o'rtasidagi qonuniyatli bog'lanishlarni hamo'rganadi, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda psixologiya faniga suyanadi, o'quvchilarning psixik faoliyatini o'rganishda psixologik tekshirish metodlaridan foydalanish yo'llarni ham ko'rsatib beradi.

Pedagogika fani-uning tarkibiy qismi bo'lgan didaktika bilan chambarchas bog'langan, uning mustaqil bir tarmog'idir. Metodika pedagogik jihatdan yaxshi natijalarga erishish maqsadini ham, tarbiya fanini o'qitish jarayonining pedagogik jarayon o'qitishda yaxshi natijalarga erishishini ham ko'zda tutadi. O'qitish jarayonining o'rgatish metodlari pedagogik metodlar bo'lib, o'qitish natijalarining ko'rsatkichlari ham pedagogik ko'rsatkichlardir. Shunday qilib, tarbiya fanini o'qitish metodikasi pedagogika fanining mustaqil bir tarmog'i bo'lib, u o'zining mustaqil tekshirish predmetiga ega. Tarbiya fanini o'qitish jarayonining umumiy qonuniyatlarini yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish va kamol toptira borish ishini yanada takomillashtirish maqsadida foydalanishga yordam beradi. Tarbiya fani ta'limining mazmuni va sinf o'quvchilarining umumiy saviyasiga qarab bilishning umumiy qonuniyatlari turlicha namoyon bo'ladi. Tarbiya fanini o'qitish metodikasi o'rganadigan eng muhim qonuniyatlardan biri o'qitish jarayonining rivojlanish qonuniyatlaridir. Bu rivojlanish ta'lim jarayonida o'quvchilarning qiziqishi, bilimi, ko'nikma, malakalari hamda tafakkurining o'sib borishida namoyon bo'ladi, ayni bir vaqtda o'quvchilarning har tomonlama yanada kamol topishini ta'minlaydi. Tarbiya faninining har bir kursi, uning bo'limi va har bir mavzusi o'quvchilarning bilim olishi, ko'nikma, malakalarga ega bo'lishi va

kamol topishida muhim bir bosqich bo‘lib xizmat qiladi. Binobarin, o‘qituvchi tarbiya fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning bilim va malakalarni egallashi, kamol topishi sohasida bosib o‘tilgan bosqichlarni, bunday keyin bosibo‘tiladigan bosqichlarni oldindan ko‘ra bilishi lozim.

Anatomiya, fiziologiya. O‘quvchilarni to‘g‘ri tarbiyalash, ularga ta’lim berish jarayonida ular organizmining rivojlanish bosqichlariga e’tiborni qaratish tarbiya tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Chunki o‘quvchi organizmining rivojlanishini bilmasdan unga ta’sir ko‘rsatib bo‘lmaydi. Anatomiya, fiziologiya fanlari odam organizmi, uning rivojlanishi, tuzilishini o‘rgatuvchi fan hisoblanadi. Shuning uchun ham tarbiya fani anatomiya, fiziologiya fanlari bilan chambarchas bog‘liq ish ko‘radi. Har qanday tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda o‘quvchilarning gigiyenik qoidalariga asosan tashkil etishda yaratilgan shart-sharoitlar muhim rol o‘ynaydi. Ko‘rinib turibdiki, tarbiya fani **gigiyena** fani bilan ham bog‘langan. Tarbiya jarayonida o‘quvchilarning axloqiy sifatleri tarkib toptirish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Axloq normalarini o‘quvchilar ongiga singdirish zarur. Axloq normalari va axloqshunoslik bilan etika fani shug‘ullanadi. Shunday ekan, tarbiya fani etika bilan ham uzviy bogliqdir.

Aniq fanlar: Matematika va uning takibiga kiruvchi fanlarni o‘qitish vositasida o‘quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish bilan tarbiya jarayoni amalga oshiriladi;



Tabiiy fanlar: Boshlang'ich ta'limda "Atrofimizdagi olam", "Tabiatshunoslik"(Science) fanlarini o'qitish vositasida o'quvchilarning mustaqil qarashlari, xohish va istaklarini to'g'ri tarbiyalash amalga oshiriladi;

Gumanitar fanlar: "Ona tili va o'qish", "Musika", "Jismoniy tarbiya", "Tasviriy san'at" fanlarini o'qitish vositasida o'quvchilarning aqliy, jismoniy va estetik tarbiyasi amalga oshiriladi. "Musika", "Tasviriy san'at" fanlari o'quvchining badiiy estetik qobiliyatini ochishga, go'zallik va hayot uyg'unligini ta'minlashga, san'at va olam o'rtasidagi mutanosiblikni anglashga xizmat qilsa, tarbiya esa bu jarayonni amalga oshirish vositasi sifatida nafosatni, didni shakllantirishga xizmat qiladigan fan hisoblanadi. "Jismoniy tarbiya" mashqlar bajarish, tanani chiniqtirish, organizmning fiziologik holatini rivojlantirishga xizmat qiladigan fan sifatida qaralsa, tarbiya esa shu bosqi chlarni to'g'ri amalga oshirish, bolani imkoniyatlari doirasida aniq intizomni, moslashuvchanlikni, o'z kuchiga bo'lgan qat'iy ishonchni o'stira oladigan fan sifatida tarkib topadi.




Diqqat qiling!

1. Ma'lumotlarni belgilang.



2. Tarbiya fani bilan aloqador fanlarni ko'rsating.



3. Test topshirig'ini bajaring.

1. Yosh avlodni Ezgu niyatli, Ezgu fikrli va Ezgu faoliyat(amal)li shaxslar sifatida voyaga yetkazish g'oyasi ilgari surilgan manbani aniqlang.

- A. Qutadg'u bilig
- B. Avesto
- C. qobusnoma
- D. Turkiy Guliston yoxud axloq

2. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari oliy pedagogik ta'lim jarayonida "Tarbiya" fani bo'yicha qanaqa malakalarga ega bo'lishi taqoza etiladi.

- A. fan asoslari bo'yicha nazariy-kasbiy bilimli bo'lish;
- B. fanni o'qitish metodikasi bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lish;
- C. fan vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalash kompetensiyasini egallashi;
- D. Barcha javoblar to'g'ri

3. Qaysi asarda yoshlarni adolatli, qanoatli va bilimli qilib voyaga yetkazish metodologiyasi asoslab berilgan.

- A. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig"

- B. Qur’onda
- C. Hadislarda
- D. Kaykovus “Qobusnoma”

4. Asar qahramoni “Kundaliklar” tutub yurgani haqida bayon qilinuvchi kitobni aniqlang.

- A. Kundaliklar
- B. Esdaliklar
- C. Emil
- D. Xamsa

5. Iogan Genrix Pistalotsining qaysi asarida yoshlarni ijtimoiy tarbiyalash va bunda ularni savodxon qilish masalasiga alohida tayanish lozimligini asoslab bergan.

- A. “Emil”
- B. “Erudiga maktablar”
- C. “Kundaliklar”
- D. To‘g‘ri javob yo‘q.

6. Tarbiya fanini o‘qitish jarayoni qaysi yo‘llar bilan o‘rganiladi.

- A. Darslik orqali
- B. Kuzatish metodi
- C. Tajriba metodi
- D. B va C javoblar

7. Tarbiya qaysi fan tarkibida shakllangan fan hisoblanadi.

- A. Ijtimoiy fanlar
- B. Gumanitar fanlar
- C. Pedagogika

D. Psixologiya

8. O‘quvchilarni to‘g‘ri tarbiyalashda, ularga ta’lim berish jarayonida ular organizmining rivojlanish bosqichlariga e’tiborni qaratishga qaratilgan tarbiya fani bilan aloqador fanni aniqlang.

A. Psixologiya

B. Pedagogika

C. Etika

D. Anatomiya

9. To‘g‘ri mulohazani aniqlang.

A. Tarbiya fani psixologiyadan ajralib chiqqan fan hisoblanadi.

B. “Tarbiya” fan sifatida XX asrda rivojlandi.

C. Tarbiya fani etika, estetika fanlari bilan aloqador fan sanalmaydi.

D. Tarbiya fanini o‘qitish jarayonining umumiy qonuniyatlarini yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish va kamol toptira borish ishini yanada takomillashtirishga qaratilgan.

10. O‘quvchilarning yozma ishlari, ma’ruzalari, ularning javoblari, o‘qitishga berilgan baho va xulosalar bilan tanishib chiqiladi-tarbiya jarayonini tashkillashtirishda qaysi metod nazarda tutilgan.

A. Tajriba

B. Kuzatish

C. Hikoya

D. Suhbat



Mavzu yuzasidan savollar

1. Tarbiya fanini o‘qitishda shakllanib kelgan ijtimoiy-tarixiy zaruriyat nimalarda o‘z aksini topgan?

2. Tarbiya fanining ilmiy-tadqiqot metodlari haqida nimalar bilasiz?

3. Jahon xalqlari orasida shakllanib kelgan tarbiya masalasi bilan bog'liq tarbiya haqida mulohaza yuriting.
4. Tarbiya fanining maqsadi, vazifasi, predmeti nimalardan iborat?
5. Tarbiya fani o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari deganda nimani tushunasiz?
6. Tarbiya fani qaysi fanlar bilan aloqador fan sanaladi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.A.Mavlonova, B.Нормуродова. Педагогические и учебно-методические. О'quv qo'llanma. Toshkent, "Fan" 2008 y. 88-bet.
2. R. Mavlonova, N.Rahmonqulova, B.Normurodova, K.Matnazarova Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. Toshkent, 2014 y.403-bet.
3. K.Xoshimov, S.Ochilov. O'zbek pedagogikasi antologiyasi.O'quv qo'llanma.T.:O'qituvchi 2010-yil.127-bet.
4. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T.: Fan va texnologiyalar. 2010-yil.



Milliy tarbiya konsepsiyasi

Reja:

1. “Ta’lim to’g’risida”gi qonun. Ta’lim to’g’risidagi qonunning mohiyati va mazmuni
2. Konsepsiya tushunchasining mazmuni. Milliy tarbiya konsepsiyasi
3. Milliy urf-odat, qadriyat va an’analar – tarbiya asosi
4. Boshlang’ich sinf “Tarbiya” darsliklaridagi milliy qadriyatlarning shaxs kamolotiga ta’siri

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: Ta’lim to’g’risidagi qonun, konsepsiya, odat, marosim, an’ana, qadriyat, bayram, milliy tarbiya, darslik, boshlang’ich sinf, dual ta’lim, inkluziv ta’lim, masofaviy ta’lim, professional ta’lim, umumiy o’rta va o’rta maxsus ta’lim, maktabgacha ta’lim, oliy ta’lim, magistratura, ta’lim tizimi, eksternat tartibidagi ta’lim, oilada ta’lim olish, mustaqil ta’lim olish



1. “Ta’lim to’g’risidagi” qonun. “Ta’lim to’g’risidagi” qonunning mohiyati va mazmuni

O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni 2020-yil 19-mayda qabul qilingan bo‘lib, senat tomonidan 7-avgustda tasdiqlandi, unga ko‘ra, Qonun 11 bob, 75 ta moddadan iborat qilib belgilanilib, amaldagi qonunning 34 ta moddasidan 33 tasiga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilgan. Qonunning asosiy maqsadi, ta’lim sohasidagi faoliyati, jumladan ta’limning turlari, shakllari, tizimni boshqarish, sifatni nazorat qilish, ta’lim-tarbiya ishtirokchilarining samarali hamkorlik qilish mexanizmlarini ta’minlashdan iboratdir. Qonunning asosiy jihatlaridan yana biri shuki, mamlakatimizda ta’limni tashkil etishda alohida etibor qaratib kelinayotgan ta’lim va tarbiyaga, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilishi, shu paytgacha asosiy prinsip sifatida belgilanmagan edi. Endilikda ushbu prinsip qonun bilan belgilandi. Ta’lim to’g’risidagi qonunchilikning maqsadi

davlat kafolatlari, ta'lim sohasida inson huquqlari va erkinliklarini amalga oshirish mexanizmlarini belgilashdir va uning asosiy vazifalaridan biri O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining ta'lim olish bo'yicha konstitutsiyaviy huquqini ta'minlash va himoya qilishdir. Ta'lim huquqining konstitutsiyaviy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasida keltirilgan. Unga ko'ra, har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir. Unda O'zbekiston Respublikasi hukumati mamalakatimizda yagona davlat siyosatini amalga oshirishni ta'minlayotganligi aniqlandi. Ushbu Qonunda O'zbekiston Respublikasida ta'limning huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy asoslari, O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari, ta'lim tizimi faoliyati va ta'lim faoliyatini amalga oshirishning umumiy qoidalari, ta'lim sohasidagi munosabatlar ishtirokchilarining huquqiy maqomi belgilab berilgan. Qonunda "ta'lim", "tarbiya", "professional ta'lim" va sohaga oid boshqa tushunchalar izohlangan, pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi, pedagog xodimlarning maqomi va ular faoliyatining kafolatlari, pedagog xodimlarning majburiyatlari belgilangan.

Davlat ta'lim sohasini, ta'lim tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishga, shuningdek, investorlarning, shu jumladan chet ellik investorlarning ushbu sohadagi huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan investitsiyalarni jalb etish uchun qulay ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratilishini ta'minlaydi. Qonun bilan jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ta'lim tizimidagi ijobiy o'zgarishlar, o'z navbatida, sohaning huquqiy asoslari takomillashtirilishini talab etadi. Amaldagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun esa bundan 22 yil avval qabul qilingan. Qonun loyihasini takomillashtirish maqsadida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining mas'ul qo'mitalari hamda ishchi guruhlar tomonidan bir necha bor muhokamalar o'tkazildi. Natijada yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan. Senat tomonidan shu yili 7-avgust kuni ma'qullandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 23-sentabr kuni mazkur Qonunni imzolashi bilan, amalda bo'lgan 1997-yil

29-avgustdagi “Ta’lim to’g’risida”gi hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to’g’risida”gi Qonunlar o‘z kuchini yo‘qotdi. Har qanday mamlakatning kuchi uning, fuqarolarining ma’naviy yetukligi, intellektual salohiyatga egaligi bilan belgilanadi. Fuqarolarning ma’naviy yetukligi, intellektual salohiyati esa ta’lim tizimining mazmuni, shaxsning har tomonlama shakllanishi uchun xizmat qiluvchi moddiy va ma’naviy shart-sharoitlarning mavjudligi, jamiyatda qaror topgan ijtimoiy sog‘lom muhit darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, aholining etnopsixologik xususiyatlari, axloqiy qarashlari va hayotiy e’tiqodlari asosida shakllantiriladi. Mazkur yo‘nalishlar sirasiga quyidagilar kiradi:

Yosh avlodni ma’naviy barkamol qilib tarbiyalash;

Salohiyatini tubdan yaxshilash;

Pedagoglarning kasbiy nufuzini oshirish;

Davlat va nodavlat ta’lim muassasalarining turlarini rivojlantirish;

Ta’lim tizimini tarkibiy jihatdan qayta qurish;

Ta’limda milliy dasturlarni joriy etish, yangi tipdagi o‘quv muassasalarini vujudga keltirish;

Yangi kasb-hunar va mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar, shu jumladan, boshqaruv tizimi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

Ta’limning barcha daraja va bo‘g‘inlarida ta’lim oluvchilarning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish;

Ta’limni boshqarish tizimini takomillashtirish, ta’lim muassasalarini texnik bazasini mustahkamlash;

Shaxsga ta’lim berish va uni tarbiyalashda oila, ota-onalar, jamoat tashkilotlari, mahallalar, xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish;


Ta’lim jarayoni va kadrlar tayyorlash sifatiga xolis baho berish tizimini yaratish;

Ta’lim tizimini moliyaviy, moddiy-texnika va boshqa tarzdagi resurslar bilan ta’minlash mexanizmlarini shakllantirish;

Chet el va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish;


Ta'limning barcha darajalarida ta'lim oluvchilarning huquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitariya-gigiyena ta'limi hamda tarbiyasini takomillashtirish.

Yangi tahrirdagi ta'lim to'g'risidagi qonun quyidagi boblarni o'z ichiga oladi, bunda 5-bob keltirilmagan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi O'RQ-901-sonli Qonuniga asosan o'z kuchini yo'qotgan hisoblanadi.



Ta'lim tizimi-davlat ta'lim standartlari, ta'lim talablari, o'quv rejalari va o'quv dasturlari va ularni amalga oshiruvchi ta'lim tashkilotlari, ta'lim sifatini baholashni amalga oshiruvchi tashkilotlar, ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar, ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari, shuningdek, ularning tasarrufidagi tashkilotlarni o'z ichiga oladi.(6-modda)

Qonunning 7-moddasida ta'lim turlari belgilab qo'yilgan. Ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi.



Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir. Bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi hamda bola yetti yoshga yetguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriladi.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan bo'lib quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi. (I — XI sinflar)

boshlang'ich ta'lim (I — IV sinflar);

tayanch o'rta ta'lim (V — IX sinflar);

o'rta ta'lim (X — XI sinflar).

Boshlang'ich ta'lim oluvchilarning birinchi sinfiga bola yetti yoshga to'lgan yilda qabul qilinib, bu ta'lim jarayonida zarur bo'lgan savodxonlik,

bilim, malaka va ko'nikmalari shakllantirilib, ta'limning keyingi bosqichlari uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, umumiy o'rta ta'limda dars jarayonlarini tashkillashtirishda ta'lim oluvchilar soni 35 nafardan oshmasligi ta'kidlab o'tilgan. Mazkur bosqichda o'quvchilarning fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlari, ularda bilim olish ehtiyojining yuzaga kelishi, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarning o'zlashtirishlari, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlar, mehnat, ijodiy fikrlash, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish, shuningdek, kasb tanlash ko'nikmalarining shakllanishi uchun pedagogik shart-sharoit yaratiladi.

Tayanch o'rta ta'limda o'quvchilar mustaqil fikrlash, tahlil qilish, o'z fikrlarini ifodalay olish hamda 7-sinf dan so'ng turli kasblar bo'yicha professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish ishlari amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarda zaruriy bilim, ko'nikma va malaka shakllantiriladi. O'rta ta'lim 11-yil davomida tashkil etilib, ta'limning keyingi turi tanlanishida hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini ta'minlaydi.

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda tashkil etiladigan ta'lim olish shakli hisoblanib, ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga, chuqur tabaqalashtirilgan holda kasb-hunarga yo'naltirilib, to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi.

Iqtidorli va iste'dodli bolalarning qobiliyatini rivojlantirish uchun Prezident, ijod va boshqa ixtisoslashtirilgan maktablar, shuningdek maktab-internatlarda ta'im olishi, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan ta'lim oluvchilar esa davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta'lim olishlari belgilab qo'yilgan.

Professional ta'lim boshlang'ich professional ta'lim, o'rta professional ta'lim va o'rta maxsus professional ta'lim darajalariga ajratiladi.

Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim

fanlarining va mutaxassislik fanlarining 2 yillik integratsiyalashgan dastur asosida bepul amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lovshartnoma asosida davomiyligi 2 yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda davlat buyurtmasi yoki to'lovshartnoma asosida davomiyligi kamida 2 yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim-bakalavriat ta'limi o'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashini ta'minlaydi. Oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlash oliy ta'lim tashkilotlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar) amalga oshiriladi. Oliy ta'lim ikki bosqichga-bakalavriat va magistratura bosqichiga ega. **Bakalavriat** oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, o'qish davomiyligi kamida 3 yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Magistratura-aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta'lim muddati kamida 1 yil davom etadigan oliy ta'lim bo'lib, magistraturadagi tahsil yakuniy klassifikatsion davlat attestatsiyasiga muvofiq olib boriladi.

Oliy ta'limdan keyingi ta'limni oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarda olish mumkin. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi.

Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish. (13-modda) Kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo'lgan yo'nalishlari bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo'shimcha kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning zarur hajmi egallanishini ta'minlaydi. Kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va

ko'nikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta'minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qiladi.

Maktabdan tashqari ta'lim (14-modda) - bolalarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ularning bo'sh vaqtlari, dam olish kunlarini samarali tashkil etish maqsadida bolalar, o'smirlar ijodiyot saroylari, sport maktablari, musiqa va san'at maktablari, "Barkamol avlod" bolalar maktablari, studiyalar, klub va markazlar, kutubxona, shuningdek, sog'lomlashtirish maskanlarida tashkil etilib, ta'limning uzluksizligini ta'minlashda, shu bilan birga, bolalarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga, o'z iste'dod va qobiliyatlarini namoyon etishga, jamiyatda sog'lom turmush shaklini tarkib toptirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Qonunda ta'lim olish turlari bilan birgalikda, ta'lim olish shakllari ham ko'rsatilgan. (15-modda)

Ta'lim olish shakllari



Masofaviy ta'lim-o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan.(16-modda)

Dual ta'lim-ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga

oshiriladi. Dual ta'lim amaliyot va nazariyani bog'lovchi ta'lim olish shakli bo'lib, korxona, tashkilotlar o'rtasida o'zaro hamkorlikni ta'minlab beradi. (17-modda)

Oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish- davlat tegishli dasturlarga asosan bolalarning mustaqil hamda oilada ta'lim olishlarini qo'llab-quvatlaydi. Mustaqil ta'lim olish uchun uslubiy va maslahat bergan holda, oilada mustaqil ta'lim olishga va buni tartibini belgilashga ko'maklashadi. Oilada ta'lim olish shart-sharoitlarini qonun doirasida vakolatli davlat organlari tomonidan belgilanib, bunday turdagi ta'lim olish bolalarning oiladagi va jamiyatdagi manfaatlarini hisobga olgan holda, yakka tartibda amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning ma'naviy, madaniy, intellektual, kasbiyva aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Oilada ta'lim olgan va mustaqil ta'lim olgan shaxslarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta'lim to'g'risidagi hujjatni berish davlat ta'lim muassasalarining tasdiqlangan o'quv dasturiga muvofiq eksternat tartibida amalga oshiriladi. (18-modda)

Katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish-butun umr davomidagi o'qitish jarayonlarining majmui hisoblanib, rasmiy, norasmiy, informal shakllarini o'z ichiga olib, hayot davomida jamiyatda mehnat faoliyatidagi katta insonlarning ta'lim olishda yoshlardagidek ishtirokini ta'minlashga qaratilgan. Bu ta'limning jamiyat hayotidagi rolini mustahkamlaydi. Rasmiy ta'lim davlat ta'lim muassasalaridata'lim tashkilotlarida muayyan qoidalar asosida aniq maqsadni ko'zlagan holda rejalashtirilgan, akkreditatsiyadan o'tgan, muayyan qoidalarga bo'ysinuvchi ta'limdir. Norasmiy ta'lim xuddi shu normalarga amal qilgan holda tashkillashtirilgan hayot davomida o'qitishning rasmiy shakliga qo'shimcha yoki uning muqobili hisoblanadi. Informal ta'lim rasmiy va norasmiy ta'limdan farqli o'laroq aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtiriladigan oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olishi mumkin. (19-modda)

Inklyuziv ta'lim-ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan.(20-modda)

Eksternat tartibidagi ta'lim-mustaqil ta'lim olishga qaratilgan bo'lib, o'quv dasturlarini mustaqil tartibda o'zlashtirish imkoniyati bo'lib, ta'lim olish yakunida ta'lim oluvchilardan davlat ta'lim muassasalarida yakuniy va davlat attestatsiyalaridan o'tishlari kerak bo'ladi.(21-modda)

Mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash-ularning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, davlat oliy ta'lim, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari hamda ularning filiallari Prezident yoki Hukumat qarorlari bilan tashkil etilib, qonunchilikka muvofiq belgilanadi.

Ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish barcha talabgorlar uchun ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi prinsipi asosida amalga oshiriladi, shaxslarning ayrim toifalari bundan mustasno, ularga qonun hujjatlariga muvofiq imtiyozlar berilishi mumkin. Ta'lim tashkilotlari talabgorlarni va (yoki) ularning ota-onasini yoki boshqa qonuniy vakillarini ustav, litsenziya (nodavlat ta'lim tashkilotlari uchun), davlat akkreditatsiyasi to'g'risidagi sertifikat, o'quv dasturi hamda ta'lim faoliyatini tartibga soluvchi boshqa hujjatlar, ta'lim oluvchilarning huquqlari va majburiyatlari bilan tanishtirishi shart.

Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar o'qishga o'z ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining roziligiga va tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan qabul qilinadi. Ayrim ta'lim tashkilotlariga (oliy ta'lim muassasalariga, akademik litseylarga, Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktablar va boshqalarga) o'qishga qabul qilish tanlov asosida amalga oshiriladi.

Davlat oliy ta'lim va professional ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish davlat granti va (yoki) to'lov-shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Chet ellik fuqarolarni O'zbekiston Respublikasining davlat ta'lim muassasalariga qabul qilish to'lov-shartnoma asosida (bundan davlat granti ajratilgan hollar mustasno) amalga oshiriladi.

Davlat ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Nodavlat ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish tartibi ushbu ta'lim tashkilotlari tomonidan belgilanadi. Oliy ta'lim muassasalariga davlat granti asosida o'qishga qabul qilish parametrlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi. Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish chog'ida imtiyozli kontingent uchun qo'shimcha qabul parametrlari belgilanadi.

Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi tegishli ma'lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo'lgan va ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega. Magistraturani tamomlagan shaxslar va diplomli mutaxassislar o'z mutaxassisligi bo'yicha pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega.

Pedagog xodimlarning maqomi va ular faoliyatining kafolatlari.

Pedagog xodimlarning maqomi jamiyat va davlat tomonidan tan olinadi. Pedagog xodimlar ijtimoiy qo'llab-quvvatlanadi, o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi, ularning ijtimoiy maqomi va obro'sini oshirish uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratiladi, shuningdek o'z huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish uchun kafolatlar beriladi. Ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarning huquqlari, sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'si davlat himoyasi ostida bo'ladi.

Shuningdek ta'lim to'g'risidagi qonunda ta'limni tashkil etish, ta'limni tashkil etishda o'quv dasturi, o'quv reja, ta'lim sohasidagi eksperimental va innovatsion faoliyat, o'qishga qabul qilish, ta'lim tashkilotlarining reytingi, ta'lim tizimidagi monitoring, ta'lim oluvchilarning hamda ularning otalarining majburiyatlari, ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish, ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirish kabi ko'pgina ta'limning barcha jabhalarini qamrab olgan masalalar o'rin olgan.



2. Konsepsiya tushunchasining mazmuni. Milliy tarbiya konsepsiyasi

Bugungi innovatsion rivojlanish fan-texnika taraqqiyotida jamiyatdagi murakkab bo'lgan globallashuv jarayonlarini boshlab berdiki, bu esa kelajak yoshlariga ulkan imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Shu bilan birga bunday taraqqiyot davri innovatsion tafakkurni rivojlantirishga, tezkor muammolarda kritik yo'l izlashga, hayotning shiddat bilan rivojlanish oqimida intellektual salohiyatni shakllantirib, boy madaniy merosimizga sodiq qolishni talab etmoqda. Ta'lim tarbiyani tashkil etishga qaratilgan konsepsiyalar ishlab chiqilgan va amalda qo'llanilmoqda. "Konsepsiya" yoki "konsept" lotincha so'zdan olingan bo'lib, "tushunish", "tizim" ma'nolarini anglatib, biron-bir narsa-buyum, hodisa yoki jarayonni tushunishning ma'lum bir usulini o'zida ifoda etadi. Konsepsiya (pedagogik)-pedagogik obyekt mohiyati, tamoyil va metodlari mohiyatini ochib beruvchi yetakchi g'oyalar tizimi.

O'qitish konsepsiyasi-o'quv jarayonining mohiyati, mazmuni metodikasini tushunishga doir qarashlar tizimi yoki umumlashgan g'oyalar hisoblanadi.



"Tarbiya" fani konsepsiyasi ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan siyosatni nazarda tutib, bu fan doirasida mavjud dolzarb

muammolarga yechim topishga, ularni oqilona hal qilishga yo'naltirilgan. Konsepsiya u borada qilinajak barcha ishlar asosiy maqsad, ustuvor vazifalar, yosh avlodning ta'lim-tarbiyasini rivojlantirishning yangi bosqichiga chiqarishga qaratilgan. Shu bilan birga, Konsepsiyada nazarda tutilgan yo'nalishlar yurtimizda o'sib kelayotgan yoshlarni har tomonlama jismonan, aqliy jihatdan va ma'nan barkamol qilib tarbiyalashda, ulardagi ichki motivni ro'yobga chiqarish, o'z salohiyatlaridan unumli foydalanish imkoniyatlarini va bundan jamiyatni rivojlantirish yo'lida jalb etib, barcha yoshlar tomonidan ko'rsatiladigan tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashga keng shart-sharoitlar yaratib beradi. Bu taraqqiy etib kundan kunga chiroy ochib borayotgan mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatini, huquqiy asoslarini, tashkiliy mexanizmlarni va barcha sohalarda olib borilayotgan chuqur islohotlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

Mazkur Konsepsiya xalqaro huquqning umume'tirof etilgan hujjatlar, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonunlar, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi, xususan, "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi konvensiyalar, Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Yoshlar-2030" strategiyasi hamda "Bola huquqlari to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasining qonunchilikda nazarda tutilgan ta'limga oid hujjatlariga asoslanadi.

Konsepsiya "Vatan tuyg'usi", "Odobnoma", "Milliy istiqlool g'oyasi va ma'naviyat asoslari", "Ma'naviyat asoslari", "Dunyo dinlari tarixi" kabi fanlar birlashgan holda yagona Tarbiya fanining asosiy yo'nalish, qilinadigan ustuvor faoliyatlarni belgilab berib, umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchi yoshlar uchun ularning yoshi, dunyoqarashi, maqsadi, yo'nalishlariga mos ma'naviy rivojlanishni va faol fuqorolik pozitsiyasini ta'minlab hayotiy kompetensiyalarni shakllantiradi. Shu maqsad bilan Xitoy Xalq Respublikasi, Avstraliya, Singapur, Fransiya, Germaniya, Koreya Respublikasi, Yaponiya, Buyuk Britaniya va Rossiya Federatsiyasi kabi rivojlangan ta'lim sohasida ilg'or davlatlarning darslik yaratish borasidagi tajribalari o'rganildi. Ularning amaldagi fanlari, o'quv dasturlari solishtirilgan holatda har tomonlama izlanishlar natijasida qiyosiy tahlil o'tkazildi. Konsepsiya o'rganilgan amaldagi sog'lom avlod asoslari, yo'l harakati qoidalari, hayot xavfsizligi

asoslari, salomatlik, huquqiy tarbiya, salomatlik darslari, ekologik tarbiya, iqtisod, media madaniyati va soliq saboqlari bilan bog‘liq ko‘plab fakultativ o‘quv kurslari dasturlarini birlashtiradi.

Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son qaroriga muvofiq shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasi qabul qilinib, konsepsiya amalga oshirish chora-tadbirlari rejasi belgilab berildi. Konsepsiyani amalga oshirishning bir qancha ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi va ular quydagilardan iborat:

O‘zbekiston Respublikasini 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ko‘rsatib o‘tilgan aholi, ayniqsa, o‘sib borayotgan yoshlar tarbiyasi yaxshilash, bu bilan bog‘liq samarali vazifalarni amalga oshirish, hayotda bilan bog‘lik tayanch kompetensiyalarni amalga oshirish, ma‘naviy tarbiyani baholashning ilmiy asosga ega bo‘lgan indikatorlarini ishlab chiqish;

onaning homiladorlik davrida tarbiya jarayonining tamoyillari uzviylik, uzluksizlikka tayanib, bu jarayonni to‘g‘ri olib borish, go‘daklar va bolalarni har jihatdan ma‘naviy tarbiya berish chora-tadbirlari yo‘nalishlarini belgilab olish;

yoshlarda Vatanga sadoqat, irodalilik, mafkuraviy immunitet, tadbirkorlik, mas‘uliyatlilik, bag‘rikenglik, mehr-oqibatlilik, innovatsion fikrlash, huquqiy madaniyat, mehnatsevarlik kabi muhim xususiyatlarni bolalik chog‘idan boshlab birma-bir tashkillantirish;

ota-ona, o‘qituvchi, tarbiyachilar bilan birgalikda mahalla va ta‘lim muassasalarida hamkorlik mexanizmi asosida homiladorlik davridan to 30 yoshgacha bo‘lgan davrdagi uzluksiz ma‘naviy tarbiyani amalga oshirish va hayotga targ‘ib qilish;

aholining boy sinovdan o'tgan, pedagogik tajribaga ega bo'lgan hamda sinovdan o'tgan pedagogik texnologiyalar, usullar, amalda qo'llash shakllari farzand tarbiyasiga daxldor ma'lumotlarni, pedagogik madaniyatini shakllantirish choralari bilan mumtazam tanishtirish;

ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg'unchi g'oyalarga qarshi sog'lom dunyoqarashni shakllantirish;

Hozirgi shiddat bilan o'zgarib borayotgan globallashuv jarayonlari ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirishga aniq, qat'iy talablar qo'ymoqda. Ushbu rivojlanish bilan bog'liq talablarni amalga oshirish natijasida pedagoglarning ta'lim tizimi jarayonidagi faoliyatlaridagi moddiy-ma'naviy, texnik sharoitlarni yaxshilashga, ta'lim sifatini esa oshishiga xizmat qilmoqda. Tarbiya va ta'lim o'zaro uyg'un tushunchalar bo'lib, ularni ajratib bo'lmaydi. Bu ikki jarayon birgalikda amalga oshirilganda odobli, yuksak ma'naviyatli, axloqiy fazilatlariga ega, bilimdon, salohiyatli, aqlan va jismonan sog'lom, yuksak dunyoqarash hamda barcha muammolarga yechim topa oladigan ijodiy salohiyatga ega, o'z sohasini puxta egallagan qadriyatlarga sodiq, vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi. Buni quyidagi jabhalarda ko'rishimiz mumkin:

jahon miqiyosida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda zamonaviy ta'lim yondashuvlaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyojning kuchayib borayotganligi;

o'quvchilarning ehtiyojlari, qiziqishlari, layoqatlari hamda bilimlarni o'zlashtirish darajalarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishga e'tiborning oshayotganligi;

mamlakatimizda kadrlar tayyorlashning milliy tizimi har tomonlama rivojlanayotgan hozirgi sharoitda umumiy o'rta ta'lim sifati va samaradorligini

ta'minlash maqsadida pedagogik texnologiyalarni yanada takomillashtirish zaruriyatiga ehtiyoj;

umumiy o'rta ta'lim uchun yaratilayotgan o'quv dasturlari va o'quv-metodik majmualarda o'z aksini topgan, o'quvchilarni hayotga tayyorlash va kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan milliy dastur va davlat ta'lim standartlarida belgilangan prinsiplari talablarining bajarilishini ta'minlash;

ta'limning uzluksiz tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish yo'nalishida shaxslararo hamkorlik va muloqot muhitini tarkib toptirish vazifasining ustivorligidir.

O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda. Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etadi.

Ajdodlar merosi vositasida bo'lajak o'qituvchilarga ta'lim-tarbiya berishda:

- ularni jamiyat hayotida faol ishtirok etishlari, aholi savodxonligining oshishi, milliy o'zlik tuyg'usining shakllanishi, ajdodlarimiz merosiga nisbatan ijobiy munosabat va ularni o'rganishga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi natijasidagina milliy merosga hurmat yanada oshishiga erishilishi;
- ajdodlar merosi vositasida talabalarning savodxonligi va milliy g'ururini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish lozimligi;
- ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy ma'naviy meros har qanday ma'naviy tahdidga qarshi qurol vazifasini o'tay olishi;
- ta'lim muassasalarida globallashtirish jarayonida ajdodlarimiz merosidan foydalanishni doimiy yo'lga qo'yish;


- milliy qadriyatlar, urf-odatlar, tarixiy, madaniy, ma'rifiy merosni tiklash, ulug' mutafakkirlarimizning ta'limotlarini o'rganish, pedagogik va ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish, shu asosda tug'ilgan fikr va mulohazalarni yosh avlod ongiga singdirish uchun ta'lim-tarbiya mazmuniga ajdodlarimiz - merosidan davr talablari va talabalarning ma'naviy ehtiyojlariga mos - keladigan qarashlar va g'oyalarni olib kirish zarurligi;

buyuk mutafakkirlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlarini har tomonlama chuqur o'rganib, pedagogik jarayonga olib kirish natijasida talabalarning ma'naviy saviyasini oshishiga xizmat qilishi va ularda o'zlikni anglash hisi tarkib topish ko'nikmalariga ega bo'lishlari kafolotlanadi.

Konsepsiyaning maqsad va vazifalari

Konsepsiyaning maqsadi — Bosqichma-bosqich tarzda yosh avlodni har tomonlama baxtli, mustaqil ijtimoiy hayot uchun zarur malakani tarkib toptirishdan iborat.

Tarbiya konsepsiyasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:



Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi bir qancha vazifalarni bajarilishini qamrab oladi:

ilmiy asosga ega bo'lgan ma'naviy, axloqiy tarbiyani o'ziga xos baholashning indikatorlarini shakllantirish;

tarbiyaning homiladorlik davridan boshlanib voyaga yetgunga qadar davom etadigan, tadrijiylik va uzluksizlik tamoyillariga asoslangan metodikasini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish;

bola tarbiyani bolada rivojlantirishda milliy, innovatsion pedagogikaning samarali yutuqlaridan foydalanish;

tarbiyalanuvchilarni ham tarbiyachilarni ham mumtazam ravishda salohiyatlarini oshirish maqsadida bilimi va tajriba malakasini oshirish;

ota-ona, o'qituvchi, tarbiyachilar bilan birgalikda mahalla va ta'lim muassasalarida hamkorlik mexanizmi asosida homiladorlik davridan to 30 yoshgacha bo'lgan davrdagi uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirish va hayotga targ'ib qilish;

ma'naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzluksizlik tamoyillariga asoslanishi.

Konsepsiya quyidagi tizimlarda ma'naviy tarbiyani amalga oshirishga xizmat qiladi.



Oilalarda olib boriladigan uzluksiz ma'naviy tarbiya

Oilalarda amalga oshiriladigan uzluksiz ma'naviy tarbiya ikki davrni nazarda tutgan holda amalga oshiriladi.

Dastlabki davrda homilador ayollar bilan mahalla ko‘magida hududlardagi oilaviy poliklinikalarda, olib borilagigan ma’naviy, pedagogik, psixologik, tibbiy tushuntirish ishlari tizimli ravishda ota-onalarni bola parvarishini to‘g‘ri tashkillashtirishlariga tayyorlaydi. Bolani tarbiyalash, sog‘lom o‘stirish borasida qimmatli fikrlar orqali ota-onalarni kelgusidagi hayotlarini yaxshilashga, oilaviy barqarorlikni saqlashga ko‘maklashadi. Keyingi davr ya’ni bola dunyoga kelganidan boshlab 3 yoshgacha bo‘lgan muddatni qamrab oladi. Bu davrda bola uchun tarbiya shakllantirilib, hayotga tatbiq qilinadi. Bolani to‘g‘ri rivojlanish, 3-yoshli bolaning xarakter xususiyatlari o‘rganiladi. Shuningdek, ayolning homilador davrida qaysi kitoblarni o‘qishi, bu turkumga kiruvchi barcha ta’limiy, tarbiyaviy, tibbiy va elektron kitoblar ro‘yxati shakllantirilib, tavsiya qilingan adabiyotlar tarqatiladi. Mahalla va namunali oilalar hamkorligida turli, tanlov, musobaqalar o‘tkaziladi. Bu oilalarda tarbiya, sog‘lom turmush tarzini rivojlanishiga, namunali oilalar safi kengayishiga olib keladi. Oilalarda yoshlarning barkamol bo‘lib voyaga yetishlarida ma’naviy qadriyatlarni singdirilishini mustahkamlagan holda, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash va ularda sodir bo‘ladigan nizoli holatlarni bartaraf etishga, har bir nizoli holatga huquqiy chora ko‘rilishini nazarda tutadi.



Tarbiya konsepsiyasiga binoan oilalarda olib boriladigan uzluksiz ma’naviy tarbiyaga quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

Muloqot, taqlid qilish vositasida namunaviy xulq hatti-harakatlari, o‘yin turlari qoidalari bilan tanishish, orqali kattalarga xos ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonini targ‘ib qilish va e’tibor qaratish;

o‘zining harakatlari bilan birga boshqalarning harakatlaridagi xususiyatlarni kuzatish, tahlil qilish va baho berish ko‘nikmasini o‘rgatish;

oilada ilk yoshdan shakllanadigan ma‘naviy tarbiyaga xos bo‘lgan motivlarni shakllantirish;

o‘ziga xizmat qilish, o‘zini hurmat qilish, kundalik hayotdagi xavfsizlik qoidalarini o‘rgatish;

badiiy estetikani rivojlantirish maqsadida 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarda, ularning intellektual, fikrlash, tafakkur qilish qobiliyatlarini o‘stirishga mo‘jallangan ertak, maqol, topishmoq, alla kabi badiiy janrlarni audio shakllariyaratilgan holda, shuningdek, multfilm to‘plamlari tayyorlanadi va hududlar miqyosida tarqatiladi.

Bolalarning o‘yinchoqlari bolada o‘ziga xos ruhiyatiga ta’sir qilinishini inobatga olib, o‘yinchoqlarning ma‘naviy tahliliga e’tibor qaratish va bu orqali salbiy ta’sirlarni oldini olishga qaratilgan.

Maktabgacha ta’limida olib boriladigan uzluksiz ma‘naviy tarbiya

Tarbiya konsepsiyasida belgilanganidek bu bosqich 3-7 yoshli bolalarning to maktabga borishiga qadar bo‘lgan jabhalarni o‘z ichiga oladi. Bu bosqichda asosan bu yosh toifasidagi bolalarning xarakter xususiyatlariga alohida e’tibor qaratiladi. Jumladan, bolalarning tuyg‘ularini boshqarishi, harakatlaridagi axloqiy ko‘nikmalarning tarkib topganligi, o‘ziga xos shaxsiy fazilatlarining shakllanishi, ijtimoiy motivlarning uyg‘onishi va milliy qadriyatlarga nisbatan qiziqish uyg‘onishi boshlanadi. Shuningdek, bola atrof tevarakni o‘rganishga intiladi, muvaffaqiyat sari intilish, o‘ziga bo‘lgan ishonch hissi shakllana boshlaydi, o‘ziga baho berish namoyon bo‘ladi. Bu yoshdagi bolalarning asosiy faoliyat turlari o‘yin, muloqot va mashg‘ulotlar hisoblanadi. Shu sababdan bolalarning bu davrdagi yoshida asosan nutqiga e’tibor qaratish talab etiladi. Chunki bola muloqotda bo‘lar ekan ko‘pgina so‘zlarni tevarak-atrofidagi insonlardan, oilasidan, bog‘chasida mashg‘ulotlar davomida o‘rganadi. O‘rganishlar natijasida yangi so‘zlarni talaffuz qiladi, takrorlaydi va bunda e’tibor qaratilishi kerak bo‘lgan jihat u bu so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilgan holda, nutq me’yorlarida ayta olishini inobatga olish

zarur hisoblanadi. Aks holda noto'g'ri talaffuz qilingan so'z bolaning nutqida xatoligicha qolib ketishi mumkin.

Tarbiyachi va ota-onalar bolalarga quyidagi faoliyatlarni o'rgatishlari kerak:

faoliyat turi davomida bolaning o'z harakatlariga e'tibor bilan qarashni o'rgatish;

kuzatish, muloqot, taqlid faoliyati jarayonlarida kattalarga xos bo'lgan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish;

har bir ishda o'zi va boshqa birovlarining xulqiga e'tibor qaratish va baho erishni shakllantirish;

faoliyat davomidagi sujetli-rolli o'yinlarni o'ynash orqali bola ruhiyatida yangi motivlarni o'stirish va mustahkamlash;

kundalik turmushda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan voqea-hodisalarga nisbatan, xavfsizlik qoidalariga rioya etishga o'rgatish;

kattalarning faoliyati, kasb turlari, ular orqali erishiladigan turli maqsadlar, mehnat qilish va bu mehnat orqali erishiladigan shaxsiy sifatlar to'g'risida dastlabki ma'lumot berish;

o'yin, o'zaro munosabatlar, oiladagi munosabatlar, yaqin kishilarga g'amxo'rlik qilish ehtiyojining paydo bo'lishi orqali xarakter sifatlarini shakllantirib borish;

Bola tarbiyasida ilg'or zamonaviy pedagogik ta'lim yutuqlaridan foydalangan holda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tarkib toptirishda tarbiya konsepsiyasida ko'plab ishlarning qilinishi belgilab berilgan. Konsepsiya doirasida 3-7 yoshli bolalarni ma'naviy tarbiyalash, milliy an'analarga qiziqishlarini orttirish, yaqin kishilariga mehribonlik qilish kabi motivlarni shakllantirish yo'nalishida "Baxtli bola ma'naviyati" nomli chora-tadbirlar ishlab chiqish va uni amalga oshirish borasidagi keng ko'lamli ishlar samarali yo'lga qo'yilgan.



Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzurida Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini amalga oshirish jarayonini muvofiqlashtiruvchi "Ma'naviy tarbiya" respublika jamoatchilik kengashi tavsiyalari asosida O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tizimidagi "Oilaviy", "Bolajon" telekanallari, bolalar nashriyotlari va ommaviy axborot vositalarining faoliyatini "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" asosida takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqildi va hozirgi kunda keng miqyosda joriy etildi.

Maktabgacha ta'lim tizimiga mo'jallangan bolalarning dunyoqarashi, saviyasiga mos kuy-qo'shiq, spektakllar, raqslar va teatrlashtirilgan tomoshalar, milliy o'yinlar muassasalari tarbiyalanuvchilari uchun ishlab chiqilib amaliyotga keng joriy etildi. Xususiylar yoki davlatga qarashli bog'cha bo'lishidan qat'iy nazar afsonaviy qahramonlar, o'zbek milliy ertaklari va ularning qahramonlari, buyuk bobolarimiz, qadimiy milliy me'morchilik obidalari timsollari ask etgan suratlar bilan bezash, jihozlash va namunali ko'rgazmalar orqali O'zbekiston tabiatini namoyon qilishlari belgilab qo'yilgan. Shuningdek, "Bola aziz, odobi undan aziz" mavzusida afsona, ertak, doston, maqol, matallar asosida multimedia orqali turli namoyishlar tayyorlanildi.

Umumiy o'rta ta'limda olib boriladigan uzluksiz ma'naviy tarbiya

Umumiy oʻrta taʼlim tizimida olib boriladigan maʼnaviy tarbiya ikki bosqichga ajratiladi:

birinchi bosqich — 7-10 yoshli bolalar uchun yaʼni boshlangʻich sinflarda;

ikkinchi bosqich— 11-17 yoshlilar uchun oʻrta va yuqori sinflarda.

Milliy dastur va oʻquv dasturlarida ham oʻquvchilar yoshiga mos maʼnaviy, axloqiy tayanch kompetensiya tadbirkorlik, Vatanga sadoqat, mafkuraviy immunitet, mehnatsevarlik masʼuliyatlilik, irodalilik, mehr-oqibatlilik, huquqiy madaniyat, tolerantlik, innovatsion fikrlash fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Boshlangʻich sinflarda quyidagi jihatlariga eʼtibor qaratilgan:

taʼlim mazmuniga xos maʼnaviy tarbiya va kompetensiyalarini, olingan bilim, koʻnikma va malakalarni “Tarbiya” fani vositasida oʻquvchilarga yetkazish;

bolaning muvaffaqiyatga erishish motivini mustahkamlanishi, oʻz-oʻzini boshqarish, xulqini ongli nazorat qilishni kuchaytirish;

atrofidagi insonlar, tengdoshlari, kattalar bilan hamkorlik munosabatlarini tashkil eta olish, mehnatsevarlikka oʻrgatish;

maʼnaviy, axloqiy koʻnikma va malakalarning ortib borishi bilimlarning chuqurlashuvi va kengayishining rivojlanishi;

jamiyatda ijtimoiylashuv jarayonlarida bolalarning yoshiga mos shaxsiy xususiyatlarni shakllanishi va xavfsiz hayot koʻnikmasining tarkib topishi;

kasblar toʻgʻrisida tasavvurlarni kengaytirish, kasbga va mehnatga qiziqtirish;

mehnat qilish va buning hayotimizdagi ahamiyati, kasblar va ular toʻgʻrisida tasavvurlarni boyitish, qiziqishlarini kengaytirish;



Umumta'lim maktablarining o'rta va yuqori sinf o'quvchilarini tarbiyalashdagi ma'naviy, axloqiy tamoyillarda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

o'smirlik yoshi va uning xususiyatlari va bu yoshga xos ichki pozitsiya va irodaviy sifatlarning paydo bo'lishi;

ijtimoiy faollik, bilishga intilish va o'zini namoyon qilish motivlarining rivojlanishi;

faoliyat va muloqotning rivojlanganligi, ijtimoiy faollik va o'zini atrofdagilarga namoyon qilish motivining yuqori ekanligi;

shaxslararo munosabatlarning, referent guruhlarining paydo bo'lishi;

jamiyatda fuqorolik pozitsiyasi va jamiyatdagi munosabatlarning differentsiallasuvi;

o'z muammolariga mustaqil yondashuv, o'z-o'zini tarbiyalashda shaxsiy sifatlarning tarkib topishi;

xavfsiz hayot madaniyati bo'yicha bilim va ko'nikmalarning namoyon bo'lishi;

“Besh muhim tashabbus” asosidagi to'garaklar faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish:

o'g'il bolalarda fidoyilik, milliy g'oyaga sadoqat, hojatbarorlik, ona Vatanga muhabbat, vijdonlilik, yigitlik g'ururi, mardlik, halollik, jasorat,

rostgo'ylik, vazminlik, or-nomus kabi xususiyatlar shuningdek, oilaparvarlik va tadbirkorlik malakasini shakllantirishni amalga oshirilishi;

qiz bolalarda milliy g'oyaga sadoqat, jonkuyarlik, mehnatsevarlik, hayo, oilaparvarlik, qanoat, ziyraklik, ibo, mehmondo'stlik, did-farosat, orastalik, nafosat, vafodorlik, mehribonlik, saranjomlik, bolajonlik, rahmdillik, pazandalik, kamtarlik, xushmuomalalik malakalarini shakllantirishni amalga oshirish; har yili bir marotaba "Milliy tarbiya va zamon" mavzusida pedagogik simpozium o'tkazib borish;

O'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim tizimidagi yoshlar o'rtasida uzluksiz ma'naviy tarbiya

O'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim tizimida bandligi ta'minlanmagan yoshlarning ma'naviy tarbiyasi konsepsiyaga asosan o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'limda qamrab olinmagan, band bo'lmagan 17 — 30 yosh va o'rta maxsus kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalaridagi talabalarning 15-24 yosh toifasidagi yoshlarni qamrab oladi;



O'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim tizimida tehsil olmaydigan shuningdek, band bo'lmagan yoshlarning ma'naviy-axloqiy sifatlari yoshlarning, tadbirkorlik, vatanga sadoqat, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, mafkuraviy immunitet, irodalilik, huquqiy madaniyat, bag'ri kenglik, mehnatsevarlikni rivojlantirish maqsadli ma'naviy-ma'rifiy dasturlar orqali amalga oshiriladi.

O'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'limda tehsil olmaydigan va band bo'lmagan yoshlarning axloqiy tarbiyasida e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihatlar:

Shaxsda kelajakka ishonchni mustahkamlash, mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish, o'z ehtiyojlarini qoplashni mustahkamlash;

Mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning ahamiyati, ularni o'rganishga nisbatan daxldorlik tuyg'usini oshirish;

halol mehnat va unig ortidan keladigan rohatning inson va jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etishini namoyish qilish;

oilalarni qurish, oilada o'zaro ishonch, mehr-muhabbat, hamjihatlik, sadoqatni mustahkamlash, ma'naviy barqaror tarbiyani ta'minlash;

yosh ota-onalar bilan farzand tarbiyasi va moddiy farovonlikka yetishishni ta'minlab beradigan oilani boshqarish ilmini shakllantirish;

yosh ota-onalarni, namunali oilalarni, farzand tarbiyasida erishayotgan yutuqlarini e'tirof etish, keng lamoatchilik bilan birgalikda ularni rag'batlantirish;

yosh oilalarning jamiyat hayotida mos o'rinni egallashlariga ko'maklashish, ularni doimiy qo'llab-quvvatlash.

Shuningdek, uzluksiz ma'naviy tarbiya tizimi samaradorligini oshirish va takomillashtirishga qaratilgan dissertatsiyalar, ilmiy tadqiqotlar va izlanishlarni yo'lga qo'yish ishlari, teleradiokanallarda tarbiya mavzularida tok-shoular, ko'rsatuv va eshittirishlar, ijtimoiy tarmoqlarda tarbiyaviy mavzularda virtual muloqot maydonlarini tashkil etish ko'zda tutilgan.



Konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar

Konsepsiyani amalga oshirish doirasida uzluksiz ma'naviy tarbiyaning tizimli ravishda olib borilishi, tarbiyada ilg'or pedagogik texnologiyalar, zamonaviy innovatsion yangiliklar asosida takomillashuvi natijasida sohada yoshlarning, tadbirkorlik, vatanga sadoqat, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, mafkuraviy immunitet, irodalilik, huquqiy madaniyat, bag'ri kenglik, innovatsion fikrlash kompetensiyalarining mustaqil hayotda qo'llashlari uchun dasturul amal bo'lib xizmat qiladi.

Oilalar, mahallalarda va ta'lim muassasalarida yoshlarni ma'naviy barkamol shaxs sifatida rivojlanishlari, mustqail qaror qabul qilish layoqatlarining o'sishi uchun zarur bo'lgan innovatsion muhitni yaratib beradi.

Bu tashkilotlar tomonidan doimiy yoshlarni qo'llab-quvvatlash uchun keng imkoniyat va dasturlarni taqdim etadi.

Jamiyatda ekstremizm, jinoyatchilik, firibgarlik, yolg'onchilik, terrorizm, korrupsiya, axloqiy buzuvchilik, egotsentrizm, mehr-oqibatning kamayishi, ko'zbo'yamachilik, oilaviy ajrimlar, begonalashuv, loqaydlik, mas'uliyatsizlik, el-yurt taqdiri haqida qayg'urmaslik kabi illatlar turlari kamayib boradi. Yoshlarning bandligini ta'minlash, bo'sh vaqtini samarali tashkil etish borasida bir qancha chora-tadbirlar dasturi tuzildi va amaliy hayotga tatbiq qilindi. Inson shaxsi doimiy yetakchi o'ringa qo'yildi.

Oilada yoshlar va ota-onalarda milliy qadriyat va an'analarimizning tarbiyaviy ahamiyati, ular haqida ma'lumotlar shakllanadi, ularni o'rganish, saqlash, targ'ib qilish, o'rgatish orqali milliy fazilatlarining avlodlardan avlodga bezavol o'tib borishi ta'minlanadi. Konsepsiyaning jamiyatimiz hayotida keng targ'ib qilinishi, amalga oshirilishi, jamiyatning barqarorlashuviga, sog'lom muhitning tarkib topishiga, yoshlar orasida jinoyatchilikning kamayishiga, insonlarning farovon hayot kechirishlariga o'z hissasini qo'shadi.



3. Milliy urf-odat, qadriyat va an'analar – tarbiya asosi

Mamlakatimiz mustaqillikka erishishi va hozirgi kunda respublikamizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy o'zgarishlar o'zining ko'lami va ahamiyati jihatidan tarixiy voqeadir. Bu jarayonlar jamiyatimiz ma'naviy va ijtimoiy hayotida tub burilishlarni boshlab berdi va ular o'zbek xalqining bundan keyingi taqdirini belgilab berishda muhim rol o'ynaydi. Mamlakatim istiqlolning eng dastlabki kunlaridanoq, buyuk ma'naviyatimiz va qadriyatlarimizni, xalqimizning yaratgan boy madaniy merosini avaylab-asrash va keyingi avlodga yetkazish oldimizda turgan muhim masalalardan biridir. Ma'lumki, har qanday jamiyatning kelajagi yosh avlodni qanday ta'lim olishiga va qay tarzda tarbiyalanishiga bog'liq.

Qadriyatlar-inson uchun ahamiyatli bo‘lgan millat manfaatlarini yo‘lida xizmat qiladigan erkinlik, ijtimoiy adolat, tenglik, haqiqat, ma’rifat, go‘zallik, yaxshilik, halollik, burchga sodiqlik singari fazilatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Qadriyatlar o‘zining mazmun mohiyatiga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi.



Shu bilan birga, fanda qadriyatlarning milliy va umuminsoniy turlarga ajratilishi an’ana tusiga kirgan. Milliy qadriyatlar ma’lum bir millat, xalq va elatlarning o‘z tarixiy taraqqiyotida yaratadigan barcha moddiy va madaniy (ma’naviy) boyliklari yig‘indisidan iboratdir. Qadriyatlar turli-tuman bo‘lib, bular ichida “eng oliy qadriyat — inson” hisoblanib, qolgan barcha qadriyatlar unga xizmat qiladi. Inson qadriyatining ma’naviy, tarixiy hamda ta’limiy jihatlari o‘ziga xos yangicha fikrlash va yondashishlarga asoslanadi.

Umuminsoniy qadriyatlar. Odamzodning yashashi, umrguzaronligi, farzandlari hayotining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy, ma’naviy va axloqiy sohalariga taalluqli bo‘lgan umumjamiyat miqyosidagi qadriyatlar butun insoniyat va jamiyatga tegishli bo‘lganidan umuminsoniy qadriyatlar deb ataladi. Tabiatni muhofaza qilish, ekologik tarbiya va madaniyatni rivojlantirish, insoniyatning sihat-salomatligini saqlab qolish, xavfli kasalliklarning o‘zaro hamkorlikda oldini olish, oziq-ovqatga, yoqilg‘i va energiyaga bo‘lgan tanqislikni tugatish, madaniy boyliklarni, kishilik jamiyati

taraqqiyotidagi rivojlanishning muntazam davomini ta'minlashga erishish, tinchlikni saqlashga erishish va shu kabilar umuminsoniy qadriyatlar bo'lib hisoblanadi.

Umuminsoniy qadriyatlar o'zining mazmuni, mohiyati, keng miqyosda amal qilinishi, dunyodagi ko'plab xalqlarning o'tmishdagi, hozirdagi hamda istiqboldagi taraqqiyoti bilan uzviy aloqadorlikda ekanligi, o'zida jahon sivilizatsiyasining yaxlit va bir butunligini ifodalaganligi bilan mintaqaviy va milliy qadriyat – lardan tubdan farq qiladi. Umuminsoniy qadriyatlar alohida xalqlarning va millatlarninggina emas, balki bashariyatning mulkidir. Demak, umuminsoniy qadriyatlar eng oliy qadriyat bo'lmish odamning o'zidan boshlab, uning turmush tarzi, hayot mazmuni, oilasi, jamoasidagi o'rni bilan bog'liq bo'lgan butun insonyat va jamiyatga tegishli jihatlar ekan.

Bugungi kunda insoniyat muayyan qadriyatlarni umuminsoniy qadriyat sifatida baholaydi. Shu jihatdan bu o'rinda umuminsoniy qadriyatlarning eng asosiy ko'rinishlari mavjud.

- 1) har bir shaxs va xalqning ozod va erkin yashashi;
- 2) har bir shaxs va xalqda bag'rikenglik va tinchliksevarlik yondashuvlarining tarkib topishi;
- 3) har bir shaxs va xalq baxtli va farovon yashashi;
- 4) har bir shaxs o'zga xalqlarning qadriyatlarini hurmat qilishi.

Umuminsoniy qadriyat jamiki insoniyatga xos bo'lgan, ularning insoniy fazilatlari, xislatlarini ifodalaydigan an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, fikrlar, g'oyalar, qarashlar, ta'limotlar va shu asosda yuritiladigan faoliyat bo'lib, undan ta'lim-tarbiya sohasida samarali foydalanish ko'plab istiqbolli muammolarni hal qilishga imkoniyat yaratadi. Shuning bilan birga umuminsoniy qadriyatlardan samarali foydalanish bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchisining dunyoqarashini kengaytirishga va hattoki jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga ham ijobiy ta'sir qiladi.

Boshlang'ich ta'lim tarbiya darsliklarida o'quvchilarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda har bir o'quvchini dunyodagi tengdoshlari hayoti bilan tanishtirib borish muhim omil sifatida qaraladi. Bunda insoniy qadriyat sifatida millat va elatidan qat'iy nazar, bir zaminda yashayotgan

odamlarning birligi muhimdir, g'oyasini singdirib borish muhimdir. Bu hol ko'p millatli va elatli bo'lgan jamiyatimiz uchun xos bo'lib, uning amaliy ahamiyati tarbiya darsliklarida o'z aksini topgan.

Milliy qadriyatlar-ma'lum bir millat, xalq va yelatlarning o'z tarixiy taraqqiyotida yaratadigan barcha moddiy va madaniy (ma'naviy) boyliklari yig'indisidan iboratdir.



Jamiyatda milliy qadriyatlarni o'z qalbida mustahkam saqlash, atrof-muhit, tabiat va hayotni go'zal, farovon qilish, demokratiya asoslari hamda jam'iyatda amal qilayotgan progressiv g'oyalar buyuk qadriyat hisoblanadi. Inson qadriyati uning dastavval o'z-o'ziga va shu jamiyatga bo'lgan hurmati hamda munosabati, xulq-atvori bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Bu insonga o'z xulq-atvorini tartibga solishi, o'ziga nisbatan talabchanlik va nazoratni kuchaytirishga imkon beradi. Insonning shaxsiy qadr-qimmati milliy qadriyatlardan kelib chiqadigan ijtimoiy xususiyatlaridan bo'lib, uni yuksaklikka olib boruvchi oliyjanob bir kuchdir. Shu jihatdan qadriyatlar insonning ijtimoiy erkinligini va ma'naviy pokligini ta'minlovchi bir buyuk manbadir. Bir so'z bilan aytganda, mutafakkir olimlar yuksak ma'naviy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar doirasida talqin etdilar. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ma'naviy omillarni yuksak baholadilar. Shu ma'noda o'sib kelayotgan yosh avlodda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarkib toptirish zaruriyati yuzaga keldi. Axloq kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyoti davomida vujudga kelib, tarkib topgan, takomillashib kelgan

me'yor va qoidalaridan iborat bo'lib, ular kishilarning jamiyatga bo'lgan munosabatlarini tartibga soladi. Bu me'yor va tartib qoidalar kishilardan jamiyat uchun zarur bo'lgan axloqqa ega bo'lishlikni talab qiladi. Axloq insonning dunyoqarashi, xulqini belgilovchi insoniy fazilatdir. Shu bois dunyoqarash o'zgarmaguncha inson ham o'zgarmaydi.

O'zbek milliy pedagogi Abdulla Avloniy axloqqa quyidagicha ta'rif beradi: „Axloq insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va isbotlar ila bayon qiladigan kitob axloq deyilur“.

Axloq-inson hayotida o'z-o'zini idora qilish me'yorlarini, boshqalar bilan munosabatda bo'lish madaniyatini, halol ishlab, to'g'ri hayot kechirish mezonlarini o'rgatadi. Axloq — tarixiy hodisa. Axloqiy qonun-qoidalar barcha zamonlar uchun bir xil, o'zgarmas bo'lishi mumkin emas. Muayyan jamiyat uchun ayrim axloqiy qoidalar to'g'ri bo'lsa, boshqa davrga kelib noto'g'ri bo'lib qolishi mumkin. O'zbekona, milliy axloqda ota-bobolarimizning tarixiy tajribalari, davrlar sinovidan o'tgan saboqlari va bizga doim omad bo'lib turgan ruhiy quvvatlari jamuljamdir. Barkamol insonni axloqiy tarbiyalash, voyaga yetkazish haqida mutafakkirlarimiz bir qator asarlar yaratishgan. Chunonchi, Kaykovusning „Qobusnoma“, Sa'diyning „Guliston“, „Bo'ston“, Amir Temurning „Temur tuzuklari“, Abdurahmon Jomiyning „Bahoriston“, Alisher Navoiyning „Mahbub ul-qulub“, Husayn Voiz Koshifiyning „Axloqi muhsiniy“ va boshqalarni ko'rsatishimiz mumkin. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng ta'lim-tarbiya sohasida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Ta'lim-tarbiyada milliy qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirish asosiy o'rinni egalladi. Tariximiz, madaniyatimiz, milliy urf-odatlariga e'tibor kuchaydi. Bugungi kun yoshlari mustaqilligimizni mustahkamlashda o'z e'tiqodi, g'ayrat-shijoati, madaniyati, bilimi va ularni tatbiq etish mahorati bilan ajralib turadilar. Ular jamiyatda, jamoada xalqlar va millatlar o'rtasida do'stlik, sog'lom turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan muhitni vujudga keltirishga intiladilar. Komil insonni shakllantirishda maktabda, oilada sog'lom ma'naviy muhit barqaror bo'lishiga erishish muhim ahamiyatga ega. Chunki sog'lom muhit natijasidagina axloqiy fazilatlar tarkib topadi. Kishi o'z hayotida axloqiy

kamolotga qanchalik ko‘p intilsa, shunchalik o‘z xato-kamchiliklarini anglab boradi.

Yoshlarni tarbiyalashda sharqona va milliy axloq-odob normalari asosida ish yuritish bilan birga jamiyatga hurmat, mustaqillikni mustahkamlash, insonlarga insoniy munosabatda bo‘lish kabi fazilatlarni singdirish taqozo etiladi. O‘quvchining jamiyatga bo‘lgan munosabatida milliy birlik, birdamlik va hamkorlik tuyg‘ulari, turli xalqlarga bo‘lgan hurmat kabilar yaqqol namoyon bo‘lishi zarur. O‘zbekiston mustaqilligi, yurtimiz ravnaqi yoshlarni o‘qish, va mehnatdan qochmaydigan, har qanday qiyinchiliklardan hayiqmaydigan, salbiy illatlarga nafrat bilan qarash ruhida tarbiyalashni talab qiladi. Shunga ko‘ra bugungi jamiyatimizda yashayotgan har bir yosh kelgusida shu o‘lkaning haqiqiy egasi bo‘lib yetishishi, uning gullab-yashnashi haqida qayg‘urishi, erishgan yutuqlarini mustahkamlashi lozim. Diyorimizda mustaqillik tantanasi tufayli ta‘lim–tarbiya tizimida tub o‘zgarishlar vujudga keldi. Milliy qadriyatlarni tiklash, milliy ma‘naviyatni yuksaltirish, ayniqsa, sharqona odob-axloq an‘analariga e‘tiborni kuchaytirish shular jumlasidandir.

O‘lkamizda buyuk rejalar, bunyodkorlik ishlari aql-idrok, sabr-qanoat bilan, tarixiy an‘analarimiz, tajribalarimizni hisobga olgan holda qadam-baqadam amalga oshirilmoqda.

An‘ana —bu o‘ziga xos ijtimoiy hodisa bo‘lib, kishilarning ongida, hayotida o‘z o‘rnini topgan, avloddan-avlodga o‘tadigan, takrorlanadigan, hayotning barcha sohalarida (umum yoki ma‘lum guruh tomonidan) qabul qilingan tartib va qoidalaridir.

An'analarning ijtimoiy, siyosiy, axloqiy mazmuni turli tarixiy davrlarda ayniqsa keskin sinfiy kurashlarda yaqqol ko‘rindi. Ommaviy xalq harakatlari, inqilobiy janglar avj olgan davrda ham kishilar ijtimoiy qiziqishlar bilan yashaganlar. Yuksak ideallar uchun kurashgan vaqtlarda ham an'analar tarkib topgan. An'analarni o‘rganishda ular qanday tarixiy sharoitda va qaysi sinf tomonidan yaratilganinini, kimlarga xizmat qilganini, kimning manfaatini yoqlaganini va qaysi sinfnings hukmronligini mustahkamlaganini ko‘ra bilishi kerak. Binobarin, an'analar hayot talablariga javoban paydo bo‘ladi va u yoki bu sinf manfaatiga javob bera olguncha yashaydi. Ular qandaydir ishning

takrorlanishi natijasida, vaziyat taqozosiga ko'ra paydo bo'ladi. Bunda ular tasodifan vujudga keladi yoki ongli ravishda joriy etiladi.

Ensiklopediyada an'ana quyidagicha ta'riflanadi: «an'ana (lotincha –trado – uzatish so'zidan)» ijtimoiy va madaniy merosning avloddan avlodga o'tadigan va muayyan jamiyatlarda, sinflarda va ijtimoiy guruhlarda uzoq vaqt saqlanadigan elementi bo'lib, u ijtimoiy merosning obyektlarni o'z ichiga qamraydi.

Kichik ensiklopediyada bu ta'rif shunday aniqlashtirgan: «an'analar (tratio – uzataman so'zidan) tarixdan tarkib topgan va ajdoddan avlodga o'tadigan odatlar, ijtimoiy tarptib, xulq normasi, g'oyalardan iboratdir». Pedagogika lug'atida an'ana xususida shunday deyiladi: «oilaviy an'ana (lotincha – trado-uzatish so'zidan olingan) oilada qabul qilingan va katta avlod kichik avlodga beradigan odatlar hamda xulq normalarining majmui.

An'analar maktabda mustahkam o'rin olgan, jamoa saqlaydigan va o'quvchilarning bir avloddan boshqa avlodga o'tadigan odatlar, tartiblar, xulq qoidalaridir». «An'ana bir avloddan ikkinchi avlodga o'tgan, oldingi avloddan meros bo'lib qolgan narsalar (masalan, g'oyalar, qarashlar, didlar, harakat obrazlari va hokazolar)» S.I.Ojegov muallifligidagi lug'atda shunday qilib, an'analar o'tish, berish degan ma'noni anglatadi. An'analar tasodifan vujudga kelmasligi, balki yillar mobaynida tarkib topishi ma'lum. Demak, an'analar ko'p marta takrorlanadigan va ajdoddan avlodga o'tadigan muayyan qarashlar, e'tiqodlar, didlar, xatti-harakat normalari va qoidalari, ishlar va hodisalardir. Biz an'analar yashashining asosiy sharti ularning saqlanishi va uzatilishida deb hisoblaymiz. An'ana ko'p qirrali, murakkab hodisadir.

An'analar, urf-odatlar va bayramlarning har biri muayyan tarixiy davrning mahsulidir. Ular moddiy turmush shart-sharoitlarining ta'siri bilan paydo bo'lgan, rivojlangan, takomillashgan, asrlar osha ajdoddan avlodga o'tib kelgan va xalqning yaxshi orzu niyatlari hamda ma'naviy boyliklarini o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi. Ular sinfiy jamiyatda sinfiy xarakter kasb etadi. Ilg'or an'analar esa yangi davr, ijtimoiy tuzum ehtiyojlariga moslashadi. Masalan, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehmondo'stlik, bolalar tarbiyasi bilan bog'liq an'analar asrlar davomida yaralgan bo'lib, ular

hozir ham ijtimoiydir. Har bir avlod o'zidan oldingi avlodlardan meros qolgan an'analar va urf-odatlarni mexnati, bilimi, tajribalari bilan boyitadi va rivojlantiradi. An'analar fenomen sifatida ijtimoiy hayotning turli sohalariga (huquq, siyosat, iqtisodiyot, etnografiya, din, adabiyot, san'at, madaniyat va hokazolarga) xos bo'lib, ma'lum ma'noda barcha ijtimoiy tizim hayotiyligining muhim shartidir. G'oyalar, uchrashuvlar, ma'lum ijtimoiy tadbirlar, jumladan, didlar, urf-odatlar, axloq normalari, marosimlar, bayramlar, qo'shiqlar ham an'ana shakliga kirishi mumkin. Shuningdek, xalqqa, mamlakatga, o'lkaga, millatga va oilaga xos an'analar ham mavjud bo'ladi. Umuminsoniy an'analar ham bor. Masalan, mehnat an'analari garchi, milliy ko'rinishga ega bo'lsa-da, umuminsoniy an'analardir. Ular ilg'or jihatlari tufayli uzoq yashaydi, e'zozlanadi va avloddan avlodga o'tadi.

Davrning hamda ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning talablariga javob beradigan an'analar ehtiyotkorlik bilan saqlanadi va boyitiladi; aks holda yangi an'ana bilan kurashda unutilib ketadi. Akademik F.Kogormning ta'kidlashicha, «analar dialektik rivojlanadi, yangi an'analar qabul qilinadi, xalq, asrlar mobaynida yaratgan an'analardagi barcha yaxshi va ilg'or narsalardan foydalaniladi. Ikkinchi tomondan, eskirgan va zamon talablariga javob bermay qolgan an'analar rivojlanish jarayonida yangi an'anaga o'z o'rnini moneliksiz bo'shatib beravermaydi. Odatda yangilik eskilikka qarshi kurashda vujudga keladi va o'ziga yo'l ochadi»

Odat („urf-odat“) — kishilarning turmushiga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari. Masalan:

- kichiklarning kattalarga salom berishi;
 - erta turib uy-hovlini tartibga keltirib qo'yish;
 - mehmonlarga alohida hurmatda bo'lish;
 - bayram arafasida kasal, ojiz, qiynalganlardan xabar olish;
 - yordam lozim bo'lganlarnikiga hasharga borish kabilar
- o'zbek xalqining yaxshi odatlari hisoblangan.



Agar an'ana ijtimoiy hayot, mehnat, madaniyatning hamma sohalariga xos bo'lib, hodisalarning juda keng doirasini qamrasa, odat ijtimoiy hayotning ma'lum sohalarida ya'ni, kishilar tumushi, mehnati, xulq-atvori, muloqoti, oilaviy munosabatlarda ko'proq mavjud bo'ladi. Urf-odatlarni etnograflar, faylasuflar, folklorshunoslar, publitsistlar turli nuqtayi nazardan ta'riflaydilar. Faylasuf olim Ugrinov fikricha, urf-odat yangi avlodga muayyan g'oyalar, axloq xatti-harakatlar, boyliklar va tuyg'ularni hadya etishning maxsus usulidir. Vorislikning boshqa usullaridan esa urf-odatlar o'zining ramziylik tabiati bilan farqlanadi. "Urf-odatlar bilan bog'liq xatti-harakat hamma vaqt ramziylik bilan sug'orilgan. Ramzlar o'zida u yoki bu ijtimoiy g'oyani, obrazni, fikrni umumlashtiradi, tunga muvofiq tuyg'ularni qo'zg'aydi" Urf-odatlar, udumlar, rasm-rusumlar zanjirdan iborat. Ular madaniy boyliklarni avlodlarga hadya etuvchi muhim vosita hisoblanadi. Udumlar, rasm-rusumlar urf-odat singari ramziy obrazlarga ega emas. Ular kishilarning uzoq yillik faoliyati – mehnatdagi, turmushdagi, oiladagi amaliy xatti-harakati natijasida tarkib topadi.

Marosim-an'ana va urf-odatning tarkibiy qismi bo'lib, inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik, tantanavor vaziyatda o'tadigan o'zining umumiy qabul qilingan ramziy harakatlariga ega bo'lgan hayotiy tadbir. Masalan:

- ism qo'yish marosimi;
- nikohdan o'tish marosimi;
- xotirlash marosimi;
- Urug' qadash marosimi;
- o'rimga kirish marosimi va boshqalar.



Odat kundalik hayotning turli vaqtida uchrashi mumkin bo'lsa, marosim esa inson hayotidagi muhim hodisalar sodir bo'lganda vujudga keladi.

Marosimlar – an'ananing badiylashgan, ramziy belgilar, obrazlar musiqa, raqs, qo'shiq, publitsistik, badiiy so'z vositasida anglashiladigan muayyan g'oyalar, axloq normalari shaklidagi ko'rinish. Marosim bir nechta rasm-rusum, udumlar zanjiridan iborat. U an'analarning tantanali badiylashgan qismi bo'lib, ommaviy harakatlar yig'indisidir. Marosim urf-odatning hamma vazifasini ado etishga qodir emas, balki uning biror qismi – boshlanishi, kulminatsiyasi, tugallanishini namoyon qiladi. Shu bois urf-odat keng rejali xatti-harakat majmui bo'lsa (to'y bayramlar, armiya safiga

chaqirish va hokazolar), marosim ana shu tantanani o'tkazish payti badiylashgan qismidir.

Bayram- biron-bir muhim hodisa, voqea, sanani ko'pchilik bo'lib, ko'tarinki ruhda, xursandchilik bilan nishonlash tushuniladi. «Bayram kunlarida odamlar «qisqa» vaqtga bo'lsa-da, o'zlarini kundalik mehnatdan, tashvishdan, g'am-g'ussadan, qaramlikdan, qarzdin xoli, erkin seza-dilar», deydi qadimshunos M. Qodirov.

Bayramlar har bir xalqning o'ziga xos qadriyatlarini aks ettiradigan ko'zgu sanaladi. Chunonchi, kishilar bayram chog'ida chiroyli kiyimlar kiyishadi, lazzatli taomlar tayyorlashib, o'z pazandaliklari, kiyinish madaniyatlari, go'zallikka tashnaliklarini namoyish etishadi. Bayram kuni hamma ko'tarinki kayfiyatda bo'ladi. Odamlar o'rtasida boshqa kunlarga qaraganda muayyan darajada yaqinlik, hamkorlik, hamjihatlik vujudga keladi. Bayram kuni azal-azaldan tinchlik kuni hisoblangan. O'sha kuni urush, nizo va mojarolar to'xtatilgan. Bu kunda kishilar o'rtasidagi adovat, gina-kuduratlar unutilgan, o'zaro arazlashganlar yarashishgan. Bayramlarda vujudga keladigan ko'tarinki kayfiyat kishilarni ertangi kunga umid bag'ishlashga, kelajakka ishonch bilan qarashga undaydi.

Bayram ijtimoiy-madaniy hayot ko'zgusi sifatida har bir xalqning ijtimoiy-iqtisodiy yutuqlarini ham keng namoyish qiladi. **Navro'z bayrami.** Bu tabiatning uyg'onishi, ekin ishlarining boshlanishini nishonlashga qaratilgan bayram bo'lib, marosimlarda qadimiy zardushtiylik alomatlari saqlanib qolgan. An'anaga ko'ra, uylarda hozir ham xuddi qadimdagidek bo'g'irsoq pishiriladi va marosim taomi sumalak tayyorlanadi. Bayramdan keyin, odatda, daladagi ekin ishlari boshlangan. 3-sinf tarbiya darsligida O'zbek xalqining milliy bayrami sifatida Navro'z bayrami keltirilgan bo'lib, bu bayram haqida ko'pgina ma'lumotlar keltirilgan, Navro'z-bahorgi tengkunlik, yangilanish bayrami. Sharq xalqlarida 21-mart kuni nishonlanadi.



Navro‘z- kirib kelgan bahorni qarshilash, qishdan eson-omon chiqib olganimiz uchun shukrona qilish bayramidir. Bu kunda hamma bir-birini tabriklaylaydi, qarindosh-urug‘larini bemor va yolg‘izlarni yo‘qlaydi, arazlashganlar yarashadi. Bu kunda milliy o‘yinlar o‘ynaladi, o‘yin kulgu qilinadi, barcha yaqinlar bayram Daturxoni atrofida to‘planadi. Nauriz, Navro‘z, Nauroz, Navrez, Nooruz...Turlicha xalqlar bu bayramni ana shunday turlicha ataydilar.

Bayramlar – kishilarning xususiy va jamoa bo‘lib kechirish sharoitining yig‘indisi bo‘lgan tarixiy ijtimoiy taraqqiyot jarayonida yuzaga kelgan, o‘zida ideallarni, estetik ehtiyojlarni ifodalagan an‘analalar va urf-odatlarining muayyan shakldagi tantanali ko‘rinishi. Bayram-jamiyat, davlat, sinf, ijtimoiy guruh, oila hayotidagi biror muhim va quvonchli voqeaga bag‘ishlangan kundir. Bayramlar bir qancha elementlarni o‘zida namoyon qilib, siyosiy tadbirlar (tantanali majlis, ilg‘orlarni mukofotlash), o‘ziga xos odatlar (harbiy parad, mehnatkashlar namoyishi), oilaviy tantanalar (qarindoshlar, do‘stlar uchrashuvi) kabilarning zanjiridan iborat.

Shaxs ma’naviy yuksalishida qadriyatlarning ahamiyati

O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida rivojlanish va taraqqiyot yo‘liga tushgan bugungi kunning istiqboli — kelajagini belgilash va ta’minlash ko‘p jihatdan hozirgi yosh avlodni ma’naviy yetuk qilib tarbiyalashga bog‘liq. Bu haqda donishmand Suqrot naql qiladi: „Tarbiya qiyin ish va tarbiya shart-sharoitlarini yaxshilash har qanday kishining ham muqaddas burchlaridan biridir, chunki o‘zini va tevarak-atrofdagilarni ma’lumotli qilishdan ko‘ra muhimroq ish yo‘q“ Donolar topib aytadi. Zero, har qanday jamiyat taraqqiyoti, inson kelajagining istiqboli ayni ta’lim-tarbiya masalasiga borib taqalishi haqiqat. Shu nuqtayi nazardan, bugun yurtimiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati kundek ravshan. Bunday muhim ishni, diyorimizdagi barcha xalqlar ma’naviy yuksalishining muhim omili bo‘lgan bolalarni boshlang‘ich maktabdanoq ozodlik va mustaqillikni anglash hamda ularni qadrlash ruhida tarbiyalash, tarixiy-milliy xususiyatlarimizga mos keladigan ta’lim tizimini yaratish orqali amalga oshirilmoqda. Bunda, ayniqsa, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, xalqimizning an‘analarini, madaniyati va ilm-fan bobidagi ko‘p asrlik tajribalarini o‘rgatish ijobiy pedagogik samaralarni beradi. Shuning bilan birga

jamiyatimizda yashovchi har bir ongli kishi, mustaqil va erkin fikrga ega bo'lgan shaxs va fuqarolik jamiyati ma'naviyatini shakllantirish va shu asosda rivojlantirish O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining asosini tashkil etadi. Shu sababli ham o'qituvchining serqirrali va murakkab kasbiy faoliyati zahirida yosh avlodni odobli, e'tiborli qilib tarbiyalash, ularni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish yordamida dunyoqarashini kengaytirish kabi muhim vazifalar yotadi. Ma'lumki, jamiyat ma'naviy hayotini rivojlantirish o'sha jamiyatda faoliyat ko'rsatuvchi kishilarning intellektual salohiyati: ma'naviyati va ma'rifati, madaniyati va san'ati, ilm-fani va ta'lim-tarbiyasi to'g'risidagi bilimlarning nechog'liq ilmiy asoslanganligi, to'g'ri nazariy va amaliy negizlar asosida shakllanganligiga bog'liq. Shu sababli ham bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchisining ilmiy dunyoqarashini jahon ta'limi talablariga mos qilib shakllantirish o'ta muhim muammodir. Bu muammo yechimini topishda biz, avvalo, shaxs, ya'ni bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchisi oldiga qo'yilgan quyidagi vazifalarga e'tiborni qaratdik:

— har bir bolada mavjud bo'lgan layoqat, ishtiyoq va qobiliyatlarni erkin va samarali rivojlantirishga erisha olishlik;

— ijobiy (axloqiy, mas'uliyat, qat'iyat, iroda, jasorat, mehr-muruvvat va shu kabilar) sifatlarni, milliy va fuqarolik his-tuyg'usini hamda milliy g'ururni o'stirishga erishish;

— ilmiy dunyoqarash va e'tiqod;

ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy zarurlatlarni chuqur tushunish, ijtimoiy va fuqarolik burchini anglash;

ijtimoiy iqtisodiy-siyosiy faollikni tarbiyalashga tayyor holda bo'lishga erishish va shu kabilar.

Demak, bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z o'quvchilarining har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratishi, ya'ni ularni o'qishga, ta'lim olishga qiziqtirishi va ishtiyoq uyg'otishi bilan birga ularning idrok etish, fikrlash qobiliyatlarini, dunyoqarashini kengaytirish kabi sifatlarini o'stirishga o'z kasbiy faoliyatini to'liq safarbar etmog'i lozim. Bunda ular o'z o'quvchilarining ruhiy holati va imkoniyatlari, layoqati, yetukligi (yoshi

nuqtayi nazaridan), ma'naviy ehtiyoji, yashash muhiti (oiladagi turmush tarzi va ular yashaydigan jamoa — mahalladagi muhit umum sog'ligi) kabi omillarni e'tiborga ola bilish qobiliyatiga ega bo'lmog'i lozim. Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z kasbiy sohalarida quyidagi xislatlarga ega bo'lishi lozim bo'ladi: o'z o'quvchilarini sevish va ular bilan ishlashga qiziqish, pedagogik faoliyatni sevish va bu faoliyatni o'zining hayotiy ehtiyojiga aylantirish; ruhiy va pedagogik jihatdan ham ziyrak, kuzatuvchan, sinchkov bo'lish;

pedagogik taktik va tasavvuriga hamda tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lish: adolatlilik, dilkashlik, talabchanlik va qat'iyatlilikni uyg'un holda olib bora olishlik; maqsadga intilishda to'g'ri yo'lni tanlay olishlik; vazminlik, dilkashlik, o'zini idora qilishlik, shuningdek, kasbiy faoliyatga layoqatning yuksakligi va shu kabilar. Shuning bilan birga, bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchisi yoshlardagi burchga mas'uliyatni tarbiyalash sir-asrorlarini egallamog'i lozim. Ushbu sohada olib borgan izlanishlarimiz natijalarining ko'rsatishicha, bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchisining ma'naviy qiyofasi shakllanishida, asosan, quyidagilarga e'tibor berish kerak ekan:

— oila, mahalla va maktabni muqaddas deb bilish;

— bola xatti-harakatini tahlil qila bilish va rejalashtirilgan

ta'lim-tarbiya, bola ongi va tasavvuriga mos qilib, halol va harom, to'g'rilik va egrilik, yaxshi va yomon, mardlik va nomardlik, rna'naviyatlilik va vaxshiylik kabi tushunchalarning mazmun-mohiyati singdira olish qobiliyatiga ega bo'lish;

— bolaning erkin, mustaqil va to'g'ri, keng ko'lamli fikrlashini shakllantirishning shakl, usul va vositalarining optimal variantlarini tanlay olish;

—o'tmish boy milliy-ma'naviy merosimizga hurmat uyg'ota bilish uslubi-yatini yarata bilish;

—milliy g'ururni uyg'otish, davlat ramzlariga hurmat va unga mos g'ururni shakllantirish,

fidoyilikni shakllantirishning sir-asrorlarini o'rgata bilish;

— o‘z o‘quvchilarini go‘zal, ziyrak, aqlli, ongli, milliy g‘ururli, sezgir, sinchkov, farosatli, madaniyatli, ma’naviyatli va shu kabi xislatlarni shakllantirishga innovatsion yondashuvlar qila olishga erishish;

— o‘z o‘quvchilarini vatanparvar, baynalminalchi, fuqarolik burchini chuqur his qiluvchi va shuningdek, milliy istiqlol g‘oyalariga sodiq ma’naviyatli kishilar darajasida tarbiyalashga yangicha munosabatlarni shakllantirish va shu kabilar.

Yuqorida bayon qilingan bo‘lg‘usi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ma’naviy qiyofasi va kasbiy sohasi bo‘yicha ifodalangan. Maqsad va vazifalarni amaliy faoliyatda keng joriy etishda, uarning zamonaviy kasbiy faoliyati mustahkam egallashida umuminsoniy va milliy qadriyatlarning roli va o‘rni beqiyosdir. Chunki ular tufayligina barkamol avlod tarbiyasini zamon talabi asosida olib borish mumkin va ular kelajak avlodni ona-Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashning asosiy negizlari hisoblanadi.



4. Boshlang‘ich sinf “Tarbiya” darsliklaridagi milliy qadriyatlarning shaxs kamolotiga ta’siri.

Boshlang‘ich sinf tarbiya darsliklarida milliy qadriyatlar, urf-odat, an‘ana, marosimlar singdirilgan, o‘zligimizni anglatadigan, o‘quvchida qadriyatlarga nisbatan bilimlarni shakllantirib beradigan bir qancha mavzularni ko‘rishimiz mumkin. 1-sinf “Tarbiya” darsligida so‘zlashish odobi, o‘zaro yordam, minnatdorlik, halollik, mehmondorchilik odobi, bag‘rikenglik, 2-sinfda hurmat va xushmuomalalik, dasturxon odobi, hamkorlik an‘analari, yod olingan kitob, madaniyat va ta’lim, teatr yoki konsert zalida o‘zini tutish odobi 3-sinfda mening odatlarim, an‘analar-xalq xotirasidir, O‘zbekiston xalqlari madaniyati, O‘zbekiston shaharlari, muzeylar-moziy ko‘zgusi, O‘zbekiston bo‘ylab sayohat 4-sinfda sog‘lom turmush tarzi, bizning xatti-harakatlarimiz, shaxsiy chegaralar, suv zaxiralari, cho‘lga aylanayotgan hududlar kabi mavzular keltirilgan bo‘lib, millatimizga xos hurmat, ijtimoiy ko‘mak, azaldan shakllanib, rivojlanib kelgan o‘zbek

xalqining madaniyati o‘z aksini topgan. 1-sinf darsligining 10-11-mavzulari “So‘zlashish odobi” deb nomlanib, unda quydagilar keltirib o‘tilgan.



Bilamizki, O‘zbek xalqiga xos bo‘lgan odatlardan biri salomlashish, so‘zga e’tibor, chiroyli so‘zlashuv odobi, etika, estetika madaniyati jamoat joylarida, insonlar bilan o‘zaro muomalaga kirishayotganda namoyon bo‘ladi. O‘quvchilarda so‘zlashuv odobi bilan bog‘liq madaniyatni shakllantirish, nutqini rivojlantirish, kompetensiyalarni tarkib toptirish, ongli, milliy g‘ururli, madaniyatli, ma’naviyatli, jamoada o‘zini tutish qoidalarini aynan so‘z vositasida takomillashtirish muhim vazifalardan sanaladi. Bu so‘zlar darslikda “Sehrli so‘zlar” sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, jajji o‘sib kelayotgan o‘quvchida so‘z qudrati, sehrini namoyon etishga yordam beradi. Xuddi shunday bu so‘zlar bilan bog‘liq topshiriqlar ham keltirib o‘tilgan.

Yozma topshiriq

Sehrli so‘zlarni eslang.

Minnatdor bo‘lganda qanday so‘zlarni aytamiz?

“Xayr” so‘zini qaysi so‘zlar bilan almashtirish mumkin?

Sehrli so‘zlarni belgilang.

☐ Salom ☐ Salomat bo‘ling ☐ Xayr ☐ Yaxshimisiz? ☐ Rahmat ☐ Iltimos	☐ Omadsiz ☐ Ko‘rishguncha ☐ O‘zing shunaqasan ☐ Xayrli kun ☐ Kechirasiz ☐ Minnatdorman
---	---

3-sinf “Tarbiya” darsligida milliyligimiz, qadriyatlarimiz bilan bog‘liq bir qancha mavzular keltirib o‘tilgan. 4-bob “An’analar va madaniyat” deb nomlanib, an’analar xalq xotirasidir, O‘zbekiston xalqlari madaniyati, O‘zbekiston shaharlari, muzeylar-moziy ko‘zgusi kabi bot tarixiy madaniyatimiz bilan bog‘liq mavzular keltirilgan, bundan tashqari, mening odatlarim 19-darsda ham odatlar bilan bog‘liq ma’lumotlar berilgan.



O‘zbek xalqining qadimiy an’analaridan biri- kulolchilik, uning kelib chiqishi va qaysi shaharlarda bu hunarning rivojlanganligi haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan, O‘zbekiston hududidagi shaharlarda qadimiy qadriyatlarimiz bilan bog‘liq shakllanib kelgan hunarmandchilik namunalari va ular haqida qisqacha ma’lumotlar asosli bayon qilingan.



Shuningdek, milliyligimizni akslantiruvchi taomlardan biri bo‘lgan osh tarixi, uning tayyorlanishi, turlari, har bir vohaga xos pishirilish usullari ko‘rsatib o‘tilgan.



Nafaqat palov, balki butun jahonda guruch bilan tayyorlanadigan taomlar va rasmlari akslantirilgan.



O'quvchilar bu taomlarning o'xshashligi, farqlari, har bir xalq madaniyatidagi tafovutlarning o'ziga xosligi, palovning butun dunyo bo'ylab tarqalish sabablari va turfa xalqlar ularning turlicha tarkib topgan urf-odatlarini bilan tanishadilar.

Milliy liboslarda, jahon xalqlari liboslarida, xalqlarning tarixi, qadimiy urf-odat va an'analari, didi, estetik qarashlari mujassam etgan bo'lib, hozirgi kunda milliy liboslar jozibasini yoshlar o'rtasida keng targ'ib etish g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Milliylikimizni ko'rsatib turuvchi milliy liboslarimizga qadimdan katta ahamiyat berilgan. Ularning tuzilishi, kiyilish uslublari, an'analarning bir qismi sifatida boy merosimiz sarshashmasi sifatida e'tirof etilib, ular haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Bu ma'lumotlarni o'zlashtirish o'quvchilarda milliy g'urur, milliy faxr tuyg'usini his qilishlariga yordam beradi.



Milliy liboslarning dunyo xalqlari liboslaridan farqli jihatlari, kiyinish madaniyati, jamoat joylarida kiyinishning ahamiyati, har bir libosning o'ziga xos mamlakatning ifoda ramzi ekanligi, liboslarning kiyish vaqtlari, ularda aks

etgan milliylik namunalari bilan tanishib o‘tadilar. Shuningdek, darslikda tarixiy shaharlar, qadimiy muzeylar, bayramlar ularda amal qilinadigan urf-odat, rasm-rusumlar keltirilgan.

Sana: _____ **Sinf:** 1-“ _____ ” **O‘qituvchi:** _____

MAVZU: SO‘ZLASHUV ODOBI

Maqsad: Ta’limiy: O‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish. Yuksak insoniy fazilatlar mohiyatini anglatish, ularga ongli munosabatda bo‘lish, hamma millat vakillariga yaxshi munosabatda bo‘lish bilimini shakllantirish **TK2:** axborot manbalari (televizor, telefon)dan to‘g‘ri foydalana olish **FK1** suhbatdoshni tinglash, sukut saqlash va o‘z fikrini to‘g‘ri bayon qilish;

Tarbiyaviy: Odob-inson ko‘rki va ma’naviy boyligi ekanligini va mutafakkir ma’rifatparvarlar asarlaridagi hikmat, rivoyat va o‘g‘itlarini, milliy sharqona odob-axloq qoidalari, fazilatlarini, o‘zbekona urf-odat va an’analarning milliy xususiyatlarni farqlash va amalga oshirish usullarini o‘rgatish. **TK4:** Davlat ramzlariga hurmat va ehtirom ko‘rsatish;

Rivojlantiruvchi: O‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish, matn bilan ishlash orqali fikrlash qobiliyatlarini, og‘zaki nutqini o‘stirish. **FK1:** O‘zbekistonda yashayotgan millatlar va elatlar haqida ma’lumot bera olish

Dars turi: Yangi bilim beruvchi

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

Dars jihozi: Darslik, taxta, bo‘r, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Darsning borishi.

T/R	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa

4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O`quvchilarni rag`batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: Salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o`quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o`quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

**II. O`tilgan mavzuni mustahkamlash.** O`tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o`tkaziladi. O`tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O`quvchilar topshiriqlarni bajarib, o`tilgan mavzuni qismlarga bo`lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o`qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

III. Yangi mavzu bayoni:

Sehrli so'zlar

Har bir gap-u so'zimiz –
Go'yo oyna-ko'zgumiz.
Aytgan har so'zimizda
Ko'rinamiz o'zimiz.
Qanday yaxshi so'z-kalom
Odob boshi "Assalom".
Xush yoqadi hamma vaqt:
"Rahmat", "labbay", "marhamat".
So'nggi so'z ham alomat –
"Xayr, bo'ling salomat!"

Dilshod Rajab



O'qituvchi yordamida o'rganing

"Assalomu alaykum", "rahmat", "marhamat", kabi so'zlar sehrli so'zlardir.

Chunki bu so'zlar har qanday odamning ko'ngliga yo'l topadi. Odamlar siz bilan suhbatlashganda gap-so'zingizdan qanday bola ekaningizni bilib oladi. Odobli bola har bir so'zini o'ylab gapiradi. So'zlashuv paytida biz quydagi sehrli so'zlardan foydalanishimiz kerak.



Salomlashish insonlar orasida mehr-oqibat va do'stlik tuyg'ularini paydo qiladi. Chunki salom berish orqali insonlar bir-birlariga salomatlik va tinchlik tilaydilar.

SALOMLASHISH QOIDALARI:

Bolalar ertalab yuz-qo'llarini yuvib bo'lgach, ota-onalariga va o'zidan kattalarga salom beradilar



Xonaga kirgan odam xonadagilarga salom beradi

Yurib ketayotgan odam
o'tirgan odamga salom beradi



Odobli bola doim tabassum bilan:
“Assalomu alaykum”, – deb
salom beradi.

IV. Yangi mavzuni mustankamiash. O'tilgan mavzu mustahkamlanadi.



Xalq o'gitalari

1. Yaxshi so'z- jon ozig'i,
Yomon so'z-bosh qozig'i.
2. Odob boshi-til.
3. O'ynab gapirsang ham, o'ylab gapir.
4. Oz gapir-soz gapir.

1- Topshiriq. Rasmdagi vaziyatda qanday sehrli so'zlarni qo'llash kerak?



2- topshiriq. Qaysi qurilma orqali muloqot qilish mumkin?



Savollarga javob bering

1. Bulut ichidagi soʻzlar qachon ishlatiladi?
2. Bu soʻzlar bizga qanday yordam beradi?
3. “Rahmat” soʻzini qaysi soʻzlar bilan almashtirish mumkin?
4. Kechirim soʻrash uchun qaysi soʻzlardan foydalanamiz?

V. Oʻquvchilarni ragʻbatlantirish. Darsni yakunlash.

Oʻquvchilar darsdagi ishtirokiga koʻra baholanadi. Ragʻbat kartochkalari orqali baholanadi. Guruhlar ham umumiy ragʻbatlantirilib boriladi.

VI. Uyga vazifa: Uyga vazifa bugungi mavzuni oʻqib kelish, sheʼrni yodlash, xulosa chiqarish.



Diqqat qiling!

1. Quyidagi jadvalni toʻldiring.

2. Mamlakatimizda nishonlaniladigan bayramlarni toping.

Y	N	S	A	K	K	I	Z	I	N	CH	I	M	A	R
N	A	Y	M	V	A	Q	I	G	U	N	Y	P	N	T
G	V	Z	U	S	T	G	L	S	K	I	SH	K	U	U

Ta'lim
to'g'risidagi
qonun
(2020)

Boblar	Mazmuni

I	R	O'	D	X	I	R	L	I	K	R	A	L	N	I
Y	I	L	G	O	T	A	V	A	Q	A	D	R	S	A

3. Test topshiriqlarini bajaring.

1. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun qachon qabul qilingan?

- A.2019-yil 1-sentabr
- B.2018-yil 19-noyabr
- C.2020-yil 19-may
- D.2021-yil 19-sentabr

2. Umumiy o'rta ta'limda dars jarayonlarini tashkillashtirishda ta'lim oluvchilar soni necha nafar ekanligi ta'kidlangan?

- A.25 nafar
- B.20 nafar
- C.30 nafar
- D.35 nafar

3. “Ta’lim to’g’risida”gi qonun necha bob va moddadan iborat.

- A.12 bob 70 modda
- B.15 bob 34 modda
- C.11 bob 33 modda
- D.11 bob 75 modda

4. Yangi tahrirdagi ta’lim to’g’risidagi qonunning nechta moddasiga qo’shimcha va o’zgartirishlar kiritildi.

- A.33 tasiga
- B.30 tasiga
- C.32 tasiga
- D.34 tasiga

5. Milliy qadriyatlar deganda nimani tushunasiz?

- A.Ma’lum bir millat xalq va elatlarning o’z tarixiy taraqqiyotida yaratadigan barcha moddiy va ma’naviy boyliklar yig’indisi
- B.Inson hayotida o’z-o’zini idora qilish me’yorlarini tartibga solish va boshqalar bilan munosabatda bo’lish
- C.Bu o’ziga xos ijtimoiy hodisa bo’lib, kishilarning ongida avloddan-avlodga o’tadi.
- D.Biron bir muhim hodisa, voqea.

6. Dual ta’lim nima?

- A.Ta’lim muassasalarida imkoniyati cheklangan jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy, nuqsonli bolalar alohida ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta’lim oluvchilar uchun ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishga bo’lgan teng imkoniyatlar
- B.Ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim va ko’nikmalarni olishga qaratilgan bo’lib, amaliyot va nazariyani bog’lovchi ta’lim olish shakli
- C.Mustaqil ta’lim olishga qaratilgan.
- D.Butun umr davomidagi ta’lim olish shakli

7. Ta’lim to’g’risidagi qonunga binoan ta’lim turlari nechta?

- A.7 ta
- B.6 ta
- C.5 ta
- D.4 ta

8. An’ana deganda nimani tushunasiz?

A. O'ziga xos ijtimoiy hodisa bo'lib, kishilarning ongida, hayotida o'z o'rnini topgan, avloddan-avlodga o'tadigan, takrorlanadigan, hayotning barcha sohalarida (umum yoki ma'lum guruh tomonidan) qabul qilingan tartib va qoidalardir.

B. Kishilarning xususiy va jamoa bo'lib kechirish sharoitining yig'indisi bo'lgan tarixiy ijtimoiy taraqqiyot jarayonida yuzaga kelgan, o'zida ideallarni, estetik ehtiyojlarni ifodalagan an'analar va urf-odatlarining muayyan shakldagi tantanali ko'rinishi.

C. Inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik, tantanavor vaziyatda o'tadigan o'zining umumiy qabul qilingan ramziy harakatlariga ega bo'lgan hayotiy tadbir.

D. Kishilarning turmushiga singib ketgan.

9. Qadriyatlar nechiga bo'linadi?

A. 5 ta

B. 6 ta

C. 7 ta

D. 8 ta

10. "Ta'lim to'g'risida" gi qonunning nechanchi moddasida ta'lim olish shakllari ko'rsatilgan?

A. 14- modda

B. 15-modda

C. 13-modda

D. 17-modda

11. Odamzotning yashashi umrguzaronligi, farzandlari hayotining ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy sohalariga taalluqli bo'lgan qadriyat berilgan qatorni toping?

A. Axloqiy qadriyat

- B. Milliy qadriyat
- C. Umuminsoniy qadriyat
- D. An'anaviy qadriyat

12. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun senat tomonidan qachon maqullandi?

- A. 2019-yil 3-sentabr
- B. 2020-yil 7-avgust
- C. 2020-yil 7-sentabr
- D. 2019-yil 7-avgust

13. Bayram bu-?

A. O'ziga xos ijtimoiy hodisa bo'lib, kishilarning ongida, hayotida o'z o'rnini topgan, avloddan-avlodga o'tadigan, takrorlanadigan, hayotning barcha sohalarida (umum yoki ma'lum guruh tomonidan) qabul qilingan tartib va qoidalardir.

B. Kishilarning xususiy va jamoa bo'lib kechirish sharoitining yig'indisi bo'lgan tarixiy ijtimoiy taraqqiyot jarayonida yuzaga kelgan, o'zida ideallarni, estetik ehtiyojlarni ifodalagan an'analar va urf-odatlarning muayyan shakldagi tantanali ko'rinishi.

C. Inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik, tantanavor vaziyatda o'tadigan o'zining umumiy qabul qilingan ramziy harakatlariga ega bo'lgan hayotiy tadbir.

D. Kishilarning turmushiga singib ketgan.

14. Inkluziv ta'lim nima?

A. Ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy, nuqsonli bolalar alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishning teng imkoniyatlari

B. Ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, amaliyot va nazariyani bog'lovchi ta'lim olish shakli

- C. Mustaqil ta'lim olishga qaratilgan.
D. Butun umr davomidagi ta'lim olish shakli

15. Odat berilmagan qatorni aniqlang?

- A. Kichiklarning kattalarga salom berishi;
B. Erta turib uy-hovlini tartibga keltirib qo'yish;
C. Mehmonlarga alohida hurmatda bo'lish;
D. Ism qo'yish



Mavzu yuzasidan savollar

1. "Ta'lim to'g'risidagi" qonun qachon qabul qilindi va uning mazmuni haqida nimalar bilasiz?
2. Ta'lim jarayonlarini tashkil etishda ta'lim to'g'risidagi qonunning ahamiyati haqida fikr yuriting.
3. Qadriyat nima? Jamiyatda qadriyatlar qanday tarkib topgan?
4. An'ana, odat va marosimning bir-biridan farqli jihati nimada? Misollar keltiring.
5. Shaxs ma'naviy yuksalishida qadriyatlarning ahamiyati haqida mulohaza yuriting?
6. Boshlang'ich ta'lim tarbiya darsliklarida berilgan milliy qadriyat, an'ana, marosim, odatlarni tahlil qiling.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son <https://lex.uz>
2. R. Mavlonova, N. Rahmonqulova, B. Normurodova, K. Matnazarova Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. Toshkent, 2014 y. 403-bet.
3. Зиёмухаммадов Б. Педагогика: Олий укув юртлари учун укув

кулланма. — Т.: «Турон- Иқбол». 2006. — 112 б.

4. Xoliqov A. A. Pedagogik mahorat. Darslik /O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. - Т.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, 420 b.

5. O.M. Jabborova Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma.- Toshkent. 2022.-104 b.

5. O.V.Usmanova, Y.V.Risyukova / tarbiya 1-sinf: darslik-Toshkent: “Novda Edutainment”.2023. – 116 b.

6. O.V.Usmanova, Y.V.Risyukova / tarbiya 2-sinf: darslik-Toshkent: “Novda Edutainment”.2023. – 116 b.

7. O.V.Usmanova, Y.V.Risyukova / tarbiya 3-sinf: darslik-Toshkent: “Novda Edutainment”.2023. – 103 b.

8. O.V.Usmanova, Y.V.Risyukova / tarbiya 4-sinf: darslik-Toshkent: “Novda Edutainment”.2023. – 80 b.



Ta’lim-tarbiya jarayonida oila, mahalla va ta’lim muassasasi integratsiyasi

Reja:

1. Mahalla va uning ta'limni tashkil etish samaradolidagi roli.
2. Ta'lim muassasasi faoliyatida oila va oila hamkorligi masalalari.

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: mahalla, oila, mehr-oqibat, muruvat, urf-odat, to'y-tomosha, hamkorlik, maktab, barkamol avlod, oila hamkorligi, farzand tarbiyasi, milliy tarbiya, jamoa, obodonchilik, jamoatchilik, oilaviy munosabatlar, axloq odobi



1. Mahalla va uning ta'limni tashkil etish samaradolidagi roli.

Mahallalar qadim-qadimdan ezgulik beshigi, tarbiya o'chog'i, yashash tarzi, milliy udumlar, urf-odat va an'analar shakllangan maskan bo'lib kelgan. Odamlarni bir-biriga mehr-oqibatli, muruvvatli, saxovatli qilib qo'yishda, o'ziga xos jamoani shakllantirishda mahallalar juda muhim ahamiyat kasb etadi. Zotan, bugungi kunda mahallalar davlat boshqaruvining birinchi bo'g'inlari, asosiy ustunlari sifatida e'tirof etilayotgani ham bejiz emas. Mahalla— yurtimizda asr-asrlar mobaynida shakllangan tamoman o'ziga xos, butunlay sharqona o'zini o'zi boshqarish tizimidir.

“**Mahalla**” atamasi arabchada “o'rin-joy” ma'noni anglatib, turli mintaqalarda mahallot (joy), guzar, jamoa, elat, elod kabi nomlar bilan atalib kelingan. Adabiyotlarda Mahallalarning ko'p ming yillik tarixga ega ekanligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Narshaxiy o'zining “Buxoro tarixi” asarida Buxoroda bundan 1100 yil ilgari bir qancha mahallalar bo'lganini qayd etib o'tgan. Alisher Navoiy o'zining “Hayrat ul abror” asarida mahallani “mahalla shahar ichidagi shaharcha”dir deb ta'riflaydi, Hirot shahri yuz shaharcha ahamiyatiga ega bo'lgan mahallalardan tashkil topganligini aytib o'tadi. mahallalar, ayniqsa, Amir Temur davrida ravnaq topgan. Mahallalar fuqarolarning kasbkori asosida shakllangan va shunga qarab nomlangan. Zargarlik, misgarlik, ko'nychilik, pichoqchilik, qoshiqchilik, temirchi, egarchi, taqachi kabilar qadimda mahalliy hokimiyatning o'ziga xos bir shakli, ko'rinishi tarzida faoliyat ko'rsatgan. Mahallani boshqarish jamoatchilik asosida olib borilib, o'zining yozilmagan ichki tartib qoidalariga ega bo'lib, u hamma uchun birdek qonuniy hisoblangan. O'rta osiyo muhitida jamoa, mahalla bo'lib, bir-biriga mehr-

oqibatli bo‘lib yashaydigan insonlar, davr qanchalik o‘zgarmasin, tarix sinovidan o‘tgan o‘z qadriyatlariga sodiq bo‘lib yashashni ma’qul ko‘rar ekan, buni zamonoviy fikrlaydigan, dunyoga teran nazar tashlaydigan odam to‘g‘ri tushunishi, tan olishi va uni hurmat bilan qabul qilishi lozim. Azaldan o‘zbek mahallalari chinakam milliy qadriyatlar maskani bo‘lib kelgan. O‘zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kimsalar holidan xabar olish, yetim-yesirlarning boshini silash, to‘y-tomosha, hashar va ma’rakalarni ko‘pchilik bilan bamaslahat o‘tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga bo‘lish kabi xalqimizga xos urf-odat va an’analar, avvalambor, mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan.



Mahalla—noyob ijtimoiy tuzilma. U asrlar osha xalqimiz jamoaviy hayotining ajralmas uzviy bo‘g‘ini sifatida namoyon bo‘lib kelgan. Asrlar davomida rivojlanib, raraqquy topib kelgan mahalla aholi totuvligini ta’minlashda, an’ana va udumlarni avloddan avlodga yetkazishda muhim vosita bo‘lib

xizmat qilgan. Mustaqillik yillarida davlat tomonidan mahallaga bo‘lgan e’tibor ancha kuchaydi. Mahallalar o‘zini o‘zi boshqarish organiga aylandi, «xalq vijdoni», «demokratiya darsxonasi» deya e’tirof etilib, ularning faoliyatini tashkil etishga qaratilgan qonunlar, farmon qarorlar qabul qilindi. Bularning hammasi mahallalar funksiyasini, bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalar mohiyatini o‘zgartirdi. Davlatimiz tomonidan mahallalarga yuksak e’tibor qaratilib, buning natijasi o‘laroq 1993-yil 2-sentyabrda O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi. Mahalla institutini yana-da takomillashtirish, uning davlat va jamiyat hayotida tutgan o‘rnini tubdan oshirish borasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qonun keyinchalik ikki marta, ya’ni 1999-yil 14-aprelda hamda 2013-yil 22-aprelda yangi tahrirda qabul qilindi. Bundan tashqari, mahalla institutining jamiyatimiz ijtimoiy-ma’naviy hayotida tutgan o‘rnini hisobga

olib, soha xodimlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 22-mart sanasini "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlari kuni" deb e'lon qilish to'g'risidagi taklif ma'qullandi. Bu esa 2020-yil 2-martdagi "Mahalla tizimi xodimlari kunini belgilash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilinishiga asos bo'lib xizmat qildi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev "Biz faoliyatimizning birinchi kunlaridan hamma ishni mahallada, xalqimiz bilan birgalikda tashkil qilib kelayapmiz. Bu tizimni bosqichma-bosqich rivojlantirdik. Endi yana qo'shimcha kuch, imkoniyatlar berilyapti. Bu ham vakolat, ham mas'uliyat degani. **Mahallalar —davlatimizning eng katta zamini**", — deya ta'kidlab o'tganlar. Bu borada qilingan ishlar, bugungi kunda mahalla infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan e'tibor yuqori bo'lib bu borada qilingan ishlardan biri "Mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi hamda profilaktika inspektori, soliqchi va ijtimoiy xodim **"mahalla yettiligi"** tashkil etildi.

Obod va xavfsiz mahalla tamoyilini joriy etish, mahalla, ta'lim muassasasi va oilalardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish borasida amaliy ishlar qilina boshlandi. Endilikda mahalla hududini obodonlashtirish, ko'chat o'tkazish, ko'kalamzorlashtirish, tozalik va ozodalik tadbirlariga katta e'tibor qaratiladigan, mahalla faollari, mutaxassislar, mahalla keksalari, shuningdek, qator davlat va jamoat tashkilotlari vakillari hamkorligida olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy, targ'ibot ishlari samarasi o'laroq, mahallalarda barcha yo'nalishlarda ijobiy natijalarga erishilmoqda. Ayniqsa, jinoyatchilik, erta va qarindoshlar o'rtasidagi nikohlar, yoshlarning turli illatlar va yot g'oyalar ta'siriga berilishi singari salbiy xolatlarning oldi olinmoqda. Shuningdek, bu hamkorlik doirasida olib borilayotgan ishlar mahalla hududidagi barcha yoshlar va barcha yosh toifasidagi fuqarolarni qamrab olishi hamda ularning qiziqish va intilishlariga mos bo'lishi lozim. Hamkorlik tadbirlarining mavzulari «Sog'lom avlod uchun», «Ota-onangga rahmat», «Odobinga balli», «Sog' tanda sog'lom aql», «Mehr chashmasi», «Qizlar ibosi», «Bir yigitga qirq, hunar oz», O'g'lim posbonim», «Hayot—ustoz, xalq—muallim», «O'zbekiston Vatanim manim!», «Milliy burch va mas'uliyat», «Oila saboqlari», «Oila etikasi», «Oila tinch — mahalla tinch», «Mustaqil hayot

bo'sag'asida», «Askarlik — yigitlik o'quv muassasasi», «Oila baxti — Vatan baxti», «Sportchi oila», «Vatan ostonadan boshlanadi», «Biz kimmiz» kabi tadbirlardan shu bilan birga bahslar, bellashuvlar, uchrashuvlar va turli sanalarga bag'ishlangan anjuman va tantanalardan iborat bo'lishi mumkin.

O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi jarayonida maktabning vazifalari:

— maktabda bolaga biror-bir kasb-hunarni egallashi uchun mustahkam poydevor yaratish;

— o'quvchi-yoshlarning sport turlari bilan shug'ullanishlariga yordam berish, ularning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil qilish;

— bolalarga ta'lim berishni ilg'or pedagogik texnologiyalar, zamonaviy o'quv-uslubiy dasturlar asosida tashkil etish, o'quv-tarbiya jarayonlarini jahon andazalariga mos ravishda ta'minlash:

— o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlari tahlilidan, iqtisodiy va ijtimoiy muhitdan kelib chiqib, ularni turli soha bo'yicha kasb asoslariga yo'naltirish va ta'limda tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish;

— yoshlarni dunyo andazalariga mos bilim olishlari, kasb tanlashlari, mustaqil hayotga tayyorgarliklarini ta'minlash. Ularning imkoniyatlari darajasida ta'lim olishlariga, tanlagan kasblari bo'yicha ish bilan ta'minlashlariga, iqtisodiy mustaqil bo'lishlariga shart-sharoit yaratish. Vatan, davlat va jamiyat oldidagi fuqarolik burchlarini ado etishga javobgarlik hissini to'la shakllantirish, mustaqil oila jamiyatiga tayyorlash.

Ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va amalga oshirishda mahallaning vazifalari:

1. Mahalla faollari tomonidan tarbiya muassasalari bilan birgalikda amalga oshirilishi kerak bo'lgan masalalarni muhokama qilishda, oqilona yechimlarni topishda faollik ko'rsatishi;

2. Mahalla o'z hududidagi ijtimoiy va iqtisodiy yordamga muhtoj oilalarni aniqlab, ularni qo'llab-quvvatlab va farzandlarining bilim hamda tarbiya olishlariga bosh-qosh bo'lishi;

3. Ma'nan nosog'lom oilalarni mahalla yig'inlarida muhokama qilish, jamoatchilik choralari ko'rishi;

4. Mahalla hududidagi o'quv-tarbiya muassasalariga iqtisodiy yordam ko'rsatilishini qo'llab-quvvatlashi;

5. Ota-onalar orqali bolalarni tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, milliy g'urur, vatanparvarlik, milliy odob, baynalmilallik kabi xislatlarni singdirishni har tomonlama rag'batlantirishi;

6. Mahallada istiqomat qilayotgan xalq ustalari, san'atkorlar, ziyolilar va barcha ijod ahlining imkoniyatlaridan foydalanib, turli to'garak va „Usta-shogird“ rusumida bilim va kasb berish faoliyatini tashkil qilishi;

7. Mahalla hududidagi ishlab chiqarish korxonalari tomonidan mahallada istiqomat qilayotgan va moddiy qiynalgan yoshlar uchun ish joylari tashkil qilishi;

8. Har bir yosh fuqaroda O'zbekistonga, uning tabiatiga muhabbat, obodonchiligi uchun javobgarlik ruhini shakllantirishi.



Shuningdek, mahalla zimmasiga aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikdan chiqarish va tadbirkorlikka jalb etish kabi o'ta muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar yuklatildi. Bularning hammasi mahalla fuqarolar yig'inlari ishining ko'lami va hajmini ko'paytirdi hamda xarakterini ancha o'zgartirdi. Mahalla tizimi ezgu maqsadlarni ko'zlab yangilana boshlandi, mahalla xodimlari ularning vazifasiga kirmaydigan ishlardan ozod etildi.

Mahallaning asosiy vazifalari sifatida marosimlarni birgalikda o'tkazish, o'z hududini batartib saqlash va obodonlashtirish, yosh avlodni ijtimoiy ruhda tarbiyalash, jamiyat hayotida tartib saqlanishini ta'minlash, barcha an'anaviy me'yorlarning bajarilishi ustidan nazorat o'rnatish, urf-odatlariga rioya qilish


va ularni buzgan, jamoat majburiyatlaridan bo‘yin tovlaganlarni jazolashdan iborat bo‘lgan. Mahalla rahbari-yati ariq-hovuzlarni tozalash, ko‘chalar, yo‘llar qurish va Mahalla obodonchiligi bilan bog‘liq boshqa jamoat ishlarini uyushtirganlar. U o‘z hududida savdo va maishiy xizmatni, sanitariya va ekologik holatni nazorat qilishga ko‘maklashadi, yong‘in xavfsizligi, turar joy fondini saqlash, aholidan soliq va majburiy to‘lovlarning o‘z vaqtida to‘shishini ta‘minlashga yordam beradi. Ana shu pul mablag‘lari tushumining muayyan miqdori o‘z-o‘zini boshqarish organlari jamg‘armasiga o‘tkaziladi. Bu mablag‘ kam ta‘minlangan oilalarning uy-joy, kommunal xizmatlari to‘lovlariga, shuningdek, mahallani obodonlashtirishga sarflanadi. Endilikda, har bir mahalla o‘z madaniy markazini, guzarini qurib, shu yerda choyxona, novvoyxona, do‘kon, maishiy xizmat shoxobchalari, turli sport o‘yinlari maskanini barpo etmoqda. Mahalla qo‘mitasi tashabbuskor jamoat tashkilotidir. Mahallada xo‘jalik madaniy qurilish tadbirlarini amalga oshirish, uning hududini obodonlashtirish, uy-joylarni va hududdagi shahar xo‘jaligini saqlash, ozodalikni ta‘min etish, tartib qoidani mustahkamlash uchun sharoit mavjud. Mahallalarning ahamiyati mustaqillik sharoitida kun sayin o‘sib bormoqda. Ular mamlakatimizda tinchlik, osoyishtalik va barqarorlikni ta‘min etishda, omma kuch-g‘ayratini bunyodkorlikka yo‘naltirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tarbiya ishlarini atrof-muhit va mahalla bilan hamkorlikda olib borish. Bunda „Bir bolaga yetti mahalla ota-ona“, deganidek, mahallalar bilan hamkorlikda olib boriladigan ishlar yaxshi samara beradi. Biz oila ma‘naviyati haqida fikr yuritar ekanmiz uning ehtiyoj, manfaat va mafkuraviy jarayonlari bilan bog‘liq yana bir jihatini, ya‘ni tarbiya jarayonida yoshlar va o‘smirlarning ruhiy ehtiyojlarini inobatga olishni ham unutmasligimiz kerak. Ayni mana shu ehtiyojlarning shakllanishiga mahalla muhiti bevosita ta‘sir qilsa, jamoatchilik bu ehtiyojlarni tartibga soladi. Mahalla-ko‘y, qo‘ni-qo‘shnilar hamkorligi, hamdardligini ko‘rsatuvchi Mahallalarimizdagi to‘y, katta yig‘inlar, marosimlarda xalqimizning jamoatchilik fikri ta‘sirida shakllangan qadriyatlari namoyon bo‘ladi. Aynan shu qadriyatlar ta‘sirida

yoshlarimiz o‘zi yashab turgan mahalladagi, insonlarga mehr-muhabbatli, oilasiga sadoqatli bo‘lib tarbiyalanadilar.

Boshlang‘ich sinf tarbiya darsliklarida mahalla mavzusi bilan bog‘liq aynan biron bir mavzu keltirilmagan bo‘lsada, lekin mavzu bilan bog‘langan holda jamiyatda o‘zini tutish, mahalladagi binolar, atrof-muhitni ozoda saqlash kabi ko‘plab mavzular haqida qimmatli mulohazalar keltirilgan. 1-sinf tarbiya darsligida maktab binosi haqida fikr yuritilgan bo‘lib, bunda sportzal, oshxona, hojatxona, katta yig‘inlar zali, kutubxona, maktab hovlisi, sinf xonalarining tasvirlari keltirilgan. Bu xonalarning afzalligi, nima maqsadda foydalanishimiz, shuningdek, har bir xonaga kirishning tartib-intizomi haqida o‘zituvchi tomonidan bolalarga tushuntirib beriladi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida: bu yoshdagi o‘smirlarning yildan-yilga atrof-muhitga, voqealarga qiziqishi ortib boradi. Ular ko‘proq o‘zlari qiziqqan ishni kattalardan yashirinchalik bajarishga harakat qilishadi. Yolg‘on so‘zlash, qilgan aybini yashirish va kattalar oldida o‘zini aqli raso qilib ko‘rsatishga urinishadi. Bu yoshdagi bolalarning barkamollik darajasini oshirib borish uchun barcha o‘qituvchi-murabbiylar, ota-onalar, mahalla-ko‘y, nazorat inspeksiyasi hamkorligida tarbiyaviy ishlar yo‘lga qo‘yib borilmog‘i lozim. Bu yoshdagi bolalarning uyda va ko‘chadagi bo‘sh vaqtlarini qanday o‘tkazayotganligi doimo kattalar nazoratida bo‘lmog‘i shart. Bolalarni teatr, muzeylarga olib borish, asosan, maktabning zimmasida. Ammo shunga yarasha ota-onalar „Bugun teatrga boribsan, nimani ko‘rding, nimani tushunding?“ deya ular bilan suhbatlashish ota-onalarning vazifasidir. Bolaning tarbiyasini to‘g‘ri shakllantirib, olib borishda oila, Mahalla, ta’lim muassasasining birgalikdagi faoliyati muhim sanalib, har jihatdan bolada ta’lim-tarbiya jarayonini ravnaq topishida, mustaqillik, an‘analarga hurmat ruhida, vatanga sodiq, barkamol shaxs sifatida rivoj topadi. Bu borada oila, mahalla va ta’lim muassasasining bola tarbiyasini tashkil etish oldidagi alohida vazifalari mavjud.



Uch tomonlama to'g'ri yo'lga qo'yilgan tarbiya jarayoni natijasida jamiyatimizda yetuk kadrlar, har tomonlama barcha sohada ko'zga ko'rinadigan yutuqlarga ega bo'ladigan, jamiyat rivojiga hissa qo'shadigan barkamol, salohiyatli shaxslar tarbiyalanadi. Ma'lumki bola o'z-o'zidan rivojlana olmaydi, shu uch muhitda hamkorlikda amalga oshirilgan tarbiya, har bir bolaning ulug'vor maqsadlarga erishishida poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Xalq ta'limi vazirligining 2004-yil 26-tevralda „Oila, mahalla, maktab“ to'g'risidagi Konsepsiyasi qabul qilindi. Bu Konsepsiyada belgilab berilgan vazifalarni hal qilish uchun Respublikamizdagi har bir davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikda „Jamoatchilik maslahat kengashi" tuzilib, joylarda tarbiyasi og'ir bolalar bilan ishlash, ularning ta'lim-tarbiyasiga va „Oila, mahalla, maktab" Konsepsiyasini amalda joriy etishga e'tibor qaratildi. Kengash o'z oldiga:

- mahallalarda bolalarning dam olishlari, qiziqarli ish bilan shug'ullanishlariga imkoniyat yaratish;
- mahallalarda tarbiyaning ta'sirchanligini oshirish;

- homiy tashkilotlar yordamida mahallalarda sport sogʻlomlashtirish maydonchalarini tashkil etish;
- mahallalarda qizlar hayosi, ularni turmushga tayyorlash haqida bahs-munozaralar oʻtkazish;
- yoshlarda milliy urf-odatlar, azaliy udumlar, tarixiy anʼanalarni oʻrganish;
- maktab, jamoatchilik, mahalla ahli hamkorligida tadbir oʻtkazish;
- Joylardagi hokimiyatlar, mahallalarda “besh tashabbus” doirasida yoshlar ijtimoiy harakati va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda yordam berishni maqsad qilib qoʻygan.

Mahalla toʻgʻrisidagi hikmatli soʻzlar

- «Mahalla maslahatiga quloq solgan oʻzini idora qiladi, solmaganni esa – birov»;
- «Yaxshi mahallada begonalardan yigʻilgan qarindoshlar yashaydi, yomonida esa – qarindoshlardan yigʻilgan begonalar»;
- «Mahallaning maslahatin olganning oshidan tosh chiqmaydi, olmaganing avlodidan bosh chiqmaydi».



2. Taʼlim muassasasi faoliyatida oila va oila hamkorligi masalalari

*Oilaning har bir aʼzosi bir-biriga xizmat qilishni
ham burch, ham savob deb bilsa, oʻsha
xonadonda baxtiyorlik hukmron boʻladi.*

Konfutsiy

Oila-kishilarning nikoh yoki qon–qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy masʼuliyat hamda oʻzaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi. Oila — jamiyatning tayanchi, ustuni. Oila tinch — jamiyat tinch. Oiladagi baxt-saodat: jamiyat osoyishtaligini belgilaydi. Maʼlumki, har qanday inson oilada oʻsib-ulgʻayadi, tarbiya topadi. Uning kelajakda komil yoki

noqobil inson bo‘lib voyaga yetishi esa, hech shubhasiz, oilada berilgan tarbiyaga bog‘liq. Insoniyat tarixida, davlat va jamiyat boshqaruvida adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirish muhim, ahamiyat kasb etadi. Zero, millat tayanchi hisoblangan oila fuqarolik jamiyati institutini rivojlantirish, ijtimoiy adolat, qonun ustuvorligi hamda inson erkinligini ta‘minlashning kafolati va asosidir. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyatda oila instituti va ma‘naviyatini shakllantirish bilan bog‘liq jarayondir. «Jamiyat» va «oilal» tushunchalari biri-biri bilan chambarchas bog‘liq. Bu bog‘liqlik jamiyatning oilalarsiz mavjud bo‘lmasligi hamda o‘z navbatida oilaning ma‘lum bir jamiyat tarkibida vujudga kelishi va yashovchanligida ko‘rinadi. Oila hamda jamiyat o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar ikki tomonlama aloqadorlik xususiyatiga ega. Har bir oila umumjamiyat talablari asosida faoliyat yuritadi. Jamiyat taraqqiyotining rivoji esa uning bag‘rida mavjud bo‘lgan oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘naviy qiyofasining shakllanganlik darajasiga bevosita bog‘liqdir. Chunonchi, ijtimoiy borliqning oilalar zimmasiga qo‘yadigan talablari ularning manfaatlariga zid bo‘lmasa, aksincha, oilalar farovonligi, tinchligini ta‘minlashga yordam bersa, oilalar tomonidan ijtimoiy talablarning qo‘llab-quvvatlanishi, ularning amaldagi ijrosini ta‘minlash ko‘rsatkichi shuncha yuqori bo‘ladi. Ilmiy-pedagogik, psixologik, fiziologik hamda falsafiy asarlarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, oila bola uchun eng asosiy tarbiya muhiti bo‘lib, bu muhitda shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan xulqatvor, iroda, xarakter va dunyoqarash shakllanadi. Bola oila timsolida jamiyatning ijtimoiy-ma‘naviy qiyofasini ko‘radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichik jamoa orasida, oilaviy munosabatlarni tashkil etish jarayonida anglaydi. Oilaviy munosabatlar — ota-onalar yoki bolaning kamoloti uchun mas‘ul bo‘lgan shaxslar hamda farzandlar o‘rtasida turli yo‘nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlardir. Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta‘minlab, ota-onalarda o‘ziga xos faollikni ham yuzaga keltiradi. Xususan, farzandlarning bevosita ta‘siri tufayli ularning qiziqish hamda faoliyatlari doirasi kengayadi, o‘zaro aloqalari mazmunan boyib boradi, real hayot mohiyatini chuqurroq anglash, ya‘ni, farzandlar kamoloti, kelajagi timsolida o‘z umri davomiyligini qurish holati ro‘y beradi. Shaxsning ma‘naviy sifatlariga ega bo‘lishi, unda ma‘naviy bilimlarni egallashga nisbatan ehtiyoj va qiziqishning paydo bo‘lishida oila tarbiyasi asosiy rol ni bajaradi.

Oilada qaror topgan sogʻlom maʼnaviy-ruhiy muhit farzandlarning yetuk, barkamol boʻlib voyaga yetishlari uchun beqiyos ahamiyatga egadir.



Davlat va jamiyat hayoti, barkamol avlod tarbiyasida oilaning oʻrni beqiyos. Shu bois oila hamma vaqt va har qachon dolzarb mavzulardan biri boʻlib kelgan. Oila har bir xalq, millatning davomiyligini saqlovchi, milliy qadriyatlarning rivojini taʼminlovchi, maʼnaviy va jismoniy barkamol avlodni dunyoga keltirib tarbiyalovchi muqaddas maskandir. U jamiyat deb atalmish buyuk bir olamning poydevorini tashkil etadi. Jamiyat va davlatning farovonligi, gullab-yashnashi bevosita ana shu poydevorning qay darajada mustahkamligiga bogʻliq. Shu bois mamlakatimizda oila manfaatlarini huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va maʼnaviy jihatdan himoya qilinishini taʼminlash masalalariga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Milliy oila deganda darrov bola-chaqali, pir-u badavlat, keksa buva-buvilari bor xonadon koʻz oldimizga keladi. Oila—azal-azaldan insonning his-tuygʻulari, aql-idroki, maʼnaviyati, qoʻyingki, butun borligʻi kamol topadigan tarbiya maskani boʻlib kelgan. Insonlarni shaxs sifatida kamolga yetkazishda jamiyatdagi ijtimoiy muassasalarning birortasi oila kabi beqiyos oʻringa ega emas. Otabobolarimizning qadimdan oilani millat tayanchi va maʼnaviyat qoʻrgʻoni, deb atab kelganliklari ham bejiz emas. Har bir jamiyatda oila muhim oʻrin tutadi. Bu haqdagi fikr-mulohazalarni diniy va dunyoviy manbalarga suyanib, eʼtiboringizga havola etamiz:

Oila – kichik bir jamiyat. Mavjud jamiyatning daxlsizligi oilaning jipsligiga bogʻliq.

Oila – turmush maktabi, urf-odatlarini, hayot tarzini, iroda va tafakkurni o‘zida sinovdan o‘tkazadi.

Oila ahloq madaniyatini o‘z bag‘rida asrab-avaylab kelajak avlodlarga yetkazadi.

Oila jamiyat bo‘lib yashashda baxtli turmush tarzini, aql-zakovat, ma’naviy ahloq va fazilatlar mas’uliyatini burch sifatida shakllantiradi.

Oila o‘z oldiga qo‘ygan rejalarini amalga oshirishda moddiy mukammallikka, ma’naviy kamolotga, tarbiyaviy salohiyatga suyanadi.

Oila o‘zining yozilmagan nizom va qoidasiga ega bo‘lmasa, uning salbiy jihatlari butun bir millatga ta’sir etadi.

Oila – insoniyat tarixining barcha davrlarida jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan muborak dargoh.

Oila qurish payg‘ambarlarning sunnati ekaniga Qur’on oyatlari ham guvohlik beradi.

Oila jamiyatda pokiza nasl davomiyligini saqlovchi muqaddas dargohdir.

Oila inson hayotini turli tartibsizlik va kelishmovchiliklardan, bema’ni axloqlardan, salbiy illatlardan va ularning yomon oqibatlaridan asraguvchi qal’adir.

Oila insonning shahvoniy maylini jilovlaydi, uning uchun tizimli xotirjamlik va saodatni ta’min etadi.

Oila sog‘lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan — mamlakat barqaror bo‘ladi.

Yana ta’kidlash joiz, oila aziz ne’mat bo‘lmish farzandlarni tarbiyalab, ular ongiga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish uchun boshlang‘ich yo‘nalish beradi. Farzandlarni jamiyat rivoji uchun ishlashga yo‘naltiradi. Bu bilan mamlakat iqtisodiyoti, madaniyati va ma’rifati rivojiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Sharqda azal-azaldan oila tarbiyasiga yuksak baho berib kelingan. Totalitar tuzum davrida esa oilaning shaxs tarbiyasida tutgan o‘rni inkor etilib,

uni ijtimoiy borliq vositasida tarbiyalashga harakat qilindi. O'zbekiston Respublikasida, mustaqillik yillarida, fuqarolarda milliy o'zlikni anglash tuyg'usining qaror topganligi, o'tmish qadriyatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortganligi oilaning shaxs kamolotida tutgan o'rni va rolini xolisona baholash imkonini berdi.

Oila insonlarni faqat manfaatlar vositasida emas, balki qon-qardoshlik, haqiqiy insoniy tamoyillar asosida bog'lab turgani uchun ham bebahodir. Jamiyatda insonlarni o'zaro biriktiruvchi, do'st, ahil-inoq bo'lib, umrguzaronlik qilishlariga o'rgatuvchi ijtimoiy muassasa va institutlar juda ko'p. Jamiyat taraqqiyotida ularning har birining o'z o'rni bor. Biroq oila, eng avvalo, tarbiya maskanidir. Masalan, mahallani olaylik. U, asosan, bir ko'cha yoki guzarda yashaydigan odamlarni birlashtiradi. U o'zida ana shu odamlarning hayotiy orzu-umid va armonlarini uyg'unlashtiradi. Ularning hayotiy maqsadlari ham juda o'xshash: to'y, ma'raka, hashar, yolg'iz va kam ta'minlangan kishilarga yordam ko'rsatish, turli bayram hamda tantanalarni birgalikda nishonlashdir. Mahalla odamlarda, ayniqsa, jamoaviylik tuyg'usini kamol toptirishda muhim o'rin tutadi. Lekin mahalladagi o'zaro munosabatlarga, eng avvalo, oila ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Jamoaviylikda ko'proq odamlarning ishlab chiqarish manfaatlari ustuvor bo'ladi. Odamlar tili, millati va e'tiqodidan qat'iy nazar o'zaro ana shu asosda ahil va birodar bo'lib ketishadi. Oilada esa bulardan farqli o'laroq, hayot yoki ishlab chiqarish manfaatlari emas, aksincha, qon-qardoshlik munosabatlari, insonning tabiiy yaqinlik tuyg'ulariga asoslanib yashash tamoyili ustuvorlik qiladi. Barchamiz ish-yumushlarimizdan bo'shagach, oila bag'riga shoshilamiz. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'zbek oilasi o'zining barkamolligi, axloqiy-ma'naviy asoslari, umuminsoniy va milliy qadriyatlari bilan butun dunyoga namuna maktabi bo'la oladigan darajadagi mustahkam poydevorga ega. Poydevori mustahkam bino asrlar o'tsa ham hayot to'fonlariga bardosh berib, salobat bilan qad rostlab turaveradi. O'zbeklarda o'z shaxsiy manfaatidan ko'ra oila sha'nini baland tutish, qon-qarindosh, yaqin odamlari va qo'ni-qo'shnilariga g'amxo'rlik qilish oliy darajadagi qadriyat bo'lib, millat qalbidagi bunday „gavhar“lar oilaviy muhitni samimiyatga to'ldirishga, oilani tashqi muhit bilan bog'lash va

mustahkamligini ta'minlashga xizmat qiladi. Oilada mustahkam intizom shakllangan bo'lsa, o'sha oila vakili davlat va jamiyat ishida ham ana shunday tartibda xizmat qiladi, har bir ishni o'z joyi va vaqtida, belgilangan tartib asosida bajaradi. Bunday intizom va tartib butun xalq va millatning fazilati va sharafiga aylanadi. Nemis va yaponlarga xos tartib-intizomning jahon miqyosida e'tirof etilish sabablari ham ana shunda Abdurauf Fitrat o'zining „Oila va oilani boshqarish tartiblari“ asarida shunday yozadi: „Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muntazam bo'ladi“. Dunyo miqyosida yuz beradigan har qanday o'zgarish, u xoh iqtisodiyot, xoh ma'naviy-siyosiy sohada bo'lsin, o'z ta'sirini dastavval oila muhitida namoyon etadi. Mamlakatimizda boshqa ijtimoiy institutlar bilan bir qatorda, oila omiliga katta e'tibor qaratilayotganligining yana bir sababi ana shundadir. Xalqimizda qadim-qadimdan oila—muqaddas dargoh sanalgan. Zero, oilaga sadoqat, ota-onaga oqibat, aka-ukalarga mehrlilik Vatan tuyg'usining debochalaridir. Oilaga sadoqat bo'lmagan joyda ota-onaga nisbatan ham hurmat yo'qoladi. Oila ahil va totuv bo'lsa, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikka erishiladi, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Oila farovonligi—milliy farovonlik asosi bo'lib hisoblanadi“. Yosh avlod hayotining ko'p qismi oilada o'tadi. Shuning uchun bolalar turmushning murakkab muammolari bilan oilada tanishadilar. Oiladagi mavjud an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiy ta'sirlarida yigit-qizlar asta-sekin kamol topib boradilar. An'ana va marosimlar tarbiyaning qudratli quroliga aylanadi. Oila tarbiyasi—murakkab jarayon, chunki har bir oila o'ziga xos bir olamdır. U tarbiya ishida ham o'ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi. Oila tarbiyasining muvaffaqiyatli bo'lishi ota-onalarga pedagogik bilimlar berish, oilaviy tarbiya bo'yicha tajribalar almashish va ota-onalarni tarbiyaviy ishlarga qizg'in jalb qilishga bog'liqdir. Oila tarbiyasining muvaffaqiyatli bo'lishi uchun ota-onalar o'z farzandlarini tarbiyalash borasidagi burch va mas'uliyatlarini chuqur anglashlari lozim. Bundan tashqari, normal oilaviy muhit, ota-onaning obro'si, to'g'ri kundalik rejim, bolalarini kitob o'qishga, mehnat qilishga o'rgatish kabilarga bog'liq. Oila inson uchun muqaddas va ulug' dargohdir. Inson ana

shu dargohda tug‘iladi, o‘sadi, voyaga yetadi. Xalqimizda „Oilang tinch-olam tinch“ degan hikmat bor. Darhaqiqat, shunday oilada tarbiyaviy muhit oqilona yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, jamiyatda tinchlik va komillik bo‘ladi. Shu jihatdan oilaning mustahkamligi mamlakat rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

“Oila – mahalla – ta’lim muassasasi” hamkorligi Jamoat kengashi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 19-iyundagi 175-sonli qaroriga asosan Xalq ta’limi vazirligi huzurida tashkil etilgan. Bundan tashqari, tarbiya jarayonida samaradorlikni oshirish maqsadida 1993 yilda ishlab chiqilgan "Oila, mahalla, o‘quv bilim yurti hamkorligi" Konsepsiyasi ta’lim-tarbiya jarayonida yoshlarning sa’y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlash, ularga istiqlol g‘oyalarini singdirish, sadoqatli, ma’naviy yetuk, barkamol, vatanparvar qilib voyaga yetkazishda keng faoliyatini muvofiqlashtirish borasida asos bo‘lib xizmat qildi. Ta’lim-tarbiyani takomillashtirishda davlat bosh islohotchi sifatida yosh avlodga o‘zligimizni, xalqimizga xos tarixiy tamaddunni davom ettirishda, muqaddas an‘analarimizni anglagan holda, xalqimizning ko‘p asrlar davomida shakllanib kelgan ezgu niyatlarini, jamiyatimiz oldiga bugun qo‘yilgan oliy maqsad va vazifalarni belgilab olish, yoshlarni jipslashtiradigan, xalqimiz va davlatimiz daxlsizligini asraydigan, yagona g‘oya—milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalaydigan, yoshlarni jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda O‘zbekistonga munosib farzand sifatida tarbiyalash, yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat, yuksak odamiylik va insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ulug‘ ajdodlarimizning munosib vorislari ekanliklari, ayni vaqtda jahon va zamonning umumbashariy yutuqlarini egallash ruhida shakllantirish O‘zbekistonda o‘quvchi-yoshlarni tarbiyalashning eng dolzarb masalasidir. Mazkur konsepsiya jadallik bilan rivojlanayotgan taraqqiyotimizning ma’naviy-axloqiy azaldan milliyligimizga xos bo‘lgan milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unlashtirganligi diqqatga sazovor bo‘lib, bunda milliy va umuminsoniy tarbiyaning o‘zaro aloqalari, uyg‘un yo‘nalishlari belgilab berilgan. O‘zbekistonda 1998 yil "Oila yili" deb e’lon qilinishi oilaning tarbiyaviy rolini yanada kuchaytirdi. Qayd etilgan masalalar jamiyatimiz, xalqimiz, davlatimiz taqdiri va uning dunyo miqyosidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy salohiyatini shakllantirishda g‘oyat katta ahamiyatga ega ekanligiga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining 1998 yil 26 martda qabul qilingan "Ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish, diniy aqidaparastlikning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 130-sonli qarori misol bo'la oladi.

Bugungi davrga kelib oila va oilaviy munosabatlarga jiddiy e'tibor qaratilayotgan bo'lib, davlatimiz rahbarining 2009 yil 13 apreldagi —Ona va bola salomatligini muhofaza qilish, sog'lom avlodni shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida hamda 2009 yil 1 iyulda qabul qilingan —2009-2013 yillarda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog'lom bola tug'ilishi, jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari Dasturi to'g'risidagi qarorlari bunday xayrli ishlarning izchilligini ta'minlashga xizmat qiladi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli tibbiy-ijtimoiy islohotlar aholiga zamonaviy tibbiy xizmatni yaqinlashtirish, reproduktiv salomatlikni mustahkamlash, ekstragenital kasalliklarni kamaytirishga xizmat qilmoqda. Skrining xizmati qamrovining kengayotgani, perinatal, pediatriya, akusher-ginekologiya sohalarida erishilayotgan natijalar onalik va bolalik muhofazasida yaxshi samara berayapti. Bu borada yana bir muhim loyiha – homilador ayollarni polivitaminlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad – oilada sog'lom farzandlar tug'ilishini ta'minlash va tug'ma nogironlikning oldini olishdir. Yurtimizdagi oilalarning demografik holati, yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar, oilalarda tibbiy madaniyatni oshirish, reproduktiv salomatlikni mustahkamlash, birlamchi tibbiy-profilaktika ko'rigi qamrovini kengaytirish, istalmagan homiladorlikning oldini olishda zamonaviy tibbiyot yutuqlaridan samarali foydalanish masalalariga bag'ishlangan tadbirlar sog'lom oilada barkamol avlodni voyaga yetishini ta'minlaydi.

Ota-onalar o'zlarining xulq-odob xislatlari, his-tuyg'ulari, xatti-harakatlarida bularga rioya qilsalar, oila a'zolari hamda jamoatchilik o'rtasida yetarli darajada obro'qozona oladilar. Lekin, obro'qozonish shaxsning tezkorlik bilan amalga oshiriladigan sifati emas. Ota-ona obro'si butun hayot davomida kundalik ibratli xulqi, axloqi, intizomi, aql-zakovati, kamtarinligi, ishbilarmonligi bilangina qo'lga kiritishadi. Ibrat, namuna, chekilgan zahmat,

zakovat, chin ezgu niyat, xayrli ish, samimiylik evaziga yuzaga kelgan obro‘haqiqiy obro‘bo‘ladi. Bunday obro‘farzandlar xayrixohligi va hamdardligiga sazovor bo‘ladi. Natijada, oila a‘zolari totuv, osoyishta, inoq, ahil, xotirjam, hamjihat turmush kechiradilar. Oiladagi farzandlar yuksak his-tuyg‘uli, ma’naviyatli, madaniyatli inson sifatida ruhiy ozuqa oladilar, ular ota-onalari bilan behad faxrlanadilar, his-hayajonga tomadilar va shu g‘urur bilan yashaydilar, asta-sekin eng zarur shaxsiy fazilatlarini egallab boradilar. Oilaviy turmushda ayrim ota-onalar faqat tazyiq o‘tkazish yo‘li bilan farzandlari hamda boshqa oila a‘zolari davrasida obro‘orttirishni xohlaydilar, bu narsani yashashning asosiy vositasi deb hisoblaydilar. Bunda ular qo‘rqitish, buyruq berish, ruhan ezish, tahqirlash, u tazyiq o‘tkazish usullarini qo‘llaydilar. Goho ular zaharxandalik va badjahllikni bola tarbiyasining eng muhim usuli deb biladilar. Qo‘rqinch asosida bolada vujudga kelgan «tobelikni», «bo‘ysunishni» ular o‘zlaricha farzandlari davrasida erishgan obro‘si deb o‘ylaydilar, tarbiyaning, bu usuli yuqorida aytib o‘tilganidek avtoritar deb aytiladi. Ayrim ota-onalar esa o‘z farzandlari bilan kamroq muloqotda bo‘lishni, o‘zlarini ulardan uzoqroq olib yurishni shu yo‘l bilan obro‘orttirishni ham xayol qilishadi. Ularning nazarida go‘yo farzand bilan qancha kam uchrashishsa, ma’lum masofadan muomala qilishsa, shuncha ko‘proq obro‘qozonish mumkin emish. Bu noto‘g‘ri tushuncha, yuzaki qarorga kelish hisoblanadi. Aksincha, ota-ona o‘z farzandi bilan qancha kam muloqotda bo‘lishsa, ularning ruhiyati bilan yaqindan tanishmasa, o‘z ta’sirini o‘tkazmasada, ular o‘rtasida begonalashish, befarq bo‘lish, his-tuyg‘ulari, ishonishlari, xoxishlari kelib chiqadi. Hozirgi paytda shunday ota-onalar ham uchraydiki, ular bolaga faqat rasmiyatchilik bilan munosabatda bo‘lish orqali obro‘orttirishga harakat qilishadi. O‘z maqsadlarini amalga oshirish uchun ular qildan qiyiq qidirishadi, xatti-harakatlari keltirib chiqargan asl sababdan ko‘z yumishadi. Bolaga hadeb tanbeh berishadi, begonalar davrasida kalaka qilishadi. Uning yurish-turishlarini cheklab qo‘yishadi, bo‘lar-bo‘lmasga tanbeh berishadi, arzimaz harakat uchun jerkib, siltab tashlashadi. Farzandlariga ko‘p pand-nasihat qilaverish ham shaxslararo munosabatda noxush kechinmalarni vujudga keltiradi. Ota-onalar arzimagan mayda-chuyda muammo, mulohaza, ko‘mak uchun ham uzundan-uzoq o‘git-nasihat qiladilar. Farzand erkini

poymol etib, mustaqil fikr yuritishi, intilishini oyoq osti qilishgacha borib yetadilar. Ular o'zlarining nasihatgo'yliklarini ota-onalik burchi deb baholaydilar. Mayda gaplik, ezmalik bilan o'g'il-qizlar o'rtasida haqiqiy obro'qozonib bo'lmaydi. Turmushda soxta yaxshilik qilish orqali farzandlari oldida obro'orttirishmoqchi bo'ladigan ota-onalar ham bor. Bunday ota-onalar o'zlarining yumshoq muomalaligi, beozorligi, kechiruvchanligi, yon beruvchanligi, kam talabchanligi bilan farzandlarini o'zlariga rom qilib olishni istaydilar. Ularning fe'l-atvorida, na ma'naviyatida qat'iyatlilik, na talabchanlik, na barqarorlik mavjud. Tilyog'lamachilik, soxtalik, sun'iylik bilan bolada yuksak insoniy xislatlari, oliyjanob his-tuyg'ularni, irodaviy sifatlari tarkib toptirib bo'lmaydi. Ota-ona obro'sini orttirishda ibrat ko'rsatish usuli

muhim rol o'ynaydi, oilada tarbiya ishini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ota-ona tinmay o'zlarini ham pedagogik, ham ruhiy jihatdan tarbiyalab borishlari kerak, ular o'zlarida yetishmaydigan sifatlari egallab borib, mavjud illatlarini batamom tugatishlari lozim. Chunki ota-onaning tarbiya jarayonidagi iste'dodi—bu farzandlarga nisbatan muhabbat va sadoqatdan iboratdir.

Oilada farzandlarimiz ota-onalarining bir-birlariga bo'lgan munosabatlariga qarab izzat-hurmatni, muomalani o'rganib boradilar. Ota-onalarimiz bir-birlariga mehribon bo'lsalar, shirin muomala qilsalar, bolalar ham shunga ko'nikma hosil qilib, shunday muomalaga o'rganadilar. Oilada ayol turmush o'rtog'ini hurmat qilsa, oiladagi o'g'il-qiz farzandlarimiz ham onaning bu harakatini ko'rib, otasiga hurmati oshadi. Ota-onani hurmat qilish kerakligini tushunib boradi. Afsuski, hamma oilalarda ham shunday o'zaro hurmat va mehr-oqibat mavjud emas. Ba'zi oilalarda erni hurmat qilish o'rniga ularga hukmron bo'lish, ularni „o'z izmiga solish“ga bo'lgan intilish harakatlari ham uchraydi. Ba'zi ayollarimiz borki, ular eridari ozgina ko'proq topsalar minnat qiladilar. Ba'zi holatlarda erkak ichkilik ichib, mast holatda uyga kelib, ayolini farzandlari oldida haqoratlab, behurmat qiladi. Bu holatni ko'rgan bolalar ota-onalarini hurmat qilmaydi. Bolalar haddan tashqari taqlidchan bo'ladilar. Ota-onalardan ko'rganlarini takrorlaydilar. „Qush uyasida ko'rganini qiladi“ deganlaridek, farzandlar ham ota-ona bag'rida o'sib-ulg'ayar ekanlar,

ularning yurish-turishlaridan, xatti-harakatlaridan ibrat olib, tajriba orttirib boradilar.

Oila davlatning, jamiyatning asosiy tayanchi ekan, uning mustahkamligi, tinch-totuvligi, farovonligi va barqarorligidan jamiyat manfaaddir. Oilada ma'naviy va jismoniy yetuk avlodni tarbiyalash, yoshlarni oilaviy hayot qurishga tayyorlash, zamonaviy kasb-hunar sirlari bilan qurollantirish lozim. Shuni unutmaslik lozimki, farzandlarimizning har tomonlama kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratilsagina oila tarbiyasi muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Yosh avlod hayotining ko'p qismi oilada o'tadi. Shu boisdan turmushning murakkab muammolari bilan oilada tanishadilar. Oiladagi mavjud an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiy ta'sirida yigit-qizlar asta-sekin kamol topib boradilar. An'ana va marosimlar tarbiyaning qudratli quroliga aylanadi.

Oilaviy tarbiyaning murakkabligi shundaki, har bir oila o'ziga xos bir olam, u tarbiya ishida ham o'ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo'lsagina o'sib kelayotgan yosh avlod farovonligini ta'mirilashi mumkin. Oilada ota yoki onaning yo'qligi yoki ketib qolishi tarbiyaga juda katta zarar ko'rsatadi. Ularning bolaga beradigan tarbiyaviy ta'siri yo'qo ladi. Oila tarbiyasidagi muvozanat buziladi. Bunday sharoitda bolaning qalbi qattiq jarohatlanadi. U tajang, serjahl, qo'pol bo'lib qoladi, kattalarga ishonmay qo'yadi. O'qishi ham pasayib ketadi. Oila tarbiyasidagi muammolardan yana biri yolg'iz farzandni tarbiyalashdir. Bunday sharoitda bola faqat kattalar davrasida bo'ladi. O'ziga yaqin yoshdagi bolalar bilan muomala qilish imkoniyati bo'lmaydi. Oilada ko'p bola bo'lsa, ular bir-birini tarbiyalaydi. Bundan tashqari, oiladagi kelishmovchiliklar ota-onalar bilan bolalar o'rtasidagi tengsizlikka asoslangan munosabatlar ayrim ota-onalarning madaniyat va ma'lumotining nisbatan past saviyada ekanligi tarbiyaga xalaqit beradi, oilaviy muhitda o'zaro kelishmovchiliklarni vujudga keltiradi. Oila tarbiyasida quyidagi omillarga diqqatni qaratmoq lozim. Jumladan, oilada ruhiy xotirjamlik, samimiyluk munosabatlari shakllangan bo'lishi, ota-ona obro'si yuqori bo'lishi, bolalarga talab qo'yishda oiladagi kattalar o'rtasidagi birlikning saqlanishi, bola shaxsini mehnatda tarbiyalashga alohida e'tibor berish, bolani sevish va izzatini joyiga qo'yish,

oilada qat'iy rejim va kun tartibini o'rnatish, bolaning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish, boladagi o'zgarishlarni kuzatib borish, boladagi mustaqillikka intilishni va tashabbuskorlik sifatlarini qo'llab-quvvatlash va hokazo. Oila tarbiyasida ota-ona obro'si muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu obro'ni esa ibratli xulqi, odobi, intizomi, kamtarligi, ishbilarmonligi bilan qo'lga kiritadilar. Obro'orttirishda, eng avvalo, ibrat-namuna muhim rol o'ynaydi. Ota-onalarning odilona, me'yori talabchanligi obro'orttirishning muhim yo'llaridan biridir. Tarbiya jarayoni zerikarli, quruq haqiqatgo'ylikdan iborat bo'lib qolmasligi lozim.

Oilaviy hayotning me'yorida bo'lishi ko'p jihatdan oila budgetining holatiga ham bog'liq. Shu bois oila a'zolari mehnati evaziga yaratilayotgan moddiy mablag'larni tejab-tergab, ularda no'rinli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shu bois bolalarni ham yoshlikdan pul bilan muomala qilishga o'rgatish, o'zining shaxsiy hamda oila a'zolarining buyumlari, shuningdek, oila mulkiga nisbatan mas'uliyatli yondashishga ko'niktirib borish muhim ahamiyatga egadir. Bolalarga pulning inson mehnatiga to'lanadigan qiym at ekanligini tushuntirib berish, uni oilaning eng muhim ehtiyojlari uchun ishlatish lozimligini uqtirish, ular tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lar edi. Oilada tashkil etiladigan iqtisodiy tarbiya bolalarda iqtisodiy savodxonlik hamda

tafakkurining shakllanishida muhim o'rin tutadi. Bolalarda iqtisodiy tafakkurni hosil qilishda ota-ona, oilaning katta yoshli a'zolarining namunasi katta tarbiyaviy ta'sir kuchiga egadir. Oilada ota-onaning ibrat, namuna bo'lib farzandlariga beradigan tarbiyalari asosan, bolada o'ziga ishonch, quvonish, hayotdan zavqlanish, tejamkorlik, ma'suliyat hissini bag'ishlaydi. Bola oilasida ota-onasi tomonidan qanaqa ibratli harakat yoki aksincha, bir-birini haqoratlash, hurmatsizlik, kamsitish, do'q-po'pisa guvohi bo'lsa, bu kabi salbiy illatlar doimiy takrorlansa, bolani psixik holatiga, xulq-atvoriga bilimi, tarbiyasi, eng muhimi oila tushunchasiga nisbatan, hurmati so'nadi, shu bilan birga bunday bolalar jamiyatdan o'zlarini ajralib qolganday his qilishadi, hamma narsaga jig'ibiyron munosabatda bo'lishadi. Bora-bora ota-onasiga bo'lgan hurmat hissi so'nishi mumkin. Shu o'rinda bir narsani ta'kidlash zarurki, bola tug'ilibdimi, uning tarbiyasiga ota-ona birdek mas'ul hisoblanadi.

Bugungi kunda ko'pgina ota-onalar hayot oqimida o'zlari bilan o'zlari band bo'lib qolishgan. Atroflarida nima voqea sodir bo'layotganini ham ba'zan payqashmaydi holbuki, farzandlari tarbiyasi ularda zarracha ahamiyat kasb etmaydi. Ko'pincha mol-dunyo to'plash ilinji bilan yelib-yugurishadi, tinmay harakat qilishib, farzandlari to'g'rida bosh qotirishmaydi, ular jamiyatda o'z erkinliklari bilan ulg'ayishadi, borliqni o'zlaricha yoki atrofdagilarning fikr-mulohazalari bilan anglashadi. Har narsada beqarorlik, jizzakilik, ma'naviy ojizlik, erkinlik, yengil hayot tarziga o'rganib qolishadi. Bu ulg'ayish jarayonini ko'pchilik ota-onalar sezmay qolishadi hattoki. Aslini olib qaraganda, bolaning bu ulg'ayish jarayonida bu kabi illatlar qurshab olishida ota-ona sababchi bo'lib qolishadi. Bola o'sib ulg'ayar ekan, o'sib borish davrida, o'tish davri bo'ladi, bolaning xarakterida, xatti-harakatlarida ma'lum o'zgarishlar sodir bo'ladi. Ana shu davrda ota-onalar ayniqsa, farzandlariga ko'proq mehr, e'tibor berishlari talab etiladi. Ular bilan do'stlashish, fikrlarini eshitish, muamolarini tinglash maqsadga muvofiq sanaladi. Oila jamiyatning bir bo'lagi sifatida, o'zida qadriyat, an'analarni mujassam etadi, hozirgi kunda ko'pchilik oilalar hunarmandchilikning bir qancha turlari bilan shug'ullanishadi. Jumladan, do'ppido'zlik, kashtachilik, kulolchilik, payvandchilik, o'ymakorlik, temirchilik, zargarlik, binokorlik, misgarlik, beshiksozlik kabi hunar turlari azaldan o'zbek xalqining milliyligini anglatib kelgan. O'zbek oilalarida bu kabi hunarmandchilik turlarining rivojlanishi shu oilada voyaga yetadigan farzandlar tarbiyasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'tmish va hozirgi kunni bog'lab turadigan bu kabi hunar turlari, o'sib kelayotgan yosh avlodda vatanga muhabbat, milliy urf-odatlarini ko'rish, anglash ularni saqlab qolish va yanada takomillashtirish, kelajak avlodlarga yetkazish taassurotlarini uyg'otadi. Bu kabi hunarmandchilik ortidan daromad ham o'ttirilib, oilalar farovon, tinch-totuv bo'ladi. Moliyaviy jihatdan oilalarda urush-janjallar bo'lmaydi. Bu oilalarda kamol topgan farzandlar ham tarbiyasi, o'zini tutishi, madaniyati bilan boshqalardan farq qilib turadi. Hozirgi davrda mahallalarda ham oilalarning farovonligini ko'zlab, ko'pchilik oilalarga ularning bandligini ta'minlash, oilaning iqtisodiy muammolarini bartaraf etish, ular va ularning farzandlariga moddiy va ma'naviy ko'mak berish, ishsizlikni oldini olish maqsadida turli tadbirkorlik sohalari bilan shug'ullanishlari uchun issiqxona, parrandachilik, kasanachilik, asalarichilik shu kabi sohalar uchun

ma'lum kredit miqdorida berilmoqda, shu bilan birga bu sohalarni rivojlantirishlari uchun tushuntirish ishlari mutaxasislarni jalb qilgan holda olib borilmoqda. Oilalarda bu kabi tadbirkorlik tarmoqlarining o'sishi, urush-janjallarni oldini olib, jamiyatning taraqqiy etishida mustahkam bir poydevor bo'lib xizmat qiladi. Bunday jamiyatda o'sib ulg'ayib borayotgan yosh avlod ham yetuk, barkamol bo'lib voyaga yetishadi.

Oila va mahalla hamkorligida



kulolchilik, duradgorlik, temirchilik, miskarlik, binokorlik, sartaroshlik, o'ymakorlik, zargarlik, zardo'zlik, bo'yoqchilik, tunikasozlik milliy an'analar rivoj topadi.

Oilada mehnatsevarlikni shakllantirish

Mehnat tarbiyasi ham oila tarbiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri sanaladi. Shaxsning mustahkam xarakter va qat'iy iroda egasi bo'lib voyaga yetishida mehnatning roli kattadir. Bolalarni oilada to'g'ri tarbiyalashda oila xo'jaligining odilona tashkil etilishi, bolalarni oila xo'jaligini yuritish ishiga jalb qilish katta ahamiyatga ega. Bolalar tom onidan bajariladigan oilaviy yumushlar ularning jismoniy va aqliy kamoloti darajasidan ortiq bo'lmasligi, ularning tezda toliqishlari yoki mayib bo'lishlariga sabab bo'lmasligi lozim. Bolalar zimmasiga ularning yoshi, rivojlanish darajasi, jismoniy quvvatiga muvofiq yumushlarning taqsimlab berilishi, berilgan topshiriqlarning bajarilishi va ularning sifatini kattalar tomonidan nazorat qilib turish, bajarilgan topshiriqlarning haqqoniy bahosiga ega bo'lgan havasini oshiradi, unda o'z kuchiga bo'lgan ishonchni yuzaga keltiradi. Oilada, mustaqil ravishda, ayrim yumushlarning hamjihatlikka asoslangan holda bajarilishiga erishish katta ahamiyatga ega. Mehnatni tashkil etishda ota-onalarning shaxsiy namunasi, aka-opalarning ibрати, shuningdek, ota-onaning bola bilan birga ishlashlari katta tarbiyaviy kuchga egadir. Oilada tashkil etilgan mehnat bolalarni farosatli bo'lish, ishni rejali olib borish, vaqtdan unumli foydalanish, tejamkor bo'lish, shuningdek, o'zgalar mehnati, inson mehnatining mahsuli

bo‘lgan ne‘matlarni asrab-avaylashga o‘rgatadi. Oilada, shuningdek, atrof-muhit muhofazasiga oid tarbiyaviy ishlar ham tashkil etiladiki, bu jarayonda bolalarda “inson-tabiat-jamiyat” tushunchalari o‘rtasida yuzaga keluvchi o‘zaro muvofiqlik borasidagi g‘oyalarning qaror topishiga zamin hozirlaydi. Oila muhitida tashkil etilayotgan hovli sahnini supirib-sidirish, gulzorlarni tashkil etish, ko‘chatlarni o‘tqazish va ularni parvarish qilish, maishiy chiqindilarni bartaraf etishga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish kabi harakatlar bolalarda tabiatni asrashga nisbatan mas’ullik tuyg‘usini shakllantiradi.



Oilada tarbiyalanayotgan har bir farzandga o‘ziga xos va mos hunar ilmini o‘rgatish ularning kelgusi farovon turmushini ta’minlash demakdir. O‘g‘il bolalar qa dim-qadimdan chorvachilik, dehqonchilik, duradgorlik kabi og‘ir jismoniy mehnat talab etuvchi hunar bilan shug‘ullangan bo‘lsalar, qizlar kashtachilik, do‘ppido‘zlik, jiyakdo‘zlik, tikuvchilik kabi nafis did, mahorat, san’at talab etadigan hunar bilan mashg‘ul bo‘lganlar. Yoshlarni turmushga tayyorlashning asosiy mezonini ham ularga kasb-hunar sirlarini puxta o‘rgatishdan iborat bo‘lgan. Ushbu mezon mustaqillik sharoitida ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. „Ta’lim to‘g‘risida“gi qonun mohiyatida ham yosh avlodni mehnatsevar, bir necha kasb-hunar sirlarini egallagan, ma’naviy va jismoniy barkamol kishilar qilib tarbiyalash masalasiga alohida e’tibor berilgan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida hunarli bo‘lish hayotiy ehtiyojdir. Uni qunt bilan egallashda oila, mahalla, maktab, oliy va professional ta’lim

tizimidan katta mas'uliyat talab etiladi. Hayotda shunday ota-onalar ham uchraydiki, farzandining mayli, qobiliyati, qiziqishini hisobga olmasdan, uni o'zlari ma'qul ko'rgan kasbni egallashga majbur qiladilar. Natijada bu kasbni xohishsiz, qiziqishsiz o'rgangan farzand o'z kasbi bo'yicha chuqur bilimsiz, layoqatsiz bo'lib, ota-ona hurmati uchun shunchaki mehnat qiladi yoki umuman boshqa soha bo'yicha ishlaydi. Uning qilgan mehnatida unum va sifat bo'lmaydi. Bunday kasb egasidan jamiyat ham, oila ham manfaat ko'rmaydi. Hunarning yaxshi-yomoni bo'lmaydi, muhimi tanlangan kasb-hunarga mehr-muhabbat qo'yishdir, uning sir-asrorlarini chuqur o'rganishga intilishdir. Ota-onaning boyligi, mansabi hech kimga hech qachon vafo qilmagan. Boshga musibat tushganda, turmushda qiyinchiliklarga duch kelganda uni faqat qo'lidagi hunari, mehnati asrab qoladi. Har bir inson egallagan hunarning muvaffaqiyatini ta'minlovchi talablar mavjud. Bular bugungi ishni ertaga qoldirmaslik, chunki ertaga bajarish lozim bo'lgan boshqa ishlar ham bor. Mehnat taqsimotida nomutanosiblik paydo bo'lmasin desangiz, har kunlik ishni o'z vaqtida qilishni odatlanish kerak. Qisqa muddatda, shoshib pala-partish bajarilgan ishning umri qisqa va sifati yomon bo'ladi. Siz yaratayotgan mahsulot diqqat-e'tibor bilan, butun mahoratni ishga solib yaratilgan taqdirda, u go'zal va umrboqiy bo'ladi. Aks holda mehnatingiz zoye ketadi. Yaxshi kayfiyat bilan amalga oshirilgan ish naqadar murakkab bo'lmasin, u yengil va sifatli bajariladi. Egallangan hunar sirlari bilan qanoatlanmaslik zarur. Balki uning ochilmagan qirralarini doimo izlash, taraqqiy ettirish, o'z ustida tinimsiz ishlash va mehnat qilish mohir mutaxassis bo'lib yetishishning muhim omilidir. Har bir kasb-hunar poklik, rostgo'ylik, ishonch, va'dada turish, xiyonat qilmaslik, tarozida aldamaslik, mehnat madaniyatiga xilof ish qilmaslikni talab etadi. Bola ilk mehnat malakasini oilada o'z-o'ziga xizmat qilish, uy ishlarda kattalarga yordam berish, qo'lidan keladigan ishlarni bajarish jarayonida egallaydi. Ota-ona, qarindosh-urug' va boshqalar mehnatini qadrlash va hurmat qilish ko'nikmasi oilada tarkib topadi. Bolalar 5 —6 yoshdan boshlab uy ishlarini bajarishga kirishadilar. Oilaning qut-barakasi, hamjihatligi, hamkorligi a'zolarining kasb-hunar malakalarini egallaganliklari va mehnat taqsimotini adolatli yo'lga qo'yishga bog'liqdir. Oilada ro'zg'or yumushlari oila a'zolari jinsi, yoshi, qobiliyati, mehnatga munosabatlariga qarab to'g'ri taqsimlanmog'i zarur. Oila boshliqlarining

roʻzgʻor yumushlarini faqat oʻzlari bajarishlari bolani ishyoqmas, yalqov takabbur, ota-ona mehnatini qadrlamaydigan boʻlib oʻsishlariga sabab boʻladi. Shuning uchun ham roʻzgʻor va xoʻjalik ishlarida ota-ona bilan bir qatorda oʻgʻil-qiz, kelinning ham oʻz burch va vazifalari mavjud, ularni toʻliq ado etish har biridan oʻz burchlariga masʼuliyat bilan yondashish talab etiladi. Jumladan, oʻgʻil otaga bozordan oziq-ovqat, xoʻjalik mahsulotlarini xarid qilishga, yer chopish, ekin ekish, chorvachilik, dehqonchilik, polizchilik, qurilish ishlarida, toʻy-tantanalari va motam marosimlarini oʻtkazishda, xotin-qizlar uchun ogʻirlik qiladigan ishlarda yordam beradi. Qiz bola esa, onaga hovli va xonalarni supurib-sidirish, taom tayyorlash, qish mavsumi uchun quritilgan mevalar, turli tuzlamalar, murabbolar tayyorlash, mehmon kutish kabi yumushlarda koʻmaklashadi va shu jarayonda oʻzi ham mustaqil hayotga tayyor boʻla boradi. Oiladagi mehnatning bajarilish vaqti, mazmuniga koʻra turli tarzda amalga oshiriladi. Quyidagi mehnat turlari oila aʼzolari ichida teng va adolatli ravishda taqsimlanishi zarur:

— kundalik yumushlar;

— qish, bahor, yoz, kuzda bajariladigan mavsumiy ishlar;

— oilaviy marosimlar (mehmon kutish, toʻy va bayram tantanalari, motam va xotirlash marosimlari)ga tayyorgarlik koʻrish va ularni nishonlash bilan bogʻliq yumushlar;

— mahalla, jamoatchilik hamkorligida amalga oshiriladigan ommaviy tadbirlar (hashar, obodonlashtirish ishlari, urnumxalq bayramlariga tayyorgarlik) bilan bogʻliq yumushlarda ishtirok etish. Baʼzan ota-ona topshiriqni soʻzsiz, toza, vijdonan bajaradigan farzandlariga oilaning aksariyat yumushini topshiradi. Oilada mehnat madaniyatiga rioya etish uning samaradorligini taʼminlovchi muhim omildir. Bolaga yoshligidanoq mehnat madaniyatini oʻrgatib borish ishida tartib boʻlishini talab qilish muhim. Masalan, ota-ona quyidagi oddiy, lekin zaruriy narsalarni boladan talab etmogʻi zarur: „Ishlayotgan joyingni yelim bilan iflos qilmaslik uchun qogʻoz toʻsha, maxsus taxtacha ishlat, ishingni yakunlaganingdan keyin ish joyingni yigʻishtir! „Tikish ishlarini boshlashingdan oldin qoʻlingni yaxshilab yuv! Ovqat pishirishga yordam qilganingda yoki idish-tovoq, pol yuvganda belingga fartuk tut, soching xalaqit bermasligi uchun boshingga maxsus

qalpoqcha kiy yoki ro‘mol o‘ra!“ „Ishni tamom qilganingdan so‘ng mehnat qurollaringni tartib bilan yigishtir!“ „Ip, igna, qaychi, pichoq, qog‘ozlarni bir qutichaga solib qo‘y!“ „Ish kiyimlaringni doim belgilangan tartibda maxsus joyiga ilib qo‘y! Ishdan keyin yuz-qo‘llaringni yuv! Doim ish joying intizomli, sarishta bo‘lsin! Shunda ishingda unum, tartib bo‘ladi. Bu talablarni bajarishda ota-onaning o‘zi ham bolaga namuna ko‘rsatishi kerak. Mehnat madaniyatini egallash, ish qurollarini ma‘lum joyda, ma‘lum tartibda saqlash, saranjom bo‘lish vaqtni tejash, ishni tez, sifatli va ozoda bajarishda juda muhim ekanini bolaga tushuntirish zarur. Xonadonning har bir a‘zosi o‘z zimmasidagi vazifani rejali, to‘g‘ri tashkil etsa, mehnat qurollaridan ehtiyotkorlik bilan foydalansa, ro‘zg‘or buyumlarini avaylab-asrasa, vaqtdan unumli foydalanish malakasiga ega bo‘lsa, ish o‘rnini saramjom-sarishta saqlasa, pala-partishlikka, isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymasa, har bir yumushni did, qunt, sabr-matonat bilan amalga oshirsagina u mehnati natijalaridan huzur-halovat topadi. Xalq maqollarida aytilganidek: „Mehnat rohatning poydevoridir“, „Rohatning onasi — mehnat“, „Halol mehnat — huzur-halovat“, „Suvsiz hayot bo‘lmas, mehnatsiz — rohat“, „Mehnatsiz rohat bo‘lmas, tashvishsiz — ne‘mat“, „Halol mehnat — yaxshi odat, berur senga saodat“. Oilaning har bir a‘zosi zimmasidagi vazifa umumiy maqsadni ko‘zlab tashkil etilgan va uning natijalaridan barcha oila a‘zolari bahramand bo‘lgan taqdirdagina unday mehnat foydali hisoblanadi.

Tarbiya darsliklarini olib qaraydigan bo‘lsak, oila, oilada bola tarbiyasi, oilada mehnatsevarlik mavzulari yoritilgan bo‘lib, garchi yaxlik mavzu sifatida berilmagan bo‘lsada, ko‘pchilik berilgan rasmlarda, matnlarda bu mavzular akslantirilgan. Masalan, 2-sinf tarbiya darsligida “Ishonamiz va tekshiramiz” mavzusi keltirilgan bo‘lib bunda oila, qarindoshlar, biz ishonadigan, bizga ko‘mak bera oladigan insonlar yoki notanish insonlar haqida mulohazalar keltirilgan. Ahil oila, oila a‘zolari, ahil oila qanday bo‘lishi, oila a‘zolarining bir-biriga munosabati, oila bizni doim har qanday vaziyatlarda ham qo‘llaydigan mustahkam qo‘rg‘on ekanligi haqida keltirilgan rasmlar, matnlar, shuningdek, berilgan savollar mazmunidan tushunib yetishimiz mumkin.

**Oilada ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish bilan bog'liq jahon
xalqlari maqollari**

1. Mehirsiz oila-ildizsiz daraxt.

Lak maqoli

2. Ayol oilaning uch ustuni, er –to'rtinchisi.

Belorus maqoli

3. Ahil bo'lmagan oilada yaxshilik bo'lmaydi.

Chechen-ingush maqoli

4. Oilada bola hammadan katta.

Abazin maqoli

5. Oilada hamjihatlik bo'lmasa, uni baxt tashlab ketar.

Qirg'iz maqoli

6. Uzilgan bargni shoxga yopishtirib bo'lmaydi, singan oynada yuzing aks etmaydi. (Oila haqida)

Yapon maqoli

7. Oilaviy janjallar faqirlikka olib keladi.

Yapon maqoli

8. Bola uchga kirganda unga butun oila gapirishni o'rgatadi.

Vetnam maqoli

9. Mehmondo'st oilada odam yig'iladi, suvo'tlariga boy daryoda- baliq.

Buryat maqoli

10. Qarilar bilan oila mustahkam turadi.

Ozarbayjon maqoli

11. Har bir oilaning shkafida skelet bo'ladi.

Ingliz maqoli

12. Baxtsizlik eng baxtiyor oilalarga tashrif buyuradi.

Ingliz maqoli

Sana: _____

Sinf: 2-“ _____ ”

O'qituvchi: _____

MAVZU: Hamkorlik an'analari

Maqsad: Ta'limiy: O'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish. Hamkorlik an'analari mohiyatini anglatish, ularga ongli munosabatda bo'lish, jamoa a'zolarini hurmat qilish, birgalikda hamjihat bo'lib ishlash ko'nikmasini shakllantirish.

Tarbiyaviy: Jamoada o'zini tutish, barcha jamoa a'zolarini hurmat qilish, hamda qo'limizdan kelgancha yaxshilik qilish, odob saqlash ma'naviy boylik ekanligini va mutafakkir ma'rifatparvarlar asarlaridagi hikmat, rivoyat va o'g'itlarini, milliy sharqona odob-axloq qoidalari, fazilatlariga rioya qilish

Rivojlantiruvchi: O'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish, matn bilan ishlash orqali fikrlash qobiliyatlarini, og'zaki nutqini o'stirish

Dars turi: Yangi bilim beruvchi

Dars metodi: Suhbat, tushuntirish, savol-javob, tushuncha va tahlil

Dars jihozi: Darslik, taxta, bo'r, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Darsning borishi.

T/R	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: Salomlashish, navbatchi axboroti, sinf va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi, o'quvchilar ehtiyojlari aniqlanadi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. O'tilgan mavzu yuzasidan suhbat,

savol-javob o'tkaziladi. O'tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O'quvchilar topshiriqlarni bajarib, o'tilgan mazuni qismlarga bo'lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

III. Yangi mavzu bayoni:



O'qituvchi yordamida o'rganing

Odamlar azaldan muammolarni birgalikda hal qilishga intilgan. Agar ular qiyinchiliklarni alohida-alohida hal qilishsa, insoniyat hech qachon hozirgidek yutuqlarga erisha olmagan bo'lar edi.



Xalq o'gitalari

Hamkorlik va o'zaro yordam- xalqimizning azaliy an'analaridir. Bu an'ana mahallada, ayniqsa, yaqqol ko'rinadi. Odamlar turmush sharoitini yaxshilash uchun birlashadi, kundalik masalalarni birgalikda hal qilib, mahalladagi tartib-intizomni nazorat qiladi. Qo'shnilar hashar qilib, ko'chat ekadilar, hududni tozalab, ozoda saqlashga harakat qiladilar. Zarurat bo'lsa, mablag' to'plab, bolalar uchun o'yingoh yoki sport maydonchalarini quradilar, mahalla ko'chalarni tozalaydilar. Biror tabiiy ofat ro'y bersa, uning oqibatlarini yo'qotish uchun bir yoqadan bosh chiqaradilar. Har qanday masala bilan mahalla raisiga bema'lol qilish mumkin. Mahalladoshlar yig'ilib, to'y-tomosha, bayramlarni ham birga nishonlaydilar.



O'qituvchi yordamida o'rganing

Inson bir o'zi uddalay oladigan ishlar ham bor. Bunday ishlarni har kim

o‘zi bajarishi kerak. Lekin ba‘zi ishlarda natija ishtirokchilar soniga bog‘liq. Masalan, bolalar meva tersa, hosilning ko‘p-ozligi har bir bolaning qancha meva terganiga bog‘liq bo‘ladi. Ammo shunday ishlar ham borki, ularni aslo yolg‘iz bajarib bo‘lmaydi. Masalan, kishi baland to‘siqdan yolg‘iz oshib o‘tishi qiyin yoki ariq ustiga bir o‘zi to‘sin tashlay olmaydi. Uy-joyni yolg‘iz qurish haqida-ku, gapirmasa ham bo‘ladi!

O‘qituvchi bilan birgalikda rasmlar muhokama qilinadi.



Bolalarning hamkorlik borasidagi suhbatini o‘qiymiz.

Akmal, o‘zaro hamkorlik va yordamning farqi bormi?

Kimdir yordam so‘rasa, ko‘maklashamiz.
Mana shu-yordam

To‘g‘ri. Kimdir
bo‘lib qolsa ham unga ko‘maklashamiz.

O‘ylashimcha, hamkorlik bir ishni bir necha kishi
birgalashib bajarishidir.

Maktabda sinfimizdagi bolalar bilan
birga spektakl tayyorlagan edik. Esingdami?

Ha, esimda! Mana shu hamkorlik

Yodda tuting!

Hamkorlikda bir vazifani bajarishda bir nechta odamlarning birgalikda harakat qilishidir. Ular do'st bo'lishlari shart emas. Lekin umumiy maqsad ostida birlashishadi va maqsadga erishishadi ularning har birining hissasi muhim



O'qituvchi yordamida o'rganing

Jamoa bo'lib ishlash nima degani? "Jamoa" so'zini eshitib, darrov sport o'yinlari yodimizga tushdimi?



Fudbol jamoasida darvozabon, himoyachilar, hujumchilar bo'ladi. Fudbol maydonida har bir o'yinchining o'z o'zni ma'suliyati bor. Kim qaysi ishga qobiliyati bo'lsa, jamoa o'sha ishni qilishi kerak. Jamoada ishlashni bolalikdan o'rganish kerak. Masalan, buni jamoa bo'lib o'ynaladigan o'yinlarda, maktabdagi tadbirlarda o'rganish mumkin. Darsda guruhlariga bo'linib, biror mavzuni muhokama qilsangiz yoki biror vazifani ko'pchilik bo'lib bajarsangiz, bu ham jamoaviy ish bo'ladi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash. O'tilgan mavzu mustahkamlanadi.

1. Yozma topshiriq.



2. Topshiriq. Tushunchalarni ma'nosini izohlang.

Tushuncha	Tahlil
Jamoa	

Oila	
Hamkorlik	
Jamoa a'zolari	

Yodda tuting!

Ishbilarmonlik sifatlarinigizni rivojlantiring:

- Tartibli, hushyor bo'ling;
- Ishni vijdonan bajaring;
- Sabrli bo'ling, yaxshilikka intiling;
- Shaxsiy fikringiz bo'lsin, lekin boshqalarning fikrini ham hurmat qiling.



Savollarga javob bering

1. Qanday jamoaviy sport turlarini bilasiz?
2. O'rtoqlaringiz bilan qaysi jamoaviy o'yinlarni o'ynaysiz?
3. Turli sohalaridagi jamoaviy ishlarga misollar keltiring.

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.

O'quvchilar darsdagi ishtirokiga ko'ra baholanadi. Rag'bat kartochkalari orqali baholanadi. Guruhlar ham umumiy rag'batlantirilib boriladi.

VI. Uyga vazifa:



Guruhlarga bo'linib, do'stlik, o'zaro yordam, hamkorlik haqida she'r yoki maqollar toping. Keyin ularga mos suratlar toping yoki chizing.



Diqqat qiling!

1. O'zbek xalq maqollarini davom ettiring.

1. Ahil oila-baxtli,.....
2. Oila ahil bo'lsa,.....
3. Oila tinch-

4. Oilaning farog'ati-.....
5. Inoq oilada.....
6. Sarishtali uy.....
7. Uying tor bo'lsa ham.....
8. Ulug' uyga ne kerak.....

2. Berilgan mulohazalarni to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini belgilang.

T/r	Mulohaza	To'g'ri (true) ✓	Noto'g'ri (False) X
1	1998-yil yurtimizda “Yoshlar yili” deb e’lon qilingan.		
2	Xalq ta’limi vazirligining 2004-yil 26-tevralda „Oila, mahalla maktab“ to’g’risidagi Konsepsiyasi qabul qilindi.		
3	Yurtimizda oila va nikoh masalalari tartibga solingan ammo, bu borada biror qonun yaratilmagan.		
4	Bolaning tarbiyasi uzluksiz ravishda oilada tashkil etiladi.		
5	1993-yil 2-sentyabrda O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarito’g’risida”gi Qonuni qabul qilindi.		
6	“Mahalla” atamasi arabchada “o‘rin-joy” ma’noni anglatadi.		
7	2-mart mahalla tizimi xodimlari		

kuni.

3. Quyidagi rasmlar mazmun-mohiyatini ochib bering. Oilada ota va onaning vazifalarini yozing.



Otaning vazifalari	Onaning vazifalari

4. Test topshiriqlarini bajaring.

1. Mahalla atamasiga berilgan to‘g‘ri ta’rifni toping.

- A. Atamasi arabchada “o‘rin-joy” ma’noni anglatib, turli mintaqalarda mahallot (joy), guzar, jamoa, elat, elod kabi nomlar bilan atalib kelingan.
- B. Yunoncha “yashash joyi” degan ma’noni anglatadi.
- C. Mahalla atamasi ko‘p ma’noli atama hisoblanib, uning ma’nosi aynan keltirilmagan.
- D. Barcha javoblar to‘g‘ri.

2. Narshaxiyning asari keltirilgan qatorni toping.

- A. Buxoro tarixi
- B. Buxoro yodgorligi
- C. Qadimiy Buxoro
- D. Buxoro obidalari

3. Nechanchi yilda “Fuqorolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi qonun tasdiqlangan?

- A. 1999-yil 14-aprel
- B. 2020-yil 2- mart
- C. 1993-yil 2-sentabr
- D. 2013-yil 22-aprel

4. Mahalla xodimlari kuni sifatida e‘tirof etilgan kunni aniqlang?

- A. 2-sentabr
- B. 22-mart
- C. 22-aprel
- D. 2-mart

5. Oilaga berilgan to‘g‘ri ta’rifni aniqlang?

A. Oila – kichik bir jamiyat. Mavjud jamiyatning daxlsizligi oilaning jipsligiga bog‘liq.

B. Oila – insoniyat tarixining barcha davrlarida jamiyatning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan muborak dargoh.

C. Azal-azaldan insonning his-tuyg‘ulari, aql-idroki, ma’naviyati, qo‘yingki, butun borlig‘i kamol topadigan tarbiya maskani

D. Barcha javoblar to‘g‘ri

6. Ta’lim-tarbiyani amalga oshirishda mahallaning vazifasi berilmagan qatorni belgilang?

A. Faollari tomonidan tarbiya muassasalari bilan birgalikda amalga oshirilishi kerak bo‘lgan masalalarni muhokama qilishda, oqilona yechimlarni topishda faollik ko‘rsatishi;

B. O‘z hududidagi ijtimoiy va iqtisodiy yordamga muhtoj oilalarni aniqlab, ularni qo‘llab-quvvatlab va farzandlarining bilim hamda tarbiya olishlariga bosh-qosh bo‘lishi;

C. Ma’nan nosog‘lom oilalarni mahalla yig‘inlarida muhokama qilish, jamoatchilik choralari ko‘rishi;

D.Ta'lim jarayonlarini tashkil etish va nazorat qilish.

7. Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Fikr muallifini toping.

A.Alisher Navoiy

B.Abdurauf Fitrat

C.Abdulla Avloniy

D.Hamza Hakimzoda Niyoziy

8. Farzand tarbiyasida oilaga xos bo'lgan vazifani aniqlang?

A.Ota-onalar orqali bolalarni tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, milliy g'urur, vatanparvarlik, milliy odob, baynalmilallik kabi xislatlarni singdirishni har tomonlama rag'batlantirishi;

B.Mahallada istiqomat qilayotgan xalq ustalari, san'atkorlar, ziyolilar va barcha ijod ahlining imkoniyatlaridan foydalanib, turli to'garak va „Usta-shogird“ rusumida bilim va kasb berish faoliyatini tashkil qilishi;

C. Mahalla hududidagi ishlab chiqarish korxonalari tomonidan mahallada istiqomat qilayotgan va moddiy qiynalgan yoshlar uchun ish joylari tashkil qilishi;

D.Bolaning kun tartibini to'g'ri tashkil qilish, o'qish faoliyatini nazorat qilish, unga har tomonlama ko'mak berish

9. Oilaviy munosabatlar deganda nimani tushunasiz?

A.Ota-onalar yoki bolaning kamoloti uchun mas'ul bo'lgan shaxslar hamda farzandlar o'rtasida turli yo'nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlardir.

B.Murakkab jarayon, chunki har bir oila o'ziga xos bir olamdur. U tarbiya ishida ham o'ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi. Oila tarbiyasining muvaffaqiyatli bo'lishi ota-onalarga pedagogik bilimlar berish, oilaviy tarbiya bo'yicha tajribalar almashish va ota-onalarni tarbiyaviy ishlarga qizg'in jalb qilishga bog'liqdir.

C.Oilaviy tarbiyaning murakkabligi shundaki, har bir oila o'ziga xos bir olam, u tarbiya ishida ham o'ziga xos xususiyatlarni namoyon qiladi. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiya bilan uzviy aloqada bo'lsagina o'sib kelayotgan yosh avlod farovonligini ta'minlashi mumkin.

D.To'g'ri javob berilmagan.

10. Butun jahon oila kuni sifatida e'tirof etilgan kunni aniqlang?

- A.13-may
- B.10-mart
- C.15-may
- D.20-aprel

11. „Oila va oilani boshqarish tartiblari“ asari muallifini aniqlang?

- A.Alisher Navoiy
- B.Abdurauf Fitrat
- C.Abdulla Avloniy
- D.Hamza Hakimzoda Niyoziy

12. “Biz faoliyatimizning birinchi kunlaridan hamma ishni mahallada, xalqimiz bilan birgalikda tashkil qilib kelayapmiz. Bu tizimni bosqichma-bosqich rivojlantirdik. Endi yana qo‘shimcha kuch, imkoniyatlar berilyapti. Bu ham vakolat, ham mas’uliyat degani. Mahallalar — davlatimizning eng katta zamini”, fikrlari muallifini aniqlang.

- A.Alisher Navoiy
- B.Abdurauf Fitrat
- C Islom Karimov
- D.Shavkat Mirziyoyev

13. Kishilarning nikoh yoki qon–qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas’uliyat hamda o‘zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi. Berilgan ta’rifga mos so‘zni toping.

- A.Mahalla
- B.Oila
- C.Jamiyat
- D.Jamoa

14. Mahallani “mahalla shahar ichidagi shaharcha”dir deb ta’riflab, Hirot shahri yuz shaharcha ahamiyatiga ega bo‘lgan mahallalardan tashkil topganligini aytib o‘tganini ta’kidlagan alloma kim?

- A.Alisher Navoiy
- B.Abdurauf Fitrat
- C.Abdurahmon Jomiy
- D.Lutfiy

15. “Oila, mahalla, maktab” to‘g‘risidagi Konsepsiya nechanchi yilda qabul qilingan.

- A.2004-yil 26-fevral
- B.2004-yil 27-fevral
- C.2003-yil 26-fevral
- D.2004-yil 27-fevral



Mavzu yuzasidan savollar

1. Mahalla va uning tarixi haqida so‘zlab bering?
2. Ta’lim muassasalarida ta’limni tashkil etishda mahallaning ahamiyati haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Oila va uning ta’limdagi roli haqida mulohaza yuriting?
4. Oilada bola tarbiyasida asosan nimalarga e’tibor qaratiladi?
5. Oila, mahalla, maktab hamkorligidan ko‘zlangan asosiy maqsad nimalardan iborat? Misollar keltiring.



Foydalanilgan adabiyotlar

2. R. Mavlonova, N. Rahmonqulova, B.Normurodova, K.Matnazarova Tarbiyaviy ishlar metodikasi. Darslik. Toshkent, 2014 y.403-bet.
3. O.Hasanboyeva, D.Xoliqov va boshqalar “Oila pedagogikasi”. Darslik. T., «Aloqachi», 2007 y, 384 bet.
4. Xoliqov A. A. Pedagogik mahorat. Darslik /O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, 420 b.
5. O.M.Jabborova Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma.- Toshkent. 2022.-104 b.
6. M .X. Toxtaxodjayeva, S.Nishonova va boshqalar Pedagogika. Darslik, « O ‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti, 2010
5. O.V.Usmanova, Y.V.Risyukova / tarbiya 1-sinf: darslik-Toshkent: “Novda Edutainment”.2023. – 116 b.
6. O.V.Usmanova, Y.V.Risyukova / tarbiya 2-sinf: darslik-Toshkent: “Novda Edutainment”.2023. – 116 b.

7. O.V.Usmanova, Y.V.Risyukova / tarbiya 3-sinf: darslik-Toshkent: “Novda Edutainment”.2023. – 103 b.

8. O.V.Usmanova, Y.V.Risyukova / tarbiya 4-sinf: darslik-Toshkent: “Novda Edutainment”.2023. – 80 b.



Tarbiya jarayonini samaradorligini oshirishda ilgʻor xorijiy tajribalar

Reja:

1. Jahon tarbiya konsepsiyalari. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida uzluksiz maʼnaviy tarbiyaning tutgan oʻrni.
2. Ilgʻor xorijiy mamlakatlar taʼlim tizimi

Mavzuga oid tayanch tushunchalar: tarbiya konsepsiyalari, qiyosiy tahlil, milliy tarbiya, milliy xususiyatlar, tarbiyasi nazariyasi, tarbiyaning izchilligi, pedagogik tajriba, mahorat.



1. Jahon tarbiya konsepsiyalari. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida uzluksiz maʼnaviy tarbiyaning tutgan oʻrni

Pedagogika nazariyasida qiyosiy yoʻnalishni kuchaytirishni, turli zamon va makonlarda yaratilgan tarbiya konsepsiyalarini vertikal va gorizontai nuqtai nazaridan tahlil qilishni, xatolarni chetlab oʻtib, tarix sinovidan oʻtgan, insonparvarona mohiyatga ega boʻlgan tarbiyaviy konsepsiyalar yutuqlaridan, texnologiyasidan samarali foydalanishni taqozo qilmoqda. Boshqa mamlakatlar tarbiyaviy tizimlarini oʻrganishning xususiyatlari haqidagi ibratli fikrlarni professor P.Kapnistning 1900 yilda aytgan fikri asoslaydi: "...tarbiyaviy ishlarda taʼlim muassasasining milliy xususiyatlarini dunyo sivilizatsiyasining tarkibiy qismi sifatida oʻrganish kerak. Bu birinchidan, har bir ilmiy muassasaning(uning qayerda joylashganligidan qatʼiy nazar) asosini belgilaydi va ikkinchidan, begona

o'lkalarning ta'limiy ishlarini o'rganish boshqa mamlakatlarda bir vaqtlar o'tkazilgan va natijalari aniq ko'rilgan ko'plab tajriba va eksperimentlarni takrorlashdan bizni qutqazadi"

Yangi avlodni tarbiyalash g'oyasining asoschisi J.Lokk yoshlar hisob-kitob ilmini bilish bilan birga, an'anaviy qilichbozlik san'atini ham yaxshi egallashlari kerak deb hisoblar edi. Jon Lokk Angliyaning jahon miqyosidagi obro'sini ko'tarishni yoshlarni tarbiyalashga tayanmay oshirish mumkin emasligini asoslab, amalga oshirdi.

Angliyada tarbiya jarayoni yosh avlodni tarbiyalash g'oyasi Fransiyada ham qabul qilinib, o'ziga xos tarzda amalga oshirildi. Bu quyidagicha ta'riflangan edi; "Fransiyada tarbiya - o'zida yuksak axloqiy sifatlar, fazilatlar, ziyolilik, sog'lom mushohadalik ruhida tarbiyalanganlikni o'z Vatanida qabul qilingan xushxulqlik bilan uyg'unlashtirilgan". G'arbiy Yevropada uyg'onish davri ijtimoiy fanlar, xususan pedagogikada tarbiya va uning mohiyati, maqsadi haqida dadil ilmiy fikrlar aytilganligi bilan ham e'tiborga molik. Bu fikrlar rang-barang bo'lib, tarbiya fonemonining turli qirralarini yoritishga xizmat qiladi. Yevropada Uyg'onish davri faylasuf va pedagoglarining tarbiya va uning maqsadi haqidagi g'oyalarida "milliylik", "milliy" tushunchalari tez-tez uchramasada, asl mohiyati jihatidan ular milliy asosga qurilgan edi. Birinchidan, o'sha davr G'arbiy Yevropa davlatlari - milliy davlat sifatida shakllanib bo'lgan edilar. Ikkinchidan, G'arbiy Yevropa millatlari o'z davlatlarida milliyliklariga xavf soluvchi, zarar yetkazuvchi har qanday tashqi ta'sirdan holi edilar. Uchinchidan, milliy g'ururni, tuyg'uni so'ndiruvchi milliy mustamlakalik azobini boshdan kechirmagan edilar. Ana shuning uchun ham milliylikni tiklash sobiq mustamlaka mamlakatlarning dastlabki ma'naviy ehtiyojiga aylanishi tabiiydir.

Shariat: Markaziy Osiyoga islom dini bilan kirib kelgan Qur'oni Karim asosida ishlab chiqilgan, jinoiy, fuqarolik va axloq odob qoidalari majmui. Shariat diniy-huquqiy tizim sifatida XI-XII asrlarda tugal shakllangan. Shariatda barcha hatti-harakatlar dastlab ikki turga – harom va halolga ajratilgan. Keyinchalik 5 turga: farz bajarilishi qat'iy, majburiy hisoblangan axloq me'yorlari; manbud (sunnat) – majburiy emas, lekin ma'qul. Lozim

hisoblangan axloqiy me'yorlar; muboh – ixtiyoriy me'yorlar; makruh – ixtiyoriy me'yorlar; harom qat'iy ravishda taqiqlangan hatti-harakatlar.

Tarbiyaning tabiatga mos bo'lishi haqida ta'limotida Y.A.Komenskiy tarbiya uch bosqich – vazifadan iborat ekanligini aytib o'tadi:

- 1) o'zini va tevarak-atrofdagi olamni bilish (aqliy);
- 2) o'z-o'zini boshqarish (axloqiy);
- 3) Xudoni tanishga intilish (diniy tarbiya).

Inson tabiatning bir qismi sifatida uning eng asosiy, umumiy qonunlariga bo'ysunadi, deb hisoblaydi.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida tarbiyaning tutgan o'rni



Yaponiya-kun chiqar mamlakat aholisi farzandlarining tarbiyasiga o'ta jiddiy qarashadi. Maktablarda "yapon axloqi" darsi maxsus o'tiladi. Bolalar asta-sekin xuddi kattalardek salomlashishga, hatti-harakatlar qilishga mashq qildirila boriladi. Agarda biror o'quvchi milliy axloq

qoidalarini buzsa, bolalar uni "g'alati yapon" deyishadi. Keyinchalik ham u o'z xatolarini tuzatmasa, "begona" nomini oladi va bolalar undan uzoqlashadi. Bu erda har bir yoshga nisbatan ma'lum bir munosabatda bo'linadi va ayri tarbiya usullari qo'llaniladi. Mashhur yapon ruhshunosi Masara Ibukining fikriga ko'ra, bolaga asosiy tarbiyani 3 yoshgacha berish lozim. Aynan 3 yoshga qadar farzandingizdagi yashirin iqtidorni yuzaga chiqarish mumkin. Yaponiyaliklar 5 yoshgacha bo'lgan kichkintoyga qiroldan muomala qilishadi. Ular istaganlaricha o'ynashlari, miyasiga kelgan ishni qilishlari mumkin. Hattoki bolalar bog'chalarida bolakaylar flomaster bilan devorga to'ygunlaricha chizishlari uchun maxsus xonalar mavjud. Ota-onalar o'z farzandlarini o'yinchoqlar va ortiqcha kiyim-kechak bilan siylashmaydi. Yapon bolalari tarbiyasi, odobli, oqko'ngil va kamdan-kam hollarda o'z

hissiyotlari ustidan nazoratni yo‘qotadi. Bola tarbiyasida ana shunday mustahkam tarbiyaning besh siri mavjud.

1. Ona va bolada “amae”ning muhimligi. Yaponiyada ona va bola juda yaqin. Bu yaqinlik maishiy hayotda ham aks etadi: ona va bola birga uxlaydi, ona bolani uzoq vaqt ko‘tarib yuradi. Birga uxlash va bolani ko‘tarib yurish haqida yapon badiiy adabiyotida ko‘plab eslatmalarni topish mumkin. Ona-bola



aloqasi hissiy darajada aks etadi: ona bola qilayotgan hamma narsani mehr, sabr va g‘amxo‘rlik bilan qabul qiladi. Bunday munosabat “amae”ning shakllanishiga hissa qo‘shadi. Bu so‘zning boshqa tillarda muqobili yo‘q. “Amae” — bolalar va ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlar asosi bo‘lib, bolalar to‘laligicha ota-onalariga va ularning mehriga suyanishi mumkin. Qariyalar esa katta yoshli bolalaridan xuddi shu narsani qabul qilib oladi.

2. “Ikudzi” tizimi: xudo, xizmatkor va teng

“Ikudzi” prinsipiga asosan, besh yoshgacha bolaga hamma narsa mumkin. Bu ko‘plab xorijliklar o‘ylaganidek irodasizlik va bo‘ysunmaslik emas. Bu bolada “men yaxshi va sevimliman” tushunchasini hosil qilish hisoblanadi. “Ikudzi” tarbiya tizimiga



asosan, bola besh yoshgacha — xudo, besh yoshdan 15 yoshgacha — xizmatkor, 15 yoshdan boshlab — teng hisoblanadi. Aslida, “ikudzi” falsafasi inson manfaatlari ikkinchi darajaga tushadigan jamoaviy jamiyat a‘zolarini tarbiyalashga yo‘naltirilgan. Bu o‘ziga xos stress, yapon ota-onalar shunday sharoitlarda tizimda o‘z o‘rnini topadigan va o‘z qadrini yo‘qotmaydigan barkamol shaxsni tarbiyalashga harakat qiladi. Birinchi bosqichda (xudo) ular bolani cheksiz mehr va ko‘mak bilan o‘rab oladi. Ikkinchi bosqichda (xizmatkor) bu mehr hech qayerga ketmaydi, shunchaki bola jamiyat qoidalarini faol o‘rganadi va unda o‘z o‘rnini topishga harakat qiladi. Bunda dastlabki yillarda shakllangan onaga kuchli bog‘lanish bolaga katta ta’sir

ko'rsatadi. Bola onasining jahlini chiqarmaslik uchun o'zini to'g'ri tutishga harakat qiladi. Yapon ta'lim muassasalarida nafaqat ta'limga, balki tarbiyaga ham alohida e'tibor qaratiladi, ularda atrofdagilarning eng yaxshisi va eng yomoni tushunchasi mavjud emas. Uchinchi bosqichda (teng) bola jamiyatning shakllangan a'zosi hisoblanadi. Uni tarbiyalashga kech bo'ladi va ota-onalar o'z urinishlari hosilini yig'ib olishi kerak bo'ladi.



3. Oilaning yuqori

ahamiyati

Qoidaga ko'ra, bola tarbiyasi bilan ona shug'ullandi. Ular bolalar bilan ko'p vaqt o'tkazadi. Yaponlar bolani uch yoshdan oldin bolalar bog'chasiga berish kerak emas, deb hisoblaydi. Asosiysi, bolani buvisiga berish yoki enaga yollash ma'qullanmaydi.

Biroq bunda kengaytirilgan oilaga katta ahamiyat beriladi: bolalar bobo va buvilar hamda boshqa qarindoshlar bilan faol muloqotda bo'ladi. Avlodlar o'rtasidagi munosabatlar ta'sirchanlik va diqqatga asoslanadi, bu yerda keksalarning fikrlari tinglanadi. Oila — bu “amae” hukmronlik qiladigan va har doim qo'llab-quvvatlaniladigan va g'amxo'rlik qilinadigan doira.

4. Shaxsiy misol

“Yaponiya. Uni qanday tushunish kerak” kitobi muallifi Ikeno Osamu qiziq bir tajriba haqida yozadi. Yapon onalari va yevropalik onalardan bolalari bilan birga piramida yig'ish so'ralgan. Yapon onalari dastlab o'zlari yiqqan va keyin bolalardan takrorlashni so'ragan. Agar bolalar biror narsani o'xshata olmasa, ular ishni qayta boshlagan.

Yevropalik onalar esa boshqa taktikani tanlagan: ular bolalarga piramida qanday yig'ilishini batafsil tushuntirgan. Keyin esa bolalarga ishni bajarishni taklif qilgan. Ko'rinib turibdiki, yapon onalari “men kabi qil” tushunchasini bergan bo'lsa, g'arblik onalar faqat nazariyani tushuntirib, bolalarni hammasini o'zi bajarishga majbur qilgan. Shuning uchun yapon ta'limi va tarbiyasi “hijjalovchi” deb ataladi. Yapon onalar kamdan-kam hollarda

bolalarni qilib ko‘rmagan ishini qilishga majburlaydi. Ular avval misol ko‘rsatib, bolada shu ishni qilishga xohish uyg‘otadi.

5. Hissiyotlarga munosabat

Bolaga jamoaviy jamiyatda yashashni o‘rgatishdan oldin atrofdagilar hissiyoti va manfaatini ko‘rish va hurmat qilish nima ekanligini tushuntirish kerak. Shuning uchun yapon ayollari o‘z navbatida bolalarning sezgirligini hurmat qiladi. Ular bolalarga ortiqcha bosim o‘tkazmaydi, uyaltirmaydi, balki bolakaylarning hissiyotlarini uyg‘otadi. Misol uchun, agar bola mashinani sindirib qo‘ysa, yapon ona “Mashinaning joni o‘g‘riyapti, u hozir yig‘laydi”, — deydi. Yaponlarning o‘zi ularning usullari yagona to‘g‘ri usul ekanligini tasdiqlamaydi. So‘nggi vaqtlarda g‘arb qadriyatlari ularning an‘analariga katta ta‘sir ko‘rsatmoqda. Biroq yaponcha yondashuvning asosiy tamoyili bolalarga sokinlik, sabr va to‘liq mehr bilan yondashuv hisoblanadi.



Amerika Qo‘shma Shtatlari-bu yerda erkinlik bola tarbiyasida ham o‘z aksini topgan. Onalar farzandlarining har soniyalik qiziqishlari va injiqliklarini qondirishga tayyordirlar. Aksariyat bolalar 4-5 yoshlarida o‘yinchoqlarning barcha turi bilan tanishishadi, ko‘pincha amerikalik oilalarning garaj va omborxonalari bir marotaba o‘ynalgan o‘yinchoqlar bilan to‘lib-toshadi. Ikkinchi tomondan, go‘dakligidanoq amerikalik bolakaylar «Sen eng chiroylisan, eng yaxshisan, eng aqllisan, eng qobiliyatlisani», degan so‘zlarni har kuni eshitgan holda o‘sishadi. Maqsad — mustaqil insonni tarbiyalash! Agarda bola xato qilsa, uni urushmay: «Yana bir marotaba harakat qilib ko‘r! Sen, albatta, buni uddalaysan! Chunki sen zo‘rsan!» deya qo‘llab-quvvatlanadi. Albatta, bunday yondashuv kelgusida o‘zining mevasini beradi.

Germaniyada bolalarning rivojiga 3 yoshdan boshlab katta e‘tibor beriladi. Onalar o‘z farzandlarini boshlang‘ich bosqichda haftada bir marta,

kattaroq bo'lganlarida bir necha marotaba maxsus rivojlantirish guruhlariga olib borishadi. Maqsad jamoa bo'lib o'ynash, o'zaro muloqotga o'rgatishdir. Faqatgina mazkur guruhlariga bola borganidan so'nggina uni bolalar bog'chasiga berishadi. Chunki farzandning bog'chaga ko'nikishi oson kechadi va bolalar bu erda o'zlarini erkin his qiladilar. Bog'chada bolaga o'z huquqlarini, ularni hech kim xafa qilishi mumkin emasligini o'rgatishadi.

Angliyada bolalar bosqichma-bosqich tarbiyalanishadi. Chunki bu erda kech turmushga chiqish yoki uylanish odatiy hol. Ko'pincha inglizlar 35-40 yoshlarida ota-onalik baxtiga erishishadi. Shuning uchun ham farzand tarbiyasiga juda katta va jiddiy e'tibor berishadi. 2-3 yoshidan boshlab unga dasturxon atrofida o'zini tutishni, tevarakdagi odamlar bilan muomalada bo'lishni, o'z hissiyotlarini yashirishni o'rgatishadi. Angliya shaharlarining ko'chalarida bolasini erkalayotgan ota-onani kamdan-kam uchratish mumkin.

Shvetsiyada bolalarga shakllangan shaxs sifatida qarashadi. Ularning ham o'z huquqlari va majburiyatlari bor. Shuningdek, shvedlardagi bag'rikenglik, o'zgaga, uning qarashlariga, madaniyati, dini, irqiga nisbatan hurmatda va sabrli bo'lish, agarda insonning biror-bir jismoniy yoki ruhiy kamchiligi bo'lsa, unga tengqur sifatida qarash bolalikdanoq yosh avlod ongiga singdiriladi. 8-sinfdan boshlab o'quvchilarga «Bolalar haqida» degan fan o'tiladi. Ular oila qurish, homiladorlik, undan saqlanish yo'llari, jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklar, bola tarbiyasi va balog'at yoshida o'smirlar bilishi zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarga ega bo'ladilar.«Save the children» deb ataluvchi Amerikadagi tashkilot har yili dunyo mamlakatlarining qaysi birida onalar va bolalar yaxshi yashashlarining ro'yxatidan iborat Mothers Index (Onalar indeksi)ni tuzib chiqadi. Unda Shvetsiya deyarli har yili birinchi o'rinni egallaydi. Chaqaloq dunyoga kelgach, yosh shved onalar davlat tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlanadi.

Finlandiya dunyodagi eng bolajon mamlakat, desak, yanglishmagan bo‘lamiz. Unda jismoniy imkoniyati chegaralangan bolalar oddiy bog‘cha va maktablarga borishadi. Bu yerda nogiron va sog‘lom bolaga ajratish qabul qilinmagan. Siz o‘qituvchilardan ota-onalarni o‘z farzandlarining ta’lim



taraqqiyoti to‘g‘risida turli xil usullardan foydalangan holda xabardor qilishlari kerakligini ko‘rasiz. Bunga ota-onalarning bolalar bog‘chasiga yoki maktabga tashrif buyurishi, telefon suhbatlari, axborot byulletenlari, uyga tashriflar, norasmiy eslatmalar, e‘lonlar taxtasi, seminarlar va muntazam ravishda yuzmayuz muloqot kiradi. Bularning barchasi bolaning maktabda nima bilan shug‘ullanayotganiga va ularning ota-onalari ham shunday yoki yo‘qligiga qaratilgan.

Ushbu holatlarning barchasida ota-onadan va eng muhimi - butun oiladan keladigan rahbarlik strategiyalari haqiqatan ham samarali bo‘lishi kerak. Ota-onalarning ishtiroki bilan barcha yoshdagi bolalarda ijobiy o‘sinh borligini inkor etib bo‘lmaydi. Ota-onalar farzandining umumiy ta’lim jarayoniga yordam beradilar. Bolaning kelib chiqishini tushunish va oilaning bolaga bo‘lgan maqsadlari haqida tasavvurga ega bo‘lish uchun ota-onalar ushbu tarbiya usullariga qat’iy amal qiladilar.

Bolalarning oilalari bilan o‘zaro ishonchga asoslangan sog‘lom munosabatlarni rivojlantirish;

- Farzandlarga o‘zlarining umumiy o‘sinhini ta’minlashda muhim bo‘lgan kuchli va qobiliyatlarni tan olishlariga yordam berish;
- Turli oilalarning madaniyati, tili, urf-odatlari va e’tiqodlari asosida qadriyatini hurmat qilish;
- Farzand tarbiyasida qadriyatlar bilan tanishish va ota-onalarga farzandlari uchun to‘g‘ri qaror qabul qilishda yordam berish;
- Oila a’zolariga o‘z farzandlarining umumiy tushunchasini yaxshilash va ota-onalarning sifatidagi ko‘nikmalarini oshirishga yordam berish;

Hech shubha yo'qki, butun dunyo bizning bolalarimizga katta ta'sir ko'rsatadi. Ammo tengdoshlarning bosimini butunlay yo'q qilish va rad etish o'rniga, siz undan o'rganish usuli sifatida foydalanishingiz mumkin. Bu erda ota-onalar doimiy ravishda o'zlariga tengdoshlarning bosimini ta'lim uchun yanada konstruktiv tarzda qanday yaxshilash va o'zgartirish mumkinligi haqida so'rashlari kerak. "Do'stlaringiz sizga qandaydir munosabatda bo'lishsa, o'zingizni qanday his qilasiz?" yoki "do'stingizda nimani qidirasiz?" Tengdoshlar oldidagi ta'lim bosimi baholar, o'qishlar, sinfdagi natijalar va boshqalar bo'yicha taqqoslashni o'z ichiga oladi. Ota-onalar ta'lim bu nuqtai nazaridan yordam berishi mumkin bo'lgan yo'llarni topishadi va bolani doimiy kuzatib borishadi. Bolalar televizorda yoki internetda nima tomosha qilmoqdalar? O'qituvchilar ta'lim jarayoniga qanchalik jalb qilingan. Haqiqatan, ham maktab jabhasida nima sodir bo'lmoqda? Ko'pincha, bolalar o'zlarini uyda bo'lgani kabi maktabda ham xuddi shunday qadriyatlarga mos kelmaydigan yoki bog'lanmagan deb his qilishadi. Bu g'oyalar to'qnashuviga olib kelishi yoki ular uchun to'siq bo'lishi mumkin. Finlandiyada bola uchun ota-ona mukammal namuna bo'lishga intilmaydi. Har bir ta'lim bosqichida ular bilan birga bo'lishadi. Xoh o'rta maktab o'quvchilari tomonidan zo'ravonlikka duchor bo'lgan o'smir yoki bolalar bog'chasiga endigina kirgan bolakay bo'lsin, ular ota-onalariga model sifatida qarashadi. Ularga uy vazifalarini bajarishda yoki yordamga muhtoj bo'lgan boshqa ilmiy maqsadlarda ko'maklashishadi. O'rnak sifatida ular farzandlariga qiyin vaziyatda yolg'iz qolishlariga yo'l qo'ymasdan, kichik qadamlar orqali mustaqil bo'lishga yordam berish kerakligini bilishadi. Farzand tarbiyasida e'tibor berish kerak bo'lgan jihatlar:

- Kichkintoylar va hatto ba'zi kattalar uchun maktabgacha yoshdagi bolangizga yotishdan oldin ertak o'qish;
- Har kecha uy vazifasini tekshirib, kuni qanday o'tganini so'rash;
- Uchrashuvlar va tashriflar paytida o'qituvchilar bilan farzandingizning yutuqlarini muhokama qilish;
- Maktab kengashi saylovlarida ovoz berish;
- Maktabingizga qiyin akademik standartlarni o'rnatishga yordam berish;
- Maktab davrlarida televizor ko'rishni ikki soatdan ko'p bo'lmagan muddatga cheklash;

- O‘zingizning uyingiz standartlariga muvofiq ishlaydigan cheklovlarni o‘rnatish;
- Farzandlaringiz bilan bog‘liq muammolarni va masalalarni muhokama qilish;
- Ular bilan birga vaqt o‘tkazish, o‘ynash yoki ochiq havoda sayr qilish. Bu ekskursiyalar, kutubxona yoki muzeyga olib borishni yoki bog‘da bir kunni ilmiy tadqiqot o‘tkazish bilan sarflash;

Umuman olganda, ota-onaning butun ta'lim jarayonida faol ishtirok etishi, lekin chegaralarni qayerda belgilashni bilishi kerak. Ular qo‘llab-quvvatlashni va kerak bo‘lganda u erda bo‘lishni bilishadi. Lekin qachon orqaga chekinishni va g‘alaba tuyg‘usini yoki bolangizga biror narsaga erishishda yordam berganlik hissini his qilishni bilishingiz kerak. Ammo umuman olganda, ular bola bilan vaqt o‘tkazish nafaqat asosiy ta'lim jarayoni uchun muhim, balki oilaviy munosabatlarda ham katta kuch hisoblanishini bilishadi. Ota-onalar o‘z farzandlariga ko‘p narsalarni o‘rgatishlari va ularni hayotda yaxshiroq qilishlari uchun ilhomlantirishlari kerak.



2. Ilg‘or xorijiy mamlakatlar ta’lim tizimi

YAPONIYA TA’LIM TIZIMI



Yaponiya-juda tez rivojlanayotgan davlat bo‘lib, bu hol asosan yaponlarning tabiatan mehmatsevarlik va ishbilarmonligi bilan bog‘liqdir. Dunyodagi barcha yangiliklar va yuksalishlar sari intilish, eng so‘nggi yutuqlardan foydalanish va ularni yanada rivojlantirish - bu yapon xalqining azaliy milliy odatlariga aylanib qolgan. Bugungi kunda Yaponiya dunyodagi barcha davlatlar uchun ochiq va halqaro hamkorlik maydonida faol ishtirok etib kelmoqda. Yaponiyada juda qadimdan xalqning aqliy imkoniyatlaridan foydalanuvchi fan va texnikani qo‘llash siyosati eng muhim o‘rin tutadi. Hozirgi davrda Yaponiya ilmiy tadqiqotlarga ketgan sarmoya miqdori

bo'yicha dunyoda 2-o'rinda turadi. Yaponiya ta'limining shakllanishi 1867-1868 yillarda boshlangan. Yaponiya o'z oldiga 2 vazifani: 1-boyish, 2-g'arb texnologiyalarini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish masalasini qo'ydi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish kerakligini angladi.

Yaponiyada boshlang'ich ta'lim- "syogakko"



Boshlang'ich maktab ta'limning ilk 6 yilini qamrab oladi va uning asosiy qismi hisoblanadi. Yaponiyada maktabga 6 yoshdan boriladi. Boshlang'ich maktabga 6 yoshdagi yapon bolalarning 99% qatnaydi. 99% yapon boshlang'ich maktablari davlat tasarrufida, 1% - xususiy. O'quv rejasigayapon tili, gumanitar fanlar, arifmetika kabilar kiradi. San'at va hunar (yapon xusni xati), musiqa, uy xo'jaligini yuritish, jismoniy tarbiya, axloqiy odobnoma akademik predmetlar hisoblanmaydi. Yaponiyada boshlang'ich ta'lim majburiy va bepul bo'lib, mashg'ulotlar aprel oyida boshlanadi. O'quv yili 3 ta chorak-trimestrga bo'linadi. 1-chorak-6 apreldan20 iyulgacha davom etadi, keyin yozgi ta'til boshlanadi. 1-sentyabrdan 2-strimestr boshlanadi va 26 dekabrgacha davom etadi. 26-dekabrdan 7-yanvargacha qishli ta'til bo'ladi. Oxirgi 3-trimestr 7-yanvardan 25-martgacha davometadi. 25-martdan 6-aprelgacha bahorgi ta'til bo'ladi. Shu paytda o'quvchilar sinfdan sinfga ko'chadi. Chorak-trimestrlarning boshlanishi va tugallanishi turli maktablarda turli sanalarga to'g'ri kelishi mumkin. Ta'til paytida o'quvchilar uy vazifalarini oladilar. Ba'zan ta'til paytida ham, agar trimestrda yaxshi o'qimagan bo'lsa, maxsus kurslarda o'qiydilar. Yaponiyada o'qish 6 kunlik, lekin har 2-shanba dam olish kuni hisoblanadi. Maktablarda o'qitish dasturi o'zgaruvchan, lekin Ta'lim vazirligi tasdiqlagan standartlarga asoslanadi. Boshlang'ich ta'limni moliyalashtirish, o'qituvchilar bilan ta'minlash, maktab dasturlarini yaratish mahalliy hokimiyat zimmasida. Boshlang'ich ta'limda bolalar davlat hisobidagi 1945 kandji iyeroglifdan 1006 tasini yod olishi kerak. Boshlang'ich ta'lim "syogakko" quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, vataniga, o'z qadriyatlariga hurmat hissini o'rgatish;
- o'quvchilarni xalqaro xamkorlik ruhida tarbiyalash;
- ona tilidan to'g'ri foydalanish;
- iqtisodiy tarbiya berish;
- barkamol shaxsni tarbiyalash.

O'quv maqsadlariga aniq o'quv fanlari bo'yicha o'quv rejalari va dasturlarni tayyorlash orqali erishiladi. Boshlang'ich maktabda yapon tili jamiyatshunoslik, tabiiyot, musiqa, rasm va hunar, uy ijodiyoti, etika kabi fanlar o'qitiladi, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanadilar. Shuningdek "maxsus faoliyat" fani ham o'qitiladi, unga klub ishlari, majlislar, sport tadbirlari, sayohatlar, bayramlar va b. kiradi. Kam ta'minlangan oilalarning bolalari maktab nonushtalari, turli xizmat va sayohatlarga pul to'lash uchun dotatsiya oladilar. Ota-onalar farzandlarini o'z tumanlarida joylashgan maktabga borishini istamasalar, xususiy pullik ta'lim muassasasiga berishlari mumkin, lekin bu maktablarga juda qiyin tanlov orqali qabul qilinadi.

Yaponiyada o'rta va yuqori maktab tizimi. Kichik o'rta maktab-tyugakko.



Boshlang'ich maktabni tugatgan o'quvchi o'qishni kichik o'rta maktabda davom ettirishi lozim. Yapon tili, matematika, jamiyatshunoslik, etika, tabiiyot, musiqa, san'at, maxsus faoliyat, jismoniy tarbiya, texnik mahorat va uy xo'jaligini yuritish kabi majburiy fanlardan tashqari o'quvchilar chet tili, qishloq xo'jaligi yoki matematikadan chuqurlashtirilgan kurs kabi fanlarni tanlashlari mumkin. Kichik o'rta maktab 3ta sinf 7,8,9-sinflarni o'z ichiga oladi va majburiy ta'limning oxirgi bosqichi bo'lib hisoblanadi. O'quvchilar yoshi 12dan 15 yoshgacha bo'ladi. Xuddi boshlang'ich maktabdagiday, o'rta maktabning asosiy qismi davlat tasarrufida, 5%-xususiy. 2001 yil apreldan boshlab ingliz tili majburiy fan bo'lib hisoblanadi. Ko'pchilik o'quvchilar bitta yoki bir necha maktab to'garaklari, qiziqishlari bo'yicha klublarga qatnashadilar. Bu darsdan keyin soat 18:00gacha ish kunlari, dam olish kunlari ertalabki vaqtni egallaydi.

Kichik oʻrta maktabda oʻtiladigan fanlar qatoriga ingliz tili, bir necha tanlov fanlar kiradi. Bu fanlarning tarkibi maktablarga bogʻliq. Eng qiyin fanlar matematika va yapon tili hisoblanadi.

Yaponliklar farzandlarining eng yaxshi, yuqori taʼlim olishini juda hohlaydilar. Taʼlimga bunday katta eʼtibor “dzyuku” maktablarining yaratilishiga asos boʻldi. “Dzyuku”-nufuzli oʻquv muassasalariga tayyorlovchi maxsus kechki maktablardir. Bunday maktablarning analogi XVIII asrda yapon cherkovida paydo boʻlgan, hozirgi kunda dzyukular soni 100 mingdan oshiq.

“Kichik dzyuku”lar 5-6 oʻquvchidan iborat boʻlib, oʻqituvchining uyida shugʻullanadi. “Katta dzyuku”lar 5 mingga oʻquvchilarni yigʻadi. Oʻqish bu maktablarda soat 16:50dan 20:50gacha davom etadi, darslar dushanbadan jumagacha boʻladi, haftalik nazoratni odatda yakshanba ertalabgacha belgilashadi. Yuqori (oʻrta) maktab-kotogakko.

Yuqori (oʻrta) maktab majburiy emasligiga qaramay, unda 94% oʻquvchilar tahsil oladilar. Yuqori oʻrta maktab soni 55%ni tashkil etadi, shunga qaramay davlat va xususiy katta maktablar pullik. Yuqori oʻrta maktabning 1-yil uchun dasturi hammaga bir xil, lekin keyingi 2 yil ichida oliy taʼlim olish maqsadiga koʻra kursni tanlash nazarda tutilmoqda.

Yuqori maktab dasturlari oʻrta maktab va boshlangʻich maktab dasturlariga koʻra xilma-xil, lekin oʻquvchilarga bilimning u yoki bu sohasiga ixtisoslanishi boʻyicha imkoniyatlar yaratiladi. Yuqori maktablarda oʻqish pulli, lekin davlat muassasalarida arzonroq. Pulli, xususiy oʻrta va boshlangʻich maktablar ham bor. Barcha pulli taʼlim muassasalarida stipendiyalar konkursi gʻolibi boʻlsa, tekin oʻqish mumkin yoki chegirmalar olish mumkin. Oʻrta maktabdan yuqori maktabga oʻtish imtihonlar natijalariga bogʻliq holda amalga oshiriladi. Oʻrta maktabda oʻzlashtirish koʻrsatkichiga koʻra oʻquvchi kirish imkoniyati bor boʻlgan katta maktab roʻyxatini oladi.

Odatdagi davlat maktablaridan tashqari pulli xususiy maktab-akademiyalar (gakuenlar) bor. Shuningdek, umumdavlat maktabi maqomidagi “milliy maktablar” mavjud. Bu akademiya kirish uchun yuqori konkurs asosida alohida imtihonlar topshiriladi. Bir tarafdin akademiya yaxshi taʼlim dasturlari mavjud boʻlib, ularning koʻpchiligi oliy maktab yoki universitetga kirish uchun imkoniyat beradi.

Yaponiya hukumati OO‘Yulari bitiruvchilarini o‘qituvchi lavozimiga tayinlashda qattiq tanlov siyosatini olib boradi. Boshqa davlatlardan farqli o‘laroq, davlat maktabi o‘qituvchisi bo‘lish uchun yapon fuqarosi o‘qituvchi diplomini olishi kerak va o‘qituvchilikka tayinlash imtihonidan o‘tishi kerak. Yaponiya kollejlari o‘z maqomi bo‘yicha bizning o‘rta maxsus ta’lim muassasalari bilan teng. Ular kichik, texnologik, va maxsus tayyorgarlik kollejlariga bo‘linadi.

Kichik kollejlarda gumanitar, tabiiy, tibbiyot va texnik fanlar sohasida tayyorgarlikning ikki yillik dasturini tavsiya qiladi. Bu kollej bitiruvchilari universitetning 2 yoki 3-kursida o‘qishni davom ettirishlari mumkin. Kichik kollejlarga qabul to‘liq o‘rta maktab bazasida amalga oshiriladi.

Talabgorlar kirish imtihonlari va undan kamroq “Birinchilik bosqich yutuqlari testi”ni topshiradilar.

Yaponiyada texnologik kollejlarga to‘liq emas yoki to‘liq o‘rta ta’limni tugatgach kirish mumkin. Birinchi holatda o‘qish muddati 5 yil, ikkinchisida-2 yil.

Bu tipdagi kollejlarda elektronika, qurilish, mashina qurilishi va boshqa fanlar o‘qitiladi. Maxsus tayyorgarlik kollejlari buxgalter, mashinist, dizayner, dasturchi, avtomexanik, tikuvchi, oshpaz va b. kabi 1 yillik kasbiy kursni tavsiya etadi. Bitiruvchilar OO‘Yuda, kichik va texnik kollejlarda o‘qishni davom ettirish xuquqiga ega bo‘ladilar.

Noto‘liq va to‘liq o‘rta maktab bitiruvchilarini ma’lum kasbga tayyorlash uchun 2 tipdan iborat maktab tizimi yaratilgan bo‘lib, bular majburiy ta’lim bazasidagi 1-4 yillik maxsus tayyorgarlik maktablari, hamda bir necha oydan 1-3 yilgacha davom etadigan ko‘p tarmoqli maktablardir.

1978 yil joriy qilingan va oxirgi yillarda uning sezilarli darajada oshgan maxsus tayyorgarlik va ko‘p tarmoqli maktablar Yaponiya uzluksiz ta’lim tizimida muhim o‘rin tutadi. Bu maktablar o‘quvchilarga kasbiy-texnik va umumta’lim yo‘nalish kurslarini taklif etadi. O‘rta kasbiy ta’lim 2-3 yillik kichik kollejlarda va 5 yillik texnik kollejlarda olinadi. Kichik kollejlarda “tanki-daygaku” deb ataladi va butun Yaponiya ta’lim tizimining juda ko‘p qismini tashkil etadi. Ko‘pchilik milliy kichik kollejlarda milliy universitetlar qoshida tashkil etilgan. Kichik kollejlarning yarmi o‘rta tibbiy xodimlarni, choragi yurist va iqtisodchilarni, qolganlari- texnik mutaxassislarni tayyorlaydi.

Munitsipal kichik kollejlarda jamiyatning ijtimoiy talablariga ko'ra ta'limiy va tadqiqot faoliyatini olib boradi.

Yaponiyada davlat universitetlariga to'liq o'rta maktabni bitirib kirish mumkin. Qabul 2 bosqichda o'tkaziladi. Birinchi bosqichda abituriyentlar markazlashgan holda universitetlarga qabul bo'yicha Milliy markazlarda o'tkaziladigan "Yutuqlar birinchi bosqichining umumiy testi"ni topshiradilar. Testni muvaffaqiyatli topshirganlar universitetda o'tkaziladigan kirish imtihonlariga kiritiladilar. Testdan yuqori ball olganlar davlatning eng nufuzli universitetlariga kirish uchun imtihon topshiradilar.

Oliy ta'lim bakalavr darajasini olish uchun 4 yillik o'qish belgilangan. Ba'zan ma'lum kasbiy darajani egallash uchun 6 yillik dastur tavsiya qilinadi. 2 tipdagi universitetlar mavjud: milliy universitetlar davlat universitetlari.

Yaponiyada kuchli 20 talikka kirgan eng zo'r Osiyo universitetlari: Tokio universiteti, Osako universiteti, Kioto universiteti, Toxoku universiteti, Nagoya universiteti, Tokio texnologiya instituti, Kyusyu universiteti, Sukuba universitetlaridir.

Universitet tanlashda birinchi mezon-uning nufuzliligida. Bunday nufuzli OO'Yu bitirgan yosh yigit-qizlar darhol ishga olinadi.

Yaponiya universitetlarida o'quv jarayonini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyati shundaki, umumilliy va maxsus fanlar aniq bo'lib o'qitiladi.³ Birinchi ikki yillikda barcha talabalar umumta'lim tayyorgarligini oladilar. Bunda umumilliy fanlar: tarix, falsafa, adabiyot, jamiyatshunoslik, chet tillari o'tiladi, shuningdek, bo'lajak kasbi bo'yicha maxsus kurslarni eshitadilar. Ilk ikki yillikda talabalar tanlagan kasblari mohiyatiga chuqurroq kirish imkoniyatiga ega bo'ladilar, o'qituvchilar esa-talabaning kasblarining to'g'ri tanlaganliklariga ishonch hosil qiladilar va ilmiy salohiyatini aniqlashga erishadilar.

Nazariy jihatdan umumilliy sikl tugagandan so'ng talaba mutaxassislik va hatto fakultetni o'zgartirishi mumkin. Aslida, bunday holatlar kam uchraydi va bitta fakultet doirasida bo'lishi mumkin, bunda ham tashabbuskor talaba emas, rahbariyat bo'ladi. Oxirgi 2 yilda tanlangan kasb o'rgatiladi. Barcha universitetlarda o'qish muddati standartlashtirilgan. Oliy ta'limda ta'limning asosiy yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha 4 yil o'qitiladi. Tibbiyot xodimlari, stomatolog va veterinarlar 6 yil o'qishadi. Asosiy kursni tugatgach,

bakalavr darajasi beriladi: gakushi. Ayrim mustasno holatlardan tashqari bitta universitetdan ikkinchisiga o'tish amalda yo'q.

Lekin ba'zi universitetlar chet ellik talabalarni 2 yoki 3-kursga qabul qiladilar, shunda talabalarni o'tkazish bo'yicha maxsus imtihonlar o'tkaziladi (transfer examination).

Oliy o'quv yurtining tadqiqot ishlariga layoqati bor talabalari o'qishni magistraturada davom ettiradi.

Ko'plab universitetlar o'quv jarayonini semestr tizimi bo'yicha tashkil qiladi. Universitetda zacet birliklari tizimi tashkil qilingan. Unda auditoriya va laboratoriyada semestr davomida har hafta ichida sarflanadigan soatlar sonidan kelib chiqib, o'qitilayotgan kursning hajmi belgilanadi. Bakalavr darajasini olish uchun 124dan 150 gacha zacet birliklarini to'plash lozim.

Magistrlik darajasi dasturi chuqur ilmiy va kasbiy ixtisoslashtirishni nazarda tutadi. 30 zacet birligidan iborat bo'lgan dastur bo'yicha 2 yillik ta'lim, bitiruv imtihonlari va dissertatsiya himoyasidan keyin magistratura bitiruvchisiga magistr darajasi beriladi. 3 yillik doktorlik dasturlari 50 zacet birligi, bitiruv imtihonlari va individual tadqiqot asosida o'tkazilgan dissertatsiya himoyasidan iborat o'quv kursini o'z ichiga oladi. Talaba, magistr va doktorantlardan tashqari yapon oliy o'quv yurtlarida, erkin tinglovchilar, ko'chma talabalar, tadqiqotchi-talabalar va kollegial tadqiqotchilar bor

Erkin tinglovchilar asosiy kursga yoki magistraturaga bir yoki qator kurslarni o'rganish uchun qabul qilinadilar. Yaponiya yoki chet el oliy o'quv yurtlaridan kelgan ko'chma talabalar bitta yoki qator ma'ruzalarda qatnashish yoxud magistratura va doktoranturadan ilmiy rahbarlikni olish uchun qabul qilinadilar. Tadqiqotchi talabalar (Kenkyu-sei) mazkur universitet professori rahbarligi ostida ma'lum ilmiy mavzuni o'rganish uchun bir yillik magistraturaga kiradi, lekin akademik daraja berilmaydi.

Globalashuv davrida oliy ta'lim jamiyat hayotida o'ta muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan Yaponiyada oliy ta'lim tizimi juda qadrlidir.

Yaponiyada oliy ta'lim 12 yillik boshlang'ich va o'rta ta'limdan keyin boshlanadi. Yaponiya oliy ta'lim muassasalariga universitetlar, kichik mutaxassis diplomini beruvchi 2 yillik kollej, amaliy va ijodiy ta'lim beruvchi

texnologik kollejlari va kasbiy va amaliy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus o'quv kollejlari kiradi.

Oliy ta'lim bitiruvchilari quyidagi darajalarga ega bo'ladilar:

Universitet	Bakalavr darajasi	4 yil
	Magistrlik darajasi	2 yil
Oliy ta'limdan keyingi ta'lim	Doktorlik darajasi	5 yil
Kollej	Kichik mutaxassis darajasi	2 yoki 3 yil

Oliy ta'lim ta'sis etgan darajalar:

Texnologik kollej	Kichik mutaxassis	5 yil
Maxsus maktab	Mutaxassis daraja	2 yoki 3 yil
	Yuqori malakali daraja	4 yil

Yaponiyada universitetlar quyidagi 3 ta kategoriyalarga bo'linadi:

1. Dastavval Yaponiya hukumati tomonidan, hozirgi kunda milliy universitet korporatsiyalari tomonidan joriy qilingan milliy universitetlar;
2. Jamoat universitet korporatsiyalari, mahalliy jamoat yuridik shaxslari, ta'lim korporatsiyalariga tegishli xususiy universitetlar tomonidan joriy qilingan jamoat universitetlari;
3. Xususiy universitetlar - umumiy universitetlar sonining 80% ni tashkil qiladi;
4. Har bir xususiy universitet o'zining noyob ta'lim tizimi va ilmiy tadqiqotlarini taklif etadi. Bu universitetlar Yaponiya ta'lim tizimida muhim ahamiyatga ega.

Yaponida hozirgi kunda 1200 dan ziyod universitet va kollejlari bo'lib, unda 3.22 mln. talaba tahsil oladi. Yaponiyada barcha milliy universitetlar 2004 yildan boshlab korporatsiya sifatida qayta tashkil qilindi. milliy universitetlarning bunday birlashuvi ta'lim va ilmiy tadqiqotlarning yanada jonlanishiga olib keldi. Shuningdek, har bir milliy universitet moliyaviy masalalarda ham mustaqil bo'ldi. 2004 yildan boshlab jamoat universitetlari

mahalliy jamoat yuridik shaxslarga korporatsiyani o'z hohishiga ko'ra tashkil etish va boshqarish imkonini berdi.

Milliy universitet korporatsiyalarini prezident boshqaruv tizimi boshqaradi, unda direktorlar kengashi mavjud bo'lib, boshqaruv va ta'lim uchun kengash organlari faoliyat yuritadi. Milliy universitet korporatsiyalari olti yillik davr mobaynida vaqtni hisobga olgan holda muvaqqat reja tuzishi kerak. Bunda Fransiya siyosatining Oliy ta'lim haqidagi siyosatida kuzatilganidek, oliy ta'lim haqidagi milliy siyosat va universitet mustaqilligi o'rtasida korporatsiya o'rnatish maqsad qilib olingan.

Milliy universitet korporatsiyalarida shtat birligi masalalari prezident tomonidan hal etiladi. Lekin shunga qaramay, o'qituvchilar tarkibining bandligi bo'yicha har bir fakultet yoki yo'nalish o'zi qaror beradi, prezident uni ma'qullaydi.

Yaponiya xususiy universitetlarida talabalarning 80% tahsil olishadi va davlatning gullab-yashnashga o'z hissasini qo'shishadi.

Yaponiya ta'lim tizimidagi qator ijobiy o'zgarishlarga qaramasdan xalqaro xorij universitetlariga talab kuchli. Shu bois Maorif, Sport, Fan va texnika vazirliklari universitetlarning ta'lim faoliyatini yaxshilash borasida quyidagi ishlarni amalga oshirdi:

- Sifat kafolati va akkreditatsiya tizimi orqali Oliy ta'lim sifatini oshirish;
- Bakalavriat va magistratura sifatini yanada yaxshilash;
- Xalqaro raqobatbardoshlikni kuchaytirish;

Yaponiya Oliy ta'lim muassasalarining xalqaro raqobatbardoshligini oshirish maqsadida ma'lum muddat sifat kafolati va akkreditatsiya tizimi barlashtirildi.

- Ingliz tili sinflari (guruhlari)ni tashkil etish;

Yapon talabalari ingliz tilida kerakli bilimlarni olishi uchun, xorijlik talabalar Yaponiyada tahsil olishlari uchun qulaylik yaratish maqsadida mashg'ulotlar ingliz tilida tashkil etildi, ingliz tilida kurslar ochildi.

Yaponiyada ko'plab universitetlar allaqachon ingliz tilida dars o'tiladigan guruhlarni tashkil etgan. Undan tashqari 50 dan oshiq oliy ta'limdan keyingi ta'lim o'ynalishida mashg'ulotlar faqat ingliz tilida olib boriladi.

“300 000 Xalqaro talabalar rejasi” tizimi

Xalqaro talabalar almashinuvi nafaqat xalqaro raqobatbardoshlikni qo‘llab quvvatlaydi, balki boshqa davlatlar bilan do‘stlik va hamkorlikni rivojlantiradi. Shunga ko‘ra yapon hukumati hozirgi kunga qadar xalqaro talabalarni qabul qilish va yapon talabalarini chet davlat ta’lim muassasalariga katta e’tibor qaratib keldi.

1983 yil “100 000 xalqaro talabalarni qabul qilish rejasi” ishga tushdi, 2003 yil maqsadli 100 000 talaba tahsil olishga muvaffaq bo‘ldi. 2008 yil 1 maydan boshlab chet ellik talabalar soni 123 829 taga yetdi. 2008 yil iyul oyida jamiyatni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish maqsadida Ta’lim, Madaniyat, Sport, Fan va texnika vazirliklari va boshqa muassasalar, manfaatdor agentliklar “300 000 chet ellik talabalar rejasi” tizimini ishga tushirdi. Bu rejani to‘liq amalga oshirish muddati 2020 yil deb belgilandi.

Mazkur rejaga ko‘ra “Global 30” loyihasini amalga oshirish maqsadida Yaponiya universitetidan 30 tasi tanlab olindi, shulardan quyidagi 13 tasi markaz sifatida belgilandi:

Toxoki universiteti (Tohoky University)

Sukuba universiteti (Tsukuba University)

Tokio universiteti (Tokyo University)

Nagoya universiteti (Nagoya University)

Kioto universiteti (Kyoto University)

Osaka universiteti (Osaka University)

Kyusyu universiteti (Kyusyu University)

Keyo universiteti (Keio University)

Sofiya universiteti (Sophia University)

Meydji universiteti (Meiji University)

Vaseda universiteti (Waseda University)

Doshisha universiteti (Doshisha University)

Ritsmeykan universiteti (Ritsumeikan University)

Yaponiyada universitetni moliyalashtirish asosan 2 turda amalga oshiriladi: asosiy chiqimlarni moliyalashtirish, ayrim o‘qituvchilarning ilmiy tadqiqotlari uchun raqobatbardosh fondlar va talabalarga moliyaviy yordam.

Milliy, jamoat va xususiy universitetlarni musobaqa asosida moliyalashtirish ham yaxshi yo‘lga qo‘yilgan.

FINLANDIYA TA'LIM TIZIMI



Nufuzli Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan uch yilda bir o'tkaziluvchi xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, finlandiyalik maktab o'quvchilari dunyodagi eng yuqori bilimlar darajasini namoyish etishadi. Ular shuningdek dunyodagi eng ko'p kitob o'quvchi bolalar hamdir. Bundan tashqari, finlyandiyalik maktab o'quvchilari tabiiy fanlar bo'yicha - dunyoda ikkinchi, matematika bo'yicha esa beshinchi o'rinni egallashadi. Biroq pedagogik jamiyatni quvontiradigani birgina bu natijalar emas. Shunisi ajablanarliki, dunyo miqyosida yuqori ko'rsatkichlarni qayd etishlariga qaramay, finlandiyalik maktab o'quvchilari darslarga u qadar ko'p vaqt ajratishmaydi.

Finlandiyada o'rtacha majburiy umumta'lim tizimi ikki bosqichli maktabni o'z ichiga oladi:

- quyi (alakoulu), 1-6 sinf;
- yuqori (yläkoulu), 7-9 sinf.

Qo'shimcha 10-sinfda o'quvchilar o'z baholarini yaxshilashlari mumkin. So'ngra bolalar yo professional kollejga yo'l olishadi, yoki litsey (lukio)da o'qishni davom ettirishadi.

Finlandiya ta'limi "o'rta" bosqichining 7 tamoyili:

1. Tenglik

– Maktablar

Mamlakatda na elita va na "bo'shroq" maktablar bor. Finlandiyadagi eng yirik maktabda 960 nafar o'quvchi ta'lim oladi. Eng kichigida esa - 11 nafar. Barcha maktablar mutlaqo bir xil jihozlangan, birdek imkoniyatlarga ega va bir xil moliyalashtirilgan. Deyarli barcha maktablar - davlat maktablari bo'lib, o'nlab xususiy maktablar bor. Ularning ota-onalar qisman to'lov kiritishlaridan tashqari yana bir farqi - o'quvchilarga bo'lgan talabning yuqoriligida. Qoidaga ko'ra, bu o'ziga xos "pedagogik" laboratoriyalar: Montessori, Fren, Mortan i Valdorf maktablari. Ingliz, nemis va fransuz tillarida ta'lim beriluvchi o'quv muassasalari ham xususiy hisoblanadi.

Finlandiyada tenglik tamoyiliga rioya qilgan holda shved tilidagi parallel ta'lim tizimi mavjud - bog'chalardan tortib to universitetlarga. Saam

xalqining manfaatlari ham unutilmagan, mamlakat shimolida ona tilida ta'lim olish mumkin.

Yaqin vaqtlargacha finlarga maktab tanlash taqiqlangan edi, bolalar shunchaki eng yaqin oradagi maktabga chiqishardi. Taqiq bekor qilindi, lekin ota-onalarning aksariyati baribir bolalarni yaqin oradagi ta'lim muassasasiga berishni ma'qul ko'rishmoqda, zero Finlandiyada barcha maktablar birdek yaxshi.

– Barcha fanlar

Bir fanning boshqalaridan chuqurroq o'rgatilishi maqsadga muvofiq emas. U yerda, masalan, matematika san'atdan muhimroq hisoblanmaydi. Aksincha, qobiliyatli bolalar uchun alohida sinflar tashkil qilinishiga yagona sabab ularning tasviriy san'at, musiqa va sportga moyilligi bo'lishi mumkin.

– Ota-onalar

O'qituvchi o'quvchisining ota-onasi kim bo'lib ishlashini oxirgi navbatda, zarurart tug'ilgandagina biladi. O'qituvchilarga ota-onalarning ish joyiga doir savollar berish taqiqlangan.

– O'quvchilar

Finlar o'quvchilarni xususiyatlari yoki tanlovlariga qarab tasniflashmaydi.

Shuningdek, "yaxshi" va "yomon" o'quvchilar ham yo'q. O'quvchilarni bir-biriga taqqoslash taqiqlangan. Daho bolalar ham, aqliy salohiyati bo'shroq bolalar ham "o'ziga xos" hisoblanib, barcha bilan birga o'qishadi. Umuman olganda, jamoada nogironligi bo'lgan bolalar ham ta'lim oladi. Oddiy maktabda ko'rish va eshitish organlari kasalliklari bo'lgan o'quvchilar uchun sinf tashkil qilingan bo'lishi mumkin. Finlar alohida munosabatga talabgor insonlarni jamiyatga maksimal darajada integratsiya qilishga harakat qilishadi. Bilimi kuchli va bo'sh o'quvchilar orasidagi farq - juda kichik.

– O'qituvchilar

O'qituvchilar ham bolalarga bor mehrini beradi, "sevimlilar" ajratilmaydi. Qoidadan har qanday chetga chiqish bunday o'qituvchi bilan shartnoma buzilishiga olib keladi. Fin o'qituvchilari faqat ta'lim beruvchi vazifasini bajarishlari kerak. Jamoada barcha o'qituvchilar - fiziklar ham, adabiyotchilar ham, mehnat o'qituvchilari ham birdek teng.

– Katta yoshli kishilar (o‘qituvchilar, ota-onalar) va bolalar huquqlari tengligi

Finlar bu tamoyilni "o‘quvchiga hurmat" deb atashadi. Bolalarga 1-sinfidan ularning huquqlari tushuntiriladi, ijtimoiy xizmatchiga katta yoshlilar ustidan shikoyat qilish ham shular jumlasidandir. Bu finlyandiyalik ota-onalarni ularning farzandi - mustaqil shaxs ekanini, ularga so‘z bilan ham, "qamchi" bilan ham ozor yetkazib bo‘lmasligini tushunishga rag‘batlantiradi. Finlandiya mehnat qonunchiligiga ko‘ra, pedagog o‘z kasbidan kelib chiqib o‘quvchini taxqirlashga haqqi yo‘q. Barcha o‘qituvchilar faqat 1 yilga shartnoma imzolashadi, bu muddatni uzaytirish ham, to‘xtatish ham mumkin. O‘qituvchilarga juda yaxshi maosh to‘lanadi: fan o‘qituvchisi - 5000 yevrogacha, yordamchi - 2500 yevrogacha.



2. Bepul

O‘qishning o‘zidan tashqari quyidagilar bepul:

- tushlik;
- ekskursiyalar, muzeylar va sinfdan tashqari har qanday faoliyat;
- bolani uyidan olib ketuvchi va qaytaruvchi transport,

agar eng yaqin maktab 2 kilometrdan uzoqda bo‘lsa;

- o‘quv darsliklari, barcha o‘quv qurollari, kalkulyatorlar va hatto planshet-noutbuklar.

Har qanday maqsadlar uchun ota-onalardan pul yig‘ish taqiqlanadi.

3. Individuallik

Har bir bola uchun individual ta‘lim va rivojlanish rejasi tuziladi. Individuallik o‘quvchilar tomonidan foydalanilayotgan darsliklar mazmuni, mashg‘ulotlar, sinf va uy ishlari soni hamda ularga ajratilayotgan vaqt, shuningdek ta‘lim materialiga ham tegishli.

Bir sinfnig o‘zida darsda bolalar turli murakkablikdagi mashqlarni bajarishadi. Baholash tizimi ham personal darajaga muvofiq. Agar "odatiy" mashq a‘lo bahoga bajarilsa, ertasiga yuqoriroq darajali mashq beriladi, mobodo uddasidan chiqa olmasa, hechqisi yo‘q, yana oddiy mashq beriladi.

Finlandiya maktablarida oddiy ta'lim bilan bir qatorda ta'lim jarayonining ikki noyob turi mavjud:

"Bo'shroq" o'quvchilar ta'limini qo'llab-quvvatlovchi — bu boshqa mamlakatlarda repetitorlar bajaradigan ish. Finlyandiyada repetitorlik keng tarqalgan ta'lim usuli hisoblanmaydi, maktab o'quvchilari dars vaqtida yoki undan keyin kerakli o'quvchilarga qo'shimcha yordam ko'rsatishadi.

Korreksion ta'lim — materialni o'zlashtirishdagi umumiy barqaror muammolar bilan bog'liq. Masalan, bu ta'lim olib boriluvchi fin tilini tushunmaslik yoki eslab qolish yo matematik qobiliyatining yaxshi emasligi, yoxud ba'zi bolalarning asotsial xatti-harakatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Korreksion ta'lim kichik guruhlarda yoki individual tarzda o'tkaziladi.



4. Amaliyot

"Yo hayotga tayyorlaymiz, yoki — imtihonlarga. Biz birinchisini tanlaymiz", - deydi finlar. Shuning uchun Finlandiyadagi maktablarda imtihonlar yo'q. Nazorat ishlari va oraliq test sinovlari - o'qituvchining qaroriga qarab belgilanadi. Umumta'lim

maktabini tugallashda faqat birgina majburiy standart test o'tkaziladi. Shunisi diqqatga sazovorki, o'qituvchilar uning natijalari uchun alohida qayg'urishmaydi, test natijalari uchun birovning oldida javob ham berishmaydi, bolalar ham unga maxsus tayyorgarlik ko'rishmaydi: boriga baraka.

Finlandiya maktablarida hayotda kerak bo'ladigan bilimlar beriladi. Masalan, biror bir qurilmaning tuzilishi ularga kerak bo'lmaydi, uni o'rganishmaydi ham. U yerdagi bolalar bolalikdan portfolio, shartnoma, bank kartasi nima ekanini yaxshi bilishadi. Merosdan soliq fozini yoki kelgusidagi daromadlarini hisoblay olishadi, internetda tashrif-saytini yarata olishadi va h.k.

5. Ishonch

Birinchidan, maktab xodimlari va o'qituvchilar uchun turli tekshiruvlar yo'q, o'quvchilarga ta'lim berishga doir turli uslublarni o'rgatuvchilar ham

yo‘q. Mamlakatda ta‘lim dasturi yagona, faqat umumiy tavsiyalar bor, xolos. Har bir pedagog o‘zi to‘g‘ri deb bilgan uslubni qo‘llaydi.

Ikkinchidan, bolalarga bo‘lgan ishonch: darslarda o‘quvchi o‘zini qiziqtirgan ish bilan shug‘ullanishi mumkin. Masalan, adabiyot darsida o‘quv filmi namoyish etilayotgan bo‘lsa-yu o‘quvchiga buning qizig‘i bo‘lmasa, u kitob o‘qib o‘tirishi mumkin. O‘quvchi o‘zi uchun nima foydali ekanini o‘zi tanlaydi.

6. Istak-xohish

O‘qishni istagan odam o‘qiydi. Pedagoglar o‘quvchining e‘tiborini qaratishga harakat qilishadi, lekin uning o‘rgatilayotgan fanga qiziqishi yoki qobiliyati bo‘lmasa, darrov "ikki" baho bilan "siylashmaydi", bolani kelgusida uncha murakkab bo‘lmagan, amaliy jihatdan foydali bo‘lgan kasbga yo‘naltirishadi. Hamma ham samolyot ixtiro qilishi shart emas, avtobuslarni ham kimdir boshqarishi kerak-ku, axir!

Bunga ham o‘rta maktabda chora ko‘riladi - muayyan o‘smir litseyda bilimlarini davom ettirishi kerakmi yoki olgan bilimlari yetarli, professional kasb-hunar maktabiga borish kerakdir, ehtimol. Ta‘kidlash joizki, bu ikki yo‘l ham mamlakatda birdek qadrlanadi.

Har bir bolaning u yoki bu faoliyatga moyilligini aniqlash "kelajak o‘qituvchisi" tomonidan test va suhbatlar yo‘li orqali amalga oshiriladi.

Umuman olganda, Finlandiya maktabida ta‘lim jarayoni yumshoq, biroq bu maktabni jiddiy qabul qilmasa ham bo‘ladi, degani emas. Maktab rejimiga rioya qilish majburiy. Barcha o‘tkazib yuborilgan darslarda qayta o‘tirishga to‘g‘ri keladi. Masalan, o‘qituvchi 6-sinf o‘quvchisi uchun o‘z jadvalidan "bo‘sh soat"ni belgilaydi yoki 2-sinfning darsiga kirib o‘tiradi. Dars qiladimi, zerikib o‘tiradimi, o‘ziga havola. Kichik yoshlilarga xalaqit bersa, bu hisobga o‘tmaydi, yana boshqa soatda qayta o‘tirishga to‘g‘ri keladi.

O‘qituvchi bergan vazifani bajarmagan, darsda ishlamagan bolaning ota-onasi maktabga chaqirtirilmaydi, tanbeh ham berilmaydi, aqliy qoloqlikda ayblanmaydi ham. Agar ota-ona ham farzandining bunday xatti-harakatlariga befarq qarasa, bola shunchaki keyingi sinfga o‘tmaydi.

Finlandiyada bir sinfdan ikkinchi yilga qolish uyat hisoblanmaydi, ayniqsa 9-sinfdan keyin. Katta hayotga jiddiy tayyorgarlik ko‘rish lozim, shuning uchun fin maktablarida qo‘shimcha (majburiy emas) 10-sinf bor.



7. Mustaqillik

Finyandiyada maktab bolani eng asosiysi - mustaqil muvaffaqiyatli hayotga o'rgatishi kerak deya hisoblanadi. Shu bois u yerda fikr yuritish va o'z xohishiga ko'ra bilim olishga o'rgatiladi. O'qituvchi yangi mavzularni so'zlab o'tirmaydi - barchasi kitobda bor. Yod olingan formulalar emas, ma'lumotnomadan, matndan, internetdan, kalkulyatordan foydalanish - joriy muammolar yechimini topish uchun kerakli resurslarni jalb qilishni bilish muhim.

Shuningdek, maktabdagi pedagoglar o'quvchilar o'rtasidagi mojarolarga ham aralashishmaydi, ularga hayotiy vaziyatlarga mustaqil tayyorlanish va o'zlari uchun javob berish mas'uliyatini rivojlantirish imkoni beriladi.

Finyandiya maktablari bir xil bo'lsa-da, ulardagi o'quv jarayonlari turlicha tashkil qilingan.

Qachon va qancha vaqt o'qiladi?

Finyandiyada o'quv yili avgustda boshlanadi, ya'ni 8 avgustdan 16 avgustgacha, yagona kun yo'q. O'quv yili may oyi oxirida yakunlanadi. Kuzgi yarim yillikda 3-4 kunlik ta'til bor, shuningdek Rojdestvo munosabati bilan 2 haftalik ta'til beriladi. Bahorgi yarim yillik fevral oyidagi "chang'i" ta'tilini ham o'z ichiga oladi, bunda fin oilalari, qoidaga ko'ra, oilaviy chang'i uchishga borishadi. Bundan tashqari, bahorgi yarim yillikda Pasxa ta'tili ham bor.

Ta'lim - besh kunlik, faqat kunduzgi smenada. Juma - qisqartirilgan kun.

Nima o'rganiladi?

1–2 sinf:

Ona (fin) tili va o'qish, matematika, tabiat, din (e'tiqodiga qarab) yoki hayotiy tushunchalar (dinga qiziqmaydiganlar uchun), musiqa, tasviriy san'at, mehnat va jismoniy tarbiya. Bir darsda biryo'la bir necha fan o'tilishi mumkin.

3–6 sinflar:

Ingliz tili o'rgatila boshlanadi. 4-sinfda - tanlov asosida yana bir chet tili: fransuz, shved, nemis yoki rus tillari. Qo'shimcha fanlar kiritiladi (tanlov asosida, har bir maktabda har xil): klaviaturada ishlash tezligi, kompyuter

bilimlari, daraxt bilan ishlash, xor ijrosi. Deyarli barcha maktablarda musiqiy asboblarda o'ynashni o'rgatishadi, bolalar 9 yillik ta'lim davomida barcha musiqiy asboblarda o'ynashni mashq qilib ko'rishadi.

5-sinfda biologiya, geografiya, fizika, kimyo va tarix qo'shiladi. 1-sinf dan 6-sinfgacha deyarli barcha fanlardan bir o'qituvchi kiradi. Jismoniy tarbiya darsi haftada 1-3 marta istalgan sport o'yini shaklida o'tadi (maktabning tanlovi asosida). Darsdan keyin dush qabul qilish majburiy. Adabiyot bizning tushunchamizdagidek o'qitilmaydi, bu ko'proq shunchaki o'qishni eslatadi.

Fan o'qituvchilari faqat 7-sinf dan kira boshlaydi.



7–9 sinflar:

Fin tili va adabiyoti (o'qish, o'lka madaniyati), shved, ingliz tili, matematika, biologiya, geografiya, fizika, kimyo, salomatlik asoslari, din (yoki hayotiy tushunchala musiqa, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, tanlov asosidagi fanlar va mehnat (o'g'il va qiz bolalar ajratilmaydi). Barcha birdek sho'rva tayyorlashni va arralashni o'rganadi. 9-sinfda ikki hafta davomida "mehnat hayoti" bilan tanishiladi. Bolalar o'zlari uchun istagan "ishchi o'rni"ni topib, katta ishtiyoq bilan "ishga" borishadi.

Baho kimga kerak?

Mamlakatda 10 ballik tizim qabul qilingan, ammo 7-sinfgacha faqat so'zda baho qo'yiladi: o'rtadan pastroq, qoniqarli, yaxshi, a'lo. 1-3 sinflarda umuman hech qanday ko'rinishdagi baholar yo'q.

Finyandiyada barcha maktablar «Wilma» davlat elektron tizimiga ulangan, bu elektron maktab kundaligidek gap, har bir ota-ona unga kirish uchun shaxsiy kodga ega. Pedagoglar baho qo'yib, davomatni belgilab, bolaning maktabdagi hayoti haqida xabar berib borishadi; shuningdek psixolog, ijtimoiy xizmatchi, "kelajak o'qituvchisi", feldsher ham u yerda kerakli ma'lumotni qoldiradi.

Fin maktablarida baholar xavotir uyg'otmaydi, ular faqat o'quvchining o'zi uchun kerak, qo'yilgan maqsadga erishishda bolaga motivatsiya berish va

o'zini tekshirish uchun qo'llaniladi. Baholar o'qituvchi, maktab nufuziga ta'sir ko'rsatmaydi va hech qanday ko'rsatkichlarini buzmaydi.



Maktab hayotiga doir boshqa tafsilotlar

Maktablar hududi o'ralmagan, kiraverishda qo'riqchilar yo'q. Aksariyat maktablarning kirish darvozasi avtomatik tizimga ega, binoga darslar jadvali asosida kirish mumkin.

Darsda bolalar parta va stolda o'tirishi shart emas, polda (gilamda) o'tirish ham mumkin. Ba'zi maktablarda sinflar divan va kreslolar bilan jihozlangan. Kichik maktab inshooti gilamchalar bilan ta'minlangan.

Forma yo'q, kiyimga nisbatan qandaydir talablar ham yo'q, istagan kiyimda kelish mumkin. Almashtirish uchun qo'shimcha poyabzal talab qilinadi, lekin kichik va o'rta zvenodagi bolalar paypoqda yurishni ma'qul ko'rishadi.

Iliq havoda darslar ko'pincha ochiq havoda maktab oldida, maysalar ustida yoki maxsus jihozlangan qatorlarda o'tkaziladi. Tanaffus vaqtida kichik maktab o'quvchilari albatta ko'chaga olib chiqiladi.

Uy vazifalari kamdan-kam beriladi. Bolalar dam olishlari kerak. Ota-onalar bolalar bilan dars qilishga majbur emas, buning o'rniga pedagoglar muzey, o'rmon yoki suzish havzasiga oilaviy borishni tavsiya qilishadi.

"Doska oldida" o'qitish usuli qo'llanmaydi, bolalar materialni so'zlab berish uchun doska oldiga chaqirilmaydi. O'qituvchi darsga umumiy tus beradi, so'ngra o'quvchilar orasida yurib, ularga vazifalarni bajarishga yordam



beradi va jarayonni nazorat qiladi. O'qituvchining yordamchisi (fin maktablarida o'qituvchi yordamchilari ham bo'ladi) ham xuddi shu ish bilan band bo'ladi.

Daftarga qalam bilan yozish va qancha xohlasa, shuncha o'chirish mumkin. O'qituvchi ham vazifani qalamda tekshirishi mumkin.

Finlyandiya maktablaridagi ta'lim tizimi qisqa satrlarda mana shunday. Ehtimol, u kimgadir noto'g'ridek tuyulishi mumkin. Finlar mukammallikka da'vogarlik qilishmaydi va erishilgan yutuqlar bilan cheklanib qolishmaydi, hatto eng yaxshi tizimda ham kamchiliklar bo'lishi mumkin. Ular mamlakatdagi maktab tizimi jamiyatdagi o'zgarishlarga qanchalik to'g'ri kelishini doimiy ravishda tadqiq qilishadi.

Shunisi quvonarliki, finlarning farzandlari tunda asabiy zo'riqishdan uyg'onmaydi, tezroq katta bo'lishni orzu qilmaydi, ularda maktabga nisbatan nafrat yo'q, o'quvchilar navbatdagi imtihonlarga tayyorlanib, o'zlari va butun oila a'zolarini qiynamaydi. Xotirjam, sermulo-haza va baxtli fin bolalari kitoblar mutolaa qilishadi, tarjimasiz (original tilda) filmlar ko'rishadi, kompyuter o'yinlari o'ynashadi, rolik va velosipedlarda uchishadi, musiqa va teatr pesalari yaratishadi, qo'shiq kuylashadi. Ular hayotdan quvonib yashashadi va buning orasida ta'lim olishga ham ulgurishadi.

SINGAPURDA TA'LIM TIZIMI



Xorijda tahsil olish istagidagi yoshlarning ko'pi Yevropa davlatlaridan birida o'qishni orzu qiladi. Ammo sifatli ta'lim olish uchun Osiyo mamlakatlarini tanlaydiganlar ham oz emas. Ayniqsa, o'qitish darajasi bo'yicha dunyoda yetakchilar qatorida

turadigan Singapurdagi ta'lim muassasalari xorijlik talabalarni hamisha o'ziga chorlab kelgan. Boisi, u nafaqat to'kis, farovon hayot kechirish, balki sifatli va arzon ta'lim olish uchun ham eng qulay mamlakatlardan biri sanaladi.

Singapur ta'limining o'ziga xosliklari bisyor. Ulardan biri — mamlakatda o'qitish jarayoni xitoy tili bilan birga, ingliz tilida olib boriladi. Bir paytlar Singapur sobiq bosh vaziri Li Kuan Yu mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashishi oson kechishi uchun kundalik muloqotda ingliz tilidan keng foydalanishni taklif etgan.

Singapur XX asrgacha Buyuk Britaniya mustamlakasi bo'lib, 1959-yildagina mustaqilligini qo'lga kiritdi. O'sha kezlari aholining 95 foizini xitoy,

hind va malay xalqlari tashkil etgani bois darslar ularning ona tilida o‘tilgan. Ingliz tilida esa faqat yevropaliklar so‘zlashgan. Bunday vaziyatda yangi jamiyatni shakllantirish uchun, avvalo, yangi ta’lim tizimini joriy etish zarur edi. Natijada Singapur ta’limi bugungi kunga qadar 3 bosqichni bosib o‘tdi. Birinchi bosqich — 1959–1979-yillarda barcha ta’lim dasturlari standartlashtirildi. Maktablarda o‘qitish uchun asosiy til etib ingliz tili tanlandi. Shu yillari ta’limni rivojlantirish dasturi doirasida 83 ta maktab qurilib, davlat tomonidan moliyalashtirildi. Oliy ta’limni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi.

1979-yildan 1997-yilga qadar davom etgan ikkinchi bosqichda esa ta’lim sifatini oshirishga urg‘u berildi. Maktablarda sinflar bolalarning qobiliyatiga ko‘ra ixtisoslana boshladi. 1992-yili texnik ta’lim instituti tashkil etilib, maktablarda maxsus texnik ta’lim joriy qilindi.

1997-yildan ta’lim tizimidagi mavjud imkoniyatlarni “pullash” bosqichi boshlandi. Ko‘proq mablag‘ evaziga yaxshiroq ta’lim olish imkoniyati yaratildi. Shuningdek, 2008-yildan maktablardagi ommaviy ta’lim bekor qilinib, fuqarolar butun hayoti davomida olishi mumkin bo‘lgan individual ta’lim dasturlariga yo‘l ochildi. Oliy o‘quv yurti talabalari uchun o‘qish pulini to‘liq qoplaydigan “Edusave” ta’lim grantlari tizimi joriy etildi. Bir so‘z bilan aytganda, mamlakatda do‘stona ta’lim (ingliz va xitoy tillarida o‘qitish), yosh avlodga puxta bilim berish, aholining barcha qatlami uchun davlat tomonidan kafolatlangan ta’limni joriy etish hamda har bir o‘quvchiga alohida e’tibor qaratish kabi omillar asosida Singapurda zamonaviy ta’lim tizimi shakllantirildi.

Ayni paytda Singapur ta’lim tizimi uch bosqich — maktabgacha, umumiy o‘rta va oliy ta’limdan iborat. Bog‘chaga bolalar 3 yoshdan qabul qilinadi. Ikki-uch yil davomida ularga ona tili va ingliz tili, o‘qish, sanash, kuylash, rasm chizish, raqs tushish kabilar o‘rgatiladi. Singapurda davlatga qarashli bog‘chalar yo‘q. Maktabgacha ta’lim muassasalarining barchasi xususiy bo‘lib, ayrimlarigina diniy tashkilot yoki jamg‘armalar tomonidan boshqariladi.

Zamonaviy Singapurda ta’lim siyosati mamlakatning asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Barcha o‘quv muassasalari Xalq ta’limi vazirligi tasarrufida. Vazirlik davlat maktablarining rivojlanish va boshqaruv jarayonini nazorat

qilish bilan birga, xususiy maktablarga ham tavsiya beruvchi va nazoratchi vazifasini bajaradi. Ammo o'quv dasturini tanlash erkinligi, o'quvchilarni qabul qilish tartibi hamda davlat ajratadigan moliyaviy yordamga ko'ra davlat o'quv muassasalari va xususiy maktablar bir-biridan farq qiladi.

Singapurda davlat maktablariga katta e'tibor qaratilgani bois ular ta'lim sifati va zamonaviylik borasida xususiy maktablardan sira qolishmaydi. Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakat budjetining 20 foizi ta'limni rivojlantirishga sarflanadi. Shu bois mahalliy aholi xususiy maktablarga ko'p ham qiziqavermaydi, aksincha, farzandini barcha sharoitlarga ega davlat maktablarida o'qitishni afzal ko'radi.

Mamlakatda o'rta ta'lim tizimi maktab, texnikum va kollejlarni o'z ichiga oladi. 2000-yili Singapur parlamenti maktab yoshidagi bolalar uchun majburiy ta'lim haqidagi qonunni qabul qildi. Unga ko'ra mamlakatning barcha fuqarolari uchun boshlang'ich ta'lim bepul va majburiy etib belgilandi.

Maktabga bolalar 6 yoshdan qabul qilinadi. O'rta ta'lim boshlang'ich, o'rta va universitetoldi ta'lim bosqichlariga bo'linadi. Boshlang'ich ta'lim 4 yillik fundamental tayyorlov (1–4-sinflar) hamda 2 yillik ixtisoslashtirilgan tayyorlov (5–6-sinf)ni o'z ichiga oladi. Fundamental tayyorlov bosqichida o'quvchilarga ingliz tili, ona tili (xitoy, malay yoki tamil) va matematika fanlari o'qitiladi. O'g'il-qizlarning tanloviga ko'ra etika, estetika, mehnat, musiqa va jismoniy tarbiya darslari ham o'tiladi. 3-sinfdan o'quv dasturiga tabiiy-ilmiy fanlar qo'shiladi. Bolalar 4 yillik ta'limdan so'ng ixtisoslashtirilgan tayyorlov bosqichiga o'tgach, ona tili, ingliz tili va matematikani o'rganish qobiliyatiga ko'ra guruhlariga ajratiladi. Maktablarda o'quvchilarga shaxsiy imtihon topshirish tizimini ishlab chiqish imkoniyati berilgan. Bu har bir bolaning o'z qobiliyatini yanada yaxshiroq namoyon etishini ta'minlaydi. Imtihonlar yakunida bolalar iqtidoriga ko'ra ingliz va ona tilidan boshlang'ich, standart hamda yuqori daraja, matematika va tabiiy fanlardan dastlabki va standart darajalardan birini oladi. O'qish so'ngida o'quvchilar bitiruv imtihonini topshiradi va ta'limning keyingi bosqichiga o'tish uchun PSLE (Primary School Leaving Examination) shahodatnomasiga ega bo'ladi.

O'quvchilar imtihon natijalari asosida o'rta maktabning maxsus (4 yil), texnik (4 yil), ekspress (4 yil), akademik (5 yil) yoki integrallashgan (5-6 yil)

kurslaridan biriga qabul qilinadi. Tabiiyki, har bir yoʻnalish oʻzaro farq qiladi. Maxsus va ekspress yoʻnalishlar 4 yillik taʼlim kurslarini oʻz ichiga olib, ularda asosan ona tili fani chuqurlashtirilgan holda oʻqitiladi. Oʻquvchi unga qoʻshimcha tarzda biror chet (fransuz, nemis yoki yapon) tilini oʻrganishi mumkin. Maxsus va ekspress kurslarni tamomlagan oʻquvchilar 2 yillik kollejlarga oʻqishga kirishi mumkin.

Toʻrt yillik standart kursini tamomlaganlar bitiruv imtihonidan oʻtgach, N-daraja(Normal level)ni oladi. Soʻng ixtiyoriy tarzda yana bir yil oʻqib, keyingi — O-darajani olish uchun imtihon topshirishi mumkin. Singapur xalq taʼlimi vazirligining 2004-yildagi buyrugʻiga koʻra, standart yoʻnalish boʻyicha tahsil oladigan oʻquvchilar orasidan tanlangan iqtidorli oʻgʻil-qizlar dastlabki N-darajani olmay turib ham O-daraja uchun imtihon topshirishi mumkin.

Singapur taʼlimining yana bir oʻziga xosligi noodatiy baholash tizimidir. Aksariyat taʼlim muassasalarida oʻquvchilarning oʻzlashtirish darajasi toʻqqiz ballik — A1 — (eng yuqori), F9 — (eng past) baholash mezonlari asosida oʻlchanadi. Bunda A1/A2 (aʼlo), B3/B4 (yaxshi), C5/C6 (qoniqarli), D7 (fanni oʻzlashtirganlik uchun eng kam ball) hamda E8/F9 (qoniqarsiz) hisoblanadi. Maktablarda yakuniy reyting natijalari toʻplangan ballar asosida belgilanadi.

Singapurda eng iqtidorli oʻquvchilar integrallashgan taʼlim dasturi(Integrated Programme, IP)ni egallashi mumkin. Bunda mamlakatdagi sara maktablar oʻquvchilariga O-daraja sinovlaridan oʻtmay turib, 6 yillik oʻrta taʼlimni tamomlagani zahoti A-darajani olish uchun imtihon topshirish imkoniyati beriladi. Bu oʻquvchilarning boʻsh vaqti koʻproq qolishi hamda bu paytda oʻzi tanlagan fanlarni chuqurroq oʻrganishiga yoʻl ochadi.

Maktabni tamomlagach, oʻquvchilar kollejga kirishi mumkin. Kollej bitiruvchilari A-daraja sertifikatini olish uchun imtihon topshiradi. Texnik taʼlim olish istagidagilar esa oʻqishni 3 yillik politexnikum yoki 1-2 yillik texnik taʼlim institutlarida davom ettiradi. Universitetoldi taʼlimi esa oʻquvchilarni oliy oʻquv yurtlariga kirishga tayyorlaydi.

Singapur oliy taʼlimi dunyoda yetakchilardan sanaladi. Mamlakatda 5 institut, 4 universitet boʻlib, ularning har birida oliy darajada taʼlim olish kafolatlangan. Shuningdek, mamlakatda 2 ta xususiy universitet hamda bir qancha jahonga mashhur oliy oʻquv yurtlarining filiallari mavjud.

Davlat OTMLari va xususiy universitetlarda o'qitish jarayoni ham Xalq ta'limi vazirligi nazoratida. Mamlakatdagi eng mashhur oliy o'quv yurtlari Singapur milliy universiteti hamda Nanyan texnologiyalar universiteti bo'lib, ularning har biri yiliga 20 mingdan ortiq talabani qabul qilish imkoniyatiga ega.

Mamlakatda oliy ta'lim tizimi bakalavriat (3–4 yil), magistratura (1–3 yil) va doktorantura (2–5 yil) bosqichidan iborat. Oliy ta'lim muassasalarida o'qish ingliz va xitoy tillarida olib boriladi. Universitetlarga abituriyentlar imtihon asosida qabul qilinadi, so'ng ularga xalqaro standartlar asosida ta'lim beriladi. Talaba universitetda o'qish bilan birga, ta'lim muassasasi qoshida tashkil etilgan tadqiqot markazlarida ilmiy izlanish olib borishi va qator fanlar bo'yicha ilmiy daraja olishi mumkin. Singapur universitetlari tomonidan berilgan diplom butun dunyoda amal qiladi.

Oliy ta'lim uchun to'lanadigan shartnoma puli Buyuk Britaniya, AQSh yoki Avstraliya bilan solishtirganda, Singapurda bir necha barobar arzon. Ammo bu yerda beriladigan ta'lim sifati hech bir Yevropa mamlakatidan qolishmaydi. Shuning uchun ham Singapurdagi ta'lim muassasalari doim xorijlik yoshlar bilan gavjum.

Oliy ta'limni Singapurda davom ettirish ko'pchilik o'ylaganidek murakkab emas. Buning uchun ingliz tilini chuqur bilish lozim. Shuningdek, Singapur universitetlaridan birida o'qish istagidagi xorijlik abituriyentlardan boshlang'ich va o'rta ta'lim olganligi to'g'risida shahodatnoma yoki diplom, ingliz tili bo'yicha bilimni tasdiqlovchi IELTS yoki TOEFL sertifikat talab etiladi. Sertifikat bo'lmasa, uni olish uchun abituriyent Singapurdagi til o'rgatuvchi maktablardan birida o'qishi mumkin.

Singapur talabalarga ta'lim grantlarini berishda ham ancha saxiy. Bu yerda istalgan iqtidorli talaba ta'lim stipendiyasi yoki grantini olishga da'vogarlik qilishi mumkin. Grantlar davlat, o'quv muassasalari yoki ish beruvchilar tomonidan moliyalashtiriladi. Ularni qo'lga kiritgan talabalarga ajratiladigan to'lov summasi o'qish xarajatlarini to'liq qoplaydi.

Mamlakatdagi deyarli barcha oliy o'quv yurtlari o'z stipendiyali dasturiga ega. Qo'shimcha pullar ko'pincha ixtisoslashgan yo'nalish talabalariga ajratiladi. Ayrim yirik korxona va korporatsiyalar o'zlarini qiziqtirgan mutaxassislarning shartnoma pulini to'lash orqali bo'lg'usi xodimlarini

tayyorlaydi. Buning uchun talaba va korxona o'rtasida kelishuv imzolanadi. Unga ko'ra, talaba o'qishni tamomlagach, o'sha tashkilotda bir necha yil ishlab berish majburiyatini zimmasiga oladi. Zero, Singapurdagi eng nufuzli oliy o'quv yurtlaridan birini tamomlagan talaba yetuk kadr sifatida har qanday tashkilotni qiziqtirishi tabiiy.



Diqqat qiling!

1. Har bir davlat ta'lim tizimidagi o'ziga xos jihatlarni yozing.

Ta'lim tizimlari afzalliklari		
Yaponiya	Singapur	Finlandiya

2. Test topshiriqlarini bajaring.

1. Materialni o'zlashtirishdagi umumiy barqaror muammolar bilan bog'liq. Kichik guruhlarda yoki individual tarzda o'tkaziladigan ta'limni aniqlang?

A. Korrektsion ta'lim

- B. Individual ta'lim
- C. Inklyuziv ta'lim
- D. To'g'ri javob yo'q

2. A1 — (eng yuqori), F9 — (eng past) baholash mezonlari asosida baholanadigan davlatni toping?

- A. Finlandiya
- B. Singapur
- C. Yaponiya
- D. Koreya

3. Finlarning farzand tarbiyasida e'tibor qaratish kerak bo'lgan jihatlarining qaysi biri noto'g'ri.

- A. Kichkintoylar va hatto ba'zi kattalar uchun maktabgacha yoshdagi bolangizga yotishdan oldin ertak o'qish;
- B. Har kecha uy vazifasini tekshirib, kuni qanday o'tganini so'rash;
- C. Uchrashuvlar va tashriflar paytida o'qituvchilar bilan farzandingizning yutuqlarini muhokama qilish;
- D. Bolani umuman cheklamaslik, barcha ehtiyojlarini qondirish.

4. Tarbiyaning tabiatga mos bo'lishi haqida ta'limotida Y.A.Komenskiy tarbiyaning qaysi vazifalarini aytib o'tadi.

- A. O'zini va tevarak-atrofdagi olamni bilish (aqliy);
- B. O'z-o'zini boshqarish (axloqiy);
- C. Xudoni tanishga intilish (diniy tarbiya).
- D. Barcha javoblar to'g'ri

5. 5 yoshgacha bo'lgan kichkintoyga qiroldan muomala qilishadi. Bu qaysi davlatning bola tarbiyasida ilgari suradigan jihatlaridan biri hisoblanadi.

- A. Koreya
- B. Finlandiya
- C. Yaponiya
- D. Singapur

6. Bu davlatning universitetlaridan birida o'qish istagidagi xorijlik abituriyentlardan boshlang'ich va o'rta ta'lim olganligi to'g'risida shahodatnoma yoki diplom, ingliz tili bo'yicha bilimni tasdiqlovchi

IELTS yoki TOEFL sertifikati talab etiladi. Qaysi davlat ta'lim tizimi haqida fikr yuritilgan.

- A. Koreya
- B. Finlandiya
- C. Yaponiya
- D. Singapur

7. Qaysi davlatda 8-sinfdan boshlab o'quvchilarga «Bolalar haqida» degan fan o'tiladi. Ular oila qurish, homiladorlik, undan saqlanish yo'llari, jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklar, bola tarbiyasi va balog'at yoshida o'smirlar bilishi zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

- A. Koreya
- B. Finlandiya
- C. Shvetsiya
- D. Singapur

8. Singapur ta'lim tizimiga xos bo'lmagan noto'g'ri mulohazani toping?

- A. Qat'iy imtihonlar mavjud.
- B. Oliy ta'limga kirish uchun IELTS yoki TOEFL sertifikati talab etiladi.
- C. PSLE (Primary School Leaving Examination) shahodatnomasi beriladi.
- D. Bolaning mustaqil ta'lim olishiga asoslaniladi.

9. Bola tarbiyasida 5 ta asosiy tarbiya tizimiga amal qiladigan davlatni aniqlang?

- A. Koreya
- B. Finlandiya
- C. Yaponiya
- D. Singapur

10. Yoshlar hisob-kitob ilmini bilish bilan birga, an'anaviy qilichbozlik san'atini ham yaxshi egallashlari kerak deb hisoblagan olimni aniqlang?

- A. J.Lokk
- B. Arastu
- C. Amir Temur
- D. P.Kapnist



Mavzu yuzasidan savollar

1. Qanaqa jahon tarbiyaviy konsepsiyalar mavjud?
2. Jahon mamlakatlaridagi uzluksiz ma'naviy tarbiya haqida gapirib bering.
3. Finlandiya ta'limining o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuriting.
4. Singapur, Finlandiya, Yaponiya ta'lim tizimlarini solishtiring, ularning avzallik jihatlarini sanab o'ting.
5. O'zbekistonda qanaqa tarbiya usullaridan foydalaniladi, misollar orqali mulohaza yuriting.
6. Jahon ta'lim tizimlarining ilg'or xususiyatlari borasida muhokama o'tkazing.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://www.infofinland.fi/en/family>
2. Azizxodjaeva N. N. O'quv jarayonining samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalar. – T.: 2007. – 14 – 23 bet.
3. Abduqodirov A. A., Hayitov A. G'., Shodiyev A. A. Axborot texnologiyalari. — Toshkent, 2004. — 76 b.

GLASSARIY

Tarbiya — Tarbiya insonning jamiyatda shaxs sifatida ta'minlaydigan qadimiy, abadiy va o'ziga xos qadriyatdir. Kishilik jamiyati, insonlar ham tarbiyasiz alohida mavjud bo'lolmaydi. Chunki qadriyatlar inson va jamiyatning mavjud ekanligi, tarbiya tufayligina avloddan avlodga o'tadi.

Tarbiya — ta'limning bir bo'g'ini sifatida kasb, hunar, odob-axloq o'rgatishga qaratilgan bo'lib, umuman kishining ma'naviy va g'oyaviy qiyofasini shakllantiradi.

Kolloboratsiya—darsliklar o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarda hamkorlik qilish, samarali fikr almashish, o'zaro qo'llab-quvvatlash, jamoa bilan ishlash, uning har bir a'zosini hurmat qilish, fikrini inobatga olish ko'nikmalarini shakllanishiga yordam beradi.

Kommunikativlik bu o'quvchilar o'z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga, o'z fikrini bemalol, dadil, o'ziga ishongan holda burro ifodalashga, jamiyatda to'g'ri so'zlash, har qanday vaziyatda muloqot imkoniyatlaridan foydalanib, chiroyli so'zlarni qo'llash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Kreativ fikrlash—o'z maqsadiga erishish yo'lida yangiliklarga qo'l urish, noodatiy qarorlar qabul qilish, ixtirochilik ko'nikmalarini o'rgatish, kreativlik (lot., ing. "create" — yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) — shaxsning yangi g'oyalarni ishlab chiqishga tayyorligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma'nosini ifodalaydi.

Kritik fikrlash — ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Fanni o'qitish metodikasi — ta'lim tizimida ushbu o'quv fanining ahamiyati va o'rnini belgilaydi, uning vazifalari, o'qitish mazmuni va hajmini

aniqlaydi, ushbu fan bo'yicha qo'llanilayotgan usul, shakl va vositalarini o'z ichiga oladi.

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga kelajak avlodni ma'naviy yuksak fazilatlar egasi qilib tarbiyalashda innovatsion tarbiya texnologiyalarini, qonuniyatlarini, jahon tarbiya konsepsiyalari namunalarining qiyosiy tahlilini, ta'lim muassasalarida tarbiya fanini o'qitishning shakl, metod va vositalarini o'rgatishdan iborat.

Fanning vazifalari- talabalarga tarbiya fanini o'qitishning nazariy asoslari haqida bilim berish; tarbiya fanini o'qitish ijtimoiy zarurat sifatida ilmiy-amaliy asoslash, fanni o'qitishda innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning sifat samaradorligini oshirishga doir bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Ta'lim tizimi-davlat ta'lim standartlari, ta'lim talablari, o'quv rejalari va o'quv dasturlari va ularni amalga oshiruvchi ta'lim tashkilotlari, ta'lim sifatini baholashni amalga oshiruvchi tashkilotlar, ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar, ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari, shuningdek, ularning tasarrufidagi tashkilotlarni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga

Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan.

Konsepsiyaning maqsadi — yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarni yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirishdan iborat.

Oliy ta'lim-bakalavriat ta'limiy o'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlashini ta'minlaydi. Oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlash oliy ta'lim tashkilotlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar) amalga oshiriladi.

Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, o'qish davomiyligi kamida 3 yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda davlat buyurtmasi yoki to'lovshartnoma asosida davomiyligi kamida 2 yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

Professional ta'lim boshlang'ich professional ta'lim, o'rta professional ta'lim va o'rta maxsus professional ta'lim darajalariga ajratiladi

Magistratura-aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta'lim muddati kamida 1 yil davom etadigan oliy ta'lim bo'lib, magistraturadagi tahsil yakuniy klassifikatsion davlat attestatsiyasiga muvofiq olib boriladi.

Masofaviy ta'lim-o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan.

Dual ta'lim- ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi. Dual ta'lim amaliyot va nazariyani bog'lovchi ta'lim olish shakli bo'lib, korxona, tashkilotlar o'rtasida o'zaro hamkorlikni ta'minlab beradi.

Oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish- davlat tegishli dasturlarga asosan bolalarning mustaqil hamda oilada ta'lim olishlarini qo'llab-quvatlaydi. Mustaqil ta'lim olish uchun uslubiy va maslahat bergan holda, oilada mustaqil ta'lim olishga va buni tartibini belgilashga ko'maklashadi.

Inklyuziv ta'lim-ta'lim muasssalarida imkoniyati cheklangan jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan.

Eksternat tartibidagi ta'lim-mustaqil ta'lim olishga qaratilgan bo'lib, o'quv dasturlarini mustaqil tartibda o'zlashtirish imkoniyati bo'lib, ta'lim olish yakunida ta'lim oluvchilardan davlat ta'lim muassasalarida yakuniy va davlat attestatsiyalaridan o'tishlari kerak bo'ladi.

Mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash-ularning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, davlat oliy ta'lim, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari hamda ularning filiallari Prezident yoki Hukumat qarorlari bilan tashkil etilib, qonunchilikka muvofiq belgilanadi.

Qadriyatlar-inson uchun ahamiyatli bo'lgan millat manfaatlarini yo'lida xizmat qiladigan erkinlik, ijtimoiy adolat, tenglik, haqiqat, ma'rifat, go'zallik, yaxshilik, halollik, burchga sodiqlik singari fazilatlarni o'zida mujassamlashtiradi.

An'ana —bu o'ziga xos ijtimoiy hodisa bo'lib, kishilarning ongida, hayotida o'z o'rnini topgan, avloddan-avlodga o'tadigan, takrorlanadigan, hayotning barcha sohalarida (umum yoki ma'lum guruh tomonidan) qabul qilingan tartib va qoidalardir.

Milliy qadriyatlar-ma'lum bir millat, xalq va yelatlarning o'z tarixiy taraqqiyotida yaratadigan barcha moddiy va madaniy (ma'naviy) boyliklari yig'indisidan iboratdir.

Odat („urf-odat“) — kishilarning turmushiga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari.

Umuminsoniy qadriyatlar. Odamzodning yashashi, umrguzaronligi, farzandlari hayotining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy, ma'naviy va axloqiy sohalariga taalluqli bo'lgan umumjamiyat miqyosidagi qadriyatlar butun insoniyat va jamiyatga tegishli bo'lganidan umuminsoniy qadriyatlar deb ataladi.

Axloq-inson hayotida o'z-o'zini idora qilish me'yorlarini, boshqalar bilan munosabatda bo'lish madaniyatini, halol ishlab, to'g'ri hayot kechirish mezonlarini o'rgatadi.

Marosim-an'ana va urf-odatning tarkibiy qismi bo'lib, inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik, tantanavor vaziyatda o'tadigan o'zining umumiy qabul qilingan ramziy harakatlariga ega bo'lgan hayotiy tadbir.

Bayramlar – kishilarning xususiy va jamoa bo'lib kechirish sharoitining yig'indisi bo'lgan tarixiy ijtimoiy taraqqiyot jarayonida yuzaga kelgan, o'zida ideallarni, estetik ehtiyojlarni ifodalagan an'analar va urf-odatlarning muayyan shakldagi tantanali ko'rinishi.

Oilaviy munosabatlar — ota-onalar yoki bolaning kamoloti uchun mas'ul bo'lgan shaxslar hamda farzandlar o'rtasida turli yo'nalishlarda tashkil etiluvchi munosabatlardir.

Oila-kishilarning nikoh yoki qon-qarindoshlik rishtalari, umumiy turmush tarzi, axloqiy mas'uliyat hamda o'zaro yordamga asoslanuvchi kichik guruhi.

Mahalla—noyob ijtimoiy tuzilma. U asrlar osha xalqimiz jamoaviy hayotining ajralmas uzviy bo'g'ini sifatida namoyon bo'lib kelgan.

MUNDARIJA

1. Boshlang'ich sinflarda "Tarbiya" fanini o'qitishning ilmiy-huquqiy asoslari
2. Tarbiya fanini o'qitish metodikasining predmeti, maqsadi va uning vazifalari
3. Milliy tarbiya konsepsiyasi
4. Ta'lim-tarbiya jarayonida oila, mahalla va ta'lim muassasasi integratsiyasi
5. Tarbiya jarayonini samaradorligini oshirishda ilg'or xorijiy tajribalar

M. Saidova, G. Idiyeva

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA TARBIYA

Texnik muharrir: R. Ahmedov

Sahifalovchi: M. Uzaqova

Dizayner: A. Poluektova

Bosishga ruxsat etildi: 2024 yil.

Nashriyot bosma tabog‘i –32,3125

Shartli bosma tabog‘i –16,15625. Bichimi 84X108 1/8 Adadi 100

«Poligraf Super Servis» MCHJ150114,

Farg‘ona viloyati, Farg‘ona shahar,

Aviasozlar ko‘chasi

2-A uy.